

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

J. OMONTURDIYEV
A. OMONTURDIYEV

HOZIRGI O'ZBEK
ADABIY TILI

(sodda gap)

To'ldirilgan to'rtinchi nashri

Filologiya fakultetlari bakalavrlari, magistrari va aspirantlari
uchun qo'llanma

Hozirgi o'zbek adabiy tili (qo'llanma)

Universitet Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori,
professor **M.A.Asqarova**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,
professor **D.S.Qulmamatov**,
2- Termiz akademlitsey
o'qituvchisi **N.N.Xudoyorova**

SO'ZBOSHI

Ta'limning samaradorligi, birinchidan, voizning bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bu, o'quv jarayonining qanday tashkil qilinganligi, o'quv moddiy texnik bazasining qay darajada yaratilganligi – o'quv qurollar: darslik, qo'llanma, dastur va har xil ko'rgazmalarning muhayyoligiga bog'liq. Lekin Respublikamizning ko'pgina joylarida o'qitishning mana shu vositalari zamon talabi darajasida ekanligi ilmiy jamoatchilikka ma'lum. Bu kamchiliklar ro'kach qilinib, hozir ham ma'ruzaning “diktovka” shaklidan voz kechilmayotganligi kuzatiladiki, bu, birinchidan, tinglovchining, hatto voizning ham passivlashib ketishiga, faqat konspekt bilan chegaralanib qolishiga, ikkinchidan, diktovkali “ma'ruza” berilgan soatdan to'g'ri foydalana olmay qolishga sabab bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, dars sifatiga putur yetkazmoqda.

“Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonundan kelib chiqib ko'pgina sohalar, jumladan, o'zbek tilshunosligining bo'limlariga doir tuzilgan darslik va qo'llanmalar, ma'ruza matnlari yuqorida qayd qilingan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishga ma'lum darajada imkon beradi.

“Sodda gap”ga bag'ishlangan ushbu qo'llanma o'z tajribalarimizdan tashqari, respublikamizning mashhur olimlari: A.G'.G'ulomov, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, K.Nazarov, I.Rasulov, A.Berdialiyeu kabilarning qo'llanmalari asosida tuzildi.

Bakalavr dasturi hisobga olinib, ma'ruza materiallari qisqartirildi, sodda shaklda bayon etildi, ayrim murakkab o'rinlar soddalashtirildi, xalq og'zaki ijodidan, gazeta va jurnallardan ham misollar tanlandi.

Har bir mavzu reja asosida yoritildi va oxirida shu mavzuning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi xulosalar berib borildi. Talaba ana shularga asoslanib amaliy mashg'ulotlarga hozirlik ko'radi, ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi.

Qo'llanmaning maqsadi voiz bilan tinglovchining mehnatini yengillashtirish, kursni osonlik bilan o'zlashtirish, fanga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni ta'minlashdan iboratdir.

1- mavzu: SINTAKSISGA KIRISH

reja:

1. Sintaksisning o'rganish ob'yekti.
2. Sintaktik birlik haqida ma'lumot.
3. Sintaksisning tilshunoslikning boshqa bo'limlariga munosabati.
4. Xulosa.

Sintaksis – grekcha so'z bo'lib, o'zbekcha – tuzilish, qurilish so'zlari-ga to'g'ri keladi. Terminning ma'nosidan ham anglashilib turibdiki, sintaksis dastavval, bir so'zning emas (bir so'z bilan gap hosil qilish o'z xususiyatiga ega), birdan ortiq mustaqil so'zlarning ma'no va grammatik munosabatidan tashkil topgan qo'shilmalar va ularning turlari, shakllari haqidagi ta'limotdir.

Bunda so'z qo'shilmasi termini, bir tomondan, sintaktik qurilma terminidan ma'lum ma'noda farqlanadi. (Bir so'z bilan ifodalangan gap ham sintaktik qurilma hisoblanadi: *talabaman*, *o'qiyman*), ikkinchi tomondan, tor ma'noda, ya'ni *otquloq* (qo'shma so'z), *Termiz davlat universiteti* (murakkab so'z), *og'a-ini* (juft so'z), *tegirmonga tushsa*, *butun chiqmoq* (frazologik birikma) tipidagi qo'shilmalarga, ya'ni leksik birliklarga, *sen uchun*, *oy kabi*, *dadam bilan* kabi analitik qurilmalarga nisbatan emas, *baland tog'*, *Vatanni sevmog*, *Dashnobodning anori*; *paxta ochildi*, *ukam* – *suvchi* shaklidagi qo'shilmalarga, ya'ni nominativ va predikativ qo'shilmalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Anglashiladiki, sintaksisni o'rganishda, dastavval uning ob'yektini – sintaktik qurilma tushunchasini aniqlab, chegaralab olish muhimdir.

Sintaktik qurilmalar tuzilishiga ko'ra uch turga ajraladi: **bir so'zli**, **ikki so'zli**, **uch so'zli** yoki **ko'p so'zli** qurilmalar.

Bir so'zli qurilmalar bitta mustaqil so'z yoki so'z shaklining o'zi bilan ifodalanadi va asosan, so'z-gap yoki yig'iq (bir so'z bilan ifodalan-gan) nominativ, vokativ, infinitiv gaplarning, shuningdek, *talabaman*, *kelaman* tipidagi bir tarkibli gaplarning materiali bo'lib xizmat qiladi. Bir so'zli sintaktik qurilma morfologik planda ma'lum so'z turkumi hisobla-nadi, boshqa so'zlar kabi ma'no anglatadi. Sintaktik planda – gap va uning ma'lum turi sifatida qaraladi – fikr ifodalaydi. Shuning uchun ham sintaksisda gapga xos belgilarni o'zida saqlovchi bir so'z **sintaktik qurilma** deyiladi va sintaksisning materiali hisoblanadi. Biroq shuni aytish kerakki, bir so'z bilan ifodalangan gap ko'proq sintaktik fonetika-ning o'rganish ob'yektiga kiradi.

Ikki soʻzli sintaktik qurilmaning materialini yo sodda soʻz birikmasi (*Lolaxonning kitobi*), yoki sodda yigʻiq gap (*Lolaxon keldi*) tashkil qiladi.

Koʻp soʻzli sintaktik qurilma yo murakkab soʻz birikmasi (*gʻuj boʻlib turgan yettita xira yulduz*) yoki sodda yoyiq gapni tashkil qiladi (*Lolaxon bugun maktabga keldi*).

Sintaktik qurilmalar mazmun va fikriy tugallik nuqtai nazaridan ikkiga boʻlinadi: **nomustaqil** (*kanalning qazilishi*) va **mustaqil** (*kanal qazildi*) qurilmalar. Birinchi qoʻshilmada fikr tugallanmagan, ikkinchisida fikr tugallangan. Sintaktik qurilmalarning ana shu xususiyati sintaksisning materialini **soʻz birikmasi** va **gap** sintaksisi deb ikki qismga ajratishga sabab boʻladi. Bu ikki xil sintaktik qurilmani farqlashda qoʻshilmada ishtirok etayotgan soʻzlarning miqdori ahamiyatsiz. Masalan, gap bir soʻzdan, soʻz birikmasi birdan ortiq soʻzdan tuzilishi ham mumkin. Bunda qushilma ifodalayotgan vazifa nazarda tutiladi. Soʻz birikmasi fikr ifodalay olmaydi – nominativ – atash vazifasini bajaradi; gap fikr ifodalaydi – kommunikativ – aloqa qilish, bogʻlanish vazifasini bajaradi. Soʻz birikmasi oʻz holicha nutq obʼyektini emas, u birmuncha nafaol holatda boʻlib, gap doirasida harakat qiladi – “gapni kutadi”. Gap nutqning materiali, nutq gaplardan tuziladi. Soʻz birikmasining materiali soʻz, gapning material soʻz va soʻz birikmalaridir.

Demak, **sintaksis** dastlab, nominativ xarakterdagi soʻz qoʻshishni – soʻz birikmasini, ularning turlarini, shakllarini va bu birikishning grammatik-semantik vositalarini, undagi qonuniyatlarni, soʻngra bu qurilmalarning birikib gap hosil qilishini (predikativ qoʻshilishni): gapning mazmun va tuzilishiga koʻra tasnifini, bundan hosil boʻladigan gap turlarini, modellarini oʻrganadi. Shu bilan birga, ogʻzaki nutqda ohang – intonatsiya, yozma nutqda punktuatsiya – tinish belgilari ham sintaksisning oʻrganish obʼjektidir.

Sintaksisning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri uning bogʻlanishli nutqning tekshirishidir. Bogʻlanishli nutqni tushunish uchun uni boʻlaklarga ajrata bilish, uning tarkibiy qismlar oʻrtasidagi har xil munosabatlarini aniqlash talab qilinadi. Sintaksis ustida ishlashning mohiyati ham ana shundadir. Demak, sintez va analiz, yaʼni tarkibiy qismlar asosida butunni idrok qilish va butunni idrok qilish asosida uni tarkibiy qismlarga – boʻlaklarga ajratish sintaksis oʻrganishning asosiy usulidir.

Sintaksis tilshunoslikning boshqa boʻlimlari bilan teng huquqli, ular bilan dialektik munosabatda, ular birisiz biri (leksikologiya fonetikasiz,

morfologi-ya leksikologiyasiz, sintaksis bularning hammasisiz) yashay olmaydi. Tilning sistemaliligi ham ana shunda aniq ko'rinadi.

Sintaksisning fonetika bilan bo'lgan munosabati urg'u va intonatsiya (ohang)da ko'rinadi. Turli xil sintaktik qurilmalarni hosil qilishda asosiy vosita hisoblanadigan urg'u va intonatsiya fonetikaning ham ob'yektidir. Xususan, so'zgap, nominativ, vokativ, infinitiv kabi gaplar ko'proq sintaktik fonetikaning o'rganish ob'yektidir. Sintaksis leksikologiya bilan bog'liq. So'zlarning haqiqiy hayoti gap ichidadir. So'zlar ma'lum bir sintaktik vazifa bajarib kelgandagina, fikr va uning nozik ma'nolarini ifodalashda ishtirok qilgandagina tilda yashay boshlaydi. Masalan, *ter, yosh, qalin, qirq* so'zlarining ma'nolarini gap yoki so'z birikmasidan tashqarida aniqlash mumkin emas. Qiyoslaylik: *Paxta tersang toza ter* (qo'shiqdan). *Barakali mehnat qilib to'kilayotgan marjon-marjon ter o'z samarasini ko'rsatmoqda* (Oybek). *Qirqta bo'lsa qilig'i boshqa* (maqol). *Jun rejasini bajaraman desang, qo'yni o'z vaqtida qirq* (gazetadan). *Ko'cha iflos, lekin suv qalin sepilgan* (Oybek). *Quyosh... qalin daraxtlar uchida o'ynaydi* (Oybek). *Yosh yigit, ko'z yoshi* kabi. Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar haqida ham shuni aytish mumkin. Masalan, *ko'chaga chiqdim* (o'rin), *mehnatga oldim* (evaz), *kitobni o'g'limga oldim* (atash), *pichoq bilan kesdim* (vosita, qurol), *ko'cha bilan keldik* (o'rin, makon), *Zulfiya bilan ketdik* (birgalik), *kechasi bilan yig'lab chiqdi* (payt) va b.

Sintaksis grammatikaning bir bo'limi bo'lgan morfologiya bilan zich bog'liqdir. Chunki morfologik hodisalar ko'p hollarda sintaktik hodisalar bilan juda yaqin munosabatda bo'ladi.

Bir xil hodisaning o'zini ba'zan ham sintaktik, ham morfologik tomondan qarashga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, ko'pgina morfologik guruhlar (kategoriyalar) sintaksisda ham uning o'rganish ob'yekti sifatida zaruriy tarzda takrorlanadi. So'z turkumlarining gap bo'lagi sifatida o'rganilishi, kelishik, egalik, shaxs-son affikslarining ko'makchi, bog'lama kabi yordamchi so'z kategoriyalarining sintaksisdagi vazifasi shular jumlasidandir.

Demak, morfologiyada gapning materiali mavhum holatda bo'ladi. Sintaksis har gal nutq talabiga ko'ra ularni gap ichida "sinab" ko'rib, mosini, keraklisini oladi. V.A.Bogoroditskiy ta'biri bilan aytganda, *"Morfologiya ayrim kategoriyalarning (so'z kategoriyalarining) va ularning formalarining inventaridan iborat, sintaksis esa bu so'z va formalarining hammasini harakatda va hayotda nutq tarkibida ko'rsa-*

tadi”. Morfologik vositalarni sintaksis realizatsiya qiladi (Havola A.G’.G’ulomov, M. A.Asqarovalarning darsliklaridan olindi).

Biroq shuni ham aytish kerakki, soʻz yasalishi, soʻzning morfematik tahlili kabi hodisalar morfologik – morfofonologik hodisa boʻlib, sintaksisda takrorlanmaydi – sintaksis uchun ahamiyatsiz. Yoki sintaksis leksikologiyadagi kabi soʻzlarning maʼnolarini, turlarini tekshirmaydi, balki u grammatik shakllangan soʻzlarning nutq jarayonida oʻzaro turli munosabatlarga kirishishini va bu munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlaydi. Shuningdek, boʻlaklar tartibi va ohang (intonatsiya) kabi hodisalar ham sintaksisda oʻrganiladi.

Xullas, sintaksisning oʻrganish obʼyeksi – material ikki xil: **soʻz birikmasi** va **gap**. Soʻz birikmasi hamda gap bayoniga oʻtishdan avval sintaktik aloqa va munosabatlarining ifodalanish usullari haqida toʻxtalaylik.

2-mavzu: SINTAKTIK ALOQA VA MUNOSABATNING IFODALANISH USULLARI

reja:

- 1. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabat tushunchasi haqida.**
- 2. Sintaktik aloqa vositalari:**
 - a) affikslar: egalik, kelishik, kesimlik, qisman koʻplik va nisbat qoʻshimchalari;**
 - b) yordamchi soʻzlar: bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama, bogʻlamalar.**
- 3. Intonatsiya (ohang).**
- 4. Boʻlaklar tartibi.**
- 5. Xulosa.**

Soʻz birikmasi yoki gap tarkibidagi boʻlaklar oʻz-oʻzidan emas, balki maʼlum bir grammatik vositalar yordami bilan munosabatga kirishadi. Masalan, *dadasini koʻrmoq* birikmasi **affiks** (-ni), *dadasi bilan kelmoq* birikmasi **yordamchi soʻz** (bilan), *Lolaxon magazinda kitob sotadi* gapidagi *kitob sotmoq* birikmasi **soʻz tartibi** (pozitsion), *Bu – yigit* (gap) qoʻshilmasi **ohang** (intonatsiya) vositasida aloqaga kirishgan.

Anglashiladiki, soʻzlar oʻrtasidagi sintaktik aloqa va munosabat: 1) affikslar, 2) yordamchi soʻzlar, 3) soʻz tartibi, 4) intonatsion vositalar bilan ifodalanadi.

Affikslar. Sintaktik aloqa va munosabat ifodalashda asosan, affikslarning uch turi (egalik, kelishik, kesimlik, qisman nisbat va koʻplik qoʻshim-

chalari) faol qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu vositalar **sintaktik formalar** deb ataladi. Masalan, *mening Vatanim* qo'shilmasida sintaktik formalarning ikki turi (kelishik va egalik), *Vatanimni sevaman* qo'shilmasida uch turi (kelishik, egalik va shaxs-son) qo'llanilgan.

Egalik affikslari mansublikni bildiradi, predmetning kimga yoki nimaga qarashli, tegishli ekanligini ko'rsatadi, qaratqichli birikmaning tuzilishida ishtirok etadi, hokim komponentga qo'shilib, tobe komponentning qaratqich (ba'zan belgisiz bo'ladi) kelishigida kelishini talab qiladi – birikma moslashuvli aloqada shakllanadi, atributiv birikmaning bir turini hosil qiladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi* kabi.

Kelishiklar (bosh va qaratqich kelishiklari bundan mustasno) ob'yekt bilan harakat (ot bilan fe'l) o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi, hokim komponent – fe'lning talabiga ko'ra otni ma'lum shaklda boshqarilishini ta'minlaydi va to'ldiruvchili (ob'yekтли) birikmani hosil qiladi: *kitobni o'qimoq, dadasiga aytmoq* kabi.

Tuslovchilar. Sub'yekt bilan uning harakati yoki sub'yekt bilan uning belgisi (belgi keng ma'noda) o'rtasidagi munosabatini bildirib, shaxs-son, zamon kabi ma'nolar ifodalaydi: *akam o'qiydi, men injenerman*.

Demak, tuslovchilar ega bilan kesim munosabatini ko'rsatib, predikativ qo'shilmani hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, egalik affikslari atributiv, kelishik affikslari ob'yektlі, shaxs-son affikslari predikativ qo'shilmalarning shakllanishida faol qo'llaniladi.

Yordamchi so'zlar. Yordamchi so'zlar o'zicha mustaqil qo'llanmaydigan, mustaqil so'zlar bilan birga kelib, ular o'rtasidagi har xil sintaktik aloqalarni ko'rsatadigan vositalardir. Bunday yordamchi so'zlardan **ko'makchi, bog'lovchi, bog'lama** va qisman **yuklamalarni** ko'rsatish mumkin.

Ko'makchilar ot yoki otlashgan so'zdan keyin kelib, uning boshqa so'zga (asosan fe'lga) bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Ko'makchi bilan kelgan so'z (ot) tobe, fe'l esa hokim element hisoblanadi: *xalq bilan yashamoq, xalq uchun xizmat qilmoq* kabi. Ko'makchilar ba'zan kelishiklarga vazifadosh bo'lib keladi: *qalam bilan yozmoq, qalamda yozmoq; maktab uchun olmoq, maktabga olmoq* kabi. Biroq bu qurilmalar nozik uslubiy farqqa ham ega. Qiyoslang: *poyezd bilan kelmoq // poyezdda kelmoq; ot bilan kelmoq // otda kelmoq; eshak bilan kelmoq // eshakda kelmoq* kabi.

Ba'zan sintaktik aloqa ko'rsatishda ko'makchi kelishik yoki kelishik-ko'makchi bir butun, birlashgan holda qo'llaniladi: *qishloq tomonga*

bormoq //qishloqqa tomon bormoq, peshinga qadar o'tirmoq, seni deb kelmoq (bundagi bog'lanish – analitik usul).

Umuman, kelishik bilan ko'makchilar vazifa yog'idan o'xshashlikka ham ega. Chunki har ikki guruh ot bilan fe'lni (qaratqich mustasno) bog'lash uchun xizmat qiladi.

Bog'lovchilar so'z va gaplarni bog'laydi: *men va sen, quyosh bilan oy; Meni kutgil va men qaytarman. Ma'fkuramiz dushmanlari ko'p hujum qildi, lekin biz yengib chiqdik* kabi. Ba'zan yuklamalar ham teng bog'lovchi vazifasida keladi: *men va sen // menu sen, yer va osmon // yeru osmon; Og'ir qurol bilan solgan ovozsiz larzaga keltirar arzu samoni, Sen daryo bo'yida olib borgan jang, Tamom o'zgartirar obu havoni* (H.O.). *Men kelishga-ku kelaman-u, siz kelmaysiz-da* kabi. Bundagi sintaktik qo'shilmalarning aloqasida shubhasiz ohangning ham hissasi bor.

Bog'lama ham mustaqil qo'llanmaydigan, kesimga qo'shilib, uni ega bilan tutash tiradigan elementdir: *Bizlar borgan edik, U o'qituvchi ekan, Men o'qishim kerak, Fikrim shundan iborat* kabi.

Demak, bog'lama predikativ qo'shilmada qo'llaniladi, gapni hosil qiladi, kesimi fe'l bo'lmagan gaplarning kesimga qo'shilganda, uni fe'l tusiga kiritadi, shaxs-son, zamon kabi grammatik ma'nolar ifodalaydi.

So'z tartibi. O'zbek tilida ko'p hollarda so'z tartibi o'zgartirilsa-da, mazmun o'zgarmaydi. Biroq bunda ikki holatga e'tibor berish kerak:

1. Agar bo'lak yoki gap tarkibidagi elementlar ma'no va shakl tomondan ma'lum bo'lakka moslangan, maxsus morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllangan bo'lsa, tartib o'zgarishi mazmunga, sintaktik holatga ta'sir ko'rsatolmaydi: *mening dostonlarim – dostonim mening, mening vatanim – vatanim mening, chamanda gul ochilibdi – gul chamanda ochilibdi – ochilibdi gul chamanda* kabi. Biroq bu variantlar ohang ta'sirida ma'lum uslubiy ayirmaga ham ega bo'ladi.

2. Agar bo'laklar morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllanmagan bo'lsa, tartib o'zgarish fikriy va sintaktik holatga ta'sir qiladi – yangi mazmun, yangi qurilma tug'iladi. Bu holat ko'pincha bitishuvli birikmalarda sodir bo'ladi: *baland tog', o'qigan bola* – so'z birikmasi. *Tog' baland, bola o'qigan* – gap. Qurilmaning bunday tartiblanishida intonatsiyaning roli ham muhim.

Demak, so'zlar morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllanmagan hollardagina tartib rol o'ynaydi. Aks holda tartib passivligicha qolaveradi.

Ohang (intonatsiya) ovozning har xil eshitilishi, tovlanishi: ko'tarilishi, pasayishi, tushishi, tebranishi, takrorlanishi, uyg'unlashishi, uzilishi, to'xtashi, so'nishi kabilarning yig'indisidir. Intonatsiya har xil urg'u, qisqa

pauzalar ritmika, melodikani, yoki prasodik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, so'zlardan gap tuzish, gavharni ipga tizishga, shu gavhar shodasining rang-barang tovlanishi ohangga; yoki so'zlar poyezd vagonlariga, ohang temiryo'lga o'xshaydi. Ohangning ana shu xususiyatlari namoyon bo'lganda, sintaktik qurilmalarning – nutqimizning tabiati yanada ochilgan bo'ladi. Holbuki, ko'pgina xalqlar tilining, jumladan, o'zbek tilining intonatsiyasi hali yetarli o'rganilmagan. Zotan, bu birmuncha qiyin bo'lib, maxsus laboratoriya talab qiladi. Bu soha – intonatsiya va uning yozma shakllari – intonagrammalar – sintaktik fonetikaning ob'yekti hisoblanadi.

Bundan tashqari, gapning mazmunidan anglashiladigan ironiya, kesatiq, qochirma, rad etish, ikkilanish, gumonsirash, ishonch, qat'iylik, muqarrarlik, qodir-qodir emaslik, achinish, zidlik kabi modal ma'nolar ham intonatsiya bilan bog'liqdir.

Demak, intonatsiya sintaktik munosabat ifodalashda so'z tartibi kabi chegaralangan emas. U gapdagi mazmun tugalligini, bo'laklarning guruhlanishini, uning qanday birliklardan tashkil topishini, sintagmalanishi va bo'laklarni ajratish kabilarni ko'rsatadi. Intonatsiya gapda juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'p hollarda turli xil sintaktik qurilmalarni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi misolni solishtiraylik:

1. *Abror ukam injener bo'ldi* – Abror ukam... (yaxlit intonatsiya) – aniq-lovchi – **ega**.

2. *Abror, ukam injener bo'ldi* – Abror, ukam... (sanash intonatsiya) – **uyushiq ega**.

3. *Abror, ukam injener bo'ldi* – Abror, ukam... (ajratuvchi pauza, undash intonatsiya) – **undalma ega**.

4. *Abror – ukam, injener bo'ldi* – Abror – ukam... (ikkita ajratuvchi past ohangli pauza) – **ega ajratilgan bo'lak**.

Anglashiladiki, “Gapda intonatsion o'zgarish bo'lar ekan, bu odatda sintaktik bo'linishning, mazmunning boshqaligini ko'rsatadi” (A.G'ulomov). Masalan: 1. *Katta mevali // daraxt* (mevasi katta) – *katta // mevali daraxt* (daraxt katta). 2. *Qalin // muqovali kitob* (kitobning o'zi qalin) – *qalin muqovali // kitob* (muqovasi qalin). 3. *Uchta bolali // xotin* (uchta bolasi bor xotin) – *uchta // bolali xotin* (bolasi bor uchta xotin) (misollar A.G'. G'ulomovdan). 4. *Afandi podshoga qarab: “Siz axmoq odam emassiz” – dedi.* (latifa) – *Siz axmoq // odam emassiz* (axmoq odamsiz). 5. *Kimsan // yomon bola bo'lmaydi* – yaxshi bola bo'ladi; *Kimsan yomon // bola bo'lmaydi* – yaxshi bola bo'lmaydi, umuman odam bo'lmaydi. 6.

Bolalar orqasini o'girib turgan Afandini savalab ketishdi: savalab ketishdi (yaxlit intonatsiya) – tarkibli kesim; *savalab // ketishdi* – hol-kesim va b.

Intonatsiya qo'shma gap doirasida ham faol harakat qiladi. Qo'shma gap komponentlarini tutashtiradi va bog'lovchilik vazifasini bajaradi. Masalan, *o'qishi chiroyli, ammo yozuvi xunuk* – *o'qishi chiroyli // yozuvi xunuk* (zidlash intonatsiyasi). *Quyosh chiqishi bilan hammayoq isib ketadi* – *Quyosh chiqdi // hammayoq isib ketadi* (payt ma'nosining odatdagidan tez almashinishi). *Sen kelsang men boraman* – *Sen kel // men boraman* (shart intonatsiyasi) va b.

Ko'rinadiki, qo'shma gap komponentlarini tutashtirishda, bog'lovchilar qo'llanmaganda, intonatsiya asosiy vosita hisoblanadi. Agar sintaktik aloqa bog'lovchilar ustiga yuklansa, intonatsiya etakchi rol o'ynamaydi.

Umuman, intonatsiya sodda va qo'shma gaplarning tuzilishini aniqlashda xususan, gap bo'laklarini ajratishda, qo'shma gaplarni, ergash gapli qo'shma gaplarni tasniflashda muhim rol o'ynaydi: *Men borsam, sen ketibsan* (payt ergash gap), *Men bordim – sen ketibsan* (payt ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap), *Men bordim, sen ketibsan?* (ta'kid, so'rash intonatsiya). Yoki intonatsiyadan gapning turini belgilashda ham foydalaniladi: *Mayiz yemagan xotin* (A.Q.) – atash ohangi (so'z birikmasi: aniqlovchi-aniqlanamish); *mayiz yemagan // xotin* – ajratuvchi, pauzali ohang (gap: ega+kesim); *Opam mukofotlandi* (darak), *Opam mukofotlandi?* (so'roq), *Opam mukofotlandi!* (darak-undov).

3- mavzu: SO'Z BIRIKMASI VA UNING TASNIFI

reja:

- 1. So'z birikmasining ta'rif va tavsifi.**
- 2. So'z birikmasi komponentlarining ma'no va grammatik jihatdan birikish darajasiga ko'ra turlari: erkin va turg'un.**
- 3. Erkin birikmaning sintaktik aloqasiga ko'ra: teng va tobe aloqali birikma.**
- 4. Tobe aloqaning turiga ko'ra: moslashuvli, boshqaruvli, bitishuvli so'z birikmalari.**
- 5. Tobe komponent (so'z)ning vazifasiga ko'ra: atributiv, ob'yektli va relyativ so'z birikmalari.**
- 6. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra: otli, fe'lli, ravishli, sifatli so'z birikmalari.**
- 7. Tuzilishiga ko'ra: sodda va murakkab so'z birikmalari.**
- 8. Xulosa.**

Har qanday ikkita soʻzni yonma-yon qoʻyish bilan ularni munosabatga kiritib boʻlmaydi. Soʻzlarning munosabatga kirishi uchun: a) ichki maʼno moslik, b) tashqi grammatik moslik, c) har ikkala holatning uygʻunligi zarur. Misollarni solishtiraylik: *paxtaning tikani (emas)// gulning tikani, qorning issigʻi (emas)//qorning sovugʻi, gullagan togʻ (emas)// gullagan daraxt, vatanga sevmogʻ (emas)// vatanni sevmogʻ* va b.

Anglashiladiki, soʻz birikmasi soʻzlarning qandaydir tartibsiz yigʻindisi boʻlmay, balki mantiqiy, maʼlum grammatik qonun asosida qoʻshilishidan hosil boʻlgan qurilmalardir.

Boshqacha aytganda, soʻz birikmasi hosil boʻlishi uchun, birinchidan, kamida ikkita mustaqil soʻz boʻlishi, ikkinchidan, shu ikkita soʻz semantik jihatdan mos kelishi, uchinchidan, qoʻshiluvchilar grammatik jihatdan erkin munosabatga kirisha olishi, toʻrtinchidan, atash (nominativ) vazifa ifodalashi kerak. Bulardan soʻz birikmasining quyidagicha taʼrifi kelib chiqadi: *soʻz birikmasi ikki va undan ortiq mustaqil leksik maʼnoli soʻzlarning maʼno va grammatik munosabatidan tashkil topgan, bir murakkab tushuncha (predmet, harakat, holat, belgi tushunchasi) anglatadigan nominativ xarakterdagi ochiq qurilmalardir.* Soʻz birikmasiga qoʻyilgan keyingi talab uni gapdan ajratishda ahamiyatlidir. Aks holda soʻz birikmasiga berilgan taʼrif gapga yaqinlashib qoladi. Chunki gap ham ikki va undan ortiq mustaqil soʻzlarning grammatik-semantik munosabatidan tugʻiladi. Lekin bunda predikativ qurilmaning tugʻilishi, kommunikativ vazifa – fikr ifodalanishi nazarda tutiladi. Demak, soʻz birikmasini soʻzdan, soʻz birikmasi sintaksisini gap sintaksisidan farqlash, ular oʻrtasidagi munosabatni aniqlash muhimdir.

Soʻz birikmasi – sintaksisning alohida oʻrganilishi zarur boʻlgan bir qismi, shuning uchun ham u gap sintaksisidan farqlangan holda **soʻz birikmasi sintaksisi** deb nomlanadi. Shunday ekan, soʻz birikmasi sintaksisini oʻrganishda, ayrim oʻtmish olimlari singari uning “taqdirini” gap bilan bogʻlash, gap ichida, gapdan kelib chiqib hal etish toʻgʻri boʻlmagan boʻlur edi. Buning sababi shuki, soʻz birikmasi, yuqorida aytganimizdek, maxsus qoʻshilma, u soʻzlarni maʼlum grammatik qonuniyat asosida birlashtiradi va oʻz qiyofasiga ega boʻladi. Biroq gap ichida ana shu holatda qoʻllanmaydi. Boshqacha aytganda, soʻz soʻz birikmasi ichida, soʻz birikmasi gap ichida oldingi maʼno va shakllarini saqlab qololmasligi mumkin. Chunki soʻz birikmasi soʻzni, gap soʻz birikmasini tayyor holda gapdan tashqaridagi holatda birlashtirmaydi, balki sintaktik qurilishiga boʻysundiradi.

Umuman, soʻz soʻz birikmasi doirasidan tashqarida oʻrganilgani kabi, soʻz birikmasi ham gapdan tashqarida oʻrganilishi kerak.

Quyidagi gapni soʻz birikmalariga ajrataylik: *Hukumatimiz mehnatsevar va doʻst xalqimizni ogʻishmay gʻalabadan gʻalabaga tomon ilhomlantirmoqda.*

- 1) *mehnatsevar xalq;*
- 2) *doʻst xalq;*
- 3) *xalqimizni ilhomlantirmoq;*
- 4) *ogʻishmay ilhomlantirmoq;*
- 5) *gʻalabadan gʻalabaga;*
- 6) *gʻalabaga ilhomlantirmoq;*
- 7) *hukumatimiz ilhomlantirmoqda.*

Demak, gap soʻz birikmalariga ajratilganda, yangi birikmalar hosil qilinadiki, bu birikmalar tarkibidagi komponentlar shakl va maʼno tomondan endi gap sintaksisi talabiga emas, soʻz birikmasi sintaksisi talabiga koʻra tuziladi. Zotan, yuqoridagi gap ajratilgan ettita soʻz birikmasining yigʻindisi emas. Demak, soʻz birikmasi gap ichida oʻrganilayotganda ham gap sintaksisi nazarda tutilmaydi.

Bundan tashqari, gapni soʻz birikmalariga ajratish shartli yoki umuman toʻgʻri boʻlib chiqa bermasligining sababi: birinchidan, gapning koʻpgina turlarining (soʻz-gap, soʻz-gap tipidagi nominativ, vokativ, infinitiv gaplar: *talabaman, oʻqiyman* tipidagi bir tarkibli sodda yigʻiq gap kabilar) soʻz birikmasi bilan aloqasi yoʻq, ikkinchidan, umuman ikki tarkibli sodda yigʻiq gaplar soʻz birikmasiga ajratilmaydi. Chunki bu tipdagi sintaktik qurilmalar predikativ qoʻshilmalardir. Bu holat sodda yoyiq gaplar soʻz birikmalariga ajratilganda, yanada aniq seziladi – predikativ qoʻshilma soʻz birikmalarini oʻzidan tashqariga chiqarib yuboradi. Ularga qoʻshilib ketmaydi. Natijada, bir-biridan farqli ikki xil sintaktik qurilma (soʻz birikmasi va gap) ajralib chiqadi. Chunonchi, yuqoridagi qoʻshilmalarning yettinchisi (*hukumatimiz ilhomlantirmoqda*) gap sifatida namoyon boʻlgan. *Koʻp sonli pedagogik jamoamiz bundan buyon ham yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoʻlida hamma imkoniyatlarni ishga soladi* (“Xalq soʻzi” gazetasidan) gapini soʻz qoʻshilmalariga ajrataylik:

- 1) *koʻp sonli jamoamiz* (soʻz birikmasi);
- 2) *pedagogik jamoamiz* (soʻz birikmasi);
- 3) *bundan buyon ham ishga solmoq* (soʻz birikmasi);
- 4) *yosh avlod* (soʻz birikmasi);
- 5) *avlodni tarbiyalash* (soʻz birikmasi);

- 6) *vatanparvarlik ruhi* (soʻz birikmasi);
- 7) *vatanparvarlik ruhida tarbiyalash* (soʻz birikmasi);
- 8) *tarbiyalash yoʻli* (soʻz birikmasi);
- 9) *tarbiyalash yoʻlida ishga solmoq* (soʻz birikmasi);
- 10) *hamma imkoniyat* (soʻz birikmasi);
- 11) *imkoniyatni ishga solmoq* (soʻz birikmasi);
- 12) *jamoamiz ishga soladi* (predikativ birikma – gap).

Demak, yuqoridagi oʻn ikkita soʻz qoʻshilmasidan oʻn bittasi soʻz birikmalari boʻlib, bittasi “ega+kesim” munosabatidagi predikativ birikma – gapdir.

Yoki *Bugun Ahmad ishga keldi* gapidan *bugun kelmoq, ishga kelmoq* birikmalarini ajratish mumkin-u, biroq *Ahmad kelmoq* tarzida birikma ajratish toʻgʻri boʻlmaydi. Bunga bosh boʻlaklarning grammatik-semantik mavqei yoʻl qoʻymaydi.

Soʻz birikmasi hosil qilishda kesimning (xususan, feʼl kesimning) roli katta. U ham ega, ham ikkinchi darajali boʻlaklar bilan munosabatga kirishadi. Bunda ikki holatni farqlash kerak: agar gapda ega qoʻllangan boʻlsa, kesim u bilan bogʻlanib predikativ qoʻshilmani – gapni hosil qiladi. Bunda kesim harakat nomi shaklida olinmaydi. Aks holda ega bilan munosabatga kirisha olmaydi. Birikma mazmunsiz boʻlib qoladi (*Ahmad kelmoq* deb boʻlmagani kabi). Agar gapda ega qoʻllanmagan boʻlsa, kesim ikkinchi darajali boʻlaklar bilan munosabatga kirishib, soʻz birikmasini hosil qiladi. Bunda feʼl kesim qoidaga koʻra harakat nomi shaklida olinadi. Aks holda bir gap bir necha soʻz birikmasiga emas, bir necha gapga ajralib ketadi. Agar shunday boʻladigan boʻlsa, feʼlli birikma tushunchasi yoʻqolgan, feʼl boshqaruvidagi hamma soʻz birikmalari gap sifatida qaralgan boʻlur edi. Masalan, *Karim kitobni tezlik bilan kutubxonaga topshirdi* gapini kesimning har ikki a) noaniq – **-moq**, b) aniq – shaxs-son shaklida ajrataylik:

soʻz birikmasi	gap
<i>kitobni topshirmoq</i>	<i>kitobni topshirdi</i>
<i>tezlik bilan topshirmoq</i>	<i>tezlik bilan topshirdi</i>
<i>kutubxonaga topshirmoq</i>	<i>kutubxonaga topshirdi</i>
<i>Karim topshirmoq</i> (boʻlmaydi)	<i>Karim topshirdi</i>

Mana shu har ikkala holat rus tilshunosligida A.A.Potebnya, A.M. Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov kabi olimlarning gʻoyasi sifatida tugallanmagan va tugallangan soʻz birikmasi (bunda gap ham soʻz birikmasi hisoblangan) deb nomlangan, demak sintaktik qurilmalar pastdan yuqoriga emas, yuqoridan pastga qarab oʻrganilgan va baho berilgan. Bu anʼana

o'zbek tilshunosligida ham 1950-1960 yillargacha qisman bo'lsa-da, davom ettirildi. Ya'ni gap to'ppadan-to'g'ri atributiv, ob'yektli, relyativ va predikativ birikmalarga ajratilib, predikativ birikma (gap) ham so'z birikmasi sifatida o'rganildi. Biroq keyinchalik bir qism olimlar bu masalaning tabiati bilan qiziqdilar va sinchiklab o'rganib chiqdilar. Masalan, V.V.Vinogradov rus tili akademik grammatikasining so'z boshida, A.G'.G'ulomov va M.A.Asqarova, G'.A.Abdurahmonovlar o'z darsliklarida predikativ birikma so'z birikmasi doirasida emas, gap sintaksisida o'rganilishi kerakligini, buning sabablarini uqtiradilar.

So'z birikmasi quyidagi 6 bosqichda tasnif qilinadi:

1. Komponentlarning ma'no jihatdan birikish darajasiga ko'ra
2. Erkin birikmaning sintaktik aloqa turlariga ko'ra.
3. Ergash so'zli birikmaning sintaktik aloqa turlariga ko'ra.
4. Tobe komponentning ma'no-vazifasiga ko'ra.
5. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra.
6. Birikmaning tuzilishiga ko'ra.

I. Komponentlarning ma'no jihatdan birikish darajasiga ko'ra so'z birikmasi dastavval komponentlarning ma'no mustaqilligi va ularning birikish darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **erkin birikma, turg'un birikma.**

Erkin birikma yuqorida aytganimizdek, ikki va undan ortiq mustaqil so'zning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topgan, bitta murakkab tushuncha ifodalaydigan sintaktik butunlikdir. Bunday butunlikning o'ziga xos xususiyati shuki, birikma tarkibida ishtirok etayotgan so'zlar nutq momentida – nutq so'zlanib turgan paytda tanlanadi, birikma nutq talabi bilan tuziladi. Masalan, *yaxshi kitob* birikmasidagi tobe elementni (*yaxshi* so'zini) uning sinonimlari bilan yoki, umuman, boshqa sifatlovchilar bilan almashtirilganda ham, ular hokim element (*kitob*) bilan erkin munosabatga kirisha beradi: *yaxshi kitob, qimmatli kitob, nodir kitob, topilmas kitob, qalin kitob, ko'k kitob, sotilmaydigan kitob* kabi. Aksincha hokim elementni ham boshqa so'zlar bilan almashtirib, tobe element bilan munosabatga kiritish mumkin: *yaxshi odam, yaxshi havo, yaxshi yer, yaxshi olma, yaxshi qush* kabi.

Erkin birikmaning o'ziga xos xususiyatidan yana biri birikma tarkibidagi elementlarning osonlik bilan yana ayrim-ayrim so'zlarga (murakkab tushuncha sodda tushunchalarga) ajrala olishidir. Masalan, *moviy osmon* birikmasi tarkibidagi elementlar birikmadan tashqarida ham

alohida leksik ma'no (belgi va predmet tushunchasi) sifatida saqlanadi. Bu xususiyatlar erkin birikma komponentlarining birikma ichida ham, birikmadan tashqarida ham alohida tushuncha ifodalashini ko'rsatadi.

Turg'un birikma. Shunday so'z birikmalari va gaplar borki, ular tilda uzoq vaqt bir qolipda qo'llana berib, bo'linmaydigan holga kelib qoladi. Bunday iboralar so'zlovchining xotirasida bir butun holda saqlanadi va nutqda ham xuddi shu holida qo'llaniladi. So'zlovchi so'zni qanday tanlab ishlatsa, turg'un iboralarni ham ana shunday tanlab qo'llaydi. Qo'llangan bunday iboralar gapda ham bir bo'lak, so'z birik-masi doirasida bir komponent vazifasida keladi. Masalan, *G'alaba shodiyonasi millionlar qatori Dildorning ham boshini ko'klarga ko'tardi* (Y.Shukurov, "Qasos".) gapida *boshini ko'klarga ko'tardi* bitta bo'lak – kesim, *Dildorning boshini ko'klarga ko'tarmoq* birikmasida esa birikma-ning bir komponenti (hokim komponenti) vazifasida kelgan.

Ko'rinadiki, turg'un birikma tarkibidagi elementlar tashqi tomondan o'zining grammatik ko'rsatgichlariga ega, sintaktik aloqa turlarini ham ko'rsatadi (boshqaruvli birikma shakli). Biroq iboraning ichki tomoni – undan kutilgan maxraj ma'no uni bunday elementlarga ajratishga sira yo'l qo'ymaydi. Bu turg'un birikma elementlarining birikma tarkibida alohida tushuncha sifatida yashamasligini, ular o'rtasidagi sintaktik aloqaning jonli emasligini, birikma bir butun holdagina boshqa biror bo'lakni boshqara (yoki boshqarila) olishini ko'rsatadi. Yana bir misol: *Men sevinchimdan terimga sig'may Xadraga yugurdim* (Oybek).

Demak, nutqda tayyor (bir butun) holda qo'llanadigan, komponentlari barqaror bo'lgan bo'linmas birikmalar **turg'un birikma** deyiladi.

Umuman, erkin va turg'un birikmalarni bir-biriga yaqinlashtiradigan narsa, ularning ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topishi bo'lsa, quyidagi xususiyatlari ularni bir-biridan farqlaydi:

Erkin birikma nutq hodisasi: nutq paytida tuziladi, birikmaning element-lari alohida tushuncha sifatida ajraladi, komponentlar o'rtasidagi aloqa jonli, shuning uchun birikma komponentlarini almashtirish, kengaytirish (sodda birikmani murakkab birikmaga aylantirish) mumkin. Erkin birikma komponentlarining har qaysisi gapda alohida bo'lak vazifasida kelishi mumkin.

Turg'un birikma bunday xususiyatlarga ega bo'lmaganligi, til fakti sifatida nutqda bir butun, tayyor holda qo'llanganligi, gapda bir bo'lak hukmida qo'llanganligi –leksikalizatsiyalashganligi–so'zlashganligi uchun leksik birikma hisoblanadi. Erkin birikma sintaktik birikma bo'lganligi-dan

sintaksisning o'rganish ob'yektidir. Turg'un birikma leksik xarakterdagi birikmalar bo'lganligi uchun leksikologiyaning o'rganish ob'yektidir.

Turg'un birikmaning materiali asosan ikki yirik gruppaga bo'linadi: a) **murakkab terminlar:** *Termiz davlat universiteti, Janubiy Surxon suv ombori, O'zbekiston Davlat nashriyoti, o'qish kitobi, Sharq yulduzi, ishlab chiqarish boshqarmasi, Orol dengizi* kabi; b) **frazeologiya va frazeologik xarakterdagi qurilmalar:** *og'zing qani desa, quloqini ko'rsatmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, yulduzni benarvon urmoq, qamchinidan qon tommoq, orasidan qora mushuk o'tmoq* kabi.

II. Erkin birikmaning sintaktik aloqa turlari

Erkin birikma tarkibidagi komponentlarining bog'lanish xarakteriga yoki sintaktik aloqa turiga ko'ra, dastavval, ikki turga ajraladi: **teng so'zli** (teng aloqali) va **ergash so'zli** (tobe aloqali) birikma.

Teng aloqali birikma so'z qo'shishning maxsus usuli bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Birikmada ikki va undan ortiq mustaqil so'z ishtirok etadi: *olma va anor, Hakim va Salim, Hakim, Salim va Karim* kabi.

2. Komponentlar grammatik-semantik jihatdan teng munosabatga kirishadi.

3. Komponentlarning o'rnini almashtirish mumkin. Bunda grammatik holat o'zgarmaydi: *bodom va pista, pista va bodom* kabi.

4. Birikma tarkibidagi komponentlar bir xil so'z turkumiga doir bo'ladi: *ota va ona, aqlli va dono, to'rt va besh, men va sen, o'qidi va yozdi* kabi.

5. Komponentlar bir xil grammatik shaklda bo'ladi. Masalan, ot bo'lsa, bir xil kelishikda (bosh kelishikda) fe'l bo'lsa, bir xil zamonda va b.

6. Birikma butunligicha gapning bitta uyushiq bo'lagi vazifasida keladi: *Yerimiz muqaddas va daxlsiz*.

7. Komponentlar: a) teng bog'lovchilar bilan bog'lanadi: *olma va anor*; b) teng intonatsiya bilan: *olma, anor*. Birikmada teng bog'lovchi ishtirok etganda, komponentlarni tutashtirish bog'lovchiga yuklatiladi. Bunda teng intonatsiya ham ishtirok etgan bo'ladi, biroq etakchi hodisa hisoblanmaydi. Birikmada bog'lovchi qo'llanmaganda, intonatsiya birinchi o'ringa chiqadi: *yer va osmon – yer, osmon* kabi. Ba'zan yuklamalar ham teng bog'lovchi vazifasini bajaradi: *yeru osmon, obu havo, olishu berish* kabi.

Birikma elementlari ikkidandan ortganda, bog'lanishning kombinatsion (aralash: teng intonatsiya+teng bog'lovchi) turi ham qo'llanilishi mumkin:

Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas – *Muhayyo, Surayyo, Ra'no va Muqaddas*. Komponentlar ikkidan ko'p bo'lganda, bog'lovchi eng oxirgi elementning oldida keladi, qo'shilishning tugallanganligini, "yopiqligini" ko'rsatadi: *ishchi, dehqon va ziyolilar; biz, siz va ular* kabi.

Ma'lumki, teng aloqali yoki teng so'zli birikma uzoq yillardan beri o'rta va oliy maktablarda so'z birikmasining maxsus turi sifatida o'rganiladi. Keyinchalik ayrim olimlar teng so'zli birikmalarning tabiatini yanada yaxshi o'rganib, undagi elementlarning birikish, bog'lanish darajasi ergash so'zli birikmaga qaraganda kuchsiz, gap qurilishidagi roli passiv, ya'ni gapning bitta bo'lagi, ergash so'zli birikmaning bitta komponenti bo'lib kelishi (*Karim o'qidi va yozdi* – kesim vazifasida, *xalqning quvonchi va baxti* birikmasida *quvonchi va baxti* – hokim komponent, *chiroyli va yorug' maktab* qo'shilmasida *chiroyli va yorug'* – tobe komponent), gapning asosini hokim tobelik munosabatidagi qo'shilishlar tashkil qilishi kabilarni hisobga oladilar va teng so'zli birikmalarni so'z birikmasi termini bilan emas, **so'z tizmasi** nomi bilan atashni va o'rganishni ma'qul ko'radilar. Bunda so'z birikmasiga qo'yilgan talablar gap siktaksisi qonunlaridan kelib chiqib baholangan, albatta.

Xulosa: ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning grammatik-semantik jihatdan teng munosabatga kirishishidan tashkil topgan birikmalar **teng so'zli birikma** deyiladi. Teng so'zli birikmaning elementlari ham birikma doirasida, ham gap ichida alohida tushuncha sifatida yashaydi, kamida ikkita sodda tushunchani birlashtiradi.

Tobe aloqali birikma. So'z birikmalari ko'p hollarda qo'shiluvchilar (komponentlar)ning hokim-tobelik munosabatidan tashkil topadi. Bunda komponentlarning biri tobe (ergash komponent), biri hokim (bosh komponent) hisoblanadi. U hokim-tobelik qo'shilishning xarakteridan: boshqaruvchi so'zning ma'nosidan, boshqariluvchi so'zning shaklidan, tartibidan anglashilib turadi. Tobe aloqali birikmada ergash komponent bosh komponentning ma'nosini aniqlaydi, toraytiradi, to'ldiradi. Bosh komponent grammatik-semantik jihatdan hokim holatda bo'ladi, tobe komponentni boshqaradi. Demak, tobe komponent aniqlovchi (keng ma'noda), hokim komponent aniqlanmish (keng ma'noda). Tobe komponent hokim komponentning biror tomonini aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladigan, hokim komponent ma'nosi aniqlanayotgan element hisoblanadi. Masalan, *Dashnabodning anori* (aniqlovchi+aniqlanmish), *kitobni sevmiq* (aniqlovchi+aniqlanmish), *qizil olma* (aniqlovchi+aniqlanmish), *kitob o'qimoq* (aniqlovchi+aniqlanmish) birikmalari-

dagi hokim komponentlarning (*anor, sevmiq, olma, o'qimoq*) ma'nolari joyga (*Dashnobod*), ob'yektga (*kitob*), belgiga (*qizil*), harakatga (*o'qimoq*) nisbatan aniqlangan.

Demak, keng ma'noda olganda, tobe so'z aniqlovchi, hokim so'z aniqlanmish komponent hisoblanadi.

Hokim-tobelikni belgilashda ba'zan komponentlarning ichki – ma'no tomoni yetarli emas. Agar faqat logik tomon hisobga olinganda, *Navoiyning g'azali* (g'azal Navoiyga qarashli – Navoiyniki), *Karimning o'g'li* (o'g'il Karimga qarashli – Karimniki), *chumchuqning pari* (par chumchuqniki), *daraxtning bargi* (barg daraxtniki) kabi birikmalarda aniqlovchi komponent hokim, aniqlanmish komponent tobe hisoblangan bo'lur edi. Holbuki, grammatika (logika emas) til faktlarini o'rganayotganda, uning shaklini (ma'no va shakl birligini) hisobga oladi. Ana shu nuqtai nazardan, aniqlovchi komponentlarning **tobe**, aniqlanmish komponentlarning **hokim** elementi ekanligi yanada aniq bo'ladi. Chunonchi, *Navoiyning g'azali* tipidagi birikmalarda keyingi elementning hokimligi a) uning bosh kelishikda kelishi, b) birinchi komponentning shaklining moslashishi, v) gapda ega vazifasida kelishi bilan ham xarakterlanadi: *Navoiyning g'azali o'qildi* (aniqlovchi+ega+kesim), *daraxtning bargi to'kildi* (aniqlovchi+ega+kesim) kabi. Bundan hokim-tobelikni tayinlashda grammatik shaklning ham roli katta ekanligi anglashiladi.

Odatda so'z birikmasi sintaksisida hokim komponent otdan bo'lsa (keng ma'noda), bosh kelishik, fe'ldan bo'lsa infinitiv shaklida qaraladi. Bu shakllar ularning hokim holatdaligini ko'rsatadi. Hattoki, so'z birikmasini gap ichida o'rganish tarafdorlari ham bosh komponentni ana shu shakllarda ajratishga majbur bo'ladilar.

Tobe komponent ergashtiruvchi formalar (kelishik, ko'makchi kabi) bilan shakllanadi va bu shu elementning tobeligini, tobe shaklga o'tganligini, hokim komponentni talab qilganligini ko'rsatuvchi faktordir. Masalan: *sizni ko'rmoq, sizga aytmoq, sizdan so'ramoq, siz bilan yurmoq, siz uchun olmoq* kabi. Ba'zan ikki komponent ichki ma'no yaqinligi tufayli munosabatga kirishadi, hokim-tobelikni ko'rsatuvchi maxsus ko'rsatkichlarga ega bo'lmaydi. Bunday holda hokim-tobelik birikmaning ichki ma'nosidan, qo'shilmaning umumiy xarakteridan hokim komponentning semantikasidan bilinib turadi: *kitob olmoq* – *kitobni olmoq* (tobe+hokim); *chiroyli kitob* – belgi kitobniki (tobe+hokim); *tez yurmoq* – tez yurishning belgisi (tobe+hokim) kabi.

Hokim-tobelikni belgilashda tartibning roli ham bor. O'zbek tilida odatda tobe komponent birinchi, hokim komponent ikkinchi o'rinda

keladi: *Oybekning asari, chiroyli asar, asarni o'qimoq, Asqar uchun bermoq* kabi. Ba'zan poetik, uslubiy talablar bilan komponentlarning odatdagi o'zni almashadi: *Vatanim mening, Gulistonim mening* (hokim+tobe), *Vatan uchun kurashmoq* (tobe+hokim) – *kurashmoq vatan uchun* (hokim+tobe) kabi. Ba'zan tartibning o'zgarishi so'z birikmasining gapga aylanishiga sabab bo'ladi (gapga xos intonatsiya tug'iladi): *tiniq osmon – osmon tiniq, beg'ubor havo – havo beg'ubor* kabi.

Ergash so'zli birikmalarda tobe komponent ba'zan juda kengaygan, yoyiq shaklda bo'ladi, birikmaning bunday shakllanishlari ham bosh komponent tufayli bo'ladi, bosh komponent ularni markazlashtiradi, tayanch so'z hisoblanadi. Gapda ham ko'pincha bosh yoki boshqaruvchi vazifasida kelib, ergash komponentlarni, o'ziga tobe bo'lak sifatida, aniqlaydi: *aqlli, o'qimishli va go'zal qiz* birikmasida *o'qimishli va go'zal* – tobe, *qiz* – hokim komponent. *Aqlli, o'qimishli va go'zal qiz so'zlayapti* gapida *aqlli o'qimishli va go'zal* – aniqlovchi, *qiz* – ega vazifasida kelgan. *G'uj bo'lib turgan yettita xira yulduz* birikmasida *g'uj bo'lib turgan yettita xira* – tobe, *yulduz* – hokim komponent. *G'uj bo'lib turgan yettita xira yulduzni ko'rmadim* gapida *g'uj bo'lib turgan yettita xira* – aniqlovchi, *yulduzni* – to'ldiruvchi vazifasida kelgan va b.

Demak, hokim komponent a) bir so'znigina emas, birdan ortiq uyushgan va uyushmagan tobe komponentlarni markazlashtiradi; b) o'z ichida so'z birikmasi hisoblanadigan bo'linmas birikmalar bitta tobe komponent vazifasida kelib hokim komponentga bog'lanadi: *shirinso'z odam* (*shirinso'z* – tobe, *odam* – hokim), *o'ttiz besh so'mlik daftar* (*o'ttiz besh so'mlik* – tobe, *daftar* – hokim), *yuz gektar yer* (*yuz gektar* – tobe, *yer* – hokim) va b. Birdan ortiq bo'linmas birikmalar uyushiq tobe komponentlar sifatida bitta hokim so'zga bog'lanadi: *uzun bo'yli qora qosh yigit* (*uzun bo'yli qora qosh* – tobe, *yigit* – hokim); v) bunday tobe komponentlar gap shaklida ham bo'ladi: *qoshi qora, istarasi issiq yigit* va b.

Birikma tarkibidagi elementlarning hokim-tobeligi **mutloq** yoki **nisbiy** bo'lishi mumkin. Birikma ikki komponentli bo'lsa, hokim-tobelik mutloq bo'ladi: *mehribon ona* (*mehribon* – mutloq tobe, *ona* – mutloq hokim), *paxtani sug'ormoq* (*paxtani* – mutloq tobe, *sug'ormoq* – mutloq hokim).

Uch va undan ortiq komponentli birikmalarda hokim-tobelik ham mutloq, ham nisbiy bo'lishi mumkin, ya'ni biror so'zga nisbatan hokim hisoblangan komponent boshqa biror so'zga nisbatan tobe hisoblanadi. Masalan, *xalqimiz mehnatining tuganmas durdonalari* birikmasida *durdonalari* – mutloq hokim, *xalqimiz* – mutloq tobe, *tuganmas* – mutloq

tobe, *mehnatining* – nisbiy hokim: *xalqimiz* komponentiga nisbatan hokim, *durdonalari* komponentiga nisbatan tobe.

Bunday hokim-tobelik munosabatlari predikativ qo'shilmalarda ham mavjud (bu haqda gap bahsida to'xtalamiz).

Xulosa: Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning hokim-tobelik munosabatidan tashkil topgan va bitta murakkab tushuncha anglatadigan nominativ xarakterdagi birikmalar ergash so'zli yoki **tobe aloqali birikmalar** deyiladi.

III. Tobe aloqali birikmalarning sintaktik aloqa turlari

Ergash so'zli birikmalar komponentlar o'rtasida sintaktik aloqaning turiga ko'ra uch xil bo'ladi: **moslashuv, boshqaruv, bitishuv.**

Moslashuvli birikma. Hokim va tobe komponentlarning (qo'shilma-ning talabiga ko'ra) shaxs va sonda muvofiqlashuvi **moslashuvli birikma** deyiladi: *mening qalamim, bizning qalamimiz, sizning qalamingiz, ularning qalamlari* kabi. Biroq moslashuvda komponentlarning shaxsda muvofiqlashuvi mutloq bo'lib, sonda moslashuvi muvaqqat – qat'iy emas, ya'ni hokim komponent qaysi shaxsda bo'lsa, tobe komponentning ham o'sha shaxsda bo'lishi muqarrardir. Ammo hokim element bilan tobe elementning doimo yo birlikda yoki ko'plikda bo'lishi shart emas. Masalan: *Asrorbekning qo'yi* (birlik+birlik), *Asrorbeklarning qo'ylari* (ko'plik+ko'plik), *Asrorbeklarning qo'yi* (ko'plik+birlik), *Asrorbekning qo'ylari* (birlik+ko'plik).

Moslashuvli birikmada tobe komponent qaratqich kelishigi qo'shimchasi (ning), hokim komponent egalik qo'shimchalari (-m (-im), -ng (-ing), -si (-i); -miz (-imiz), -ngiz (-ingiz), -lari) bilan shakllanadi, predmet, harakat, belgining kimga yoki nimaga qarashli, taalluqli ekanligini anglatadi: *qizlarning yotoqxonasi, hikoyaning o'qilishi, bizlarning qishlog'imiz* kabi.

Ba'zan uslubiy talab bilan hokim komponent belgisiz (egalik qo'shimchasisiz) bo'ladi. Biroq bu chegaralangan bo'lib, tobe komponent kishilik olmoshining I va II shaxs ko'pligi bilan ifodalanganda yuz beradi. Hokim komponentning qaysi shaxsga qarashliligi umumiy holatdan – birinchi (tobe) komponentning semantikasidan anglashilib turadi: *bizning mamlakat* (bizning mamlakatimiz), *sizning mamlakat* (sizning mamlakatingiz).

Bizning kolxoz boy kolxoz, qo'ylisigirli kolxoz (bizning kolxozimiz). *Bizning yorni ko'rgan bormi, Yor daragin bilgan bormi?* (bizning yorimizni) kabi.

Moslashuvli birikmada komponentlarning bir-birlariga qarab bir xil tusga kirishi, shakllarini muvofiqlashtirishi hisobga olinadi. Biroq ba'zan, yuqoridagidek, hokim komponentning talabiga ko'ra (egallik qo'shimchalarisiz) tobe komponentning qaratqich kelishigini olishi, moslashuvli birikmada qisman boshqarilish ham borligini ko'rsatadi. Shuni hisobga olib, ayrim olimlar moslashuvli birikmani **boshqaruvli-moslashuv** ham deb ataydilar.

Moslashuvli birikmaning modeli:

ot (yoki substantivlashgan ot)+**ot** (yoki substantivlashgan ot): *shaharning yo'llari, pakananing hikoyasi, oqlarning yengilishi* kabi.

Demak, qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo'li bilan tuziladi.

Moslashuv hodisasi so'z birikmasida emas, gapda ham bo'ladi. Ko'p hollarda ega-kesim moslashuv munosabatidan tug'iladi, shaxs va sonda moslashadi. Biroq predikativ moslik boshqa hodisadir (bu haqda gap bahsida to'xtalamiz).

Boshqaruvli birikmada ham hokim komponentning talabiga ko'ra tobe komponentning ma'lum grammatik formada shakllanib, hokim komponentga bog'lanadi. Demak, hokim komponent tobe komponentni boshqaradi – qanday shakl olishini belgilaydi. Masalan, *do'stlarni ko'rmoq, Karimga uchrashmoq, shaharda yashamoq, qishloqdan kelmoq, xalq uchun ishlamoq* birikmalarida *ko'rmoq, uchrashmoq, yashamoq, kelmoq, ishlamoq* so'zlari (boshqaruvchi komponent)ning talabiga ko'ra *do'stlar, Karim, shahar, qishloq, xalq* (boshqariluvchi komponent) tegishli shakllar – kelishik va ko'makchilar bilan kelgan, o'z hokim komponentiga bog'langan.

Anglashiladiki, boshqaruvda hokim so'zning semantikasi katta rol o'ynaydi.

Demak, boshqaruvli birikma, asosan, ob'yekt bilan harakatning tobe holatdagi ot bilan fe'lning munosabatidir.

Boshqaruvli birikmada boshqaruv quyidagi vositalar bilan amalga oshiriladi:

1. **Kelishiklar** – tobe so'zga affiks qo'shish bilan. Kelishiklar (bosh va qaratqich kelishigi bunga kirmaydi) o'zi qo'shilgan so'zning tobeligini – boshqarilayotganligini ko'rsatadi: *Toshkentdan kelmoq, Oyga uchmoq, Oyni sayohat qilmoq, Oyda yashamoq* kabi.

2. **Ko'makchilar** – tobe so'zga yordamchi so'z qo'shish bilan. Ko'makchilar tobe so'zdan keyin keladi, u bilan birga bir komponent hisoblanadi, ot bilan fe'lning munosabatini – otni fe'lga boshqarilayotganligini ko'rsatadi: *xalq uchun xizmat qilmoq, Vatan deb kurashmoq,*

chinor kabi yashamoq, Toshkent tomon uchmoq, Olim bilan suhbatlashmoq, telefon orqali gaplashmoq kabi.

3. **Kelishik-ko'makchi** – shularning kombinatsiyasi, birlashmasi bilan. Bunda tobe so'z ikki xil grammatik vosita bilan harakatga (hokim so'zga) boshqariladi: *dengizga tomon yurmoq, Oyga qadar uchmoq, kechga dovur o'qimoq kabi.*

Faktlar boshqaruv vazifasini fe'l va uning vazifaviy shakllari (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi)dan tashqari sifat va ravishlar ham bajara olishini ko'rsatadi.

Sifat boshqaruvi: *muzdan sovuq, terakdan baland, asaldan shirin, tuyadan katta, paxtadan oq, qildan ingichka kabi.*

Ravish boshqaruvi: *aqldan tez, chumolidan ko'p, suv bilan to'la, suv bilan limmolim kabi.*

Demak, boshqaruvchi so'zning qaysi turkumdan bo'lishiga qarab birikmani **fe'lli boshqaruv, sifatli boshqaruv, ravishli boshqaruv**larga bo'lish va shunday atash ham mumkin.

Biroq fe'l boshqaruvi asosiy boshqaruv bo'lib, sifat va ravish boshqaruvi yordamchi, passiv boshqaruv hisoblanadi. Chunki sifat va ravish boshqariluvchini fe'l kabi xilma-xil grammatik shakllarda boshqara olmaydi. Masalan, sifat otni asosan, chiqish kelishik shaklidagina boshqaradi, xolos.

Xulosa: boshqaruvli birikmaning modeli: **ot+fe'l, ot+sifat, ot+ravish.**

Boshqaruvli birikma ob'yektning harakat, belgi bilan bo'lgan munosabatidan otning fe'lga, sifat yoki ravishga ergashishidan tuziladi. Moslashuvda hokim va tobe elementlarning o'z grammatik shakllarini bir-biriga moslashi, bir xil tusga kirishishi ahamiyatli bo'lsa, boshqaruvli birikmada hokim elementning leksik ma'nosi birinchi o'rinda bo'lib, shakli ahamiyatsizdir.

Bitishuvli birikmada bir komponent ikkinchi komponent bilan o'z shaklini shaxs va sonda moslamaydi, ya'ni bir komponent ikkinchi komponent talabiga ko'ra shakllanmaydi. Bitishuvda komponentlar bir-biri bilan hech qanday grammatik shakllarsiz munosabatga kirishadi – bitishadi: *vafodor qiz, uyalib gapirmoq, temir darvoza kabi.*

Anglashiladiki, bitishuvli birikmada tobe komponentni biror grammatik shaklda o'zgartirib bo'lmaydi, bu imkoniyatdan mahrum, buning zaruriyati ham yo'q. Ba'zan boshqaruvchi fe'l oldidan keladigan ob'yektni (tobe komponentni) biror kelishikda tiklash mumkinday ko'rinadi, shakl tiklanadi ham. Biroq bu shu o'rinda matn talabiga, birikishning mazmuniga, uslubiga zid bo'lib chiqadi. Masalan, *Lolaxon*

magazinda kitob sotadi gapidagi *kitob sotmoq* birikmasi *kitobni sotadi* shaklida berilsa, ma'noda o'zgarish bo'ladi, birikma bitishuvdan chiqib ketadi, odatdagi mavhumlikka aniqlik kiritiladi (sotilayotgan kitob so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum).

Moslashuv ma'lum grammatik vosita bilan shakllangan so'zlarning shakl muvofiqlashuvi bo'lsa, bitishuv grammatik shakllanmaydigan, shakllanish zaruriyati yo'qolgan so'zlarning ma'no (ichki yaqinlik) tomondan muvofiqlashuvidir. Demak, bitishuvli birikmaning sintaktik aloqasi so'z tartibi, pozitsion, kontekstual holatlar orqali ifodalanadi. Bunda so'zlarning ma'no tomondan yaqinligi, mosligi, uyg'unligi, ularning yonma-yon kelish zaruriyati kabilar rol o'ynaydi.

Bitishuvli birikmada hokim komponent otdan (*qiziq doston*) yoki fe'ldan (*tez gapirmoq*) bo'ladi. Shunga qarab birikmani **bitishuvli ot birikma** (ot boshqarvidagi birikma) va **bitishuvli fe'l birikma** (fe'l boshqaruvidagi birikma) deb ikkiga ajratish mumkin.

Bitishuvli otli birikmaning materiali quyidagicha bo'ladi: 1) **ot+ot**: *temir sandiq, oltin soat*; 2) **sifat+ot**: *keng ko'cha, nordon olma, aqlli bola*; 3) **sifatdosh+ot**: *o'qigan bola, ko'rar ko'z*; 4) **son+ot**: *to'rtinchi uy, yigirma besh askar*; 5) **olmosh+ot**: *bu kitob, o'sha qiz*; 6) **ravish+ot**: *tez odam, ko'p kitob*; 7) **mimema+ot**: *shiq-shiq tugma, bilq-bilq sho'rva* kabi.

Bitishuvli fe'lli birikmalarning materiali quyidagicha: 1) **ravish+fe'l**: *tez gapirmoq, ko'p gapirmoq*; 2) **ravishdosh+fe'l**: *tutilib gapirmoq, ochilib gapirmoq*; 3) **sifat+fe'l**: *yaxshi so'zlamok, yomon tushunmoq*; 4) **ot+fe'l**: *kitob sotmoq* kabi.

Ba'zan bitishuv bilan boshqaruvning chegarasi shakl jihatdan bir xil bo'ladi. Bunga ayrim so'zlarning kelishik qo'shimchalari bilan "qotib qolishi" – adverbializatsiyalashishi (ravishga ko'chishi) sabab bo'ladi. Masalan, *ertaga bormoq, birdan (birdaniga) qizishmoq, yaqinda (tezda) kelmoq, to'satdan (qo'qqisdan) gapirmoq, chindan (yolg'ondan) aytmoq, olg'a bosmoq* kabi birikmalarda boshqaruv jonli emas, tobe komponent boshqa kelishiklar bilan o'zgarmaydi yoki tobe komponentning shakli bosh so'zning talabiga ko'ra shakllangan emas, ular birikmadan tashqari-da ham shu holatda mavjuddir. Shuning uchun ham yuqoridagi qo'shili-shlar bugungi tilda bitishuv hisoblanadi.

IV. Tobe komponentning ma'no-vazifasiga ko'ra

Ergash so'zli birikmalarning bu tasnifida tobe komponentning ma'nosi va vazifasi asos qilib olinadi. Shuning uchun ham sintaktik qurilmalarning umumiy tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham tobe

komponentning lotincha nomi bilan **atributiv, ob'yektli, relyativ, predikativ qo'shilmalar** deb to'rt tipga ajratilib o'rganiladi. Ba'zi olimlar bu tiplarni o'zbekcha termin bilan **aniqlovchili, to'ldiruv-chili, holli, kesimli birikmalar** deb ham nomlaydilar. Baribir, bunda ham tobe komponentning ma'no-vazifasi nazarda tutiladi. Biroq bunda atributiv, ob'yektli, relyativ, predikativ birikma terminlarining ba'zisi aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli, kesimli birikma terminlarining to'la muqobili emasligi hisobga olinishi kerak. O'zi aslida atributiv birikma aniqlovchili birikmaga (aniqlovchi+aniqlanmish), ob'yektli birikma to'ldiruvchili birikmaga (ob'yekt+harakat), relyativ birikma holli birikmaga (hol+harakat), predikativ birikma kesimli birikmaga (ega+kesim) teng kelishi kerak. Shunday tushunish ham bor. Atributiv, ob'yektli, relyativ, predikativ terminlari lingvistikada ana shu to'rt xil qo'shilmalarning atamasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq bu terminlarning bugungi tilshunosligimizda qo'llanishi farqsiz emas. Masalan, ob'yektli birikma termini bilan tushuniladigan materiallarning bir qismi, tobe komponenti ob'yekt bo'lishiga qaramay, holli birikma (*maktabga bormoq, maktabda o'qimoq, maktabdan kelmoq*) sifatida o'rganiladi. Yoki holli birikma termini ostida o'rganiladigan mana shu holatlar relyativ birikma termini ostida tushunilmaydi.

Quyida **atributiv, ob'yektli, relyativ, predikativ qo'shilmalarni** qarab chiqaylik.

Atributiv birikma. Atribut – lotincha so'z bo'lib, **belgi, aniqlovchi** ma'nolarni angalatadi. Shuning uchun ham aniqlovchi va aniqlanmish tipidagi so'z birikmalari **atributiv birikma** (tobe komponenti belgi anglatuvchi, aniqlovchi) deb ataladi. Atributiv birikmaning materiali quyidagi ko'rinishda bo'ladi: 1) **ot+ot:** *xalqimizning boyligi, yog'och uy;* 2) **sifat+ot:** *yangi dunyo, katta maydon;* 3) **siftdosh+ot:** *o'qigan yigit, aytilgan so'z;* 4) **son+ot:** *o'nta daftar, ikki ming birinchi yil, o'n sakkiz yosh;* 5) **olmosh+ot:** *bu maktab, shu bahor;* 6) **ravish+ot:** *ko'p qo'y, tez mashina;* 7) **mimema+ot:** *shov-shuv auditoriya, duv-duv gap* kabi.

Demak, atributiv birikmaning materiali a) moslashuvli, qaratqichli, aniqlovchili birikma; b) bitishuvli birikmaning bir qismini (sifatlovchi birikmani) o'z ichiga oladi (bu haqda aniqlovchi bahsida ham to'xtalamiz)

Ob'yektli birikma. Ob'yekt – lotincha so'z bo'lib, **narsa, predmet** ma'nosini anglatadi. Lingvistikada ob'yekt tushunchasi tor ma'noda to'ldiruvchi ma'nosida qo'llaniladi – to'ldiruvchining ifoda materiali narsa, predmetdir. Keng ma'noda gapning boshqa bo'laklari ham predmet bilan ifodalanishi mumkin. Demak, grammatik ob'yekt munosabatga kirishuvchi har qanday predmetni emas, balki birikma tarkibida kelib,

harakatning bajarilishiga bevosita yoki bilvosita qurol – vosita rolini o'ynaydigan, shu harakat tomonidan boshqariladigan tobe holatdagi predmetni anglatadi. Aks holda tobe komponenti narsa, predmet – umuman ot bilan ifodalangan atributiv (*quyoshning nuri*), predikativ (*nur – quyoshniki*) birikmalar ham ob'yektli birikma hisoblangan bo'lur edi.

Demak, tobe holatdagi predmet bilan harakat yoki belgi o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi birikma **ob'yektli birikma** deyiladi.

Ob'yektli birikma material jihatdan quyidagi ko'rinishlarga ega: 1) **ot+fe'l**: *osmonga uchmoq, yer haydamoq*; 2) **ot+sifat**: *qilichdan tez* (o'tkir ma'nosida), *qildan ingichka, otdan baland, itdan past* (maqol); 3) **ot+ravish**: *aqldan tez, chumolidan ko'p* kabi.

Ob'yektli birikmalar quyidagi grammatik vositalar bilan munosabatga kirishadi: a) kelishiklar bilan: *tog'da yashamoq, tog'dan o'tmoq, tog'dan kelmoq, tog'ni ko'rmoq*; b) ko'makchilar bilan: *tinchlik uchun kurashmoq, ilg'orlar kabi ishlamoq, do'stlar bilan yurmoq*; s) ham kelishik, ham ko'makchi bilan: *toqqa tomon bormoq, Termizga qadar uchmoq*; d) tartib bilan: *Yer haydasang, kuz hayda* (yer haydamoq), *Do'ppi tikdim to'rt gullik* (do'ppi tikmoq) kabi.

Demak, ob'yektli birikma: a) boshqaruv va bitishuv munosabatidan tashkil topgan to'ldiruvchili birikmalarni, b) boshqaruv yo'li bilan hosil qilingan holli birikmalarni (bitishuvli hol bunga kirmaydi) o'z ichiga oladi.

Relyativ birikma. Relyatium – lotincha so'z bo'lib, **nisbat, munosabat, holat, belgi** ma'nolarini anglatadi. Relyativ birikmada, asosan, holat (harakatning belgisi) bilan harakat o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Boshqacha aytganda, holat ifodalovchi tobe elementning harakat (fe'l) bilan hech qanday grammatik vositalarsiz munosabatga kirishishidan tashkil topgan birikmalar **relyativ birikma** deyiladi. Bu birikmaning material jihatdan ko'rinishi – maketi quyidagicha: 1) **ravish+fe'l**: *asta so'zlamoq, tez gapirmoq, ko'p bilmoq, ravon o'qimoq*; 2) **ravishdosh+fe'l**: *suyunib gapirmoq, yaraqlab ko'rinmoq, shaldirab oqmoq* kabi.

Demak, relyativ birikma uchun holli birikmaning bitishuv munosabatidan tashkil topgan turi – ravish holigina material bo'la oladi.

Predikativ birikma. Predikat so'zi lotincha predikatium – kesim+sub'yekt – ega birikuvi. Demak ega+kesim munosabatidan tuzilgan qo'shilma so'z birikmasi emas, gapdir. Bu tipdagi qo'shilmalar uzoq vaqt rus, jumladan, o'zbek tilshunosligida so'z birikmalari qatorida o'rganilib kelindi va bu ham tobe komponentning nomi bilan predikativ so'z birikmalari deb nomlanardi. Biroq keyinchalik predikativ qo'shilmaning

soʻz birikmasiga aralashtirilmasligi, uning gap ekanligi, gap bahsida oʻrganish zarurligi olimlar tomonidan toʻgʻri uqtirilgan.

Demak, predikativ qoʻshilma gapning oʻrganish obʼyektidir. Umuman, qoʻshilmalarni nomlash zarur boʻlganda, predikativ birikma terminini soʻz birikmasi maʼnosida emas, ega+kesim munosabatidan tuzilgan qoʻshilma-ga – gapga nisbatan qoʻllash mumkin.

V. Hokim komponentning ifodalanishiga koʻra

Har qanday soʻzni uning leksik va grammatik maʼnolariga qarab maʼlum turkumga kiritish (ot yoki feʼl deb), bular bilan ifodalangan gap boʻlaklarini **ot-kesim**, **feʼl-kesim** deb tiplashtirish mumkin. Biroq soʻz birikmalarini ifodalanishiga koʻra bunday tasniflab boʻlmaydi: bunga soʻz birikmasi tarkibining hamisha ham bir xil turkumdagi (yo ot, yoki sifat kabi) soʻzlardan boʻla bermasligi, unda birdan ortiq har xil leksik maʼno-ning mavjud boʻlishi kabilar imkon bermaydi. Toʻgʻri, soʻz birikmasi baʼzan faqat ot yoki feʼl bilan ifodalanishi – qoʻshilmaning sof otli, sof feʼlli birikma boʻlishi mumkin: *yogʻoch karavot*, *daraxtning bargi* (ot+ot); *yugurib etib keldi*, *yurib etib keldi* (feʼl+feʼl) kabi. Biroq bu talabni umuman, soʻz birikmasiga nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Chunki soʻz birikmalari koʻpincha har xil turkumdagi soʻzlarning munosabatidan tuziladi: *kitobni keltirmoq* (ot+feʼl); *koʻk muqovali kitobni keltirmoq* (sifat+ot+feʼl) kabi.

Demak, soʻz birikmalarini ifodalanishiga koʻra tasniflashda birikma-ning tuzilishida muhim rol oʻynaydigan soʻz – hokim komponent, uning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligi hisobga olinadi. Soʻz birikmalari hokim komponentning qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligiga qarab turlarga ajratiladi: ot boshqaruvidagi birikma – **otli birikma**, feʼl boshqaruvidagi birikma – **feʼlli birikma** kabi.

Otli birikma. Hokim komponenti ot, tobe komponenti boshqa soʻz turkumlari bilan ifodalangan birikmalar **otli birikma** deyiladi. Otli birikma quyidagi koʻrinishlarga ega: 1) **ot+ot**: *qoʻyning choʻponi*, *oltin qoshiq*, *gʻisht devor*; 2) **sifat+ot**: *oq qoʻy*, *shoʻx bola*, *shirin olma*, *oʻtkir pichoq*; 3) **sifatdosh+ot**: *oʻqilgan kitob*, *haydalgan er*, *oqar suv*; 4) **son+ot**: *besh baho*, *yigirma besh bola*; 5) **olmosh+ot**: *u yigit*, *bu kishi*; 6) **ravish+ot**: *koʻp kitob*, *oz shakar*; 7) **mimema+ot**: *bilq-bilq shoʻrva*, *loʻppi-loʻppi paxta* kabi.

Feʼlli birikma. Hokim komponenti feʼl boʻlib, tobe komponenti feʼldan boshqa soʻz turkumlari bilan ifodalangan birikmalar **feʼlli birikma** deyiladi. Feʼlli birikmaning materiali quyidagi koʻrinishda boʻladi: 1)

ot+fe'l: *xat yozmoq, kitobni o'qimoq, Karim bilan kelmoq*; 2) **sifat+fe'l:** *yaxshi gapirmoq, to'g'ri aytmoq*; 3) **ravishdosh+fe'l:** *uyalib gapirmoq, tortinmay so'zlammoq*; 4) **infinitiv+fe'l:** *mehnatni sevmmoq, o'qishni orzu qilmoq*; 5) **sifatdosh+fe'l:** *suyunganidan kulmoq*; 6) **son+fe'l:** *“besh” olmoq, yuzni ikkiga bo'lmoq*; 7) **olmosh+fe'l:** *seni ko'rmoq, undan so'ramoq, o'shani sevmmoq*; 8) **ravish+ fe'l:** *ko'p kutmoq, keyin kelmoq, tez yurmoq*; 9) **mimema+fe'l:** *taq-tuqni to'xtatmoq, shov-shuvni bosmoq* kabi.

Ravishli birikma. Hokim komponenti ravishdan, tobe komponenti boshqa so'z turkumlaridan bo'lgan birikma **ravishli birikma** deyiladi: *ovozdan tez, kitob bilan to'la* kabi.

Sifatli birikma. Hokim komponenti sifat, tobe komponenti boshqa so'z bilan ifodalangan birikma **sifatli birikma** deyiladi: *sutdan oq, shakardan shirin, qilichdan tez, qildan ingichka* kabi.

Ravish va sifatning boshqaruvchilik xususiyati juda passiv bo'lib, ot va fe'l boshqaruviga nisbatan yordamchi hodisadir. Bular chiqish kelishigidagi otnigina boshqaradi, xolos.

VI. So'z birikmasining tuzilishi

So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **sodda birikma, murakkab birikma.**

Ikkita mustaqil so'zning (komponentning) grammatik-semantik munosabatidan tuzilgan birikma **sodda birikma** deyiladi: *baland tog', buloqning suvi, gulni termoq, pichoq bilan kesmoq* kabi. Biroq sodda so'z birikmasi hamma vaqt bunday ikki so'zli bo'lmasdan, ko'p so'zli (*Termiz davlat universitetining+binosi, ishlab chiqarish boshqarmasiga+ uch-rashmoq* kabi) ham bo'ladi va murakkab birikmaga o'xshab ketadi. Ammo bunda birdan ortiq so'zning birikma tarkibida bitta komponent vazifasida kelishi – bari bir birikmaning ikki komponentli bo'lib qolaberishi murakkab birikmani hosil qilmaydi. Bunday qo'shilishlar quyidagi shakllarda bo'ladi:

1. Ikki va undan ortiq so'zlarning tobelanish munosabatidan tuzilgan, keyinchalik so'zlashib, leksikalizatsiyalashib bir murakkab tushuncha anglatadigan va bir predmetning yoki tushunchaning atamasi bo'lib xizmat qiladigan murakkab so'zlar, murakkab terminlar bilan ifodalanadi. Misollar: *O'zbekiston Fanlar akademiyasida+ishlamoq, Toshkent davlat universitetining+professori, Navoiy teatrini+ko'rmoq, “O'qish kitobi”ni +sotib olmoq, “Tafakkur” jurnaliga+yozilmoq* kabi.

2. Bir umumiy affiksga ega bo'lgan yoki bir butun holda qo'llanadigan ajralmas birikmalar bilan: *to'rt xonali+uy*, *qora ko'zli+bola*, *o'ttiz besh so'mlik+daftar*, *sakson yashar+chol*, *ming gektar+yer* kabi.

Demak, bu tipdagi so'z birikmalarida tobe komponent o'z ichida alohida so'z birikmalarini tashkil qilsa-da (*sakson yashar*, *to'rt xona*, *qora ko'z*, *ming gektar* kabi), birikma tarkibida bosh so'z bilan alohida munosabatga kirisha olmaydi (*xonali uy*, *ko'zli bola*, *so'mlik daftar*, *yashar chol*, *gektar yer* deb bo'lmaydi). Ular bir butun holda bitta tobe komponent holatida bo'ladi.

3. Ega+kesim qolipidagi qo'shilmalar bilan: *siz aytgan+bola* (*aytgan bola* deb bo'lmaydi), *aqli bor+yigit* (*bor yigit* emas), *sochi uzun+qiz* (*uzun qiz* emas), *qo'li ochiq+kishi* (*ochiq kishi* emas) kabi.

4. Frazeologik birikmalar – barqaror iboralar bilan: *tegirmonga tushsa*, *butun chiqadigan+odam*, *oq terakmi*, *ko'k terak+o'ynamoq* kabi.

Bu ko'rinishdagi sodda (baribir ikki komponentli) birikmalar *olmaning guli* tipidagi sodda birikmalarga qaraganda ham mazmun, ham tuzilishi jihatidan birmuncha murakkab ekanligini nazarda tutib, **murakkablashgan sodda birikma** deb ham atash mumkin.

Murakkab birikma. Uch va undan ortiq komponentlarning grammatik-semantik munosabatidan tuzilgan birikma **murakkab birikma** deyiladi. Murakkab birikma sodda birikmaning kengayishidan, yoyiq tusga kirishishidan hosil bo'ladi: *yangi bino* – *katta+yangi bino*, *xira yulduz* – *yettita+xira yulduz* – *g'uj bo'lib turgan+yettita xira yulduz* kabi. Demak, murakkab birikmada ham qanchalik yoyiq bo'lmasin aniqlovchi-aniiqlanmish tipidagi ikkita qutb mavjud. Biroq bular o'z ichida erkin ravishda ajrala beradi

4-mavzu: GAP VA HUKM

reja:

1. Gapning ta'rif va tavsifi.

2. Hukmning ta'rif va tavsifi.

3. Gap va hukmning o'xshash va noo'xshash xususiyatlari.

4. Xulosa.

Til va tafakkurni bog'liq holda o'rganish, avvalo, ijtimoiy hodisa bo'lgan tilni, uning rivojlanish jarayonlarini tushunib olishda katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, tafakkur yuksak darajada rivojlangan miyaning mahsulidir. Tafakkur moddiy dunyoning kishi ongida aks etishidir. Inson moddiy dunyoni sezgi, idrok, tasavvur orqali anglaydi va uni tushunchalar, hukmlar va xulosalar bilan umumlashtiradi.

Hukm tafakkurning tushunchaga nisbatan murakkabroq shaklidir. Hukmda voqelikdagi predmet va hodisalar yakka-yakka holda emas, balki o'zaro munosabatda, bir-birlari bilan bog'liq holda aks etadi. Hukm qilmoq (fikrlamoq) predmet va hodisalarni o'zlarining belgilari bilan birlikda ongimizda aks ettirmoq demakdir. Har qanday bilim – bu hukmdir, chunki faqat hukmdagina nimadir tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi.

Hukm mazmunan to'g'ri yoki xato bo'lishi mumkin. To'g'ri, hukm voqelikni aynan aks ettiradi. Xato hukm esa voqelikka mos kelmaydigan, haqiqatga xilof bo'lgan hukmdir. Har bir hukmda uch element bo'ladi:

1. O'zi to'g'risida fikr yuritilayotgan predmet (hukm sub'yekti).
2. Shu predmet haqidagi fikr va tushuncha (hukm predmeti).
3. Sub'yekt va predikat o'rtasidagi munosabat.

Hukm sub'yekti fikr o'ziga qaratilgan predmet yoki shaxs bo'lib, hukm predikati esa shu predmetga qarashli belgidir. Bu belgi bog'lama yordami bilan hukmda tasdiq yo inkor qilinadi. Ba'zan bog'lama "tushib qoladi" biroq u fikran anglashiladi.

Hukmning mohiyatini aniqlash uchun tafakkurning sodda formasi bo'lgan tushuncha haqida tasavvurga ega bo'lish zarur. Tafakkurning sodda shakli bo'lgan tushunchada voqelikdagi predmet hodisalar hamda ularning belgilari bir-birlari bilan munosabatga kirishmagan holda yakka-yakka aks etadi.

Umuman, tafakkur va tafakkurning ayrim shakllari bo'lgan tushuncha va hukm til bilan bevosita bog'liqdir. Tilning mazmuni, fikrning yashashidir. Chunki til fikrning bevosita voqe bo'lishi, amaliy voqeyiy ongdir. Til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir.

Til tafakkur faoliyati natijalarini gapda ifodalaydi, reallashtiradi va mustahkamlaydi. Shunday qilib, fikr almashish imkoniyati vujudga keladi. Til tafakkur bilan uzviy munosabatda bo'ladi. Tafakkur voqelik bilan bog'langan. Demak, tafakkurni ifodalash shakli bo'lgan til, aniqlik-g'i, gap voqelik bilan munosabatdadir. Til tafakkur va voqelik o'rtasidagi munosabatni shunday ifodalash mumkin: tafakkur voqelikni o'zida aks ettiradi, til esa tafakkurni ifodalash shaklidir. Demak, tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, tafakkursiz tilning ham bo'lishi mumkin emas.

Biroq, tafakkur va tafakkurni ifodalash shakli bo'lgan tilga aynan bir-biriga o'xshash hodisalar deb qarash va shu nuqtai nazardan ularni bir qatorga qo'yib o'rganish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki o'zaro dialektik birlikni tashkil qiluvchi til bilan tafakkur o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu, asosan, quyidagilardir:

1. Fikrlash qonunlari hamma xalqlar uchun bir, ammo fikrning ifodalanish usullari esa turli xalqlarda har xildir. Boshqacha aytganda, fikrni ifodalovchi gap har bir tilning o'ziga xos qonun-qoidalarini asosida tashkil topadi.

2. Bir fikrning o'zi til taraqqiyotining turli davrlarida boshqa-boshqa formalarda ifoda qilinishi mumkin.

3. Hattoki bir davr ichida ham bir fikrning turli formalarda, ya'ni turlicha (sodda yoki qo'shma) gap tuzilishlari orqali ifoda qilinishi mumkin.

4. Fikrlashda hukm elementlari bo'lgan sub'yekt, predikat ba'zan boqlama bo'lishi shart. Gap esa bir, ikki, uch va ko'p elementdan iborat bo'lishi mumkin.

5. Fikrlash formasi bo'lgan bir hukmda predmet va uning belgisi haqida nimadir yo inkor, yo tasdiq qilinadi, xolos. Fikrlash ifodasi bo'lgan gap esa faqat birgina emas, bir necha hukmni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, *Faqat mehnatsevarlarga hurmatga sazovordir* gapida bitta emas, ikkita hukm mavjud: a) *Mehnatsevarlar hurmatga sazovordirlar*, b) *Ishyoqmaslar hurmatga sazovor emaslar* kabi.

6. Tafakkur tushuncha va hukmlar bilan ish ko'radi. Til esa so'z, so'z birikmalari va gaplarga asoslanadi.

7. Tafakkurdagi umumlashtirish (abstraksiyalash) bilan tildagi umumlashtirish o'rtasida hamma vaqt moslik bo'lavermaydi. Masalan, *stol* va *stollar* so'zlaridagi birlik va ko'plik tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, tilda ham, tafakkurda ham mos keladi. Ammo *Gulbahor* va *Saodat* so'zlarini jinsga ajratish logik jihatdan tabiatdagi jins (rod) tushunchasi bilan hech qanday aloqasi yo'q.

Til va tafakkurning shu kabi o'zlariga xos xususiyatlari ularning bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Demak, biz til faktlarini o'rganishda va grammatik kategoriyalarni ta'riflashda ularni hisobga olmag'imiz lozim. Ob'yektiv voqelikning tafakkurda aks etish qonun-qoidalarini tekshirish logikaga xosdir. Fikrning yashash shakli bo'lgan tilning o'ziga xos xususiyatlari esa grammatikaning tekshirish ob'yektidir. Shu bilan birga tafakkur bilan til o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham aniqlash talab qilinadi, albatta. Bu esa til va tafakkur to'g'risida alohida-alohida aniq tasavvurga ega bo'lishga bog'liqdir.

Tafakkurning murakkab shakli bo'lgan hukm tilda tilning murakkab shakli bo'lgan gap bilan ifoda qilinadi. Gap hukmning ifoda shaklidir, o'zaro munosabat birligidir.

Tafakkurning sodda shakli bo'lgan tushuncha tilda tilning sodda shakli bo'lgan so'z bilan ifodalanadi. So'z tushunchaning ifoda shaklidir.

Tafakkurda o'zaro munosabatga kirishmagan tushunchalar moddiy birlikni to'la ravishda aks ettira olmaganlaridek, tilda ham o'zaro birikib kelmagan ayrim tushunchalarni ifodalovchi so'zlar voqelikni to'la aks ettira olmaydilar va o'zaro munosabat birligi bo'la olmaydilar.

So'zning ma'nosi va so'z bilan ifoda qilingan tushuncha o'zaro munosabatda bo'lganidek, bularning har ikkilasi voqelikdagi hodisalar bilan aloqadordirlar. Biroq so'z ma'nosining voqelikdagi munosabati tushunchaning shu hodisalarga bo'lgan munosabatiga nisbatan boshqachadir. Kishining ongi predmetlar haqidagi tushunchalarni sezgi, idrok, tasavvur, predmetlarning asosiy belgilarini umumlashtirish orqali hosil qiladi. So'z esa predmet va hodisani ularning biron belgisiga ko'ra ataydi. Demak, so'zning ma'nosi bilan tushuncha o'rtasida qandaydir umumiylik mavjud, lekin ular aynan bir emas.

So'z – bu ma'no tashuvchi va voqelikdagi o'zi ifodalagan hodisalarga mos keluvchi, shu hodisalar to'g'risidagi tushunchalarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, tarixan ma'no bilan bog'langan grammatik shakllangan tovushlar bog'lanmasidir. So'zning ma'nosida voqelik aks etadi, so'zning ma'nosi predmet haqidagi tushunchadir. Til bilan tafakkurning birligi ham ana shundadir.

Biroq so'z ma'nosi bilan tushuncha o'rtasida birmuncha muhim farqlar ham mavjuddirki, bu farqlar quyidagicha:

1. So'zning ma'nosi so'zning leksik va grammatik birligidan iboratdir. So'zning leksik ma'nosi ko'pincha predmetning biron muhim belgisiga ko'ra shu predmet bilan aloqador bo'ladi. Biroq shu belgining o'zi boshqa predmetlarda ham bo'lishi va boshqa predmetlar ham shu nom bilan atalishi mumkin. Natijada so'z ko'p ma'noli bo'lishi yoki boshqa so'zlar bilan almashinishi, sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin. Voqelikni aks ettiruvchi tushuncha esa ko'p ma'noli bo'la olmaydi.

2. So'zning leksik ma'nosi so'zning grammatik shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Shunga ko'ra so'zlar so'z turkumlariga ajraladi. Logik kategoriya jumlasidan bo'lgan tushunchalar esa bunday ajralish asosiga ega emaslar.

3. So'zning leksik ma'nosi idrok bilangina emas, balki kishi psixikasining emotsional va ifoda tomoni bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. So'zning leksik ma'nosiga emotsional tus kasb etishi mumkin.

4. So'zning leksik ma'nosi har xil, espressiv qimmatga ega bo'ladi. Tushuncha faqat chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin.

5. Tushuncha hamma xalqlar uchun bir xildir. Ammo, bir tushunchaning o'zi turli xalqlarda har xil nom bilan ataladi, masalan, o'zbekcha: *kishi*, ruscha: *человек*.

6. Bir tilning o'zida bir tushunchaning o'zini turlicha atovchi sinonimlar, bir xil tovush yig'indilari bilan atovchi omonimlar mavjud. Masalan, sinonimlar: *sovg'a, tortiq, hadya, tuhfa*; omonimlar: *uch* (fe'l), *uch* (son), *uch* (ot: nayzaning uchi).

Demak, so'z tafakkurning sodda shakli bo'lgan tushunchani ifodalaydi. Biroq tafakkurning murakkab shakli bo'lgan hukmni anglatishda ishtirok qiladi, ya'ni fikrni ifodalashda so'zning leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi chatishadi. Demak, tilda so'z va iboralarning leksik ma'nolarigagina e'tibor berilib qolmasdan, ularning grammatik ma'nolari ham hisobga olinmog'i lozim. Har bir morfologik va sintaktik hodisa grammatik ma'noga ham egadirki, bu ma'no, umuman, gapda, gap ichida so'zlarning qonuniy bog'lanishida, har bir so'zda, so'zlarning ma'no tashuvchi bo'laklarida – o'zak va qo'shimchalarda o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, so'z leksik-grammatik birlik bo'lib, bu birlikda leksik ma'no bilan grammatik ma'no birlashadi. Har bir so'z, bir tomondan xususiy, konkret leksik ma'noga ega bo'lib, bu ma'no, asosan, izohli lug'atlarda qaraladi, ikkinchi tomondan so'z grammatik ma'noga ega bo'lib, bu ma'no ma'lum so'zning o'zgarishiga va gapda boshqa so'zlar bilan birikib kelishiga asoslanadi va grammatikada o'rganiladi.

So'zning ma'nosi ma'lum tushuncha bilan va tushuncha orqali ob'yektiv voqelikdagi predmet va hodisalar bilan bog'liqdir. Tushuncha predmet va hodisalarni ularning umumiy va asosiy belgilariga ko'ra umumlashtiradi. Tushunchaning ifoda shakli bo'lgan so'z ham umumiylikka egadir, ya'ni so'z aniq predmet va hodisalarni yakka-yakka atamasdan, bir jins yoki bir turni tashkil qiluvchi predmet yoki hodisalarni umuman ataydi. Tilda faqat umumiylik mavjuddir. Boshqacha bo'lishi mumkin emas, chunki har bir yakka predmet yoki hodisa maxsus nom bilan atalganda edi, shuncha ko'p nomlarni esda saqlashga kishi ojizlik qilar edi. Biroq umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan so'z ma'lum sharoitda yakka predmetni ham atab kelishi mumkin. Bu holda so'zlovchi bilan tinglovchi umumlashtiruvchi so'zni yakka, konkret predmet bilan bog'laydilar. Demak, so'z umumiylik bilan juz'iylikning birligidir. Masalan, *Kitob bilim manbaidir* gapida avvaldan ma'lum, aniq bir kitobni nazarda tutmasdan, umuman, har qanday kitobni tushunamiz. Bunda *kitob* so'zi umuman kitob jinsini atab kelgan. Ammo *Siz menga bergan kitobni*

o'qib chiqdim gapida ma'lum bir kitob haqida fikr bayon qilinadi. Bu o'rinda *kitob* so'zi nisbatan konkret tushunchani ifodalagan.

So'zning ma'nosi ma'lum tushunchaga asoslanadi. Biroq, bu ma'no tushunchaga nisbatan ancha keng bo'ladi. So'z ma'nosida tushunchaning tavsifi, so'zlovchining predmet va hodisaga bo'lgan munosabati, so'zning uslubiy qimmati ham o'z ifodasini topadi. Masalan, *do'st, jo'ra, oshna, og'ayni, o'rtoq* so'zlari bir logik tushunchani ifodalasalar ham, uslubiy qimmatlari boshqa-boshqadir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, hukm tilda gap bilan ifodalanadi. Gap hukmning reallashishi, yashash formasidir. Til faqat gap holiga kelgandan keyingina, ya'ni grammatik jihatdan tashkil topgandan keyingina, hukmni ifodalash kuchiga ega bo'ladi va gap nutq birligi sifatida kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qila boshlaydi. Gap tilning sodda, lekin muhim elementlari bo'lgan so'zlarning tilga xos ichki qonun-qoidalari asosida o'zaro birikuvidan tashkil topadi. Gap grammatik shakllangan asosiy sintaktik birlikdir. Gapda voqelik to'g'risida xabar berilibgina qolmasdan, shu voqe-likka so'zlovchining munosabati ham o'z ifodasini topadi. O'zaro munosabat birligi bo'lgan gap so'zlovchi uchun fikrni ifodalash vositasi bo'lsa, tinglovchi uchun fikrni tushunib olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Gap ikki tomonlamadir. Har bir gapda ifodalovchi moddiy tomon va ifodalanuvchi mazmun tomon mavjuddir. Ifodalovchi tomon til birliklaridan, so'z tarkibidan iborat bo'lib, bu aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Ifodalanuvchi – mazmun tomon esa ifodaning o'zi bo'lib, bu ifoda xabar berish ob'yektidan iboratdir. So'zda bo'lganidek, gapda ham belgi bilan ma'no birligini, moddiylik bilan g'oya birligini ko'ramiz. So'zda tovush qobig'i va ma'no bo'lganidek, gapda ham so'z tarkibi va ifoda mavjuddir. Gap fikrning ifoda shaklidir.

Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosalar chiqadi: gap hukm bilan dialektik aloqada – har qanday gap hukm ifodalaydi, hukmning ifodalanish shakli gapdir. Bu jihatdan darak gap o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki unda hukm yo tasdiq (*Mehmonlar bugun dalaga chiqishadi*) yoki inkor (*Mehmonlar dalaga chiqishmaydi*) shaklda ifodalanadi. Demak, inkor va tasdiq hukmning ifodalanish shakli bo'lishli va bo'lish-siz gap hisoblanadi. Albatta, logik inkor-tasdiq bilan grammatik bo'lishli-bo'lishsizlik aynan bir xil hodisa emas: grammatik inkordan logik tasdiq (*Karim qo'liga tushgan kitobni o'qimay qo'ymaydi* – albatta o'qiydi), grammatik tasdiqdan logik inkor (*Boraman, ha, boraman* – borib bo'libman, bormayman) anglashiladi. Yoki *Sayohatga chiqishni kim sevmaydi* tipidagi ritorik gaplar ham, aksincha, kuchli tasdiq ifodalaydi.

Buyruq, so'roq, undov gaplar ham hukm ifodalaydi, biroq bundagi hukm ifodalash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hukm sub'yekt (ega yoki ega tarkibiga to'g'ri keladi) va predikat (kesim yoki kesim tarkibiga to'g'ri keladi) qismlarning birikishidan tashkil topadi. Gap esa bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklardan ham tuziladi. Demak, hukm ikkinchi darajali bo'lakni tan olmaydi. Masalan, *Uzoq tog' yon bag'irlaridan esayotgan salqin shabada qizning mayin va parishon sochlari bilan o'ynashar edi* gapi hukm nuqtai nazaridan ikki elementdan (*Uzoq tog' yon bag'irlaridan esayotgan salqin shabada* – **sub'yekt**, *qizning mayin va parishon sochlari bilan o'ynashar edi* – **predikat**, bog'lama ham shuning ichida. Gap nuqtai nazaridan o'nta bo'lakdan iborat: *uzoq* – aniqlovchi, *tog' yon bag'irlaridan* (o'z ichida bo'laklanadi) – hol, *esayotgan* – aniqlovchi, *salqin* – aniqlovchi, *shabada* – ega, *qizning* – aniqlovchi, *mayin* – aniqlovchi, *parishon* – aniqlovchi, *sochlari bilan* – to'ldiruvchi, *o'ynashar edi* – kesim.

Demak, hukm va gap bir-biri bilan qanchalik yaqin bo'lmasin, ular o'zaro farqli hamdir: hukm logik hodisa – logikaning o'rganish ob'yekti, mantiqiy tafakkurning qonun va shakllarini o'rganadi; gap – grammatik hodisa, grammatikaning o'rganish ob'yekti, gap va uning turlarini, shakllarini o'rganadi va b.

Endi gapning o'ziga xos xususiyatlarini qarab chiqaylik:

1. Gap predikativlik anglatishi kerak. Shuning uchun ham predikativ qo'shilma gapning materiali bo'lib xizmat qiladi. Predikativlik uch xil grammatik kategoriyaning o'z ichiga oladi. Bular: shaxs-son, zamon va modallikdir. Mana shu uch xil kategoriya mavjud bo'lgan qo'shilmalar gapni ko'rsatadi – fikr ifodalaydi. Masalan, *Endilikda insonlar kosmosda hayot kechirishni o'rganmoqdalar* gapida predikativlik III shaxs ko'plik-ni, hozirgi zamonni, so'zlovchining voqelikka bo'lgan qat'iy ishonchini; *Sen injener bo'larsan* gapida esa II shaxs birlikni, kelasi zamonni, ikkilanish, gumonsirash, taxmin kabi ma'nolarni ifodalagan.

Demak, predikativlik tushunchasi butun gapga xos bo'lib, gapning mazmunidan bilinib turadi. Har qanday gap asosida voqelik yotadi. Gap o'z mundarijasini ana shu voqelikdan oladi. Narsa, predmet, hodisalar va ular-ning xususiyatlarini o'zagida aks ettiradi. Boshqacha aytganda, sub'yektning (so'zlovchining) fikr ob'yektiga nisbatan munosabati, qarashlari intellektual tuyg'ulari (inkor, tasdiq, qat'iy inkor, qat'iy tasdiq, juz'iy inkor qilishi, taxmini, ikkilanishi, gumoni, hayrati, rad etishi, kesatig'i, qodir-qodir emasligi, ishonchi, ta'kid va taajjubi kabilar) o'z ifodasini topadi. Masalan, *Mehmonlar ertaga qishlog'imizga ham*

keladilar gapida xabar oddiy ishonch bilan tasdiqlangan. Yana solishtirib ko'raylik: *Mehmonlar ertaga qishlog'imizga albatta keladilar* (xabar, qat'iy tasdiq), *Mehmonlar ertaga qishlog'imizga kelar ekan* (eshitilganlik), *Mehmonlar ertaga qishlog'imizga kelar emish* (eshitilganlik, kesatiq, norozilik ottenkasi), ...*kelar emish* (kelib bo'пти, kela olmaydi – rad etish, inkor), ...*kelar emish-a?* (so'zlovchiga noma'lum – ta'kid, taajjub), ...*kelar, kelsa, keladiganday, kelsa kerak, kelar-ov* (ikkila-nish, gumonsirash, taxmin, orzu-istak) kabilar.

Sub'yektning fikr ob'yektiga bo'lgan mana shunday qarashlarisiz – modalliksiz gap mavjud bo'lmaydi.

Gap zamon ifodalaydi. Zamondan tashqarida hech narsa bo'lmagani-dek, gap ham bo'lmaydi. Har qanday gap, nutq har uch zamondan birini ko'rsatadi (umumzamon ham shunga kiradi). Agar gap zamon ifodalamas, u hali qurilmaning gap emasligini ko'rsatadi.

Gapda zamon ma'nosi turli xil yo'llar bilan ifodalanadi. Masalan, zamon ko'rsatuvchi maxsus fe'llar bilan: *ma'ruza o'qildi* (o'tgan zamon), *ma'ruza o'qilayapti* (hozirgi zamon), *ma'ruza o'qiladi* (kelasi zamon). Zamon tushunchasini kesimi ot bilan ifodalangan gaplar ham ko'rsata beradi: *Ahmad injener bo'ldi. Vali talaba ekan*. Bunday gaplar bog'lama qo'llanilmaganda ham zamon ko'rsata beradi – hozirgi zamon anglashilib turadi: *Vali – talaba, Opam – shifokor* kabi. Demak, zamon tushunchasi gap tushunchasining ajralmas bir qismidir.

Zilzila! Shamol! Odam! kabi so'zlar ham zamon kategoriyasi (hozirgi zamon) bilan bog'langandagina gap hisoblanadi.

Gap shaxs tushunchasi bilan ham zich bog'langan. So'zlovchi va tinglovchisiz gapning, nutqning mazmunini tasavvur qilib bo'lmaydi. So'zlovchi fikrini gap orqali ifodalaydi. Tinglovchi ham shu fikrni gap asosida qabul qiladi, o'zgalarga tushuntiradi. Demak, gapda I shaxs, II shaxs, III shaxsning (shaxs kategoriyasining) mavjudligi ob'yektiv zaruriyat ekanligi anglashiladi.

Biroq gapda shaxs kategoriyasi zamon kategoriyasidan ajralgan bir hodisa emas. Bu ikki holat gapda birgalikda harakat qiladi, birga yashaydi. Son kategoriyasi ham xuddi shunday. Shaxs kategoriyasi o'z ichida son kategoriyasini saqlaydi. Masalan: *Biz o'z vatanimizni sevamiz* gapida hozirgi-kelasi zamon ma'nosidan tashqari, I shaxs, birlikni ham anglaymiz.

Gapning shaxs, son, zamon kategoriyalarini ko'rsatishida kesimning sof fe'l bilan ifodalanishi, eganing konkret qo'llanish va qo'llanmasligi ahamiyatlidir. Masalan: *men bordim*: I shaxs, birlik, *sen bording*: II shaxs, birlik; *u bordi*: III shaxs birlik. Biroq ot (keng ma'noda) o'z holicha gap

bo'la olmaydi, shaxs ko'rsata olmaydi; fe'l bunday emas, har bir sof fe'l bir gapdir. Ot quyidagi holatlarda shaxs tushunchasini ifodalaydi – predikativlik ko'rsatadi: a) predikativlik affikslari bilan shakllanganda: *paxtakorman, paxtakorsan, paxtakordir*; b) ega bilan munosabatga kirishganda (bunda kesimlik qo'shimchalarining qo'llanilishi shart emas): *men – paxtakor, sen – paxtakor, u – Paxtakor* kabi.

Demak, otli gap uch xil formada shakllanadi: *paxtakorman, men paxtakor, men paxtakorman*. Bu gaplar mazmun jihatdan emas, shakl – shaxsning ifodalanishi jihatidan farqlidir: birinchi holatda shaxs kesim orqali, ikkinchi holatda ega orqali, uchinchi holatda ham ega, ham kesim (shaxs ikki marta ko'rsatilgan) orqali ifodalangan. III shaxs tushunchasi hajm jihatdan I-II shaxsdan keng; I-II shaxs tushunchasi faqat insonga xos bo'lib, kishilik olmoshlari bilan, III shaxs tushunchasi inson va boshqa predmet-hodisalarga xos bo'lib, kishilik olmoshi va keng ma'nodagi otlar bilan ifodalanadi: *men keldim, sen kelding, u keldi; Karim keldi, shamol keldi, mol keldi, qushlar keldi, suv keldi* va b.

Demak, predikativlik gapning muhim belgisi sifatida shaxs-son, zamon va modallik tushunchalarini birlashtiradi – qo'shilmaning kommunikativ vazifa bajarganligini ko'rsatadi.

Gapning muhim belgilaridan yana biri gapga xos bo'lgan, tugallangan intonatsiya – intonatsion butunlikdir. Intonatsiya gap tuzilishida faol ishtirok etadi. Fikrning tugallanganligi, qo'shilmaning gap bo'lganligi yoki gap bo'lmaganligi intonatsiyadan bilinib turadi. Masalan, *o'sha artist* birikmasida intonatsiya tugallanmagan, davomli, “ochiq”, shuning uchun birikma o'zidan keyin yana qandaydir so'zlar qo'shilishini talab qilib turibdi, buni tinglovchi ham kutadi. Demak, *o'sha artist* – so'z birikmasi. Agar *O'sha artist bizning qishlog'imizga ham kelgan edi* tarzida shakllantirilsa, intonatsiyaning o'zgarganligi, tugallanganligi, yopiq holatga aylanganligi – gap hosil bo'lganligi anglashiladi. Yoki *o'sha artist* birikmasi grammatik shakllantirilmasdan, ajratuvchi pauza bilan aytilib, oxirida intonatsiya tushirilsa, gapga aylanadi: *O'sha – artist* (ega+kesim).

Gap moddalliksiz mavjud bo'lmaganidek, uni intonatsiyasiz ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir gap intonatsion va fikriy tugallikka ega bo'lishi kerak. Istalgan gap aytilganda, so'zlovchining xohishidan qat'iy nazar, intonatsiya zaruriy ravishda ishtirok etgan bo'ladi. Intonatsiya ma'lum ma'noda gapning “qonidir”. So'zlar tashqi tomondan grammatika tufayli munosabatga kirishsa, ichki tomondan ularni intonatsiya ushlab turadi, umumiy mazmunga birlashtiradi. Demak, intonatsiyani gapning mazmunidan ajratib bo'lmaydi.

Intonatsiya gapning mundarijasini, turlarni belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan, darak, so'roq, buyruq, undov gaplar o'z intonatsiyalariga egadir. Yoki intonatsiyaning o'zgarishi bilan bir turdagi gap boshqa turlarga aylanishi mumkin: *Vertolyot keldi*: oddiy xabar, kelishi kutilgan edi (darak gap, tushuvchi intonatsiya); *Vertolyot keldi?*: taajjub, shu vaqtda kelishi kutilmagan edi (so'roq gap – so'roq intonatsiyasi); *Vertolyot keldi!*: uzoq kutilgan edi, birdan uchib kelib qoldi, tez xabar, emotsiya bilan aytiladi (undov gap – hayajonli intonatsiya).

Umuman, gapda predikativlik bilan intonatsiya qo'shilib ketadi – birgalikda harakat qiladi, gapning fikriy va intonatsion jihatdan tugallanganligini (nisbiy tugallik), grammatik jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi.

Demak, gap grammatik jihatdan shakllangan, fikriy va intonatsion tugallikka ega bo'lgan, predikativlik ko'rsatadigan, hukm ifodalaydigan sintaktik qo'shilma yoki nutq birligidir.

5- mavzu: GAP TASNIFI. GAPNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI reja:

- 1. Sodda va qo'shma gaplar, ularni birlashtiruvchi va ajratuvchi farqlar.**
- 2. Yig'iq va yoyiq sodda gaplar.**
- 3. Bir tarkibli va ikki tarkibli sodda gaplar.**
- 4. Bir tarkibli yig'iq va bir tarkibli yoyiq sodda gaplar.**
- 5. To'liq va to'liqsiz gaplar.**
- 6. Xulosa.**

Gap, dastavval, ikki xil asosda tasnif qilinadi: a) tuzilishiga ko'ra, b) kuzatilgan maqsadga yoki mazmuniga ko'ra. Birinchi tasnifda gap tashqi tomondan – tuzilishi jihatdan turlarga ajratilib o'rganilsa, ikkinchi tasnifda gap ichki tomondan – mazmunning turi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Gap tuzilishiga ko'ra ikki turga ajraladi: **sodda gap** va **qo'shma gap**. Gapni bunday tiplarga ajratishda uning nechta predikativ qo'shilmadan tashkil topganligi – sodda gaplarning miqdori nazarda tutiladi.

Agar gap grammatik, fikriy va intonatsion jihatdan shakllangan, bir nisbiy tugal fikr ifodalaydigan, tarkibi ayrim gaplarga – predikativ qo'shilmalarga bo'linmaydigan bo'lsa, sodda gap sifatida ajratiladi va **sodda gap** deyiladi. Masalan, *Samarali mehnat farovonlik keltiradi. O'zbekiston jahonga yuz tutmoqda.*

Agar gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning qo'shilishidan tuzilib mazmun va intonatsion jihatdan bir butunlikka ega bo'lgan qurilma bo'lsa,

qo'shma gap sifatida ajratiladi va **qo'shma gap** deb ataladi. Masalan, *Olim bo'lsang, olam seniki* (maqol). *Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz* (H.O.) gaplarining har qaysisi ikkita predikativ qo'shilmadan tuzilgan, fikriy va intonatsion jihatdan nisbiy tugallangan fikr ifodalagan, bir-birlari bilan grammatik-semantik munosabatga kirishgan va bir butun intonatsiyaga ega. Demak, qo'shma gap, dastavval, tarkibidagi sodda gaplarning miqdori birdan ortiqligi bilan alohida olingan sodda gapdan farqlanadi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar (komponentlar) alohida olingan sodda gaplar emas, ular fikriy va grammatik intonatsion jihatdan to'la shakllanib yetmagan, tugallanmagan – "ochiq" gaplardir. Shuning uchun ham ular bir-birining bo'lishini talab qiladi. Qismlari grammatik-semantik munosabatga kirishib, fikriy va intonatsion jihatdan tugallangan bir butun qurilmani tashkil etadi. Agar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida olingan sodda gaplarga teng deb qaralsa, qo'shma gap va unga xos fikriy-grammatik va intonatsion butunlik buzilgan bo'ladi. Masalan, *Qo'rqitmay o'stirdim, botir bo'ldingiz* qo'shma gapining birinchisidan keyin intonatsiya uzilmaydi, davomi kutiladi. Bunda gaplar bir butun intonatsiyaga birlashtirilgan. Ular alohida sodda gaplarga ajratilsa, qo'shma gap orqali anglashilgan fikr o'zgarib ketadi.

Sodda gap tuzilishiga ko'ra, dastavval, **yig'iq** va **yoyiq** sodda gaplarga bo'linadi. Bu bo'linishda gapda ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etishi va etmasligi asos qilib olinadi. Gap faqat bosh bo'laklardan (ega va kesimdan) tuzilgan bo'lsa, **sodda yig'iq gap** deyiladi. Misollar: *Do'stligimiz mustahkamlandi. Til aloqa vositasidir. Mehnat – baxtdir.* Demak, sodda yig'iq gaplarda ikkinchi darajali bo'lak ishtirok etmaydi.

Agar sodda gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokidan tuzilsa, **sodda yoyiq gap** bo'ladi: *Bu yilgi qurultoy mart oyining boshida o'tdi* (aniqlovchi+ega+hol+kesim). *Jismoniy mashqlar organizmni har xil kasalliklardan saqlaydi* (aniqlovchi+to'ldiruvchi+kesim). Demak, sodda yoyiq gap sodda yig'iq gapga ikkinchi darajali bo'lak orttirish: uni kengaytirish, yoyiq tusga kiritishdan tuziladi.

Sodda gap yana **bir tarkibli** va **ikki tarkibli** gaplarga bo'linadi. Bu bo'linishda ikkinchi darajali bo'lak emas, bosh bo'laklar asos qilib olinadi. Agar gapda ham ega, ham kesim ishtirok etgan bo'lsa, bunday gap **ikki tarkibli gap** deyiladi. Ikki tarkibli gap yo sodda yig'iq gap yoki sodda yoyiq gap shaklida ham bo'ladi. Boshqacha aytganda, ikki tarkibli sodda gap sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni o'z ichiga oladi. Qiyoslang: *professor gapirdi* – sodda yig'iq gap, ikki tarkibli gap; *chigit ekildi* – sodda yig'iq gap, ikki tarkibli gap; *Men bobongni ko'rganman* – sodda

yoyiq gap, ikki tarkibli gap; *Ibodatxon to'satdan Toshkentda bo'ladigan olimlarning yig'ilishiga jo'naydigan bo'lib qoldi* (S.Zun.) – sodda yoyiq gap, ikki tarkibli gap. Demak, ikki tarkibli gap gapning yig'iq va yoyiq tipi bilan ifodalanishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **ikki tarkibli sodda yig'iq gap, ikki tarkibli sodda yoyiq gap.**

Gapni tarkiblarga ajratish, gapni bo'laklarga ajratish emas, bu ikki tushuncha boshqa-boshqa hodisalardir. Gapni tarkiblarga ajratish logik tushuncha, bo'laklarga ajratish grammatik tushuncha. Gapni tarkiblarga ajratish hukmni sub'yekt va predikatga ajratish kabidir. Biroq gap faqat ega kesimdan tuzilgan (sodda yig'iq gap) bo'lsa, logik hukm grammatik gapga, uning qismlari gap bo'laklariga teng kelib qoladi. Shundagina gapni tarkiblarga ajratish bilan bo'laklarga ajratish ham teng keladi. Masalan, *Gullar ochildi. Musiqa chalindi. Habibiy – g'azalnavis kabi.*

Gap tarkibi yoyiq bo'lsa – bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaygan bo'lsa, gapni tarkiblarga ajratish gapni bo'laklarga ajratishga teng kelmaydi. Bunda ikkidan ortiq bo'lak bo'lsa ham, ikkita logik elementga ajratiladi: o'ziga tobe bo'laklar bilan bir tarkibni – ega tarkibini predikat o'ziga tobe bo'laklar bilan birga ikkinchi tarkibni – kesim tarkibini tashkil qiladi. Masalan, *Uning nozik barmoqlari / dutor torlari ustida sehrli harakat qilar edi* (M.): aniqlovchi+aniqlovchi+ega – bir tarkib (ega tarkibi), hol+ hol+kesim – bir tarkib (kesim tarkibi). *Ko'm-ko'k o'tlar bilan yashnab ketgan poyonsiz dalalar / kishida allaqanday orombaxsh his uyg'otar edi* (O.): aniqlovchi+to'ldiruvchi+aniqlovchi+ega – bir tarkib (ega tarkibi), to'ldiruvchi+aniqlovchi+aniqlovchi+to'ldiruvchi+kesim – bir tarkib (kesim tarkibi).

Anglashiladiki, gaplarni tuzilishiga ko'ra tarkiblarga ajratish shunchaki emas, ma'lum logik-grammatik qonuniyat asosida bo'ladi. Gap odatda kishi tasavvurida ikki qismga – ega va kesim tarkibiga ajralib turadi. Ega tarkibi fikrning temasi – belgisi aniqlanayotgan predmet tasavvuri, kesim tarkibi fikrning remasi – belgi tasavvuri, belgi ifodalangan, aniqlovchi, xulosalovchi tarkib. Ega tarkibi nafaol, turg'un, statik, nominativ tushuncha ifodalaydi, kesim tarkibi faol, harakatchan, dinamik tushuncha ifodalaydi. Predmet haqidagi hukmning natijasi kesim tarkibidan anglashiladi.

Demak, ega va kesim tarkibining mavjudligi bir butun tasavvurning ikki chegarasi ekanligini – ikki qismdan tashkil topishini ko'rsatadi. Bu tasavvurlarning tutash joyi va echim nuqtasi ega va kesim hisoblanadi.

Yuqorida gap tarkiblarining yig'iq va yoyiq holatlarda kelishini ko'rdik. Biroq tarkiblar hamma vaqt shunday bo'la bermasdan, ega tarkibi

yoyiq, kesim tarkibi yig'iq yoki, aksincha, ega tarkibi yig'iq, kesim tarkibi yoyiq ham bo'ladi: *Yoshlikning ham, qarilikning ham o'ziga xos fazilati / bor* ("S."). *Odiljon / kun bo'yi turli yumushlar bilan band bo'lib, uyni ham unutib qo'yganligini kechqurun sezdi* (Asq.M.).

Gaplar hamma vaqt ham ikki tarkibdan tuzila bermaydi. Butun gap bir tarkibning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. Bunday gaplar **bir tarkibli gap** deyiladi. Masalan, quyidagi gaplarda odatda ikki tarkibni ko'rmaymiz: *O'qish va izlanish kerak. Bugun qahramon tug'ilgan qishloqqa boriladi.*

Bir tarkibli gaplar bir so'z – bir bo'lak bilan ham ifodalanadi: *Odam!* (vaziyatga qarab: masalan, tramvayga chiqib bo'lmaydi, ko'chada yurib bo'lmaydi yoki o'yingohga kirib bo'lmaydi kabi ma'nolarda), *shamol!* (tashqariga chiqib bo'lmaydi yoki hozir ketib bo'lmaydi kabi ma'nolarda).

Misollardan ko'rinadiki, bir tarkibli gaplar ham tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) bir tarkibli yig'iq gap – bir bo'lak bilan ifodalangan gap; b) bir tarkibli yoyiq gap – birdan ortiq bo'laklar bilan ifodalangan gap (Bir tarkibli va ikki tarkibli gap turlari haqida keyinroq to'xtalamiz).

6- mavzu: GAPNING MAZMUNIGA KO'RA TURLARI

reja:

- 1. Darak, so'roq va buyruq gaplar.**
- 2. Emotsionallikka ko'ra: emotsional va noemotsional gaplar.**
- 3. Voqelikning yuzaga kelishi va kelmasligiga ko'ra: tasdiq va inkor gaplar.**
- 4. Xulosa.**

So'zlovchi ob'yektiv borliqdagi narsa, hodisalarni gap orqali aks ettiradi. Bunda u o'z oldiga har xil maqsad qo'yishi mumkin. Masalan, u biror fakt haqida xabar beradi, yo o'ziga ma'lum bo'lmagan voqea-hodisa to'g'risida savol beradi, javob olishni istaydi va yoki o'z xohishini (buyruq, iltimos kabilarni) ifodalashni ko'zda tutadi. Ana shu nuqtai nazardan gaplar uch turga bo'linadi: **darak gap, so'roq gap, buyruq gap.** Masalan: *Talabalarning ilmiy anjumani ertaga o'z ishini boshlaydi* (darak); *Siz institutni a'lo diplom bilan bitirganmisiz?* (so'roq); *Kutubxona ertaga yangi binoga ko'chirilsin* (buyruq).

Insonning his-tuyg'ulari rang-barang, fikr ifodalash ehtiyoji xilma-xil. Mana shu zaruriyat gaplarning yuqoridagilardan boshqa tur shakllarda ham bo'lishini taqozo qiladi. Masalan, *Eh, qanday mag'rur bu tog'lar!*. *Hayot naqadar go'zal! Kim u meni maftun etgan go'zal?!* tipidagi gaplarsiz so'zlovchi o'zining his-hayajonini – emotsiyasini ifodalay olmaydi. Mana

bu ehtiyoj gapning emotsional turini keltirib chiqaradi. Demak, gaplar emotsionallikka ko'ra ikkiga bo'linadi: **emotsional gap** (undov gap), **noemotsional (emotsional bo'lmagan) gap** (darak, so'roq, buyruq gaplar).

Undov gap, emotsional gap – emotsiya ifodalash uchun mo'ljallangan. Biroq bundan darak, so'roq, buyruq gaplar emotsiya ifodalashdan mahrum degan xulosa chiqmaydi. Darak, so'roq, buyruq gaplar ham emotsiya ifodalash bilan bog'langan, xususan, bu holat so'roq va buyruq gaplarda birmuncha kuchli. Istalgan gap turiga so'zlovchining emotsiyasi qo'shilsa, undov gapga aylanadi. Masalan, *Vertolyotda uchiladi* (darak). *Vertolyotda uchiladi!* (xabar+emotsiya – undov gap). *Qani u mard qahramon?* (so'roq). *Qani u mard qahramon?!* (so'roq+emotsiya – undov gap). *Sahnaga marhamat qilinsin* (buyruq). *Sahnaga marhamat qilinsin!* (buyruq+emotsiya – undov gap). Yana bir misol: *Yiqil* (buyruq gap); *Yiqil, ey zolim falak!* (undov gap).

So'zlovchi narsa, predmet, hodisalarning belgi-xususiyatlarini o'rganadi, ular haqida ma'lum xulosalarga keladi: voqelikni tasdiqlaydi, ta'kidlaydi yoki, aksincha, inkor qiladi, rad etadi. Bu qonuniyat dialektik ravishda o'z aksini topadi. Shu asosda logikada hukmning tasdiq va inkor shakli, grammatikada gapning bo'lishli va bo'lishsiz turi kelib chiqadi.

Xulosa: a) gap mazmuniga (kuzatilgan maqsadiga) ko'ra: darak, so'roq, buyruq gaplarga; b) emotsionallikka ko'ra: emotsional gap (undov gap), emotsional bo'lmagan gap (darak, so'roq, buyruq); s) belgining tasdiq va inkoriga ko'ra: bo'lishli gap (tasdiq gap), bo'lishsiz gap (inkor gap)larga bo'linadi. Quyida ana shu turlarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

Darak gap. So'zlovchining biror fakt, voqea-hodisa to'g'risida xabar berishi yoki ma'lum predmetda biror belgining mavjud ekanligi so'zlovchi tomonidan tasdiq yoki inkor qilinishini o'z ichiga olgan gap **darak gap** deyiladi.

Misollar: *Manzura yigitlarning qizg'in suhbatiga quloq soldi. Yigitlar futbol musobaqasi haqida so'zlashar edilar* (Asq.M.). *Paxta – davlat ishi, kolxozning suyangan tog'i* (O.) *Jismoniy tarbiya va sport kishining mehnat qobiliyatini oshirishda, uzoq yashashida asosiy vositalardan biridir* (“Surxon tongi”dan).

Darak gaplar o'ziga xos intonatsiyaga egadirlar: ularning birinchi qismi nisbatan kuchli ovoz bilan talaffuz qilinadi, ikkinchi qismida esa ovoz pasayib borib tugaydi.

Og'zaki nutqda darak gaplar bir-birlaridan pauzalar bilan ajratiladi. Tinch ohangli nutqda odatda darak gaplar o'rtasida qisqa pauzalar bo'ladi. Ta'sirchan, hayajonli nutqda esa pauzalar ancha davomli bo'lishi va qo'shimcha vazifalar bajarishi mumkin.

Yozma nutqda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.

So'roq gap. So'zlovchining suhbatdoshdan biror narsani bilib olish istagi o'zida ifodalangan gap **so'roq gap** deb ataladi.

Darak gaplarda so'zlovchi o'ziga ma'lum bo'lgan faktlar to'g'risida darak bildiradi. So'roq gaplarda, aksincha, biron narsaning noma'lumligi va so'zlovchining shu noma'lum faktni bilib olish tilagi ifodaladi. Boshqacha aytganda, so'roq gaplar so'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqelik haqida yangi ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Shuni ham aytish kerakki, ko'p hollarda noma'lumlik haqiqiy noma'lumlik bo'lmasdan, yasama bo'lishi ham mumkin. Masalan, fan o'qituvchisi imtihon vaqtida talabaga savollar beradi. Bunday savollardan maqsad – talabaning bilim darajasini aniqlashdir.

So'roq gaplar, asosan, dialogik nutqqa xos bo'lib, o'zlariga javob qayta-rilishini, biror faktning inkor yoki tasdiq qilinishini tinglovchidan talab etadi. Misollar: *Asqar ota uni boshdan oyoq kuzatib chiqdi. Jo'nashdi. Ikkala ot qiyomda, baravar qadam tashlab borar edi.*

- *Otga ham ishingiz tushib turadimi?*
- *Hozir uncha ishim tushmaydi.*
- *Ilgari ishingiz tusharmidi? Kuyovingiz nima ish qiladi?*
- *U kishi ham traktorchi edi. Hozir frontda.*
- *Qachon ketgan?*
- *Urush boshlangan kunlari (A.Q.).*

So'roq gaplar **kim, nima, qachon** singari so'roq so'zlar yoki **-mi, -chi, -a (-ya)** yuklamalari yordami bilan tuziladi.

Misollar:

- *Ota safaringiz uzoqmi?*
- *Hiyla bor, qizim. Ashxobodgacha. Siz-chi?*
- *Men Chorjo'ygacha... etib qolgandirmiz-a?*
- *Oz qoldi. O'zingiz Chorjo'ydanmi? (R.F.).*

So'roq gaplar tarkibida **nahot, nahotki, axir, rostdan** kabi yuklamalar ham kelishi mumkin. Bunda so'roq bilan bir vaqtda har xil modallik ottenkalari (shubha, gumon, ishonmaslik) anglashiladi.

Misollar: *Nahotki, ertaga ham havo ochilib ketmasa-ya? (A.Q.). Nahotki, uning haqida, uning baxti haqida o'ylaydigan odamlar ham*

bo'lsa? (Asq.M.). Axir... hamma narsani nima deb xatlayotibsizlar, shularni olasizmi axir? (A.Q.).

So'roq gaplar mazmun jihatdan bir necha ko'rinishlarga ega. Bu o'rinda so'roq gaplarning ikkita asosiy turini ko'rsatib o'tamiz:

1. So'zlovchi o'zi ifodalayotgan fikrning voqelikka munosabatini aniqlash uchun suhbatdoshga murojaat qiladi. Asl fikrning o'zi ifodalovchi uchun noma'lum bo'lmaydi. So'zlovchi bunday so'roq gapni o'z fikrining tinglovchi tomonidan tasdiq yoki inkor qilinishini bilib olish maqsadida qo'llaydi. Bunday so'roq gaplar ko'pincha **-mi** yuklamasi yordami bilan tuziladi va ularga **ha, yo'q** so'zlaridan bittasi bilan yoki so'roq gapdagi so'roqni bildirgan so'zning o'zi bilan javob qaytariladi. Misollar:

- *Hu... ana u atroflari paxtazor oq uylarni ko'rayapsanmi?*
- *Ha, ko'rdim.*
- *Juda yaxshi, xat-savoding bormi?*
- *Yo'q (S.Ahm.).*

2. So'zlovchi tomonidan ifoda qilingan fikrning u yoki bu tomoni so'zlovchi uchun ma'lum bo'lmaydi va so'zlovchi shu aniq bo'lmagan jihatlarni aniqlab olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunday so'roq gaplar **kim, nima, qanday, qaysi, qayerda, qayerga, qachon, nima uchun** singari so'roq so'zlar yordami bilan tuziladi va bu so'zlarning o'zlari biron gap bo'lagi sifatida nima haqida so'roq berilganligini bildiradi. Bunday so'roq gaplarda **-mi** yuklamasi qatnashmaydi.

Misollar:

- *Qayerliksiz?*
- *Baxrobodlik...*
- *O'rmonjon kimingiz bo'ladi?*
- *Hech kimim bo'lmaydi.*
- *Boltaboy akam qayoqqa ketdilar?*
- *Stansiyaga.*
- *Qachon keladilar?*
- *Sement tushurib bo'lib keladilar-da (A.Q.).*

So'roq so'zlar yordami bilan tuzilgan bunday so'roq gaplarga olinishi mo'ljal qilingan javob ham ba'zan shu so'roq gap bilan birga so'roq gap shaklida so'zlovchining o'zi tomonidan keltiriladi.

Masalan, *Kim keldi? Akangmi? U uyda nima qiladi? O'qiydimi? Yozadimi?* kabi.

So'roq ba'zan faqat intonatsiya yordami bilangina ham anglatilishi mumkin. Bunday so'roq gaplar ko'pincha emotsional va modal xarakterga

– taajjub, shubha, hayratda qolish, gumon kabi qo'shimcha ottenkalarga ega bo'ladi. Misollar: *Munisxon Obidova "Seni kutaman" degan ashulani aytib beradi. Qudrat hayajonda:*

– *Munisxon Obidova? Bu qandoq gap? (R.F.).*

– *Bekbo'ta aka? Bu qayerdan?–dedi hayratda qolgan qiz. O'zimizdan, o'zimizdan.*

– *O'zimizdan? – ajablanib qayta so'radi Oygiz (Sh.R.).*

Jo'ra sabrsizlanib so'radi:

– *Endi tamom bo'shatdilar mi seni?*

– *Bo'shatish qayoqda? Qochdik...*

– *Turmadan? – Ko'z oqlarini o'ynatib so'radi Jo'ra (O.).*

Faqatgina ohangga asoslangan so'roq gaplar alohida, keskin ohang bilan talaffuz qilinadi.

So'roq gaplarga odatda darak gaplar bilan javob qaytariladi. Biroq kesimi birinchi va uchinchi shaxs buyruq fe'l shakli bilan ifoda qilingan so'roq gaplarga darak gaplar emas, balki buyruq yoki qarshi so'roq gaplar javob bo'lib keladi.

Misollar: – *Nima qilay, mashinani garajga eltib qo'yaymi?*

– *Yo'g'e... Orqangga qaytib o'tirasanmi?*

– *Bo'lmasa, qayerga boray?*

– *Dalaga bora qol. Bitta-yarimta uchrab qolsa, uyga olib borib qo'y (R.F.).*

3. Grammatik jihatdan so'roq shaklidagi gap mazmunan hamma vaqt qimmatga ega bo'lavermaydi va o'ziga javob qaytarilishini talab qilmaydi. Bunday gaplar **ritorik so'roq gaplar** deyiladi.

Ritorik so'roq gaplar yashirin tasdiqni o'z ichiga olgan gaplardir. Shuning uchun ularga javob qaytarilishi talab qilinmaydi. So'zlovchi yoki yozuvchi bunday gaplar orqali ta'kidlash yo'li bilan voqea-hodisa to'g'risida xabar bildiradi.

Misollar: *Kim bekat nazoratchilarining boshiga la'natlar yog'dirmagan, kim ular bilan o'lgudek so'kishmagan? Kim ularni kishilar urug'ining eng vahshiysi deb hisoblamagan?... (Asq.M.).*

Ritorik so'roq gaplarning yana bir ko'rinishi so'roq-inkor, ya'ni yashirin inkorni o'z ichiga olgan gaplardir. Misollar: – *Eski odat emish! Nima, eski odat bo'lib, men seni 70 yashar cholga kundosh ustiga berayapmanmi? Seni qalin-molga sotayapmanmi? Eski odat emish? Yoki men seni bo'yningga tumor taqib, namoz-niyozga o'rgatayapmanmi? Yuzingga chachvon tutib, domlaga olib borayapmanmi? Gapirsang-chi, nega g'iq etmaysan? (A.Q.).–Xo'sh, ayt-chi, nima uchun kerak u qizga?*

Nima, men dalada unmay qolgan ko'katmi? Hech kimi yo'q g'aribmi? Og'zi-burnim qiyshiqmi, qari chol bo'lib qolibmanmi, yoki latta-puttamanmi? (R.F.).

Ritorik so'roq gaplar badiiy asarlarda, emotsional-ta'sirchan nutqda his-hayajon kabi tuyg'ularni ifodalash uchun uslubiy vosita sifatida qo'llanadi va bunday gaplarda, ko'pincha, so'roq bildiruvchi so'zlar qatnashadi. Biroq bu o'rinda so'roq so'zlar so'roq ma'nosiga ega bo'lmay, ta'kidlash yuklamalari vazifasida keladi:

*Ayting, nega mening onam tug'madikan ilgari,
Million-million qahramonlar, ko'ngillilar singari (G'.G').
Qizlarni kim sevmaydi, qimizni kim ichmaydi (maqol).
Gunohi na erdi u tilla boshning?
Gunohi na erdi porloq quyoshning? (U., I.Sulton).*

So'zlovchi suhbatdoshni o'ziga tarafdor qilish, o'ziga nisbatan tinglovchida hayrixohlik, rozilik hislarini uyg'otish, tinglovchini o'ziga fikrdosh qilish maqsadida ko'p vaqt ritorik so'roq gaplardan foydalanadi.

Misollar: *Hammasini ko'zingiz bilan ko'rib turibsiz-ku, Sirdaryoni bo'g'ib, boshqa izga oqizishni kim eplay oldi? Mirzacho'ldagi hozir biz yashab turgan qishloq o'n besh yil muqaddam shunday yermidi? Axir mamalakatda shunday ulug' ish olib borilayotgan paytda, undan chetda qolib bo'ladimi? (R.F.).*

Ba'zan tinglovchi so'zlovchining so'rog'iga darak gap bilan emas, ritorik so'roq gap bilan javob qaytaradi, ya'ni qarshi so'roq beradi va shu bilan o'z fikrini ta'kidlaydi.

Misollar: – *O'ktam olomon orasida yumaloq g'adir-budir toshni yumalatayotgan Komila qoshida to'xtadi va kulib dedi:*

–Ha, siz bu yerda nega hansirab yuribsiz?

Komila, qaddini rostlab, yeng uchi bilan peshonasidan terini artdi-da, dedi:

–Ha, men qarab turaymi? Rais osmondan tushganmi? (O.).

Ritorik so'roq gaplar fikr va mulohazalarni yakunlash uchun yoki faqatgina tinglovchilarning diqqatini susaytirmaslik maqsadida ham ko'p qo'llaniladi. Misollar: –*Demak, barakaning siri nimada ekan? Barakaning siri yerni ko'proq hosil berishga majbur qilishda, uni minib olishda ekan (A.Q.) – ...bugun yerimning shu minbardan ikkiyuzlama-chilik bilan aytgan gaplari meni so'zga chiqishga majbur qildi... Axir xotinining o'qishdan qolib ketishga, uni uy cho'risi bo'lib qolishga majbur qilgan kim? Qambarov. Mast-alast bo'lib kelib, xotinini, bolasini*

haqoratlayotgan kim? Qambarov. Xotini bo'la turib, boshqa xotinga uylangan va uni ham aldagan kim? Qambarov.

O'zaro muloqatda suhbat mavzusini o'zgartirish, suhbatdoshning e'tiborini boshqa tomonga yo'naltirish maqsadida ko'pincha ritorik so'roq gapdan foydalaniladi. Misollar: *–Qizim, jonim qizim, –yig'i aralash gapirdi chol, sen ko'p o'rtanma... Akang Yo'lchi – o'g'lim nima uchun, kim uchun qon to'kdi? O'zi uchun emas, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to'kdi (O.).*

Ba'zan so'zlovchi biror ishga kirishish oldidan taraddudda qoladi va o'z-o'ziga ritorik so'roq bilan murojaat qiladi. Bunday so'roq gaplarning kesimi odatda shart fe'li bilan ifoda qilinadi. Ba'zan kesimdan keyin **ekan** so'zi ham keladi. Masalan, *– ...u bilan ochiqdan-ochiq gaplashsammikan, unga hamma narsani hikoya qilib bera qolsammikan, hech kimga hech narsa aytmassligini... so'rab, yalinsam, yolvorsammikan... (O.).*

4. So'roq gaplarning yana bir ko'rinishi **vositali so'roq gap**dir. Vositali so'roq gaplar ko'pincha to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida to'ldiruvchi ergash gap vazifasida kelib, bosh gapda ifoda qilingan fikrni to'ldiradi, faqat shakl jihatidagina so'roq gapga o'xshaydi, biroq o'ziga javob qaytarilishini talab qilmaydi. Misollar: *–Turobjon bilmay qoldi: xotining yelkasiga tepib, so'ngra o'rnidan turdimi yo turib, keyin tepdimi? Qadoqchi Hamroqulning tobi qochdi. Kim biladi: kecha kechqurun xudoyi osh yoqmadimi, yo ertalab choynak qadoqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor edimi? Qani biron xolis odam bo'lsa, aytsin: butun O'zbekistonni qidirganda ham Nurmatjonga o'xshagan yigitdan yana birontasini topadimi? (A.Q.).*

So'roq gaplar maxsus so'roq intonatsiyasi bilan talaffuz qilinib, bu intonatsiya darak gap intonatsiyasidan keskin ravishda farq qiladi. So'roq gaplarda bevosita so'roqni bildiruvchi so'zda ovoz kuchayadi. Ritorik so'roq gaplar oxiriga so'roq belgisi o'rniga ko'pincha undov belgisi ham qo'yiladi.

Buyruq gap. Buyurish, iltimos, taklif, o'git-nasihat, xitob, ogohlantirish kabilarni ifodalovchi gap **buyruq gap** deb ataladi.

Buyruq gaplar suhbatdoshni biror ishni bajarishga yoki ish harakatdan, holatdan voz kechishga da'vat qiladi.

Misollar: *–Jangga kirdingmi, qo'rquvni unut. O'limni emas, o'ldirishni o'yla. Hiyla bilan dushmanga pand ber. Botir bo'l...(U.). Rahimov. Jon berishga shoshilmang, jonni saqlang, dushman bilan jang qilishga, g'alaba qozonishga o'rganing (K.Y.).*

Buyruq gaplar odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ularning kesimlari ko'pincha ikkinchi shaxs buyruq fe'l shakllari bilan ifoda qilinadi. Biroq ikkinchi shaxsga qaratilgan buyruq gaplarning kesimlari shart fe'lining birinchi va ikkinchi shaxs ko'plik shakllarida ham kelishi mumkin. Bu holda buyruq gap mazmuniga iltimos, kamtarlik, suhbatdoshga nisbatan hurmat ottenkalari qo'shiladi.

Misollar: *Ukajon, iltimos qilaman: limonlarni jangchilarga bersangiz* (K.Y.). *Iltimos qilaman: qaytgunimizcha, mana shu ro'yxatdagi kishilarni chaqirib qo'ysangiz* (I.R.).

Betakalluf muomalada buyruq gaplarning kesimlari ko'p vaqt hozirgi-kelasi zamon fe'lining ikkinchi shaxs shakli bilan ham ifodalanadi. Misollar: *Sen oshpaz bo'lasan, uy-joyga ham qaraysan, sigirni ham sog'asan, qo'ylarni bo'lsa, podaga berib yuboramiz* (R.F.).

Birinchi va uchinchi shaxs buyruq shakllari ham buyruq gaplarning kesimi bo'lib kelaveradi. Bunday buyruq gaplar so'zlovchining biror ishni bajarishga bo'lgan xohishini, istagini hamda uchinchi shaxsga qaratilgan buyurishni bildiradi. Misollar: *–Bozor iqtisodiyoti qonuniyatini o'rganaylik. –G'o'zani o'z vaqtida yuqori sifatli parvarish qilaylik. –Menimcha, Komiljon borsa, yomon bo'lmas. Bu yerda havasga laylak boqqandek bekorga savlat to'kib yurmasin* (S.Ahm.).

Ko'pincha ta'kidlash maqsadida buyruq gap ichida **qani, -chi** yuklamalari keladi yoki fe'l kesimga **-gin (-qin, -kin)** qo'shiladi. Misollar: *–Qani yaqinroq keling-chi, bo'lmasa, –dedi podpolkovnik soldatlarni karta yoniga chaqirib. –Yozgin... tfu... ratsiya orqali bergin, dedi u sevingan holda baland ovoz bilan. Gapni qo'y, tezroq jo'nagin* (R.F.).

Rasmiy nutqda (farmoyish, direktiva, qaror va boshqa shu kabilarda) buyruq gaplarning kesimi odatda majhul fe'lning uchinchi shaxs buyruq shakli bilan ifodalanadi. Misollar: *–Buyuraman: ertaga soat 12 da to'g'on poydevoriga tosh yotqizila boshlansin. To'g'on qurilishi o'z muddatida tamomlansin* (Sh.R.). *–Yillik paxta planini muddatidan oldin bajarganliklari uchun quyidagilar respublika “Hurmat taxtasi”ga yozilsinlar...* (O.).

– *Shu choq okopga og'zaki buyruq keldi:*

– *Tayyorlansin* (R.F.).

Buyruq gaplarning kesimlari ba'zan hozirgi-kelasi zamon yoki o'tgan zamon aniqlik fe'lining birinchi shaxs ko'plik shaklida ham ifoda qilinadi. Misollar: *– Yuring, o'rtoq Odilov. Ketdik. Piyoda ketdik. –O'tir, Mehri ketdik. –Direktorning gapi to'g'ri. –Salom “lochin”, yur ketdik* (H.G'). *Qani ketdik* (Sh.R.).

Buyruq gaplar buyruq fe'ldan boshqa so'zlar bilan ham ifodalanadi. Bunday gaplarda ega va kesim yuzada bo'lmaydi. Ular faqat yo talab qilinuvchi narsaning nomidan, yo biror konkret ishga undovchi ravishdan iborat bo'ladi. Misollar: –*Shu ondayoq minglab ayollarning chinqirishi eshitildi:*

– *Non, Non, Non* (O'.H.). –*Oyi suv, suv.* –*Gulnor dam ko'kragini, dam tomoqini qijimlab eza boshladi* (O.).

– *Jim, mushtini ko'tardi Yormat* (O.).

– *Sekinroq, muncha o'dag'aylaysan?* (O.).

Biroq bunday gaplar to'liqsiz gaplar deb qaralmasligi kerak. Bunday gaplarda fe'lning bo'lmasligi uning tushib qolganligi emas, balki buyruq gapni hosil qilish usulidir. Shuning uchun bunday gaplarda qanday fe'l etishmasligini ko'rsatish mumkin emas.

Buyruq gaplar har xil intonatsiya bilan, buyurish, qat'iy talab anglatuvchi gaplar esa kuchli ohang bilan talaffuz qilinadi. Bunda logik urg'u kesimga yoki buyurishning ma'no markazi bo'lgan boshqa bir bo'lak ustiga tushadi.

O'git, nasihat, iltimos kabilarni anglatuvchi buyruq gaplar ancha past va mayin ohang bilan talaffuz qilinadi. Tinch ohang bilan talaffuz qilingan buyruq gaplar oxiriga nuqta, kuchli ohang yoki undov ohangi bilan talaffuz qilingan gaplar oxirida undov belgisi qo'yiladi. Misollar: –*Er yigit bo'l, er yigit bo'lib gap gapiru, er yigit bo'lib gapga quloq sol* (M.I.) –*Seni ish yengmasin, sen ishni yeng* (maqol). –*Bu minoralar ustida porlovchi oltin yulduzlar butun jahonga nur sochadi. Bu nur – adolat, haqiqat nuridir. Aylaning, aylaning mening oltin soatim! Nurlaning, nurlaning mening yoqut yulduzlarim! Olamda haqiqat hukm surishini istagan inson yashagan jahonga nur soching! Butun olamni abadiy yoritish uchun sizni yoqib qo'ygan bizning otalarimizga shon-sharaflar bo'lsin!* (R.F.).

Kesimi bo'lmagan, faqat ohanggagina asoslangan buyruq gaplar og'zaki nutqda keskin ohang bilan talaffuz qilinadi, yozuvda esa ulardan keyin undov belgisi qo'yilishi shart. Chunki bunday gaplarning buyruq gaplar ekanligini og'zaki nutqda faqat intonatsiya, yozuvda esa undov belgisi ko'rsatadi.

Undov gap. Kuzatilgan maqsadga ko'ra bo'lgan asosiy gap turlarining har biri (darak, so'roq, buyruq gaplar) undov intonatsiyasi bilan talaffuz qilinishi va bu intonatsiyada so'zlovchining his-hiyajoni, ruhiy kechinmalari yoki irodasi o'z ifodasini topishi mumkin.

Emotsional qimmatga ega bo'lgan va intonatsiyasidan so'zlovchining his-hayajoni, ruhiy kechinmalari yoki keskin irodasi anglashilgan gaplar

undov gap deb ataladi. Misollar: – *Siddiqjonning bu vajohati Zunnun-xo'janing o'yini puchga chiqardi... shuning uchun Siddiqjondan baland kelishga tirishib, jahl bilan:*

– *Yana nima kerak?! – dedi.*

– *Yana nimam bor!*

– *Kirmaysiz kolxozga!*

– *Kiraman!*

– *Kirmaysiz!*

– *Kiraman!*

– *Axmoq!*

– *Axmoq bo'lmaganimda, shu ahvolga tusharmidim?! (A.Q.).*

Undov gaplar sof undov gapligidan tashqari, yana uch ko'rinishga egadirlar: **darak-undov gap, so'roq-undov gap, buyruq-undov gap.**

Bu gap ko'rinishlarining maydonga kelishi asosiy gap turlarining mazmuniga emas, balki ularning maxsus undov intonatsiyasi bilan aytilishidadir. Bu xilma-xillik his va tuyg'ularimizning turli-tuman bo'lishi bilan izohlanadi.

Misollar: *Mahmud quvonchidan sakray ketdi:*

– *Keldi! (R.F.) (xursandchilik).*

U komissarning krovati oldiga tiz cho'kib:

– *O'ldi! O'ldi!! – deb qichqirdi (I.R.) (qayg'u). Rahimov trubkaga. Po'lat ayiqlarni olib chiq! Batareyalarni yanchib tashla! Dadil oldinga bos! (K.Y.) (kuchli iroda). Qarang-a, o'zi qiz bo'lsa ham shuncha huquqqa ega! – dedi hayron bo'lib, yosh soldatlardan biri (R.F.) (hayratda qolish). Bobomning po'stini juda yaxshi. Nihoyat darajada a'lo. Barrasichi barrasi. Bay-bay! Barrasini ayting! (zavq).*

Yozma nutqda darak-undov va buyruq-undov gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Juda ham kuchli ohang, his va hayajon bilan aytilganda, gapning oxirida ikkita yoki uchta undov belgisi qo'yilishi mumkin.

So'roq-undov gaplar oxiriga, ayni zamonda, ham so'roq, ham undov belgisi qo'yiladi.

Inkor va tasdiq gap. Predmetda biror belgining mavjudligini yoki biror ish harakatning yuzaga kelganligini anglatadigan gap bo'lishli gap yoki **tasdiq gap** deyiladi: *Odamlar bundan ming yil ilgari ham quyosh nuridan foydalanishni bilganlar (Asq.M.). Jismoniy tarbiya juda foydali-dir. Olmaning tarkibida organizm uchun foydali bo'lgan temir modda bor. Alqor ko'p yillik dorivor o'simlikdir ("F.T.").*

Demak, tasdiq gap o'zida inkorni va inkor shaklini yoki inkor ohangini saqlamasligi bilan xarakterlanadi.

Inkor gap predmetda biror belgining mavjud emasligini yoki biror ish-harakatning yuzaga kelmaganligini, bajarilmaganligini, bo'lishsizligini anglatadi. Inkor gap inkorning maxsus shakllariga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Inkor gapning shakllanishida quyidagi inkor elementlari qo'llaniladi.

-ma elementi. Bu element kesimi fe'l bilan ifodalangan gaplarda kesim tarkibida qo'llaniladi. Fe'l kesimga fe'lning buyruq maylidan keyin qo'shiladi va kesim so'zning sintetik shakli bilan ifodalanadi. Misollar: *Bugun quyosh ko'rinmadi. Deputatlar bilan uchrashilmadi.*

Yosh yurakning quvonchini ayta olmayman,

Ey qatorlar, men ham sizdan chetda qolmayman (G'.G').

Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz (H.O.).

Uzun daryolar ham kamar bo'laolmas,

Qo'shilib cho'lqansa sening belingga

Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas

Mening bilishimcha sening elingga (H.O.).

emas elementi. Bu element kesimi ot yoki ot shaklidagi gaplarda qo'llaniladi. Analitik shaklda bo'ladi: *Osmon bulut emas. Oson ermas bu maydon ichra kirmoq (N.). Sen yetim emassan, uxla jigarim! (G'.G').*

emas elementi ba'zan gapning o'rtasida kelib harakatning boshqa shaxs (sub'yekt) tomonidan bajarilganligini anglatadi: bunda **emas** o'zidan oldin kelgan bir shaxsning harakatini inkor qiladi, keyingi shaxsning harakatini tasdiqlaydi. Bunda garchi qisman inkor ifodalansa ham, gap, umuman, tasdiq gap hisoblanadi: *Majlisda talabalar emas, o'qituvchilar gapirishdi. Biz poyezdda emas, samolyotda keldik* kabi.

Ba'zan **emas** va **-ma** elementlari orqali ifodalangan inkor gaplar mazmun jihatdan bir-biriga yaqinlashadi: *U Toshkentni ko'rgan emas – U Toshkentni ko'rmagan; Osh pishgan emas – Osh pishmagan* kabi.

yo'q elementi. Bu element quyidagi vazifalarda qo'llaniladi. Tarkibli kesimning yordamchi komponenti vazifasida: *Faqat unga aytganim yo'q – aytganim yo'q yurak rozin (qo'shiq). Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q, Yov qo'lida taslim ham bo'lganim yo'q (H.O.).*

Bunda **yo'q** elementi **emas** ma'nosida ham qo'llanildi: *borganim yo'q – borgan emasman, kelganing yo'q – kelgan emassan* kabi.

Gapning mustaqil kesimi vazifasida: *Shunda tulkiga qarab jo'ja: otam ham yo'q, onam ham yo'q – inkubatoridan chiqqanman dedi (latifa). Hayosizda vaf o' yo'q, vafosizda hayo yo'q (maqol). Bu yerda dahshat to'plarining qahqahasi yo'q (G'.G').*

Mustaqil gap – inkor vazifasida: Bunda **yo'q** elementi so'roq gapga beriladigan javob sifatida qo'llaniladi: – *Otang bormi?* – *Yo'q.* – *Onang-chi?* – *Yo'q* (P.T.). *Toshkentdanmisiz?* – *Yo'q.*

Ba'zan **yo'q** so'zi bilan ifodalangan inkor gaplardan keyin shu inkorni kuchaytiruvchi, quvvatlovchi boshqa bir inkor gap keltiriladi: *Siz ham biz bilan qishloqqa borasizmi?* – *Yo'q, bormayman.* Bu gap: –*Yo'q, Bormayman dedim, bormayman* shaklida ham bo'ladi.

Ba'zan inkor gaplarda ikki inkor (qo'sh inkor) birga qo'llaniladi va odatdagi inkorni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bunda so'zlovchining ish-harakatning bajarilish yoki bajarilmasligiga nisbatan bo'lgan qat'iy ishonchi ifodalanadi: *Borasizmi? Yo'q! Bormayman.*

Inkor gapda **hech, hech bir, hech qachon** kabi inkor ifodalovchi ravishlar ham qo'llaniladi. Biroq bu so'zlarning o'zi inkor gapni hosil qilolmaydi, inkor gaplardagina qo'llanilib, mavjud inkorni kuchaytiradi: *Men o'z so'zimdanda qaytmayman* – *Men o'z so'zimdanda hech (hech qachon, hech bir) qaytmayman.*

na elementi. Bu element birdan ortiq bo'laklar oldidan takrorlanib (na...na... shaklida) qo'llaniladi. Gapning kesimi ko'pincha tasdiq (bo'lishli) formada keladi, biroq, logik jihatdan inkor gap tug'iladi: *Bu yerda na g'urbat, na ofat, na g'am, Bunda bor harorat, muhabbat, shafqat* (G'.G'). Birinchi gapdan inkor elementi tushurilsa, gap tasdiq gapga aylanadi; *Mening nomimga bir g'alati konvert chiqdi: na adresi bor, na familiyasi bor va na pochta muhri* (Asq.M.). *O'tgan yili qurilishga na siz boringiz, na men bordim* va b.

Na elementi gapda ikki xil vazifa bajaradi: a) bo'laklar o'rtasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydi; b) tasdiq shakldagi gapni inkor gapga aylantiradi. Demak, **na** elementi ham teng bog'lovchi, ham inkor yuklamasi.

Logik inkor va tasdiq grammatik inkor va tasdiqdan farqlanadi. Ba'zan grammatik inkor formasidagi gap logik tasdiqni, grammatik tasdiq shaklidagi gap logik inkorni ko'rsatadi: *Sen ham borgan joylarga men ham bormay qolmayman* (qo'shiq) – albatta boraman (kuchli tasdiq). *O'z-o'zini maqtaganda maqtanmay-maqtanmay qolg'aymuman?* (G'.G') – albatta maqtanaman (kuchli tasdiq). *Bormagan yerim, ko'rmagan joyim, eshitmagan gapim qolmadi* (ertak) – *hammasini ko'rdim, eshitdim* (kuchli tasdiq). *Boshqalar qolib hali siz plan bajaradigan bo'ldingizmi? Ha, bajarasiz* – bajarolmaysiz ma'nosida. Bunday gaplar intonatsiya yordamida shakllanadi, kesatq, ironiya, masqara qilish kabi ohangda aytiladi: *Yomg'ir yog'adi? Ha, yog'adi, kutaber* – yog'maydi ma'nosida.

Bundan tashqari, har bir tasdiqdan qisman inkor, har bir inkordan qisman tasdiq ham anglashiladi: *Bu – Boysunning olmasi* (boshqa joyning olmasi emas). *Toshkentga men bormadim* (boshqa hamma bordi).

Inkor va tasdiq kategoriyasi darak gap uchun xarakterli bo'lsa ham, u gapning hamma turida mavjuddir. Shu nuqtai nazardan gaplarni **darak-inkor gap, darak-tasdiq gap; so'roq-inkor gap, so'roq-tasdiq gap; buyruq-inkor gap, buyruq-tasdiq gap; undov-inkor gap, undov-tasdiq gaplarga** ajratib o'rganish mumkin. Yuqorida inkor va tasdiqni darak gap asosida ko'rib o'tdik.

Buyruq-tasdiq gaplar ham darak-tasdiq gaplar kabi belgining mavjudligini, harakatning bo'lishlilikini anglatadi:

Ortingga qarama hech (buyruq-inkor),

Yovni burda-burda qil (buyruq-tasdiq).

Agar o'q tekkanda ham,

Oldingga qarab yiqil (buyruq-tasdiq).

O'rtoqlaring ustingdan,

Mayli sakrab o'tsinlar (buyruq-tasdiq).

Yov agar ajdar bo'lsa,

O'shani ham yutsinlar (buyruq-tasdiq).

Yana bir do'stingga ayt,

Sening yoningda borsin,

Qon bo'lgan ko'ylagingni

Olib menga yuborsin (buyruq-tasdiq) (H.O.).

Buyruq-inkor gaplar harakatning bo'lishsizligini – shu harakatning bajarilishini man etish, ta'qiqlash kabi mazmunlarni ifodalaydi:

Eng so'nggi fashist ham topmasin omon,

Ulug'bek qadamjo bo'lgan bu o'lka

Ustiga tushmasin mash'um ko'lanka (buyruq-tasdiq) (G'.G').

So'roq gap ham inkor va tasdiqning grammatik belgilariga ega: *Bugun siz navbatchimi? Bugun siz navbatchi emasmi? Bugun siz navbatchi bo'ldingizmi? Bugun siz navbatchi bo'lmadingizmi? Bugun siz navbatchi bo'lganingiz yo'qmi?* kabilar. Biroq so'roq gaplarda ham bo'lishli va bo'lishsizlik logik va grammatik jihatdan farqlidir. Boshqacha aytganda, grammatik jihatdan tasdiq formasidagi so'roq gap logik jihatdan inkorni, grammatik jihatdan inkor shaklidagi so'roq gap logik tasdiqni anglatadi. Misollar: *Biz dushman ig'volariga befarq qarab tura olamizmi?* – yo'q, qarab tura olmaymiz ma'nosida. *Ikki to'lqin olishadi qarab turaymi?* (O.) – qarab tura olmayman mazmunida.

Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,

Joni bir jondoshlar qolarmidi jim? (G'.G'.) – jim qololmaydi ma'nosida.

Nima, endi men bir bevafo deb butun maqsadlarimdan, ota-onamdan voz kechamanmi? (K.Y.) – kechmayman. Hali qizingizning baxtiga sherik emasiz? Yanglishasiz! (K.Y.) – sheriksiz ma'nosida. Bir men bormaymanmi? – men ham boraman ma'nosida.

Undov gaplarda inkor va tasdiq kuchli emotsiya bilan ifodalanadi. Gap grammatik jihatdan tasdiq shaklida bo'lganda ham, logik jihatdan undov-inkor gap ekanligi anglashilib turadi:

*Bir qo'ng'iz mo'ylovli
Baroq soch ma'lun,
Jigarrang bir mundir
Istagi uchun,
Nahotki, yerimiz
Chappa aylanib,
Nahotki, daryolar
Oqar teskari!
Nahotki, odamlar
Kezar darbadar! (G'.G'.)*

7- mavzu: GAP BO'LAKLARI, ULARNING TASNIFI VA AJRATISH ASOSLARI

reja:

- 1. Gap bo'laklarining ta'rifi va tavsifi.**
- 2. Gap bo'laklarining tuzilishi jihatidan turlari: sodda va murakkab.**
- 3. Gap bo'laklarini vazifaviy turlarga ajratishdagi tamoyillar.**
- 4. Bosh bo'laklar: ega va kesim.**
- 5. Ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.**
- 6. Xulosa.**

Gap bo'lagi gap qurilishi, uning grammatik-semantik mundariyasi bilan birga – uzviy shakllanadigan, butunlikka (gapga) nisbatan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan, muayyan so'roqqa javob bo'ladigan sintaktik (funksional) birlikdir.

Gap bo'laklari so'zlarning o'zaro birikish qonuniyatlari asosida gap ichida maydonga kelgan va gap tuzilishida uning maxsus komponenti sifatida qatnashadigan sintaktik kategoriyadir. Gap qismlari bo'lak sanalmog'i uchun ular bo'laklar bilan gap tuzilish qonuniyatlariga asosan

grammatik-semantik munosabatga kirishishi, mustaqil vazifada qo'llanilishi va tahlilda bo'lak sifatida ajralishi kerak. Masalan, *Shoir o'zining ilhomini sevimli xalqidan oladi* (O.) gapida oltita so'z sintaksisning talabiga muvofiq grammatik-semantik munosabatga kirishgan va oltita bo'lakni hosil qilgan, gap ana shu bo'laklar asosida shakllangan.

Demak, bo'lak gapning uzviy qismi bo'lib, u bilan grammatik-semantik tomondan bog'langandir. Gap bo'lagi bilan gap qism bilan butunning munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat dialektik munosabatdir: butunsiz qism yo'q, qimsiz butun yo'q, butun qismlardan tuziladi, qismlar butun ichida yashaydi. Juz'iylik umumiylikda, umumiylik juz'iylik orqasida mavjuddir.

Gap bo'lagi so'z va so'z birikmalari bilan aloqador, shular bilan ifodalanadi. Bunda so'z turkumlari o'ziga xos bo'lgan sintaktik vazifalarga ega: otning ko'pincha – ega, to'ldiruvchi; fe'lining – kesim; sifatning – aniqlovchi; ravishning – hol bo'lishi kabi.

Demak, gap sintaksisining talabiga ko'ra so'z va so'z birikmalari gapning biror bo'lagi vazifasida keladi, reallashadi, aniq bo'lak hosil bo'ladi. Biroq bundan so'z, so'z birikmalari bilan gap bo'laklarining tengligi kelib chiqmaydi: fe'l barovar kesim, ot barovar ega emas. Gap bo'lagi tushunchasi uning materiali bo'lgan so'z va so'z birikmalari tushunchasidan tor. Chunki biror bo'lak, chunonchi, ega vazifasida ot va otlashgan hamma turkumlar ham qo'llanilishi mumkin.

Gap bo'lagi bo'lib kelgan so'z va so'z birikmalarining sintaktik mohiyati ularning gap tuzishdagi, gap ichidagi vazifalariga qarab belgilanadi. Gap tarkibidagi bir so'z shaklining o'zi shu so'zning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatiga ko'ra har xil gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Bu vazifalarni alohida-alohida olingan so'z birikmalari bo'yicha aniqlash hamma vaqt mumkin bo'lavermaydi. So'z birikmalari gap tarkibiga kirgandan keyin boshqacha holat yuz berishi mumkin.

So'z turkumlarini aniqlashda leksik-semantik belgilar e'tiborga olinadi. Gap bo'laklarini aniqlashda esa gapdagi vazifasi hisobga olinadi. Gap bo'laklari gapda, gapning qismi bo'lgan sintaktik kategoriya sifatida, so'z turkumlari esa lug'at sostavida leksik birlik sifatida qaraladi. So'zlar matndan tashqarida ko'p hollarda ko'p ma'noli, gapda – bo'lak sifatida bir ma'noli bo'lishi, aniq vazifa bajarishi mumkin. Gap bo'laklari gap singari nutq ichida hosil qilinadi, o'zaro munosabat jarayonida til birliklarining qo'llanilish mahsuli hisoblanadi.

Gap bo'laklarini o'rganish, umuman, gap to'g'risidagi ta'limotning ajralmas bir qismidir. Chunki gapning qismlarga ajratilishida shu gapda

ifoda qilingan fikrning qismlarga ajratilishi o'z aksini topadi. Gapning har bir bo'lagi gapda ifoda qilingan fikrning tinglovchiga yetkazishda alohida o'rin tutadi.

Demak, gap bo'lagi so'z turkumi bilan o'zaro zich aloqada bo'lsa ham, ma'no va vazifa jihatdan boshqa-boshqa birliklardir.

Gapni bo'laklarga ajratish – bo'laklar sintaksisini o'rganish gapni tarkiblarga ajratish – ega-kesim yoki logik sub'yekt va predikat qismlarni ajratishga qaraganda birmuncha murakkab jarayondir. Chunki gapning tarkibi tasavvurda ikkiga ajralib turadi, bo'laklar bunday “bo'rtib” ko'rinmasligi mumkin. Ikkinchi tomondan, gapdagi ayrim bo'laklar shakl jihatidan “falon” bo'lak deyishga imkon bersa ham, *yurak yonmog'i kerak: yonmog'ini* – ega, *kerakni* – kesim; *qamchinidan qon tomadi: qamchinidanni* – to'ldiruvchi, *qonni* – ega, *tomadini* – kesim sifatida ajratishga mazmun yo'l qo'ymaydi.

To'g'ri, har bir mustaqil so'z bir bo'lak vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Respublika planni bajardi* gapi ega, to'ldiruvchi, kesimdan iborat. Bunda hattoki, so'zlarning gapdan tashqarida ham qanday bo'lak bo'lishi sezilib turadi. Biroq gapdagi bo'laklar hamisha bunday grammatik shakli bilan erkin ajrala bormaydi. Masalan, *Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi obro'si nihoyat darajada oshib ketdi* gapi oltita bo'lakka ajraladi, xolos. Aks holda birikmaning keyingi elementlari (*yillarda, Respublikasining, miqyosdagi, darajada, ketmoq*) o'zlariga tegishli bo'lak bilan munosabatga kirisha olmaydi. Solishtiraylik: *keyingi yillarda oshib ketdi* – bo'ladi. *Biroq yillarda oshib ketdi* – bo'lmaydi. *O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi obro'si darajada oshib ketdi* deb ham bo'lmaydi.

Gap bo'laklari ko'pincha so'zning sintetik shakli (sodda va qo'shma so'zlar) bilan ifodalanadi. Bu shakl bilan ifodalangan bo'lak bir butun holda bir bo'lak sifatida ajratiladi (bunda deyarli qiyinchilik bo'lmaydi). Masalan, *Olmaotalik mehmonlar Mirzacho'lga borishdilar* gapida ikkita sodda, ikkita qo'shma so'z ishtirok etgan bo'lib, to'rtta bo'lak vazifasida kelgan (aniqlovchi, ega, hol, kesim).

Gap bo'laklari so'zning analitik shakli (mustaqil so'z+yordamchi so'z yoki yordamchi so'z+mustaqil so'z) bilan ifodalanganda ham, bir butun holda – gapning bitta bo'lagi sifatida ajratiladi. Bir bo'lak sifatida ajratiladigan analitik qurilmalar ko'pincha quyidagi formalarda bo'ladi.

Mustaqil so'z+to'liqsiz fe'llar: *Biz qishloqqa borgan edik. Karim o'qituvchi ekan. Biznikiga ham kelar emish. Shul erur aybim Muqimiy... Lof emas, yolg'on emas* kabi.

Mustaqil soʻz+predikativ-modal soʻzlar: *Biz zavod-fabrikalarga xomashyo yetkazib berishimiz zarur* (I.R.). *Bilish uchun oʻqish kerak, izlanish kerak. Men siz bilan borishim mumkin* kabi.

Mustaqil soʻz+koʻmakchi: *Koʻrmagan dunyo hali sen kabi oshigʻini* (qoʻshiq). *Xalq uchun ishlaymiz. Men dunyoga kelgan kundanoq, Vatanim deb seni uygʻondim* (H.O.). *Erta bilan turaman, yuz qoʻlimni yuvaman. Ikki yil ishlaganimdan keyin qishlogʻim tomon yoʻl olaman* (O.). *Men haqimdagi iliq soʻzlaringiz uchun rahmat* (“Saodat”).

Mustaqil soʻz+koʻmakchi feʼllar: *Oʻngʻay savollar ekan: aytib berib qoʻya qolmabsan-da. Qiziqsiz oyi, aytib berib qoʻya qolish uchun bilish kerakmi, axir* (“Yosh kuch”). *Bizni mahalladagilar ham bilib qoldi. Birpas oʻtirib turing. Oyingiz hozir kelib qoladilar* (“Saodat”).

Mustaqil soʻz+iborat, demak tipidagi soʻzlar: *Tarix safarbarlikdan iborat* (Asq.M.).

Mustaqil soʻz+yu klama: *Yorim borgan joylarga men ham bormay qolmayman* (qoʻshiq).

Mustaqil soʻz+yordamchi soʻz vazifasidagi **bor**, **yoʻq** soʻzlari: *Qirgʻogʻingda kaklik boʻlib sayragim bor – sayragim bor, Quchoqingda baliq boʻlib yayragim bor – yayragim bor* (qoʻshiq). *Faqat senga ochganim yoʻq, ochganim yoʻq yurak rozin* (qoʻshiq).

Ega+eganing kesimdan yoki boshqa boʻlakdan keyingi takrorlangan shakli ham gapda bir boʻlak sifatida ajratiladi: *Anzirat kampir koʻrinishdan sergʻayrat, erkaksimon xotin* (O.). *Bu qizning aqlli qizligini bilmagan ekanmiz* (O.). *Bu ot yaxshi ot.*

Orttirma daraja koʻrsatuvchi yordamchi soʻzlar oʻzi bogʻlangan soʻz bilan bir boʻlak sifatida ajratiladi: *Bu yoʻllar eng qadim yoʻllardir* (Gʻ.Gʻ.). *Juda goʻzal binolar qad koʻtarganki, bu kishini shodlantiradi* (O.) va b.

Juft soʻzlar va soʻzning bir xil va har xil takrorlari gapning bitta boʻlagi sifatida ajratiladi: *Men u vaqtlarda hayotning past-balandini bilmagan, oq-qorani tanimagan bir yigitcha edim* (A.Q.). *Bizning Mirzayevlar oilasi bilan bordi-keldimiz bor. Togʻ-togʻ tuproq qazildi* (O.). *Olmaotaning olmasiday qip-qizildir yuzlaring, Konibodom bodomi-dek qoʻp-quralay koʻzlaring* (Gʻ.Gʻ.).

Turgʻun birikmalar (murakkab terminlar – murakkab soʻzlar, frazeologik birikmalar) gapning bitta boʻlagi sifatida ajratiladi: *Termiz davlat universiteti paxta terimida tashabbuskor boʻldi. Bu kishi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida ishlaydi; Salimboyvachcha oʻzining qordan qutilib, yomgʻirga tutilganini angladi* (O.). *U kapalagi uchib ketgan kotiba qizning oldidan oʻqday otilib oʻtdi.* (O.).

Jang qilib charchagan dushman ikki qo'lini burniga tiqqanicha qarbgga qarab yo'l olgan edi (O.).

Gapdan tashqarida erkin so'z birikmasi hisoblangan ko'pgina so'z birikmalari gap ichida gapning bitta bo'lagi vazifasida kelib, bir butun holda ajratiladi. Bunday vazifada ko'proq quyidagi birikmalar qo'llaniladi: a) bir umumiy affiks bilan boshqariladigan birikmalar: *Qo'sh og'izli miltiq hamisha shofyorda turar edi* (Sh.R.). *Ko'p xonali uy qurdik*; b) son+numerativ so'zlardan tuzilgan birikmalar: *Ming gektaga paxta ekan er bolaman, hay yorey* (qo'shiq). *A.Navoiy bir ming to'rt yuz qirq birinchi yilda Hirotda tug'ilgan*; v) birga qo'llanilishi zarur bo'lgan aniqlovchi+aniqlanmishdan tuzilgan birikmalar: *Botir baland ruh va tetik qadam bilan jo'nadi* (O.). *Sho'r suvda sovun ko'pirmaydi. Yotib o'qish zararli. Pishmagan meva qorinni og'ritadi. Ko'p chopish yurakka ziyon*; g) kesimi sifat, sifatdash; bor, yo'q kabi so'zlar bilan ifodalangan ega+kesim qolipidagi birikmalar: *Sizni ko'zi qora, sochi uzun bir qiz so'rab keldi. Siz aytgan kishi men bo'laman. Sening ko'z ilg'amas maydonlaringda Jahannam qo'rqajak janglarni ko'rdim. Yana bir karra yov o'tgan o'rmonlaringda Ko'mirdan ham qora tonglarni ko'rdim* (H.O.). *Insofi yo'q yigit ekansiz* (A.Q.). *Aqli bor yigit har bir yaxshi ishning tashabbuskori bo'ladi* (O.).

Ba'zan izofali birikmalar gapda bitta bo'lak sifatida ajratiladi: *Sukut – rozilik alomati. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Betaraflik – qat'iy-sizlik belgisi*.

Ba'zan butun bir yoyiq gap faqat ikkita bo'lakka ajrala oladi, xolos: *Hech qayerda ham damlab qo'yilgan osh yo'q* (A.Q.) – *Hech qayerda ham damlab qo'yilgan osh – ega, yo'q – kesim. Paxtaga! Bu so'z hech qayerda O'zbekistondagiday jaranglab eshitilmasa kerak* (A.Q.) – *Bu so'z – ega, hech qayerda O'zbekistondagiday jaranglab eshitilmasa kerak – kesim*. Gap faqat bosh bo'laklardan (bular ba'zan yig'iq, ba'zan yoyiq bo'lishi mumkin) iborat bo'lganda, logik hukmga, bo'laklar sub'yekt va predikatga teng kelib qoladi.

Umuman, gapni bo'laklarga ajratish, birichidan, bo'lak ifodalanayotgan materialning morfologik, sintaktik tabiatini yaxshi bilishni talab qiladi. So'ngra, bo'lak sifatida ajratilayotgan qismning gapdagi gramma-tik-semantik vazifasi, mustaqilligi, boshqa bo'laklar bilan munosabati grammatik shakli, xususan, mazmun va shakl birligi kabilar hisobga olinishi kerak. Ba'zan bo'laklarning shakli bir xil bo'lib qoladi. Masalan, *Paxtalar chaman-chaman, jonim bilan teraman – Paxtalar chaman-chaman mashina bilan teraman* qo'shilmalarining shakli (ot+ko'makchi+

harakat) bir xil, ikkalasi ham tobelanish yo'li bilan tuzilgan. Bunday vaqtda mazmunga (shaklga emas), semantikaga, so'roqlarga e'tibor beriladi. Qiyoslang: *Jonim bilan teraman. Qanday?* – *jonim bilan*: harakat ob'yekti emas – **hol**; *Mashina bilan teraman. Nima bilan?* – mashina bilan: harakat ob'yekti – **to'ldiruvchi**. Biroq hamma vaqt ham so'roqlar yordamida bo'laklarni ajratib bo'lmaydi, ba'zi bo'laklarning so'rog'i bir xil bo'ladi. Masalan, ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi (tor ma'noda) bilan ravish holi **qanday**, ega, kesim, to'ldiruvchi **kim**, **nima** so'roqlariga javob bo'ladi: *chiroyli vatan* (qanday?), *tez o'qidi* (qanday?); *Karim keldi* (kim?), *kelgan yigit Karim* (kim?); *shamol esdi* (nima?), *Guvillayotgan narsa* – *shamol* (nima?), *Jamoa davlatga paxta sotadi* (nima?) kabi.

Demak so'roqlar gap bo'laklarini aniqlashda yordamchi vositadir. Gapni bo'laklarga ajratishda tartib va intonatsiyaning roli kattadir. Masalan, *Bolalar ko'chada orqasini o'girib turgan Afandini savalab ketishdi* gapida *savalab ketishdi* – **kesim**, biroq *savalabdan* keyin pauzaning berilishi uni (*savalabni*) – **hol**, keyingi bo'lak (*ketishdi*)ni **kesim** holatiga tushiradi.

Umuman, tartib va intonatsiyaning sintaktik munosabat ifodalashi, jumladan, bo'laklarni ajratishdagi ahamiyati haqida yuqorida gapirganmiz.

Gap bo'laklarining tuzilish jihatidan turlari

Gap bo'laklarining ifoda materiali dastlabki vaqtlarda (leksik, morfologik, morfologik-sintaktik, sintaktik planlarda) yaxshi o'rganilmadi. Bu gap bo'laklari va ularning tabiatini yaxshi tushunishga xalaqit beradi, xususan, bo'laklarning tuzilishi jihatidan turlari ajratilmadi: kesimgina sodda, qo'shma, keyinchalik ayrim darsliklarda sodda, qo'shma, tarkibli yoki birikmali tiplarga ajratildi. Bunda birinchidan, kesim vazifasida keladigan materiallarning bir qismigina yuqoridagi terminlar bilan nomlandi; ikkinchidan, mavjud terminlar (qo'shma, murakkab, tarkibli, birikmali, yoyiq, yumuq kabi) befarq qo'llanildi – har xil xarakterdagi hodisalar bir termin bilan ataldi; uchinchidan, kesimning ayrim tiplari ajratilmadi yoki noto'g'ri ajratilib izohlandi; to'rtinchidan, gapning kesimdan boshqa bo'laklari tuzilishiga ko'ra tiplashtirilmadi. Umuman, gap bo'laklarini tuzilishiga ko'ra sodda, tarkibli, murakkab va birikmali deb turlarga ajratish amaliy jihatdan ma'lum qiyinchilik tug'dirganligidan biz ularning quyidagi ikki turini ajratamiz.

Sodda bo'lak. Bir sodda tushuncha anglatadigan so'zning sintetik shakli (sodda va qo'shma so'z) bilan ifodalangan bo'lak **sodda bo'lak** deyiladi. Bunda sodda so'z bilan ham, qo'shma so'z bilan ham ifodalangan

bo'lak sodda bo'lak hisoblanadi. Masalan, *Havo ochilib ketdi. Otquloq – dorivor o'simlik* gaplarining egalari – sodda ega; *tergan o'ting – otquloq, tergan o'ting – gul* gaplarining kesimlari – sodda kesim; *Men chiroyli o'yinchoq keltirdim. Olmaotalik do'stlarimiz kelishdilar* gaplaridagi **chiroyli** va **olma-otalik** so'zlari – sodda aniqlov-chi; *Siddiqjon tongda Bahrabodga jo'nadi* (A.Q.) gapidagi **tongda** va **Bahrabodga** bo'laklari – sodda hol; *Tomorqani sug'ordim, Kitobni keltirdim* gaplaridagi **tomorqani** va **kitobni** bo'laklari – sodda to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

Demak, sodda va qo'shma so'zlar tuzilishi jihatidagina morfologiyada farqlanadi, ma'no va vazifasi jihatidan morfologiyada ham, sintaksisda ham bir xil qimmatga ega.

Murakkab bo'lak. Murakkab bo'lak so'zning analitik shakli (mustaqil so'z+yordamchi so'z yoki aksincha yordamchi so'z+mustaqil so'z) bilan ifodalanadi.

Murakkab bo'lakning bu turi mustaqil va nomustaqil elementlardan tuziladi. Unda bir komponent mustaqil bo'lib, bo'lakning asosiy ma'nosi shu komponentda saqlanadi. Yordamchi komponent leksik ma'no ifodalay olmaydi, mustaqil komponentning ma'nosiga har xil grammatik ma'nolar orttirish, mustaqil komponentni grammatik jihatdan shakllantirish, uning boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqasini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi.

Murakkab bo'lak qo'yidagi shakllarda bo'ladi:

- 1) mustaqil so'z+to'liqsiz fe'llar;
- 2) mustaqil so'z+predikativ-modal so'zlar;
- 3) mustaqil so'z+ko'makchilar;
- 4) mustaqil so'z+ko'makchi fe'llar;
- 5) mustaqil so'z+ayrim yuklamalar;
- 6) mustaqil so'z+ibora tipidagi yordamchilar va b.

Murakkab bo'lak ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning munosabatidan tug'ilgan, keyinchalik so'zlashib – leksikalizatsiyalashib, bir murakkab predmet yoki tushunchaning atamasiga aylangan morfologik-sintaktik birliklar bilan ham ifodalanadi. Bu turning ifoda materialini murakkab so'zlar, frazeologik birikmalar tashkil qiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ilmiy-siyosiy va madaniy muassasalarning nomlari: *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Termiz davlat universiteti, Surxondaryo viloyat Hokimligi, Yozuvchilar uyushmasi, Navoiy teatri, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati* va boshqalar.

2. Kitob, gazeta, jurnal nomlari: *“O‘zbek tili” darsligi, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Sharq yulduzi” jurnallari, “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston ovozi” gazetalar* va b.

3. Turli geografik joy nomlari: *Orol dengizi, Shimoliy muz okeani, Janubiy Surxon suv ombori, O‘rta Osiyo, O‘rta Sharq, O‘rta Chirchiq, Navoiy ko‘chasi, Mustaqillik maydoni* va b.

4. Har ikkala komponenti ham hali o‘z leksik ma‘nosini butunlay yo‘qotmagan, biroq bir butun holdagina gapning murakkab bo‘lagi vazifasida keladigan *borib kelmoq, topib olmoq, sotib olmoq, kelib ketmoq* tipidagi murakkab fe‘llar; *havo rang, kul rang, shisha rang, och rang* kabi murakkab sifatlar; *o‘n besh, bir yuz ellik, bir kam sakson, bir ming to‘qqiz yuz yetmish to‘rtinchi* tipidagi murakkab sonlar; *har kim, har nima, har bir, hech kim, hech narsa, bir necha, ba‘zi bir, qaysi bir, ana o‘sha, mana shu* kabi ma‘nolari o‘zicha anglashilib turadigan murakkab olmoshlar; *har vaqt, har zamon, har qachon, har dam, har xil, bir zamon, bir zum, bir nafas, hech vaqt, hech qachon, hamma vaqt, o‘tgan kuni, shu zahoti, tunov kuni, kuni kecha, shu yerda, bu yoqdan* kabi murakkab ravishlar; *kapalagi uchib ketmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, boshini olib ketmoq, yostig‘ini quritmoq* kabi frazeologik birikmalar va b.

Anglashiladiki, murakkab bo‘lakning bu turi bir tomondan qo‘shma so‘zga, ikkinchi tomondan so‘z birikmasiga o‘xshaydigan, biroq har ikkalasidan ham farqlanadigan morfologik-semantik kategoriyalardir (bunda frazeologiya boshqacharoq xarakterga ega).

Misollar: *O‘zbekiston Respublikasi tinchlik ahidiga imzo chekdi. Fermerlar uyushmasi qaror qabul qildi. Besh yuzning yarmi ikki yuz ellik gaplarining egasi **murakkab** egadir. Siz – bir yonda, biz – bir yonda. Siz bir tomon, biz bir tomon, Raisning idorasi shu yerda. Bu yer – ishlab chiqarish boshqarmasi. Sabo, arzumni etkur, mohi tobon bir kelib ketsun (H.H.) gaplarining kesimlari murakkab kesimdir. Bobotog‘ o‘rmonchiligining mahsulotini barcha viloyatlar sotib olishga tayyor gapidagi Bobotog‘ o‘rmonchiligining birikmasi **murakkab aniqlovchi** vazifasida qo‘llanilgan. Biz Surxon suv omborini tomosha qildik gapidagi to‘ldiruvchi (Surxon suv omborini) **murakkab to‘ldiruvchidir**. G‘afur G‘ulom ko‘chasida yashaymiz. She‘rlaringizni goh “Xalq so‘zi”da, goh “O‘zbekiston ovozi”da o‘qib turaman gaplaridagi hollar (“Xalq so‘zi” da, “O‘zbekiston ovozi”da) **murakkab** hollardir.*

Erkin so‘z birikmalari ko‘pincha gapda ajralib ketadi, ya‘ni ularning komponentlari alohida bo‘lak vazifasida shakllanadi. Masalan, ko‘pincha atributiv birikma aniqlovchi va ega, ob‘yektli birikma to‘ldiruvchi va

kesim, relyativ birikma hol va kesim vazifalarida keladi. Biroq so'z birikmalari hamma vaqt ham gapda bunday alohida bo'lak vazifasida kela bermasdan, ba'zan bir butun holda bitta bo'lak sifatida ajratiladi. Masalan, *Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. Bu kishi Arslonbekning akasining o'g'li* gaplaridagi *O'zbekistonning poytaxti, Arslonbekning akasining o'g'li* birikmalari gapning bitta bo'lagi – **kesimi** vazifasida kelgan va so'z birikmasi bilan ifodalangan.

Murakkab bo'lak vazifasida ko'pincha ko'chma, obrazli ma'no bilan bog'langan qaratqichli aniqlovchili birikmalar, son+numerativ so'zlardan tuzilgan birikmalar, kesimi sifat, sifatdosh, bor, yo'q so'zlari bilan ifodalangan "ega+kesim" qolipidagi qo'shilmalar, gapdan tashqarida erkin bo'lsa ham, gapda alohida qo'llash mumkin bo'lmagan ko'pgina har xil xarakterdagi so'z birikmalari kela oladi.

Murakkab egaga misollar: ***Yaxshining so'zi** – qaymoq, yomonning so'zi – to'qmoq* (maqol). ***Erning vaziri** – xotin* (maqol). ***Dunyoning ishlari** Ziyodulla o'ylagandek ancha mushkulroq bo'lib chiqdi* (G'.G'). ***Yaxshi ro'zg'or** – jannat, yomon ro'zg'or – do'zax* (maqol). ***Bir necha kishi qo'l-oyog'i bog'langan Oqilxon to'rani sudrab olib kirishdi*** (O.). ***Ko'ngil xazinasining qulfi til, ul xazinaning kaliti** – so'z bil* (A.Navoiy).

Murakkab kesimga misollar: ***Paxta – o'zbek xalqining milliy iftixori.*** *Navoiy – **g'azal mulkining sultoni.*** *Mana tog' desang tog'. Balandligi **yetti ming besh yuz o'n metr.*** *Jurnalning oylik bahosi **bir ming sakkiz yuz so'm ellik tiyin.***

Murakkab to'ldiruvchiga misollar: ***Fikrsiz odamdan tosh yaxshi*** (maqol). ***Xalq mardikor olish voqeasidan shikoyat qilayapti*** (O.). ***It og'zidan suyak olib bo'lmas*** (maqol). *Shokir ota yana o'zining "**qo'li qisqa**"ligidan, **ro'zg'or tangligidan** g'oyat kuyunib so'zladi* (O.). *Qovunlarning har qaysisi **tuyaning kallasidan** katta.*

Murakkab aniqlovchiga misollar: *Shahrimizda **o'n besh qavatli** binolar qad ko'tarmoqda. Bilasizmi, **besh ming besh yuz so'mlik** bir kitob keltirdim. **Qo'sh paravozli** poyezd ketib qoldi. **O'zi yo'q kishining** orqasidan gapirmaslik kerak. Bu traktor **muz bilan qoplanib yotgan yerni** ham haydaydi.*

Murakkab holga misollar: ***Begona yurtida** shoh bo'lgandan, **o'z yurtida** gado bo'lgan yaxshi. **Mirzacho'l yerlarida** javlon urayotgan yoshlarga alangali salom! Beruniy **to'qqiz yuz uchinchi yilda** tug'ilgan va b. (fikir takrorlanmasligi uchun har bir bo'lakdan keyin uning tuzilishi (sodda, murak-kab)ga doir to'xtalmaymiz).*

Gap bo'laklarining vazifaviy turlari

Leksik birliklar gapda bo'lak sifatida ma'lum vazifa bajaradi. Biroq bo'laklar gapdagi ana shu vazifasi jihatidan bir xil bo'lmaydi. Ba'zi bo'laklar gapning mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi; ba'zan ularning qo'llanmasligi gap mazmunini yoki tuzilishining buzilishiga olib kelmaydi. Ba'zi bo'laklarning gapda ishtirok etishi mutlaq zarur bo'lib, bularsiz gapning o'zi maydonga kelmaydi. Bo'laklar mana shu vazifasi, gapdagi mavqei jihatidan, dastavval, ikki turga bo'linadi: **bosh bo'laklar** va **ikkinchi darajali bo'laklar**.

Bosh bo'laklar asosiy fikrni ifodalaydi. Gap va uning mundarijasi bosh bo'laklarga bog'liq. Bosh bo'laklardan birontasining gapdan tushirilishi yoki qo'llanmasligi hukmning buzilishiga va fikriy-grammatik holatning o'zgarib ketishiga olib keladi. Bosh bo'laklar nutqda ko'pincha ikkinchi darajali bo'laklarsiz qo'llaniladi (yig'iq sodda gap). Ular yoyiq sodda gaplardan ham gap sifatida ajralib chiqadi. Demak, bosh bo'laklarning mavjudligi, asosan, ikkinchi darajali bo'laklarga bog'liq emas. Ikkinchi darajali bo'laklar gapda bosh bo'laklar bajaradigan vazifalarni bajara olmaydi. Ularning gapda mavjudligi bosh bo'laklarga bog'liq – bosh bo'laklarsiz nutqda qo'llanilmaydi.

Bosh bo'laklar gapni markazlashtirishda uning yadrosi, asosi hisoblanadi. Gap qanchalik yoyiq bo'lmasin, undagi ikkinchi darajali bo'laklarning hammasi ikkiga bo'linib bosh bo'laklarga bog'lanadi – uyg'unlashadi. Bosh bo'laklar ikkinchi darajali bo'laklarni boshqaruvchi, harakatlantiruvchi, tutashtiruvchi markazlardir (bosh bo'laklar parovozni, ikkinchi darajali bo'lak vagonlarni eslatadi). Buni quyidagi misolda aniq ko'rish mumkin: *Uzoq tog' yon bag'irlaridan asta esayotgan yoqimli va sho'x shabada muhabbat ishq bilan yongan qizning mayin va parishon sochlari bilan o'ynashardi* (Sh.R.).

Ega va kesimning ana shunday markazlashtiruvchilik xususiyatga ega ekanligi, gapdagi asosiy fikr ham shu bo'laklar bilan ifodalanishi nazarda tutilib, ular **bosh bo'laklar** (birinchi darajali bo'laklar) deb atalgan. Birinchi darajali bo'laklar bajaradigan vazifani bajara olmaydigan bo'laklar esa **ikkinchi darajali bo'laklar** deb ataladi.

Shunday qilib, gapdagi bo'laklar vazifa bajarishi, gapni uyushtirishi nuqtai nazaridan, dastavval, ikki yirik turga bo'linadi: **bosh bo'laklar**, **ikkinchi darajali bo'laklar**. Bosh bo'laklar: **ega va kesim**; ikkinchi darajali bo'laklar: **aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol**.

Bosh bo'laklar. Yuqorida aytilganidek, bosh bo'laklar gapning qurilish markazini tashkil qiladi, bu markazda predikativlik ifodalanadi.

Predikativ aloqa bayoniy aloqa bo'lib, bu aloqa tasdiq va inkorni o'z ichiga oladi, biron ish, harakat, holat yoki belgini zamon va makonga bog'liq holda shaxs yoki predmetga nisbat beradi. Masalan, *bola sho'x* deganimizda, bola tasavvuriga sho'x belgisini nisbat beramiz, shu belgining bolada mavjud ekanligini tasdiqlaymiz, shu bilan birga hozirgi zamonni ko'zda tutamiz.

Shunday qilib, A.A.Reformatskiy aytganidek, "*Zamon kategoriyasi orqali nutq o'zining mazmuni bilan mayl kategoriyasi orqali o'zining biror sohaga qaratilgan maqsadi bilan bog'lanadi*". Ana shuning o'zi predikativ munosabatni yoki predikativlikni tashkil qiladi.

Predikativ aloqa, har qanday boshqa aloqaga qaraganda, eng erkin aloqadir. Bu aloqa gap ichida maydonga keladi va gapni hukmning ifoda shakli sifatida, tugallangan nutq birligi sifatida tashkil qiladi.

Predikativ aloqani tashkil qiluvchi bosh bo'laklar ikkita: **ega** va **kesim**.

Ega va kesim aloqasi so'z birikmalari singari murakkab bir tushunchani emas, balki ikkita tushunchani predmet va belgi tushunchasini alohida-alohida ifodalaydi. Ega gapning mutloq hokim bo'lagi bo'lib, u kesimda ifoda qilingan ish-harakat, holat yoki biron belgi, o'ziga nisbat berilgan shaxsni yoki predmetni ko'rsatadi va shaxslarga nisbatan *kim?*, jonsiz predmet va hayvonlarga nisbatan *nima?* so'rog'iga javob bo'lib keladi. Masalan, *Bashorat (kim?) beixtiyor uzoqdagi qorayib kelayotgan olmazor boqqa tikildi. Hademay yulduzlar (nimalar?) charaqlab qoldi* (Asq.M.). *Ko'chada ot (nima?) kishnadi* (A.Q.).

Egani ifodalovchi so'z o'ziga egalik yoki ko'plik qo'shimchasini olgan bo'lsa, eganing so'roqlari ham shu qo'shimchalarni o'ziga qabul qilishi mumkin. Masalan, *Yoshlarimiz (kimlarimiz?) o'z fuqarolik burchlarini juda yaxshi tushunadilar* kabi.

Kesim egaga nisbatan tobe holatda bo'lib, egaga qarashli ish-harakat, holat yoki belgini ko'rsatadi. Kesimda biron belgining egada mavjud ekanligi tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Masalan, *Oyoqlar ildam, ko'kraklar baland, boshlar mag'rur* (O.) gapining birinchi o'rinda kelgan bo'laklari – *oyoqlar, ko'kraklar, boshlar* hokim holatdagi egalardir; ikkinchi o'rinda kelgan bo'laklar (*ildam, baland, mag'rur*) egaga nisbatan tobe bo'laklar, ya'ni kesimlar bo'lib, egalarning belgilarini ko'rsatadi.

Kesim egaga nisbatan tobe bo'lsa-da, u gapning boshqa bo'laklariga ergashmaydi, balki boshqa bo'laklarni o'ziga ergashtirib keladi. Masalan, *Har bir tup g'o'za yangi kelinchakdek yasangan* (O.).

Kesimda ifodalangan predmet belgisi uch zamonning biriga – hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonga mansub bo'ladi. Masalan, *bola sho'x* deganimizda “sho'x” so'zi so'zlanayotgan paytga nisbatan hozirgi zamonni bildiradi. Demak, *sho'x* – kesim, ammo *sho'x bola keldi* deyilganda, *sho'x* – uch zamonning biriga nisbat qilinmaydi. Demak, *sho'x* so'zi shu gapda kesim emas, balki ikkinchi darajali bo'lakdir.

Kesim predmetning faol (ish-harakatiga ko'ra) yoki nafaol (sifat va holatiga ko'ra) belgisini ifodalashi mumkin.

Predmetning faol belgisi predmetning o'z faoliyati orqasida hosil qilingan belgidir. Shaxs yoki predmet faol, o'z belgisini o'zi yaratuvchi sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, *Qizchalar quvonishar, suv sachratishar; sochlarini yozib, yomg'irga tutishar; qo'llarini cho'zib, osmonga intilishar edi* (Asq.M.) gapida kesim – *quvonishar, sochishar, tutishar, intilishar* egada ifodalangan predmetning (*qizchalarning*) faol belgisini ifodalaydi.

Faol belgilar jonli predmetlargagina emas, jonsiz predmetlarga va mavhum tushunchalarga ham nisbat berilishi mumkin. Masalan, *Do'stlik xalqlar kuchiga kuch qo'shadi, ularga kurashda ishonch bag'ishlaydi, ularning irodasini chiniqtiradi, ong tushunchalarni oshiradi* (Sh.R.) gapida kesim (*qo'shadi, bag'ishlaydi, chiniqtiradi, oshiradi*) faol belgilarni mavhum tushunchaga – gapda ega vazifasida kelgan do'stlikka nisbatan ifodalangan.

Predmetning faol nafaol belgisi predmetning faoliyatiga bog'liq bo'lmasdan, predmetda o'zicha mavjud bo'lgan belgidir. Bu holda predmet o'z belgisini o'zi yaratuvchi sifatida emas, balki belgining nafaol egasi sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, *Uning yuzi qoramtir, to'lagina kulimsiragan lablari ingichkagina, qop-qora ko'zlari juda jonli, o'ynoqi...* (O.) gapining kesimlari (*qoramtir, to'lagina, ingichkagina, juda jonli, o'ynoqi*) nafaol belgilarni ifodalagan. Egalar (*yuzi, lablari, ko'zlari*) shu belgilarni nafaol holda o'zlarida saqlovchi predmetlar sifatida tasavvur qilinadi.

Nafaol belgilar *kim?, nima?, qanday?* singari so'roqlarga javob bo'ladi va eganing kimligini, nimaligini, qandayligini bildiradi. Misollar, *Prezident bilan xalqning birligi g'alabamizning garovidir* (nimadir?). *Suv – biz uchun kuch, qon va katta xazina* (nima?) (O.). *Kunlarimiz yillardan salmoqli* (qanday?). *Yillarimiz tugal bir umr* (nima?) (G'.G').

Rang-barang mazmun turlariga ega bo'lgan kesimning so'roqlari yuqori-da ko'rsatilgan so'roqlar bilangina cheklanib qolmaydi, albatta. Kesimning so'roqlari eganing nechanchi shaxs bo'lishiga va harakat yoki

holatning zamoniga ko'ra turlanib va tuslanib kelaveradi, shuningdek, to'liqsiz fe'llar bilan ham birikib keladi. Misollar, *Sen shu ulug' xalqning farzandisan* (kimsan?) (G'.G'). *Bu yangi hayot Xolmurodning ruhan va jisman o'sishiga kun sayin ta'sir qilar edi* (nima qilar edi?) (P.T.). *Saodat yetilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan* (nima qilgan?). *Har bir kichik imo-ishoradan muhabbatga taalluqli ma'nolar anglaydigan yetukkina qiz bo'lib qolibdi?* (G'.G').

Umuman, yuqorida aytganimizdek, gap bo'laklarini aniqlashda so'roqlar-gagina suyanish kifoya qilmaydi. Faqat sintaktik hodisalarning mohiyatini to'la va ongli ravishda o'zlashtirib olgandan keyingina, sintaktik tahlil mash-g'ulotlarida so'roqlardan yordamchi bir usul sifatida foydalanish mumkin.

E g a

Gapda hukm fikr qaratilgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishik shaklidagi mutloq hokim bo'lak **ega deyiladi**. Ega kesim orqali ifodalangan harakatni bajaruvchisi, shu harakat yoki belgining egasi. Kesimdagi belgi (keng ma'noda) egada bo'ladi, egada topiladi. Ega ikki tarkibli gapning hokim elementi, tarkibi yoyiq bo'lsa, u shu tarkibni markazlashtiruvchi elementdir. Ega o'z tarkibiga hokimlik qilish bilan birga ikkinchi tarkibning bosh elementi – kesimga nisbatan ham hokim holatda bo'ladi. Gapda birdan ortiq bo'lak bosh kelishikda shakllangan bo'lishi mumkin. Biroq shulardan biri mutloq bosh kelishik shakli hisoblanadi. Masalan, *Ham a'lochi, ham jamoatchi talaba yaxshi talaba hisoblanadi* gapida ikkita bosh kelishik shaklidagi ot bo'lsa ham, bularning hammasi ega vazifasida kelavermaydi. Bu – ularning gapdagi grammatik-semantik holatidan anglashilib turadi.

Yuqoridagi gapda birinchi o'rindagi *talaba* so'zi mutloq bosh kelishik shaklidagi ot – ega. *Yaxshi* so'zidan keyin kelgan bosh kelishik shaklidagi *talaba* so'zi eganing kesimdan keyingi takrori bo'lib, eganing belgisini ta'kidlash uchun xizmat qiladi (bog'lama vazifasida). Ega belgisi kesim tomonidan aniqlanayotgan bo'lak dedik. Ikkinchi tomondan eganing belgisi aniqlovchi tomonidan ham aniqlanadi. Masalan, *Siz aytgan ot yaxshi emas, jiyyon ot yaxshi* gapining keyingisida ega ham aniqlovchi (*jiyyon*), ham kesim (*yaxshi*) tomonidan – ikki tomonlama aniqlangan. Biroq bu aniqlash ikki xil xarakterdagi belgi ifodalashdir: aniqlovchi bilan belgi ifodalanganda, belgi (aniqlovchi) va predmet (ega) tushunchalari qo'shilib bir butun tasavvurni hosil qilgan, yaxlit intonatsi-yaga birlashgan, eganing belgisi atributiv yo'l bilan aniqlangan. Eganing belgisi kesim tomonidan predikativ yo'l (belgini tasdiq yoki inkor qilish) bilan

ifodalanadi. Aniqlovchi eganing doimiy belgisi emas: gapda aniqlovchi doimo qo'llanilmasligi, qo'llanganda, doimo egaga emas, boshqa bo'laklarga ham bog'lanishi, o'sha bo'lakning aniqlovchisi bo'li-shi mumkin. Kesim eganing belgisini doim o'zida saqllovchi bo'lakdir.

Kesimi fe'l bilan ifodalangan gaplarda ega doim bajaruvchi shaxsni, logik sub'yektni ko'rsata bermaydi. Bu gap ko'rinishidagi ayrim holatlar bilan xarakterlanadi. Bunda, avvalo, **aniq oborot** bilan **majhul oborot**ni farqlash kerak. Aniq oborot (faol qurilma)da ko'pincha gapning kesimi fe'lining aniqlik (ba'zan shart-istak) maylida bo'ladi. Ega harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi: *Bobom xat yozdi. Biz maktab bog'ida ishladik* kabi.

Majhul oborot (nofaol qurilma)da ega logik sub'yektni emas, logik ob'yektni ko'rsatadi. Bunda harakatning bajaruvchisi logik sub'yekt – to'ldiruvchi, logik ob'yekt esa grammatik ega vazifasida bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi gapning majhul shakli bilan ifodaladi: *Xat bobom tomonidan yozildi: xat* – ega (logik ob'yekt), *bobom tomonidan* – to'ldiruvchi (logik sub'yekt). Bunda bo'laklar faqat vazifa jihatdangina emas, bo'laklarga xos shakllanadi ham. Logik ob'yekt ega vazifasida kelganda, to'ldiruvchi shaklidan hokim holatga – ega shakliga o'tadi, logik sub'yekt to'ldiruvchi vazifasida kelganda, tobe holatga o'tadi: ergashtiruvchi vositalar (kelishik, ko'makchilar) bilan shakllanadi: *Bobom fashistlar tomonidan o'ldirilgan. Qo'y qassobga so'ydirildi* kabi.

Ega ko'p vaqt gapda yoki nutqda qo'llanilmaydi. Eganing qo'llanilmasligi gapning to'liqsizligini, uning biror bo'lagining tushib qolishini – yetishmasligini ko'rsatmaydi. Aksincha, eganing qo'llanilmasligi (yashirinishi), ifoda zarur bo'lmagan o'rinlarda (har xil uslubiy poetik talablar, kontekstual, situativ holatlar natijasida) sodir bo'lib, bu shu gapning, nutqning normal holat ekanligini ko'rsatadi.

So'zlovchi nutqida yoki gapda biror bo'lakning qo'llanilmasligi ma'lum lingvistik qonunlarga bo'ysunadi. So'zlovchi oz so'z bilan ko'p fikr anglatish an'anasiga moyil bo'ladi. Ifodalanishi zarur bo'lmagan ko'pgina til elementlari aytilmaydi. Bu asta sekin yuz beradigan hodisa tilshunoslikda til iqtisodi (ekonomiya) prinsipi deb ataladi. Ega quyidagi holatlarda qo'llanilmaydi:

Gapning kesimi shaxsli fe'l bilan ifodalanganda. Chunki shaxsli fe'llar eganing qaysi shaxs va sonchaligini, birlik-ko'pligini, zamonga munosabatini anglatib turadi. Ega shu fe'l-kesimda “yashiringan” bo'ladi: – *Dramatik to'garakda ishtirok etasizmi? – Ishtirok etaman. Maktabda o'qib yurgan vaqtlarimda ham Navoiy rolda o'ynaganman.*

*Xayolimda bo'lding uzun tun,
Seni izlab qirchoqqa bordim,
Och to'lqinlar pishqirgan damda,*

Topib ber deb oyga yolvordim (H.O.) gaplarida egalar tiklandigan bo'lsa, odatdagi normal holat buzilgan bo'lar edi. Yana bir misol:

*Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim,
Hammasini tinglardim ammo,
O'xshashin topmadim aslo* (H.O.).

Ega shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, shaxssiz gaplarda qo'llanmaydi. Gapning bu tiplari nutqda konkret – shaxssiz qo'llaniladi: *Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda* (maqol). *Bu kishini mahallamizda Hoshim xo'roz deyishadi. Oyni etak bilan yopib bo'lmas* (maqol). *Falakka qo'l uzatib shamsu anvarni olib bo'lmas* (Mashrab). *Bugun o'yingohga boriladi. Ertaga ham mashq qilishga to'g'ri keladi.*

Ba'zan talabaman tipidagi bir tarkibli gaplarda ega qo'llanilmaydi. Agar ega qo'llanilsa, aslida gapda sub'yekt takrorlangan bo'ladi: *Qanday baxt! Endi talabaman kabi.* Bunda ega (*men*)ni qo'llash ortiqcha.

Ega ba'zan topishmoqlarda qo'llanilmaydi. Bunda topilishi kerak bo'lgan predmet (ega) aytilmaydi (“yashiriladi”): *Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda* (ko'rpa). *Teg-teg desam tegmaydi, tegma-tegma desam tegadi* (lab). *Zuv boradi, zuv keladi, asal tashiydi* (ari).

Quyidagi o'rinlarda eganing qo'llanilishi zarur:

Asosiy fikr egaga qaratilganda, ega logik urg'u bilan ajratilib, ta'kidlanganda: *Menga u kishi emas, siz kerak. Maktab qurilishida talabalar-dan Karim, Salim va Valilar borishadi. Sen yetim emassan* (G'.G').

Kesimi predikativlik affikslarisiz qo'llangan tasviriyl xarakterdagi otli gaplarda qo'llaniladi: *Uzum – meva. Qush – parranda. Uyg'un – shoir. Oltin –metall. Havo toza, osmon beg'ubor* kabi.

Eganing ifodalanishi

Ega bosh kelishik formasidagi turdosh yoki atoqli ot bilan ifodalanadi: Misollar: *Yosh avlod jamiyatning tayanchidir* (O.). *Paxta badavlat hayot garovidir. Oysulton ziyrak, aqlli qizlardan hisoblanadi* (R.F.). *Saodat yetilgan qizlarning butun latofatini egallab olgan* (G'.G').

• Ot o'rnida kelgan olmoshlar gapda ega bo'lib keladi:

a) birlik va ko'plik shaklidagi kishilik olmoshlari. Misollar: *Biz ham chiroyli, ham quvvatli bo'lishni istaymiz* (“Saodat”). *Sen odam bo'lasan.*

Men buni yaxshi bilaman, shuning uchun men senga haqiqiy yo'lni ko'rsataman (O.). Siz bilan biz ... xalqning xizmatkorimiz (U.) U uzoqqa, qor do'ppili tog' ustiga qarab xayol surdi (R.F.).

b) **hamma, boshqa, barcha, har bir, har kim** kabi belgilash olmoshlari. Misollar: *Hamma shod, hamma bir-birlarini sevinch va muhabbat bilan qarshilardilar (M.I.). Boshqalar, ularni qurshab olib, hol-ahvol so'radilar (P.T.). Har kim ekanini oladi (maqol). –Albatta, ishimizning nuqsonlari ko'p. Buning uchun hammamiz, barchamiz, barimiz ham aybdormiz (U).*

v) **kimdir, nimadir, allakim, allanima, birov, kimki** kabi gumon olmoshlari. Misollar: *Nimadir qarsillab sindi. Kimdir o'kirdi. Kimdir so'kindi (A.Q.). Yiroqda qaerdadir birov tunuka tomda yurganday bo'ldi (O.). Allakim gandraklaydi, allakim kuladi (X.G').*

g) **-niki** bilan kelgan olmoshlar: *Biznikilar jazolovchilarni avtomat o'qi yetadigan masofagacha keltirdilar-da, kontratakaga o'tdilar (I.R.). ...meniki ham, seniki ham bu yerda nima qilsin (Oydin). Ularники ham, bizniki ham tayyor (Oydin).*

d) **hech kim, hech nima, hech narsa** kabi bo'lishsizlik oshmoshlari: *Ko'pchilikka hech narsa pisand emas. Ko'chada hech kim ko'rinmasdi (P.T.). Yaqin orada hech kim ko'rinmadi (O.).*

y) so'roq olmoshlari: *–G'o'zani kim chopiq qiladi? (S.Ahm.) ...aytaqolsang-chi: kim kelayapti? (G'.G'.) –Qishloqda kimingiz bor? –Yana nima kerak?–Yana nimam bor? (A.Q.)*

j) ot o'rnida kelgan **u, shu, o'sha** singari ko'rsatish olmoshlari. *Bu buyuk tarix ishi edi (Asq.M.). Mehrixonga qaradim. Bu – o'sha aldamchi, bevafo ko'zlar; bu – o'sha bir kulgisi bilan machit tarnovidan musichalarni cho'chitib uchirgan yoqut lablar... (G'.G'.) –Ha, ana bu – soat (U.). –Shu ham gapmi? (A.Q.).*

z) egalik qo'shimchasini olgan o'zlik olmoshlari: *–Ha, axir o'zingiz xafa bo'lmayman degan edingiz-ku (O.). –O'zingiz nega yotmaysiz? (U.). –O'zingiz sug'orayapsiz-mi, Bo'stonxon (S.Ahm.).*

- Otlashgan sifatlar gapda ega vazifasida keladi: *Yosh ham, keksa ham, katta ham, kichkina ham qurbi etganicha mehnat qiladi (U.). Qoloqdan cho'loq yaxshi (maqol). Qo'rqoq o'lmasdan burun o'ladi (maqol).*

- Ot o'rnida kelgan sifatdoshlar ega vazifasida qo'llanadi. Misollar: *Sevishganlar, baxtiyor sirdoshlik hislari bilan to'lib, asta suhbatlashdilar... (O.). Devonga suyanganlar to'g'ri o'tirdi, yonboshlaganlar qaddini rosladi (P.T.). Qomatiga ishongan qaddini bukib ketadi – ko'pchilikka ishongan tilagiga yetadi (maqol).*

• Ot o'rnida kelgan sanoq, tartib va birgalik sonlar ega bo'lib keladi. Misollar: *Bu ishga shu kunlar millionlar ketgan edi* (Asq.M.). *Uchovlari jazirama dalada yurib, cholning uchastkasini aylandilar* (O.). *Ikkalasi ham yosh, ikkalasi ham mard, ikkalasi ham peshqadam guruh o'yinkulgilari va mashg'ulotlariga ish boshi edilar* (Asq.M.).

• Ega infitiv va harakat nomi bilan ham ifoda qilinadi. Misollar: *Bu erlarni guliston qilish – xalq orzusi* (Sh.R.). –*Shunisi borki, tun qorong'usida tekis sug'orish qiyin. –Axir, mening kimga tegishim – o'z ishim-ku* (P.T.). ...*hayotning bu jo'shqin ovozi eshitmoq kishiga zavq bag'ishlaydi* (P.T.). *Okopdan qochish inson sha'niga yarashmaydi...* (S.Ahm.). *Yurakning yurishi tezlashdi* (O.).

• Otlashgan ko'makchi, bog'lovchi, taqlidiy so'zlar, his-hayajon undovlari, hattoki, ayrim tovushlar ham ega vazifasida kela oladilar. Misollar: *Har "yomon"ning bir ammosi bo'lishi kerak. Har "yaxshi"ning lekini* (A.Q.). *Childirmaning birdan ko'tarilgan "tak-taka-gij-bongi" zalni yangratib, quloqlarni qomatga keltirdi. Galiyaning nog'ora chertganday aniq, puxta "dupur-dupuri"ga birdan qo'pol etikning "gup-gup"i qo'shildi, maydon changlab ketdi, oyoq ostlariga shag'allar uchdi* (Asq.M.). *"Dod-voy", "oh-uf" borgan sari kuchaydi* (S.Ahm.). *Shu ulug' nomlarla ochildi maktab, "M" – budir va bunday yoziladi "g" (G'.G').*

• Ot ma'nosida qo'llanadigan ya'ni otlashgan fe'l shakllari ega vazifasida kelishi mumkin: *Shuning uchun hovlida kirdi-chiqdi ko'payib qolgan edi* (S.Ahm.). *Fermaning oldi-sotdi, o'ldi-tug'ildilari hisobga olindi* (I.R.). *Keldi-ketdi, kechasi alla-pallagacha davom etdi* (O.). *To'yning bo'ldi-bo'l-disi, mehmonning keldi-keldisi qiziq tuyulganday, ulug' ishning boshlanish arafasi ham ajoyib bo'ladi* (Sh.R.). *Ur-yiqit boshlandi.*

• Ega sub'yekt ahamiyatga ega bo'lgan shaxsli fe'l bilan ham ifodalana-nadi: *Yozishga yozib qo'ying-u, ko'ramiz, injener afandim. –Yo'q, "ko'ramiz"ingiz bo'lmaydi. Norma qat'iy, – dedi u* (Asq.M.).

• Frazologik birikmalar ega vazifasida keladi: *O'q otishimizga hali yetti qovun pishig'i bor* (A.Q.). *Gapning po'stkallasi – shu-da.* (P.T.). *Havas bo'lsa, anqoning tuxumi ham topiladi* (O.).

• Poetik nutqda yoki fikr kuchaytirilganda ega takrorlanib ham keladi: Misollar: *Qo'ng'iroqlar, qo'ng'iroqlar soz etar,*

Har kulishda qish faslini yoz etar (qo'shiqdan).
Do'stlik kuyin yangratamiz biz yoshlar,
Biz yoshlar, biz yoshlar (qo'shiqdan).

K e s i m

Eganing harakatini, holatini, belgisini, miqdorini, jinsini, turini predikativ yo'l bilan ifodalaydigan bo'lak **kesim deyiladi**. Masalan, *Shamol esdi (harakat)*. *Olim o'yladi (holat)*. *Tong havosi – shifobaxsh (belgi)*. *Ikki karra ikki – to'rt (miqdor)*. *Archa – daraxt (jins)* kabi.

Demak, kesim keng ma'noda belgi ifodalaydi. Biroq bu belgi predikativ yo'l bilan ifodalanadi. Kesim ana shu tomoni bilan aniqlovchidan farqlanadi. Kesimning harakat doirasi keng: u egaga bog'lanadi, u bilan munosabatga kirishadi, egadan boshqa bo'laklar bilan ham munosabatga kirishadi: kesim otdan bo'lganda, aniqlovchini, fe'ldan bo'lganda, hol va to'ldiruvchini boshqaradi. Kesim bir tomondan, belgi ifodalaydigan, ikkinchi tomondan, belgisi ifodalanadigan bo'lak. Shuning uchun ham u gapda eng faol, harakatchan dinamik tushuncha ifodalaydigan bo'lak hisoblanadi. Ega statik turg'un, nafaol holatdagi predmet hisoblanadi.

Kesim gapni markazlashtirishda birinchi o'rinda turadi. Bo'laklar ko'pincha kesim atrofiga uyg'unlashadi. Ega ko'pincha gapda qo'llanmaydi. Kesimsiz deyarli gap vujudga kelmaydi. Gapda o'rni bilan hamma bo'laklarning qo'llanmasligi mumkin, biroq kesimning ishtiroki zaruriydir. Kesimning qo'llanmasligi fikrning buzilishiga, gapning tuzilmasligiga sabab bo'ladi. Fikr ega tarkibi bilan ifodalanmaydi. Bu vazifani kesim bajaradi, fikrning yuzaga kelishida asosiy tayanch nuqta, tirkak bo'lak kesimdir. Gapda bo'laklar miqdori qanchalik ko'p bo'lmasin, kesim keltirilmaguncha xulosaga kelib bo'lmaydi – fikr, intonatsiya tugallanmaydi. Qurilma ochiq qoladi. Shu nuqtai nazardan kesim fikrning markazi, tayanch nuqtasidir. Kesimsiz quyidagi gapni aytib ko'raylik: *Biz uzoq tayyorgarlikdan keyin o'tgan yakshanba kuni qishloq yigitlari bilan ertalab soat oltida uydan chiqib, bepoyon dalalardan o'tib, uzoq qirlarni aylanib kechqurun yana uy-uyimizga (qaytdik)*.

Demak, fikrning tugallanganligini, qurilmaning gap bo'lganligini kesim ko'rsatadi. U fikrning ob'yektiv borliq bilan, zamon bilan aloqasini (kommunikativ aloqani) ifodalaydi. Gapning eng muhim belgisi bo'lgan fikriy-intonatsion tugallikning, predikativlikning ifodalanishida kesim katta rol o'ynaydi.

Kesim eganing belgisini (keng ma'noda), grammatik shakllarini o'zida saqlashi, ko'rsatishi mumkin: *o'qidim* – egasi olmosh I-shaxs, birlik, harakat o'tgan zamonda yuz bergan. Biroq *men* so'zidan birorta konkret kesimni anglash, hatto bu haqda o'ylash mumkin emas. Demak, kesim vazifa nuqtai nazaridagina emas, grammatik shakli jihatidan ham egaga qaraganda faoldir.

Hokim-tobelikni tayinlashda masalani faqat shaklga bog'lab hal qilib bo'lmaydi. Bunda masalaning mazmuni, logik tomoni ham nazarda tutilishi kerak. Logik jihatdan ega – predmet, fikrning temasi – birlamchi tasavvur; kesim eganing belgisi, hosila narsa – ikkilamchi tasavvur. Yuzaki qaralganda, kesimning mavjudligi, shakli egaga bog'liq emasday tuyuladi. Lekin kesim qanday shaklda qo'llanishidan qat'iy nazar, harakatning bajaruvchisi, belgining egasi (u ba'zan konkret grammatik shaxs sifatida ko'rinmasa ham) fikran tasavvur qilinadi. Chunonchi, *Oyni etak bilan yopib bo'lmas* gapida grammatik egani tiklab bo'lmaydi, biroq gapdagi harakatning bajarilish-bajarilmasligi shaxs bilan bog'langan – bajaruvchiga nisbat berilgan. *Bugun o'yingohga boriladi* gapining kesimi ham predmetning harakatini ko'rsatadi. Bu gaplar ham odatdagi gaplar bo'lib, bularning kesimlari eganing harakatiga muvofiq shakllangan (*boraman, borasan, boradi* emas, *boriladi*: birdan ortiq sub'yekt harakati). Demak shaxssiz gaplarning kesimlari ham qanday shaklda bo'lmasin, o'z ob'yektiga, shakllanish asosiga ega. Yoki *men boraman* gapining kesimi xoh ega qo'llangan, xoh qo'llanilmagan bo'lsin, o'zining munda-rijasini egadan oladi.

Umuman, ega kesimning tabiatini, bularning bir-biriga bo'lgan munosabatini bir tarkibli gaplar, masalan, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, xususan, shaxssiz gaplar asosida tekshirish xarakterli emas. Aks holda, bu (masalaga yuzaki qaralsa) kesim egasiz ham mavjud, u – birlamchi, boshqaruvchi, hokim bo'lak degan xulosaga kelinadi. Yoki ayrim o'tmish olimlari kabi (masalan, A.A.Dmitriyevskiy) gapda bitta bosh bo'lak (kesim) tan olinib, ega inkor qilingan bo'lur edi.

To'g'ri, sof fe'l bilan ifodalangan har bir kesim bir gapni hosil qiladi. Bu uning grammatik-semantik xususiyati, predikativlik affikslari bilan shakllanishi bilan xarakterlanadi. Xususan, fe'l kesimning mana shu uyushtiruvchilik, markazlashtiruvchilik xususiyatlari o'tmish olimlari tomonidan ham baholangan. Ular “*Kesim – gapning joni*” (Buslayev), «*Kesim – gapning podshosi*» (A.A.Dmitriyevskiy) deganlar.

Kesim tushunchasi gap tushunchasi bilan bog'langan. Kesim gapning mazmun-mundarijasini belgilashda, gapni otli gap, fe'lli gapga ajratishda, predikativ qo'shilmani nominativ qo'shilmadan farqlashda katta rol o'ynaydi: *Ertaga maktabda olimpiada o'tkaziladi* – darak anglatuvchi fe'l kesim (darak gap). *Ertaga maktabda olimpiada o'tkaziladimi?* – so'roq anglatuvchi fe'l kesim (so'roq gap). *Ertaga maktabda olimpiada o'tkazilsin* – buyruq anglatuvchi fe'l kesim (buyruq gap) va b.

Kesim grammatik ega bilan logik sub'yektni belgilashda, aniq oborot (faol qurilma), majhul oborot (nafaol qurilma) larni farqlashda, gapni tarkiblarga ajratishda, bir tarkibli gaplarni tiplashtirishda muhim asoslardan biridir.

Kesimning ifodalanishi

Kesim bo'lak sifatida egaga qanchalik o'xshash bo'lmasin, undan o'ziga xos xususiyat bilan ajralib turadi. Shunday farqlardan biri kesimning ifodalanishiga ko'ra **ot kesim** va **fe'l kesim**larga ajralishidir. To'g'ri, ega ham barcha so'z turkumlari bilan ifodalanadi: ular substantiv (ot), substantivlashgan (ot bo'lmagan so'z) egalarga ajraladi. Baribir, ular bosh kelishik shaklidagi ot va ot tasavvuridagi so'zlardir.

Barcha so'z turkumlari, keng ma'noda, eng yirik ikki to'daga (ot va fe'l) ajralgani kabi, bular bilan ifodalangan kesimlar ham ikki turga ajraladi: **ot kesim** (keng ma'noda) va **fe'l kesim**.

Ot kesim. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan, ya'ni keng ma'nodagi ot bilan ifodalangan kesim **ot kesim** deyiladi. Ot kesim ish-harakat yoki holat anglatmaydi, balki eganing **kimligini, nimaligini, sifatini, miqdorini, jinsini, turini** anglatadi. Demak, ot kesim eganing nafaol belgisini ifodalaydi. **Kim, nima, qanday, qancha, nechta, kimdan, nimadan iborat** kabi so'roqlarga javob bo'ladi, inkorning **emas** shaklini oladi (sifatdosh mustasno). Fe'l kesim bunday xususiyatlarga ega emas.

Ot kesim bog'lamasiz qo'llanganda, belgini hozirgi zamonga nisbatan ko'rsatadi va ma'lum formalarda shakllanadi.

- Ot kesim ko'pincha bosh kelishik shaklidagi ot bilan ifodalanadi. Bunday kesimlar predmetning barqaror belgisini (kasbi, unvoni, vazifasi kabilarni) ko'rsatadi yoki egani sifat jihatdan xarakterlaydi: *Oyna qanday qiz? U ko'kning yulduzi, yerning malagi, mening kitobimning bezagi* (P.T.).

- Ot kesimlar o'rin kelishigidagi otlar bilan ham ifodalanadi: *Nargisning kiyimi ham, sirg'alari ham guldari* (Sh.R.). Siz *Toshkentdan, men – Farg'onadan*. Ofitser so'roq vaqtida: "Meni asir olgan kishi qayerlik, qaysi toifadan?" – deb so'rabdi. Shtabdagilar: "**o'zbekistonlik, oddiy kolxozchi toifasidan**" – deb javob berishibdi (A.Q.). Aql yoshda emas, **boshda** (maqol). Aytgan gaping **ko'nglimda**, bergan xating **qo'limda** (qo'shiq). Ko'zim – **gazetada**, ammo ko'nglim – **Saodatda** (G'.G'). Xat **Mansurga**. Hamma – **saylovga**. Sovg'aning bunisi – **ayamga** (A.Q.).

Bu tipdagi gaplar biror bo'lagi tushib qolgan – to'liqsiz gaplar emas, balki odatdagi to'laqonli normal gaplardir. To'g'ri, o'rin kelishigidagi otlar aslida gapning ikkinchi darajali bo'lagi bo'lib, tilning keyingi taraqqiyo-

tida kesim vazifasini bajaradigan bo'lgan. Shuning uchun ham o'rin kelishiklari shaklidagi ot bilan ifodalangan kesimni gapning ikkinchi darajali bo'lagi deb, undan keyin gapda real qo'llanilmagan, qo'llanish zaruriyati ham yo'qolgan birorta so'zni tiklash – ideal kesim qidirish xato bo'lib chiqadi.

O'rin kelishigidagi so'zning ko'plik, egalik, predikativlik affikslari yoki kesimlik bog'lamasi bilan shakllana olishi ularning ot kesim ekanligini yanada mustahkamlaydi: *Biz ana shu azamat qurilishga dastlab dast-panjamizni **urganlardanmiz** (O.). Hozir Toshkentdaman, Qumrixonlar oilasi bilan bordi-keldi qilib turamiz (G'.G'). Men Sharq-danman, sharqlik shoirman (G'.G').*

Ba'zan birdan ortiq o'rin kelishigidagi ot kesimlar uyushib keladi va ularning hammasi uchun bitta bog'lama keltiriladi. Bu bog'lama eng keyingi kesimda saqlanadi va hamma kesimlar uchun umumiy bo'ladi (yalpi bog'lama): *Mamlakat hududining deyarli yarimi o'rmon zonasidan, o'n ikki foizi cho'llikdan, o'n sakkiz foizi sahro va dashtdan **iborat**.*

• Ot kesim sifat bilan ifodalanadi. Bunday kesimlar ham eganing doimiy, nafaol belgisini anglatadi: *Dalillar **aniq** va **kuchli edi**. Bahor kechasi havo anchagina **salqin edi**. (N.S.). Och qolsak ham, yalang'och qolsak ham, –dedi Mehrmoh, – o'z tug'ilgan joyimiz, kindik qonimiz tomgan tuproq **yaxshi** (S.Ahm.). O'zbek xalqining ko'ngli paxtasiday **oq**, mehri quyoshday **issiq** (K.Y.).*

• Oddiy darajali sifatlar kesim vazifasida kelganidek, sifatlarning qiyosiy, orttirma va intensiv daraja formalari ham kesimni ifodalaydi: *Bizning buyuk insoniy do'stligimiz okeandan **chuqurroq**, tog' cho'qqilaridan **balandroq**, oltindan **qimmatroq**, temirdan **mahkamroq**, bo'rondan **kuchliroqdir** (Sh.R.). Po'lat yangrinni yozgan yerlar **ko'm-ko'k** (H.O.).*

• Ot kesim son bilan ifodalanadi, eganing miqdoriy belgisini anglatadi: *Ilmli kishilarning umri – **ikkita** (N.S.). Berishda sanog'i – **to'qqiz**, olishda sanog'i – **o'ttiz** (maqol).*

• Ot kesim olmosh bilan ifodalanadi: *Bo'yingdan bobong o'rgulsin, o'zing **kim bo'lasan?** –Xo'sh, sizning temangiz **nima bo'ladi?** –Bo'lmasa tezlashtir, dadangning raylari – **shu** (N.S.).*

• Ravish ham ot kesim vazifasida keladi: *Muncha achchig'ing **tez** (N.S.). Ularning kiyimlari ham **ukraincha**, o'yinlari ham **ukraincha** edi (I.R.). O'ljalarimiz **juda ko'p edi** (I.R.). Yuzlari **oydek**, o'zlari **toydek** (folklor).*

• Ot kesim taqlidiy soʻz bilan ham ifolanadi: *Tarvuzlar ham soy toshidek gʻuj-gʻuj* (M.I.). *Auditoriya shov-shuv* (P.Qod.). *Hammayoq taqur-tuqur, qasur-qusur* kabi.

• Ot kesim infinitiv va harakat nomi bilan ham ifodalanadi: *Oʻz vatanini sevmok – bu vatanda insoniyat gʻoyalarini amalga oshirilishini istamoq va qoʻldan kelgancha bunga yordamlashmoqdir* (“F.T.”). Endi asosiy qiyin-chilik yangi usulni puxta *egallash*, *chigit ekishni puxta oʻtkazish edi* (N.S.).

Feʼl kesim. Feʼl bilan ifodalanib, eganing harakatini, holatini anglatadigan kesim **feʼl kesim** deyiladi. Feʼl kesimni ifoda materialiga qarab ikkiga ajratish mumkin: **harakat bildiruvchi feʼl kesim, holat bildiruvchi feʼl kesim.**

Harakat bildiruvchi feʼl kesim predmetning fizik harakatini anglatadi. Bu harakat har uch zamondan birida sodir boʻlaveradi: *Sport mavsumi boshlandi. ...quvnoq, epchil, baquvvat yigit va qizlarimiz navbatdagi musobaqaga tayyorlanmoqdalar* (“Xalq soʻzi”). Bugun *bayram qildik, dedi xotiniga Sayramov kulib* (O.). *Kechirasiz, men chuchvarani xom sanabman* (R.F.). ...nima boʻlib *inoqlashib qolishdilar, shu sirni bilay deb kelib edim* (ertak). *Jonivorni erdan koʻtaray desam “pirr” etib uchib ketdi* (“Mushtum”).

Holat bildiradigan feʼl kesim eganing psixik va ruhiy holatlarini ifoda-laydi. Bu ham hamma zamon uchun xarakterlidir. Biroq holat ifodalovchi feʼl kesimning materiali, umuman, harakat ifodalovchi feʼl kesimning materialiga qaraganda birmuncha chegaraliroq. Bu koʻproq insonning psixik jarayonlarini: ichki ruhiy holatini, kayfiyatini ifodalash uchun qoʻllaniladi: *Oʻktamning koʻngli allanechuk zirqirab ketdi* (O.). *U negadir tez-tez xayol suradigan, gapirsang qizarib-boʻzaradigan boʻlib qoldi* (“Saodat”). *Hammayoq jimlik. Nazarida butun borliq ham mudraydi* (R.F.). *Valijon javob vaqtida hayajonlar edi* (S. Zun.).

Umuman, feʼl kesim sof feʼl, ravishdosh, sifat-dosh bilan ifodalanadi.

• Sof feʼl bilan: *Bu shoʻx qiz minbar osha oʻz sarguzashtlarini soʻylaydi* (Gʻ.Gʻ.). *Oilada boʻlsa, madaniylik, toʻqlik, sogʻlik uchun kurashadi* (Gʻ.Gʻ.). *Dalada boʻlsa kim tezu toza terishga musobaqa oʻynaydi* (Gʻ.Gʻ.). *Bu yil hosil bayramini har qachongidan ham yaxshiroq oʻtkazdik* (gazeta). *Bu shoʻx qiz hech tinib turmaydi* (Gʻ.Gʻ.).

• Feʼl kesim feʼlning ravishdosh shakli bilan ifodalanadi. Lekin ravishdosh sof feʼlga nisbatan ancha nafaol boʻlib, predikativlik affiks-lari va bogʻlamalar bilan shakllangandagina feʼl kesim kesimning yetakchi komponenti vazifasida keladi. Bunda ravishdosh emas, yordamchi

elementlar o'zgarib turadi, shaxs-son, zamon ko'rsatadi: *Bu yerga kechqurun kelib **yotib edim*** (H.H.). *Siz haqiqatan bizning qishlog'imizni ham **ko'ribsiz*** kabi.

• Fe'l kesim fe'lning sifatdosh shakli bilan ifodalanadi. Sifatdosh fe'lning vazifaviy shakllari ichida o'ziga xos xususiyatga ega. U shakl tomondan ot kabi bo'lsa, ma'no tomondan fe'l kabidir. Sifatdosh fe'lga xos qator belgilar ifodalanganligi uchun bu bilan ifodalangan kesim ham fe'l kesim hisoblanadi: *Dadamdan telegramma oldim, ertaga samolyot bilan **kelar ekanlar*** ("Saodat"). *Siz aytgan yigit institutni **bitirmagan ekan*** (P. Qod.).

Baxtiyorsan: g'o'zalarig xo'p,

*Lo'ppi-lo'ppi bo'lib **ochilgan**.*

Go'yo zangor shohi uzra ko'p,

*Parcha-parcha kumush **sochilgan*** (U.).

Demak, fe'l kesim bilan ifodalanganligi uchun faol belgi ifodalaydi. Zamon va mayl ko'rsatadi. Ot kesimlar bog'lamasiz bunday xususiyatga ega emas. Inkor ifodalanishi jihatidan ham fe'l kesim ot kesimdan farq qiladi: fe'l kesim **-ma** elementi bilan, ot kesim **emas** elementi (biri sintetik, biri analitik usul) bilan inkor ifodalaydi.

Fe'l kesimga moslangan. Chunki kesim predikativlik ifodalaydi. Har bir sof fe'l bir gapga teng. Demak, fe'l tushunchasi kesim tushunchasi bilan, kesim tushunchasi gap tushunchasi bilan bog'liq.

To'ldiruvchi

O'z hokim bo'lagi (to'ldirilmishi)ga bog'lanib, shu hokim bo'lak orqali ifodalangan harakat ta'siriga berilgan, harakatni o'z ustiga olgan, harakat o'tgan, shu harakatning yuzaga kelishida vosita-qurol bo'lgan yoki shu harakat natijasi o'laroq yuzaga kelgan predmet yoki ob'yekt **to'ldiruvchi** deyiladi.

To'ldiruvchilar vositali kelishik yoki ko'makchilar bilan shakllanib, o'zlari ergashib kelgan gap bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi va vosita kelishigidagi yoki ko'makchili so'z so'roqlariga javob bo'ladi.

To'ldiruvchilar ish-harakatning ob'yektini bildiradi, shunga ko'ra u asosan, ot, olmosh yoki ot o'rnida kelgan boshqa so'zlar bilan ifodalanadi. Misollar: *Binafshalar mayin **ranglari**, nozik **boqishlari bilan ko'zlarni beixtiyor mast etadi*** (O.). *—Mavlon ota **xalq qurilishining ahamiyati to'g'risida juda zavqli hikoya qildi**. Muhiddin qog'ozga **allanimalarni yozdi*** (R.F.). *Istar-istamas hamyon ochildi: **kimga besh tanga, kimga o'n tanga, kimga ko'proq, kimga ozroq... sovg'a berildi*** (S.Ahm.).

Otlashgan va ot o'rnida qo'llanadigan, natijada predmet ma'nosiga ega bo'lib, otlarga xos vositali kelishik so'roqlariga javob berib keladigan har qanday so'z turkumi to'ldiruvchi vazifasida kela oladi, chunonchi:

- Sifat bilan ifodalangan to'ldiruvchi: *Ajal botirdan bezadi, qo'rqqoqni ezadi. Ajal qo'rqqoqqa bahona* (maqol). *Qochoqqa shafqat, qo'rqqoqqa hurmat sira mumkin emas* (K.Y.). *Uning chevar barmoqlari, sanoqsiz o'rishlarning orasida xato qilmay, ishlar: oqini oqqa, qorasini qoraga, qizilini qizilga ayirib turar edi* (M.I.).

- Sifatdosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi: *Qari bilganni pari bilmaydi* (maqol). *Yotib yeganga tog' ham chidamaydi* (maqol). *Nusrat xola depo oldiga borganda, qayoqqa borganini, kimga uchraganini o'ylamadi, to'xtab qoldi* (Oydin).

- Son bilan ifodalangan to'ldiruvchi: *Ikki yosh yurak yana birlariga jiplashdilar. Oysultonning nozik barmoqlari juda ustalik bilan ingichka o'rishlarning birini bosib, birini ko'tarib turardi. Miltirab turgan yulduzlar, bir-birlarini quvlashib, asta-sekin ko'zdan g'oyib bo'ldilar.*

- Harakat yoki holat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchi: *Otishni o'rgandim, qilich bilan chopishni o'rgandim, dushman yer tagiga yashirinsa, topishni, quloqidan sudrab chiqarishni o'rgandim* (Oydin). *Biz ham chiroyli, ham quvvatli bo'lishni istaymiz* (R.F.). *Xalqlar kurramizda tinchlik bayrog'i hilpirab turishini istaydilar* (Oydin).

- Otlashgan yordamchi so'zlar, hattoki ayrim tovushlar ham to'ldiruvchi vazifasida kela oladi: *...ular, Oyimxon o'qib tugatgan kitobni sandal ustiga qo'yib, to'ppa-to'g'ri "a" bilan "b" dan boshladilar. Mo'ylovi maysa bo'lib qolgan kap-katta chiroyli yigitning "R"ni ayta olmasligi Xolmurodga g'alati tuyuldi* (P.T.). *Boshqasini qo'yib turing, Akbaralidan gapiring* (Asq.M.).

- To'ldiruvchilar ajralmas, frazeologik birikmalar bilan ham ifodalalanadi: *Nabiralarimiz "Chuchvara qaynaydi, acham menga bermaydi"ni qishda qaerda o'ynaydi,—dedi rais hazillashib. Kishilar orasiga qora ip tashlashdan hazar qiling...—dedi...Mirhaydar* (O.).

Ma'no va grammatik shakllanishi jihatidan to'ldiruvchilar ikkiga ajraladi: 1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi o'z hokim komponenti – to'ldirilmishiga tobelanib, to'ldirilmish orqali anglashilgan harakat ta'siriga o'tgan, uni o'z ustiga olgan predmetdir. To'ldirilmish o'timli fe'l bilan ifodalanadi va to'ldiruvchini tushum kelishida boshqaradi. Bunda to'ldiruvchi to'ldirilmishni aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, *o'quvchi oldi* (mavhum),

o'quvchi kitobni oldi, o'quvchi daftarni oldi, o'quvchi qalamni oldi (aniq).

Vositasiz to'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: "**belgili**" va "**belgisiz**". Tushum kelishigi bilan shakllangan to'ldiruvchi **belgili** deyiladi. Tushum kelishigisiz kelgan to'ldiruvchi **belgisiz** deyiladi. Vositasiz to'ldiruvchi-ning bu ikki turi ham ma'no, ham shakl jihatdan farqli. Belgili vositasiz to'ldiruvchi predmetning so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum, belgisiz predmet esa so'zlovchi va tinglovchiga oldindan no ma'lum, umumiy tushuncha ekanligini anglatadi: *do'ppini keltirdim* tinglovchi va so'zlovchiga oldindan aniq; *do'ppi keltirdim* – umumiy, noaniq. Boshqacha aytganda, o'zida "**ni**" qo'shimchasi saqlangan to'ldiruvchi bir jins yoki bir tur predmetlar ichidan so'zlovchi va tinglovchi uchun ilgaridan ma'lum bo'lgan bittasini yoki bir nechasini ajratib ko'rsatadi.

Vositasiz to'ldiruvchilar quyidagi hollarda **-ni** qo'shimchasini saqlaydi: atoqli ot, kishilik, o'zlik, ko'rsatish, belgilash olmoshlari bilan ifodalanganda: *Karimni vokzalda uchratdim* (Karim uchratdim emas). *Lekin Vohid endi o'zini ancha o'nglab olib, xijolatdan chiqdi* (o'z o'nglab olmoq emas). *Men senga shuni aytmogchimanki, olti oydan beri tinmay mehnat qildik* (shu aytmog deb bo'lmaydi).

Vositali to'ldiruvchi. Tushum va qaratqich kelishigidan boshqa kelishiklar yoki ko'makchilar yordami bilan hokim so'zga – to'ldirilmishiga tobelanib kelgan to'ldiruvchi **vositali to'ldiruvchi** deyiladi.

Vositali to'ldiruvchi harakatning yuzaga kelishida vosita, qurol bo'lgan ob'yekt yoki predmetni ko'rsatadi. Vositali to'ldiruvchilarni, asosan, o'timsiz fe'llar boshqaradi.

Vositali to'ldiruvchi to'ldirilmishiga asosan, ikki xil usul bilan boshqariladi: 1) kelishikli boshqaruv, 2) ko'makchili boshqaruv.

Kelishikli boshqaruvda to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishiklari bilan boshqariladi. Jo'nalish kelishigi bilan boshqarilganda, to'ldiruvchi harakat yo'naltirilgan, atalgan ob'yektni ko'rsatadi. Misollar: *U Oysultonning nozik yuzlariga, kulib turgan ko'zlariga to'ymay tikildi.* *Hamma kuch yig'im-terimga qaratilgan* (radiodan). *Pullarimga kampir-ga, Qumri, Abdug'anilarga, Yodgorga, shular qatori, Saodatga ham arzimagan mayda-chuyda sovg'a-salom qilgan bo'ldim-da, iyul o'rtalarida Toshkentga qarab jo'nadim* (G'.G').

Jo'nalish kelishikli to'ldiruvchi evaz va ayirbosh qilish ma'nolarini ham anglatadi: *...kiyim-kechakni eng arzon oziq-ovqatga: sabzi-piyozga, turp-sholg'omga ayirbosh qildilar* (P.T.). *...qasamyod qilamanki, bir qatra*

qonim qolguncha, dushman bilan kurashaman! **Qoningga-qon, joningga yuzlab jon olaman** (K.Y.).

Chiqish kelishigidagi to'ldiruvchi o'zidan biror narsa ajratilgan, uzoqlashtirilgan, chetlatilgan predmetni ko'rsatadi: *Oq podsho zulmi erlarni o'z xotinlaridan: ota-onalarni bolalaridan, aka-uka, opa-singillarni bir-birlaridan ajratgan edi* (S.Ahm.). *O'lim botirdan bezadi – qo'rqqoqni ezadi* (M.).

Chiqish kelishigidagi to'ldiruvchi predmetning nimadan yasalganligini, materialini anglatadi: *Podsho qirq qavat qo'rg'on ichida turar ekan. Tashqi qo'rg'on toshdan, undan keyingisi temirdan, undan keyingisi misdan, undan keyingisi jezdan, undan keyingisi kumushdan, undan keyingisi yoqutdan... bir qo'rg'oni molning suyagidan, bir qo'rg'oni esa odamning suyagidan, qubbalari esa nuqul suyakdan o'rnatilibdi... (ertakdan). Egniga oq durdin matodan yenglari keng ko'ylak, oq kimxobdan to'n kiygizdilar* (Oydin). *Yoshlikda, poda boqib yurgan chog'larida, qamishdan har xil tog' yog'ochlardan nay yasalar... edi* (O.). *Katta kanal hovuziga tutashgan joyda temir betondan chiroyli to'g'on qurilgan edi* (Sh.R.).

O'rin-payt kelishigidagi to'ldiruvchilar umuman belgi, bir voqelik yoki predmetning kimda, nimada mavjudligini ko'rsatadi: *Nayda kishi tabiatini ochadigan ajoyib bir xususiyat bor* (R.F.). *Karimda yodlash qobiliyati taraqqiy etgan. Senda nodir kitoblar bor deb eshitganman.*

Ko'makchili boshqaruv. To'ldiruvchining bu turi harakatning bajarilishida qurol, vosita bo'lgan predmetni ko'rsatadi: *Toza supurgi bilan ularni (otlarni) boshdan oyoq supurdi. Qo'llari bilan siypadi. Barmoqlari bilan yollarini taradi* (O.). *Qoramtir osmon gumbazi charaqlagan yulduzlar bilan gul solgandek bezangan* (P.Qod.). *Jamila bir qo'li bilan jingalak qora sochlarini yoniga tarayotib, ikkinchi qo'li bilan uzoqlarni ko'rsatdi* (M.I.). *Biz yerlarni traktor bilan haydab, urug'ni ham traktor bilan ekamiz* (Sh.R.).

Bilan harakatning bajarilishidagi birgalikni anglatadi: *Chollar nevaralari bilan, erkaklar xotinlari bilan, qizlar bo'lsa dugonalari bilan, do'stlari bilan boradilar* (Sh.R.). *Olimjon Oygiz bilan uzoq suhbatlashdi* (Sh.R.).

“uchun” ko'makchili to'ldiruvchilar harakat kim yoki nimaga yo'naltirilgan, atalgan ob'yektni anglatadi: *O'zi uchun ham, Dildor uchun ham g'oyat katta ozor chekdi* (M.I.). *Doim shularni orzu qilgan jonajon do'sti Asqar uchun u o'sha qorovul tepaga chiqdi* (Oydin).

Bunday hollarda **uchun** bilan shakllangan to'ldiruvchi jo'nalish kelishigi (**-ga**) bilan shakllangan to'ldiruvchiga sinonim ham bo'ladi: *Kitobni ukam uchun oldim – kitobni ukamga oldim* kabi.

Ot ko'makchili to'ldiruvchilar

Tomon ko'makchili to'ldiruvchilar passiv oborotli gaplarda ish-hara-katning bajaruvchisini ko'rsatadi. Misollar: *Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan yangi tadbirlar har birimizni tag'in ham zo'r g'ayrat va tashabbus ko'rsatib ishlashga ilhomlantirdi* ("Xalq so'zi"). *Bu karta Oygizning iltimosiga ko'ra injener Smirnov tomonidan chizilgan edi* (Sh.R.).

To'g'risida, haqida, xususida ko'makchili to'ldiruvchilar eganing fikr kim yoki nima haqida borayotganligini anglatadi va **kim to'g'risida, nima to'g'risida, kim haqida, nima haqida** kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Bu kabi to'ldiruvchilar **o'ylamoq, so'zlamq, jon kuydirmoq, muzokara qilmoq, yozmoq** va boshqa shu kabi so'zlash, fikr almashish ma'nolariga ega bo'lgan fe'l tomonidan boshqariladi: *Rahim Hisom ota bilan sholi ekishning borishi haqida uzoq suhbatlashdi* (R.F.). *Yangi o'zgarishlar to'g'risida tashqaridagina emas, balki ichkari hovlida ham gaplasha boshladilar* (P.T.). *Qishloqlarda og'a-ini partizanlar haqida duv-duv gap boshlandi* (Oydin).

Orqali ko'makchisi bilan birikib kelgan to'ldiruvchi harakatning yuzaga kelishidagi vositani anglatadi: *Nuri endi o'z onasi orqali bu sirni fosh qilmoqchi bo'ldi* (O.). *Bu suvdan foydalanish masalasini mutaxassislar orqali aniqlash zarur* (Sh.R.).

Bo'lib, qilib ko'makchilari bilan birikib kelgan vositali to'ldiruvchilar shaxsning unvonini, kasbini, mansabini va, umuman, kimligini ko'rsatadi. Bu kabi to'ldiruvchilar **kim bo'lib, kim qilib** singari so'roqlariga javob bo'ladi: *Zerikkan bo'lsangiz, urushga boring. Qachongacha xotinlarning xolasi, qizlarning dugonasi bo'lib uyda o'tirasiz* (U.). *Shunday qilib, ikki yigit Suyundiqning ovuliga qadrli mehmon bo'lib borishdi* (M.I.).

Jo'nalish kelishigidagi predmet **nisbatan** ko'makchisi bilan boshqariladi va eganing munosabatini o'ziga qaratilgan ob'yektni ko'rsatadi: *Qurbonning og'ir hayoti va ochiq ko'ngilliligi Faridunning qalbida unga nisbatan hurmat va muhabbat uyg'otdi* (M.I.). *Uning qalbida keksa Ramazonga nisbatan o'zi ham tushuna olmagan bir ehtirom tuyg'usi uyg'ona boshladi* (M.I.).

O'rniga ko'makchisi bilan birikib kelgan so'z o'zi boshqa predmet bilan almashtirilgan evaz ma'nosidagi predmetni ko'rsatadi: *U saltanatdan ko'zini olmay, nachalnik o'rniga o'zi ruxsat degusi kelib, lablari pirillab turdi* (M.I.). *Abdulla akamning o'rniga men ketadigan bo'ldim* (O.). –*Qishlog'imdanda ham ovqat o'rniga kitob olib kelgan bo'lmasang, deb qo'rqaman* (M.I.).

Qarshi ko'makchisi bilan birikib kelgan jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat o'zining zarariga qilingan predmetni ko'rsatadi: *Odamlar ahil bo'lishib, shamol va qumga qarshi urush boshladilar* (M.I.). *Kishilar yostig'ini qurituvchi, vayronagarchilik keltiruvchi urushga qarshi onalari-mizning, opa-singillarimizning ovozi ham mag'rur jaranglab eshitilmoqda* ("Xalq so'zi").

Tegishli egalik qo'shimchalarini olib, o'rin-payt, jo'nalish yoki chiqish kelishigida kelgan hamda metaforik, ya'ni ko'chma ma'noda qo'llanilgan **ost, ust, ich, tomon, old, tevarak, atrof, yon, ora, qarshi, qator** kabi ko'makchilar bilan birikib kelgan otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida kelib, predmetlar o'rtasidagi turli munosabatlarni ko'rsatadi. Bunday to'ldiruvchilar shu ko'makchilar bilan birikib kelgan so'roq olmoshlariga javob bo'ladi: *Non, choy vaqtida ham so'z-gap savdo, qal'a safari hozirligi ustida borar edi* (S.Ahm.). *Yo'lchi bu qashshoq, bu alamdida cholning oliyjanoblighi qarshisida o'z minnatdorligini qanday ifoda qilishni bilmay qoldi* (O.).

Aniqlovchi

Predmetning belgisini nopredikativ yo'l bilan anglatadigan bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Aniqlovchilar gapning ot bilan yoki otlashgan so'zlar bilan ifoda qilingan bo'laklariga qarashli bo'ladi: *Moviy osmonda kul rang bulutlar sayr qilishmoqda* (Sh.R.). *Qizg'in, sokin havoda birin-ketin mardona tovushlar yangrab ketdi* (O.). Bizning **halol** mehnatimiz **sevikli** Vatanimizni bog'-bo'stonlarga aylantirsin ("Xalq so'zi").

Demak, aniqlovchi ot bilan ifodalangan har qanday gap bo'lagiga – egaga, to'ldiruvchiga, holga, kesimga ham bog'lanib kelishi mumkin.

Aniqlovchi to'ldiruvchi va holga qaraganda, o'zi ergashib kelgan so'z bilan zich bog'lanadi. Chunki, aniqlovchi predmet belgisini ifodalaydi. Predmet belgisi esa predmetning o'zidan ajralgan holda yashamaydi. Belgi predmetning tashqarisida emas, uning o'z ichida yashaydi. Aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasida bog'lanishning zich bo'lishi ham ana shu bilan xarakterlanadi.

Aniqllovchi aniqlagan soʻz **aniqlanmish** deyiladi. Predmetni aniqlash usuliga koʻra aniqllovchilar ikki turga boʻlinadi: **sifatlovchi aniqllovchi** va **qaratuvchi aniqllovchi**.

Sifatlovchi aniqllovchilar aniqlanmishga bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi va aniqlanmish predmetning **shakli, hajmi, vaziyati, rangi, tusi, xususiyati, mazasi, taʼmi, hidi, holati, xarakteri, materiali, miqdori, tartibi, xosligi, oʻxshashligi, turi, jinsi** kabilarni bildiradi, shuningdek, predmetning biror **payt** yoki **oʻringa** mansubligini koʻrsatadi va shunga muvofiq, aniqlanmishga qarata berilgan **qanday, qanaqa, qaysi, nechta, nechanchi** soʻroqlariga javob boʻladi: *Orombaxsh, tiniq va salqin havo erkalani olamni muattar qiladi* (O.). Quyosh, *toza havo, keng, tiniq, zangori osmon koʻzlarni beixtiyor tortadi* (O.). *Yumshoq qorning toza hidiga... achchiq, badboʻy va xavfli bir hid qoʻshilib turar edi* (I.R.). *Quvnoq, epchil, baquvvat yigit va qizlarimiz navbatdagi musobaqaga tayyorlanmoqdalar* (“Xalq soʻzi”). *Million-millionlarcha oddiy kishilar, chet ellardagi doʻstlarimiz, bizning Vatanimizga umid va faxr bilan nazar solmoqdalar* (“Xalq soʻzi”).

Demak, sifatlovchi aniqllovchi asosan, predmetdagi mavjud belgini anglatadi.

Sifatlovchi aniqllovchilarning ifodalanishi. Asliy sifatlar aniqllovchi vazifasida keladi va predmet hodisalarini subʼyektiv baholashga, predmetga xos belgini darajalab koʻrsatishga, doimiy yoki vaqtinchalik belgini xarakterlashga xizmat qiladi: *Saltanatning oppoq, keng peshonasi, bejirim, qirra burni, oppoq iyagida nafis bir qizillik koʻrindi* (M.I.). *Baʼzan kichkina bir hodisa katta voqealarni bilishga sabab boʻladi* (P.T.). *Bizning erkin va quvnoq hayotimizga hech kim halal bermasin* (“Xalq soʻzi”).

Aniqllovchilar koʻp vaqt qiyosiy va intensiv sifatlar bilan ifodalanadi: *Kimsasiz boʻm-boʻsh uylar ichida qop-qora tun havosi notinch kezar va uvillardir* (R.F.). *Koʻm-koʻk gʻoʻzalar hosilga kirib, nishonasi gulga, guli koʻsakka aylanmoqda* (R.F.).

Sifatlovchi aniqllovchiga kichraytirish, erkalash qoʻshimchalari qoʻshilib kelishi mumkin. Bunday aniqllovchili birikmalar soʻzlovchining oʻzi tasvirlayotgan predmetga nisbatan emotsional munosabatlarini ifodalaydi: *...Bolani nobud qilishga hech qaysimizning koʻzimiz qiymaydi: oppoqqina loʻmbillagan oʻgʻilgina bola edi* (Gʻ.Gʻ.). *Qiz oʻn yetti-oʻn sakkizga kirgan, oʻrta boʻyli, bir qadar keng va qoramtir yuzli, toʻlagina, loʻppigina qiz edi* (O.).

Sifatlar aniqlovchi vazifasida takrorlangan holda ham keladi, bu holda aniqlanmish ko'plik sonda keladi; aniqlovchi esa ta'kidlash, ma'no kuchaytirish ahamiyatiga ega bo'ladi: *Go'zal qizning **uzun-uzun** barmoqlaridagi tilla uzuklari... o'ziga juda yarashgan* (M.I.). *Yarqiragan **yaxshi-yaxshi** oyoq kiyimlarni... taqsim qilib berdi. O'rtalikka qurilgan maktab binosining **katta-katta** derazalari quyoshda tovlanib, qishloqning ko'rkini ochib yubordi* (O.). *Kasal bu samimiy do'stlarning **shirin-shirin** suhbatlariga o'rganib qolgan edi. Ariqning bo'yida **qalin-qalin** mirzate-raklarning soyasida chiroyli taxta karavot turadi* (O.).

Aniqlovchi vazifasida kelgan takroriy sifatning birinchi elementi chiqish kelishigi shaklida kelishi mumkin. Bu holda aniqlovchi intensivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Misollar: *...kurashishimizga **yangidan-yangi** kuch-quvvat bag'ishlaydigan bu do'stona birlik, inoqlik kundan-kunga yana ham mustah-kamlanib bordi* (O.). ***Uzundan-uzoq** bu so'z yangi gilamdek rang-barang, qalampirdek achchiq edi* (Sh.R.).

Sifatlovchi aniqlovchilar ko'p vaqt antonimlardan tarkib topgan juft sifatlar bilan ifodalanadi: *Mehri bo'lsa dadasiga rahmi kelgani uchun **achchiq-chuchuk** so'zlarni ham kechiradi. **Katta-kichik** yo'llarning hammasi qum bilan ko'milgan edi* (Sh.R.).

Nisbiy sifatlar aniqlovchi vazifasida keladi. Nisbiy sifatlar bilan ifodalangan aniqlovchilar, predmet belgisini bevosita bildirmasdan, aniqlovchi so'z o'zagining ma'nosiga muvofiq ravishda boshqa predmet va ish harakatga, shuningdek, o'ringa, paytga yoki biror sohaga nisbat berish yo'li bilan bilvosita ko'rsatadi: ***Ertangi** kunni o'ylagan kishi **kechagi** tor qolipdan chiqadi* (O.). *Hovlidagi yong'oq va o'riklarning **qoramtir** barglarini... **qizg'ish** nur yoritmoqda edi* (P.T.). *Qirdagi qorni **kechagi** yomg'ir yuvib ketgan* (O.). *Bu **munqli** va **ishqiy** ashula silliq suv ustida keng yoyilib yangramoqda edi* (O.).

Ot bilan ifodalangan sifatlovchilar ham bitishuv yo'li bilan aniqlan-mishga bog'lanib keladi. Predmetning materiali, nimaga xosligi, nimaga o'xshashligi, turi, jinsi, chiqib kelish o'rni kabilarni boshqa predmetlarga nisbat berish yo'li bilan ko'rsatadi: ***Yog'och** panjaraning o'rtasida gulchambarlar bilan qoplangan **tosh** taxta ko'rindi* (R.F.). *Uning (krovat-ning) ustiga... **shoyi, atlas, adras** ko'rpalar, **momiq** to'shak... **momiq** yostiqlar yig'ib quyilgan edi. **Momiq** telpak, **barxit** va **shoyi** choponlar kiygan ko'p yigit-qiz to'plangan* (O.). *Singlim Qumrining **cho'lpon** ko'zlari esingga tushdimi?* (K.Y.). *Ishchilarning **temir, po'lat** qo'llari eng yuksak tog'larning bag'rini yoradi* (H.O.). *...uni aravaning **qo'pol** gildiragi o'ynoqlatib ketgan bo'lsa kerak* (Asq.M.).

Takroriy otlar bilan ifodalangan sifatlovchilar aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, predmetning mo'l-ko'lligini, miqdor jihatdan ortiq ekanligini anglatadi: *Bular **paykal-paykal** yerga, **ombor-ombor** g'allaga, **saroy-saroy** molga, **rama-rama** qo'yga ega bo'lganlaridan keyin... qulliklari unutilgan. ...go'ng ostidan **sandiq-sandiq** qimmatli mollar, **toy-toy** gazlamalar va boshqa qimmatli narsalar chiqa boshlagan* (S.Ahm.). *Har yerda **uyum-uyum** paxta chaqnaydi* (O.).

Har uch zamon aniq va majhul sifatdoshlarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari aniqlovchi bo'lib keladi. Sifatdoshning o'ziga xos xususiyatiga muvofiq bunday aniqlovchilar predmetni shu predmet o'zi bajargan yoki ta'siri o'ziga o'tgan ish-harakat asosida xarakterlaydi: *Bu **qurilmagan** qiziq ishlar soddadil Xolmurodga ajoyib zavq berdi* (P.T.). ***Botayotgan** quyoshning so'nggi nurlari azim chinorlarning uchida jilvalanib o'ynardi* (M.I.). *Tevarak-atrofni **ezilgan** uzum shirasining hidi bosgan. ...tabiatning bu jonsiz sukunati ichida charchagan pochta otlarining pishqirishini... eshitish zavqini oshirardi* (O.). ***Porlagan** yuz, **yashnagan** ko'z, jasur qiz! Bog'imizda chechak kabi ochding yuz* (H.O.).

Sifatdosh bilan ifodalangan belgi, sifat aniqlovchiga qaraganda jonli, faol bo'ladi. Shu ma'noda unda qandaydir predikativlik belgisi sezilib turadi. Biroq sifatdoshlar ko'rsatgan zamon mutlaq emas, balki nisbiydir. Sifatdoshli oborot gapda bitishuvli aniqlovchi bo'lib keladi: ***Suvga borayotgan, suvdan kelayotgan, o't yoqayotgan, tuya sug'orayotgan** odamlar, o'z ishlari bilan ovora bo'lib, uymalashib yuradilar* (P.Qod.). ***Oy sho'las** tushib turgan binolar zarrin tusda oqarib ko'rinadi* (O.). ***Yangi uyg'ongan** yam-yashil bargchalar bilan yasangan daraxtlar quyosh nurida cho'miladi... Gulnor **chuqur sadoqat ifoda etgan** ko'zlari bilan yigitga qaradi* (O.). ***O'z madaniyatini taraqqiy ettirmoqchi bo'lgan** xalq, **olg'a borishni istagan** har bir inson ona tilini yaxshi bilmog'i kerak* (Fitrat). ***Sen o'tqazib ketgan** nihol o'sib bo'yingday bo'ldi* (H.O.).

Sanoq va tartib sonlar sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *Bu giyohlar – **mingta** kasalga davo* (O.). *Buxoro shahridagi **minglarcha** ko'chalardan va ko'chadagi **yuzlarcha** dovullarning birdan chiqayotgan tartibsiz, vahimali va yoqimsiz sadolari... kishini hayajonga keltiradi* (S.Ahm.). ***Ikkinchi** darsda Zohidov... hisobdan dars berdi* (P.T.). *To'g'onning ikki tomonida to'rttadan **sakkizta** childirma “takatum-tak”, “takatum-tak” deb baravariga maqom boshladi* (A.Q.).

Sifatlardan keyin ma'no kuchaytirish uchun ta'kidlovchi yuklama vazifasida keluvchi “**bir**” soni gap bo'lagi bo'lib hisoblanmaydi: *Begbobo sof qalb va rahmdil **bir** odam edi* (S.Ahm.). Uning o'zi mijoz jihatdan

muloyim, xafahol, mute **bir** xotin edi (S.Ahm.). *Og'ir bir jimjitlikning vazmin qo'llari har uchovimizning yelkamizdan bosib turganday edi (G'.G'). Ortiq Ashxobodning ulkan va obod bir shahar ekanligiga ishonch hosil qildi (P.T.).*

Sonlar o'rniga almashib yuradigan **ko'p, mo'l, kam, oz, biroz, necha, qancha, bir necha, bir muncha, ancha, bir talay, bir tup, bir guruh** singari so'z va birikmalar predmetlarni miqdor tomonidan aniqlaydi: *Bir to'p qariyalar maydonning kiraverishida oftobshuvoqda o'tirib, aftidan, avtobus kutishar edi. Oqtovuq tomonidan kelgan bir guruh o'smirlar, yigitlar hayqirib-hayqirib bir-birini quvlashib, o'tib ketdi. Ularning ketidan ho'kiz qo'shilgan aravada bir talay bolalar qiy-chuv qilib o'tdi (A.Q.). Ko'p xotinlar azada aytib yig'lagan kabi yoniq faryod ko'taradi... (O.). Ko'pgina korxonalarda olti soatli ish kuniga o'tildi ("Saodat").*

Ba'zi bir olmosh turlari sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi:

a) ko'rsatish olmoshlari: *Ortiq shu dalalarga, shu jilg'alarga, shu tog'larga yo'l bo'yi havas bilan qarab keldi (P.T.). Mana bu o'rtog'im – doktor... Bu kishining fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi (G'.G').*

b) gumon olmoshlari bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilar predmetning uqadar aniq emasligini anglatadi: *Uning shahlo ko'zlarida qandaydir bir quvonch alomatlari ko'rindi (P.T.). Hovliga yaqin yerda qandaydir bir hashorat sirillamoqda edi (O.). ...badanim allaqanday qo'rqinchli uchrashuvdan darak berganday jimirlamoqda edi (G'.G').*

s) so'roq, belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *...Bilmadim, boshqa doktorlar qanday hukmga kelgan ekanlar, menimcha, xotinda o'tkir asabiylikdan boshqa hech qanday jiddiy kasallik ko'rinmas edi (G'.G'). Mariya uning yuzidagi har bir chiziqni, har bir kichkina dog'ni... yoddan biladi (S.Zun.). Hamma jonivorlar to'y va bayram qilmoqda (P.T.).*

d) **juda, g'oyat, nihoyatda** kabi orttirma nisbat vositalari bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilar ma'noning kuchaytirilganligini, ortiqligini anglatadi: *Qizlarning eng go'zali Nafisa edi (S.Ahm.). Mehnatda g'oyat chidamli insonlar maqsad sari olg'a yura oladilar (O.).*

Taqlidiy so'zlar ham aniqlovchi vazifasida kelib, o'zlari aniqlayotgan predmetlarni tasviriy yo'l bilan xarakterlaydi: *Dupur-dupur tuyuq tovushlari bilan ko'cha to'ldi. Aravalarning g'aldir-g'uldur ovozlari... eshitiladi. Uydan qah-qah kulgi aralash g'avur-g'uvur ovozlari eshitiladi. Jarang-jurung qadax ovozlari, dutor g'ijjklarning mayin ohanglariga qo'shib, tantanali xorga aylanadilar (O.).*

Qaratqichli aniqlovchilar, asosan, qaratqich kelishigidagi ot yoki otlashgan soʻz bilan ifodalanadi. Aniqlanmish esa aniqlovchi orqali ifodlangan grammatik shaxsga muvofiq egalik qoʻshimchasini qabul qiladi. Birikma moslashuv formasida boʻladi. Qaratqichli birikma bir predmetning ikkinchi predmetga qarashligini anglatadi.

Qaratqichli aniqlovchi **kimning, nimaning, qaysi, qanday** soʻroqlariga javob boʻlib keladi: ***Mening** suyaklarim mehnatda qotgan* (O.). *Yengiltaklik **bizning** kishilarga xos sifat emas* (O.). *Artgan, tozalagan sari semiz **otlarning** badanlari yarqiraydi. **Qayragʻoch, teraklarning** ildizi yer bagʻriga qattiq singgan* (O.). ***Olamning** goʻzalligidan zavqlangan toʻrgʻaylar tinimsiz sayrarkan, gʻoʻza shoxlarida koʻsaklar ham ularga joʻr boʻlayotgandek tebranar edi* (O.).

Qaratqichli aniqlovchi otlashgan soʻzlar bilan ham ifodalanadi: ***U oʻtirganlarning** kulgisiga ham parvo qilmay, **oʻzining** toʻgʻri soʻzini kesatq gap bilan tamom qildi* (O.). *Men ham **ketayotganlarning** orqasidan... qarab turdim* (O.). ***Birining** otasi kelgan, birining otasi yoki onasi oʻlgan...* (P.T.).

Qaratqichli komponentda qaratqich kelishigi baʼzan qoʻllanilmaydi. Bunda qaratuvchi aniqlovchi sifatlovchilarga yaqin turadi va aniqlanmish predmetning jinsi, turi, xosligi, payt yoki oʻringa mansubligi kabilarni bildiradi: ***Dala** yoʻlining ikki tomonidagi bogʻlar tutash gullar bilan qoplangan* (O.). *Dangʻillama **klub** va **choyxona** binolari shu kezlarda alohida bezatilgan* (R.F.). *Qishloqqa yaqin yerlardagi **meva** daraxtlari va **ariq** yoqalaridagi qator **tut** daraxtlari chiroyli bir manzara kasb etgan* (A.Q.).

Qaratqichli aniqlovchining belgili va belgisiz qoʻllanilishi farqlidir. Belgili qaratqichli birikmada aniq qarashlilik ifodalanadi. Ikki otning birikuvi aniq ikki predmet tasavvurini tugʻdiradi. Masalan, *shaharning koʻchalari* birikmasida *shahar* va *koʻcha* tushunchalari mavjud, *shahar koʻchalarida* esa umumiy qarashlilik mavjud.

Yoki *onaning mehri* qoʻshilmasi mehr kimga tegishli ekanligi anglashiladi. *Ona mehri* birikmasida esa mehr onaga nisbatan sifatga yaqinlashgan boʻladi. Qaratqichli aniqlovchili birikmalarda qaratqichli aniqlovchi ham, qaralmish ham kelishik (-ning) va egalik (-i) shakllaridan chiqib ketishi, sifatlovchili aniqlovchi vazifasida qoʻllanilishi ham mumkin (*qoʻyning choʻponi < qoʻy choʻponi < qoʻy choʻpon* shaklida).

Nutq ichida qaratuvchi aniqlovchi tushib qolishi, yuzada boʻlmasligi mumkin. Bu holatni aniqlanmishdagi egalik qoʻshimchalari koʻrsatadi: *Ikki yildan keyin toʻyimiz boʻladi. Vaʼdamiz bir yerda qaror topdi* (Gʻ.Gʻ.).

Yoʻlga solar, tutar qoʻlimdan,

*Boshimdadir sening xayoling,
Yuraklarda yonar surating,
Go'zalliging, guling, jamoling (H.O.).*

Aniqlovchi ko'plikdagi birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda, aniqlanmishdan egalik qo'shimchasi ba'zan tushib qoladi: *Bizning **kishilar** har bir ishda sabrli bo'ladi. Bizning **davr** yakkalanib qolishni ko'tarmaydi (O.). Bizning **yigitni** ham, katta maso-fani piyoda bosgani uchunmi, kun xiyla betoqat qilgan edi (O.). Bizning **polkda** turli millatdagi yigitlar bor (G'.G').*

Qaratqichli aniqlovchi, asosan, aniqlanmishdan oldin keladi. Ayrim hollarda, ayniqsa she'riyatda, aniqlanmishdan keyin kelishi mumkin:

*Shodligim ko'kka sig'mas,
Bitmas baxtim bor mening.
Eng baland uchida Pomir tog'ining,
Tikilgandir zo'r bayrog'imiz (H.O.).*

Aniqlovchi bilan aniqlanmish o'rtasida uslubiy talab bilan boshqa bo'laklar kirib qolishi ham mumkin: ***Gulxanlarning** odamlar yuziga tushib qizg'in **shu'lalari** bu manzarani yana ham tantanali qilib ko'rsatardi (O.). **Nabiralarning** haddan oshgan suyunchli **hangomasi** cholning ko'zlarini ochdi (O.).*

Bir aniqlanmishga gapda birdan ortiq aniqlovchilar ham ergashib kelishi mumkin. Aniqlovchilarning hammasi bir xil xarakterga ega bo'lganda, aniqlanmish bir tomondan aniqlaydi va bu holda ular gapning uyushiq bo'laklarini tashkil qiladi. Misollar: ***Shaftoli** va **bodom** daraxtlarining gullari jilo berib tovlanardi (O.). Zolimlarga **ko'krak kergan, musht ko'targan** minglarcha o'z og'a-inilarining otalari, onalarining gulduros ovozi uning quloqlarida guvullaydi (O.).*

Izohlovchi

Predmetga boshqacha bir nom berish, uni qayta atash yo'li bilan anglatadigan bo'lak **izohlovchi** deyiladi. Izohlovchi – aniqlovchining bir turi.

Izohlovchi tomonidan izohlangan bo'lak **izohlanmish** deyiladi. Izohlovchilar ot va otlashgan sifat yoki son, sifatdosh bilan ifoda qilingan har qanday gap bo'lagiga qarashli bo'lishi mumkin: ***General** Rahimov nutq so'zladi (K.Y.). Bu Quدراتilla xo'javofurush xonadoni – Naymancha tanasidagi qurtning so'nggi uyasi edi (Asq.M.).*

Anglashiladiki, izohlovchilar izohlanmishdan oldin ham, keyin ham keladi. Izohlanmishdan keyin kelgan izohlovchilar ko'pincha ajratilgan bo'ladi. Izohlovchi izohlanmish bilan odatda son va kelishik formalarida

moslashadi: *Bu tovush tanish bahor ertasining zavqli hayotbaxsh shovshuviga – hayot to'liqligiga qo'shilib ketdi. Bugun quruvchilar shahar mehnatkashlari – ozod kelin va qizlariga shonli bayram sovg'alarini topshiradilar* (Sh.R.)

Izohlovchilar izohlanmish shaxsning yoshini, unvonini, mashg'uloti, kasbi va mutaxassisligini, amalini, jinsini, qarindoshlik munosabatini, ijtimoiy kelib chiqishini, millatini, qanday oqimga mansubligini va shu kabilarni bildiradi. Masalan: **Jajji qiz** Maysara ham shu yerda boshqa bolalar bilan o'ralashib yuribdi. Jamoa yoshlari, mahalla yoshlari – **sportchi** o'quvchi bolalar kiyimida ashula aytib keldilar (S.Zun.). Unga ko'ngil qo'ygan o'rtahol **dehqon** – **Mavlon aka** tunkun ustaxonada qolib, qo'shchilarning aravalarini, omochlarini sozlab berayotgan **Sodiq temirchi** yana qanchadan-qancha jonkuyarlar birma-bir o'tdi (P.T.).

Izohlovchilar ko'p vaqt epitet bilan ham ifodalanadi. Epitet bilan ifodalangan izohlovchilar emotsional xarakterga ega bo'lib, predmetning sifatini, xususiyatini ko'rsatmaydi, balki sub'yektiv baholaydi, ya'ni so'zlovchining izohlanmishga munosabatini ko'rsatadi. Masalan, *Xitoy zontigiga o'xshash bu yoyiq soyabonga tikilgan chaqnoq gullar, yulduzlar odamni sehrlab qo'ygudek jilvador* (H.G'). *O'rik, olma, shaf-tolilarning ko'rkam guldastalari – toza ruhli, quvnoq tabiatning mo'l-ko'l yoygan go'zallik sepi, quyoshda turli rang va nur bilan porlaydi* (O.). *Xuddi oltin bilan to'qilgandek yorqin havoda, ajoyib charx urib, kabutarlar – qanotli raqqoslar o'ynardi* (O.).

Epitet-izohlovchilar ko'p hollarda undalmalarga ham qarashli bo'ladi. Masalan: **Baxtimiz chirog'i**, qizlar jononlar,

O'xshashsiz chamanda ko'rgizing jamol (G'.G').

Izohlovchilar **kishi, xotin, ayol, yigit, qiz, ish, narsa** kabi o'z konkret ma'nolarini yo'qotgan va umumiy ko'rsatish ma'nosini anglatadigan so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Biroq izohlovchi vazifasida kelgan bunday so'zlar o'z izohlanmishlariga ega bo'lishi shart: *Ferma mudiri qop-qora, o'ynoqi ko'zli, tez gapiradigan, serharakat yigit* – jun qirquvchilar ishlayotgan saysxonaga boshlab bordi (Asq.M.). *Ikkita ordenli mashhur terimchi Xosiyatoyni – gavdasi ham, ko'zlari ham kichkinagina ayolni* – hurmat bilan to'rga o'tqazishdi (O.). *Endi yangi bir fursat, ochilish, gullash fursati boshlandi* (R.F.). *Axir shunday qadrdon va yaqin do'stni, yurak do'stini unutish mumkinmi?* (Z.D.).

8- mavzu: **HOL VA UNING VAZIFAVIY TURLARI**

reja:

- 1. Ravish holi.**
- 2. Miqdor-daraja holi.**
- 3. O'rin holi.**
- 4. Payt holi.**
- 5. Sabab holi.**
- 6. Maqsad holi.**
- 7. Shart holi.**
- 8. To'siqsizlik holi.**
- 9. Xulosa.**

Hol o'zi tobelangan bo'lak – hollanmish orqali anglashilgan harakat belgisini (predmet yoki shaxs faoliyatini), shu harakatning qay tarzda yuzaga kelishini va buning o'rni, payti, sababi, maqsadi, sharti, to'siqsizligi kabi holatlarni anglatadi. Hollar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga ajraladi:

Ravish holi. Ravish holi hollanmish orqali anglashiladigan harakatni qay tarzda, qanday holatda, qanday sharoitda yuz berishini anglatadi.

Ravish holi quyidagicha ifodalanadi:

Holat ravishlari bilan: *Ular to ko'chaga chiqquncha, **jim** borishdi* (R.F.). *Oppoq bulutlar **asta-sekin** qoraya boshladi* (R.F.). *Samolyot... **ohista** va **ravon** havoga ko'tarildi* (Asq.M.).

Sifatlar bilan: *Ular ko'zlari bilan **iliq, samimiy** salomlashishdi* (O.). *Kamolov Botirga **jiddiy** tikildi. Sutdek oydinga daraxtlar, mevazorlar **aniq** ko'rinadi* (H.G').

bilan ko'makchili otlar bilan: *Brigada o'z vazifasini **sharaf bilan** bajardi* (R.F.). *Nuri **dadillik bilan** so'zladi va noz qilib kuldi* (O.). *Bu o'rik bir vaqtlar Murotalining otasi tomonidan ekilgan va **mehr bilan** parvarish qilingan edi* (Sh.R.).

Chiqish kelishigidagi otlar ravish holi vazifasida keladi: *Jonajon Vatani-mizning mehnatkash xalqi o'z matbuotini chin **qalbdan** sevadi* (O.). *Oyqiz cho'l oqshomini **dildan** sevadi...* (Sh.R.).

Chiqish kelishigidagi takroriy so'z bilan: *Salimov tiniq suvga e'tibor bilan tikilarkan, **yurak-yuragidan** pichirladi... U Sultonovni o'ylab **ich-ichidan** achindi* (Sh.R.).

bo'lib ko'makchili sifat yoki sonlar hol vazifasida keladi: *...daryoning bir joyi botayotgan quyosh nurida **qip-qizil bo'lib** tovlanardi* (O.). *Chiroyli do'ppi kiygan qiz **birinchi bo'lib** kirdi* (Sh.R.).

Ravishdosh va ravishdosh oborotlar ravish holi vazifasida keladi: *Yo'lchi suqila-suqila oldinga intildi (O.). Ikki tomondan uchtadan oltita oq kiyingan qiz, childirma maqomiga oyoq urib, kift qoqib* chiqdi. *Barglari allaqachon to'kilib ketgan daraxt shoxlari tinmay lapanglaydi (S.Abd.).*

Holda, holicha, ichida ko'makchilari bilan birikib, kelgan sifatdosh va sifatdosh oborotlar ravish holi sifatida qo'llaniladi: *Bo'taboy, hamon o'ylagan holda, xatni bukar ekan "uf" tortdi (A.Q.). Ana qo'l pulemyot-ni mahkam ushlagani holda Proxorov qulab tushdi (I.R.). Egri-bugri harflar bilan yozib qo'yilgan shior qor bosgan holicha* qiyshayib turardi (R.F.).

Rahnamoligida, rahbarligida, ruhida, ichida, ostida, asosida, yetakchiligida, nazoratida, boshchiligida kabi ko'makchilashgan so'zlar bilan birikib kelgan otlar ravish holi vazifasida qo'llaniladi: *Bir million-dan ortiq xotin-qiz o'qituvchilar yosh avlodni vatanparvarlik va xalqlar o'rtasida do'stlik ruhida, xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalash va o'qitish sohasida o'z kuchlarini sarf qilmoqdalar ("Xalq so'zi"). Keksa brigadir majlisdagilarning gulduros qarsaklari ostida pastga tushdi (R.F.).*

Ravishda, suratda, tarzda, taxlitda, yo'sinda, vaziyatda, tartibda kabi ko'makchilashgan so'zlar bilan birikib kelgan sifat, sifatdosh, ravish va ko'rsatish olmoshlari ravish holi vazifasida keladi: *Yana tevarakdan odamlar to'xtovsiz ravishda bu yerga oqmoqda edi (O.). Mamlakatimizda aholini mahsulotlar bilan markazlashtirilgan tartibda ta'minlash amalga oshirilmoqda ("Xalq so'zi").*

Ko'makchilashgan **qilib, etib** so'zlari bilan birikib kelgan ot va taqlidiy so'zlar ravish holi vazifasida keladi: *Uylarning oldida qator qilib o't yoqilgan. Guljahon yalt yetib ot kishnagan tomonga qaradi (H.G'). Nuri... noz qilib kuldi (O.).*

bilan ko'makchili harakat nomi ravish holi sifatida keladi: *...bir-biriga ko'ngil bergan odamlar muhabbatlarini bir-birlariga tillari bilan emas, ko'zlari, qalblari, qarashlari va o'zlarini tutishlari bilan bildiradilar (M.I.). Nasimjon... bema'ni ojiz jilmayish bilan tevarakka g'ilt-g'ilt qaradi (O.).*

lik+i+cha qo'shimchali so'zlar ravish holi bo'lib keladi: *Katta-katta ovullar bo'shadi, o'tovlar tiqqligicha, qoplar osig'ligicha, ko'rpa-to'shaklar yopiqqligicha qoldi. Qo'ylar eshik oldida bog'liq qolaverdilar. Dasturxonlar solig'ligicha yig'ilmadi (H.G').*

-lik qo'shimchasi yordami bilan sifat yoki ravishlardan yasalgan harakat, holat va belgi nomlari o'rin-payt kelishigi shaklida ravish holi bo'lib keladi: *O'zi ham etimlikda o'sganda, bilardi* (K.Y.).

Tovushga va harakatga taqlid qilinuvchi so'zlar ham ravish holi vazifasida keladi: *Anorxon piq-piq yig'ladi. Bog'cha hovlida shaftolilar, olmalar, noklar tap-tap to'kila boshladi. Faqat har bir do'konda bir xil tovush: shaq-shuq, shak-shuq cho't qiladilar. Nasimjon...tevarakka g'ilt-g'ilt qaradi* (O.). *Tim qorong'ilik ichida uzoqdan yulduzlar jimir-jimir ko'z qisar edi* (O.).

deb, etib ko'makchilari bilan birikib kelgan haydash, chaqirish so'zlari, shuningdek, tovush va harakatga taqlid qilinuvchi so'zlar ravish holi bo'lib keladi: *To'g'onning ikki tomonida to'rttadan sakkizta childirma "takatum-tak, takatum-tak" deb baravariga maqom boshladi. Tojixon "piq" etib kulib yubordi* (A.Q.). *Otda cho'pon "qurey-qurey" deb, sekin-sekin qirma-qir oshar...* (F.).

usulida so'zi bilan birikib kelgan sifatlar hol vazifasida keladi: *Katta maydonlarda yangi usulda chigit ekishga tayyorlanish uchun bu juda zarur narsa* ("Xalq so'zi").

-day, -dek, -simon qo'shimchalari bilan otlardan yasalgan ravishlar hol bo'lib keladi va harakatni o'xshatib, chog'ishtirib ifodalaydi: *Joynamoz ustida chipor ilondek cho'zilib yotgan uzun tasbeh bu cholning so'filardan biri ekanligini ko'rsatardi* (S.Ahm.). *Ufqdan ko'tarilgan quyosh chang va tutun orasidan bulut bosgan to'lin oyday ko'rinar edi* (A.Q.). *Uning ovozi chertilgan jonon kosaday jaranglar edi* (G'.G'). *Tozagul o'n sakkizga kirib, oyday to'lgan, oftobday kulgan edi* (H.G').

Kabi, singari ko'makchilari otlar ham ravish holi vazifasida kelib, harakatni chog'ishtirish-o'xshatish yo'li bilan xarakterlaydi: *U Yo'lchiga yaqin kelib, ona kabi boshini siladi. Tun sovug'i bilan qotgan loy oyoq ostida siniq shisha parchasi kabi qirs-qirs ushaladi* (O.).

Frazeologik birikmalar ravish holi vazifasida keladi: *Ular... topshirilgan vazifani qo'l uchida bajarib yurdilar* (A.Q.). *Muhabbat deganim shuki, hech vaqt mendan ketguncha egasiga etguncha taxlitda ish ko'rish yaramaydi* (R.F.). *Tohir... chidam bilan yana ancha vaqt tishini tishga quyib kutdi* (S.Abd.).

Miqdor-daraja holi harakat, holat va belgini miqdor jihatdan darajalab ifodalaydi, shuningdek, ish-harakatning bajarilishiga aloqador bo'lgan masofa vaqt miqdorini – o'lchovini ham ko'rsatadi.

Miqdor daraja hollari quyidagicha ifodalanadi:

Miqdor ravishlari va miqdor-daraja ma'nosiga ega bo'lgan sifatlar bilan: Kun **tamom** yorishib ketdi (R.F.). Poyonsiz osmon gumbazi yana ham **cheksiz** kengaydi (O.). Hamma **chuqur** xo'rsindi (O.). Parashyutdan yiqilgan vaqtimda zarb egan joylarim **qattiq** og'riy boshladi. Tog' o'rmonlaridagi yarim yillik partizanlik hayoti ham bu masalaga **ancha-muncha** o'rgatib qo'ygan edi. Ikkalamiz ham **toza** charchagan edik (N. Safar). **Ko'p** o'yla, **oz** so'zla (maqol).

Marta, bor, daf'a, karra so'zlari bilan birikib kelgan son va son o'rnida keluvchi so'zlar miqdor holi vazifasida kelib harakatning takror yuz berganligini anglatadi: Yo'lchi bu dorini ikki **marta** tayyorlab berdi (O.). Maqsud bu qo'shiqni ilgari ham bir necha **bor** eshitgan edi (P.T.).

Bu kabi birikmalarda sondan boshqa elementlar "yashirinib qolishi" ham mumkin: Yetti o'lchab bir kes (maqol). Bunda **marta, karra** so'zlari qo'llanmaydi.

Hissa, baravar, foiz, daraja kabi so'zlar bilan birikib kelgan son va son o'rnida keluvchi so'zlar hol vazifasida kelib harakat miqdorini ko'rsatadi: Normani **ikki hissadan** bajarsam ham, ulgura olmayman. ...hozirdan e'tiboran mehnatimizni **ikki hissa** oshiraylik (O.). Kunduzi issiqlik ellik **darajaga** ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining mahsu-loti **bir necha baravar** ko'paydi ("Xalq so'zi"). Bizning jamoamiz rejani **ellik foiz** bajardi ("Xalq so'zi").

Ko'ra, qarab, yarasha, muvofiq, bo'yicha kabi so'zlar bilan birikib kelgan jo'nalish kelishigidagi otlar hol vazifasida kelib, harakat miqdoriga ishora qiladi: Xayr, **rizqimizga yarasha** qolar (K.Y.). Iste'molchilar buyurtmasiga **yarasha** yangi nusxada tikilgan bejirim kiyimlar, ayol va erkak poyafzalini ko'zdan kechirdilar (R.F.). Turmush o'z qoidasiga **ko'ra** og'ib borardi (P.T.).

Sari, sayin ko'makchilari bilan kelgan sifatdosh hol vazifasida keladi: So'fi Eronparast **ichgan sari** sergap bo'ladigan, **gapirgan sari** ichaveradigan odamlar toifasidan edi (M.I.). Yo'lchi **so'zlagan sayin** o'zini yengil sezar edi (O.).

Juda, g'oyat, nihoyat kabi daraja ko'rsatgichlari o'zidan keyingi mustaqil so'z bilan birga hol bo'lib keladi. Bu kabi hollar odatda sifat yoki ravishdan bo'ladi: Yigit va qizlarimiz fuqarolik burchlarini **juda yaxshi** tushunadilar. Samolyot biz yoqqan gulxan tepasidan juda baland uchib o'tdi (O.).

Miqdor anglatuvchi aniqlovchi olgan ko'makchili otlar miqdori daraja holi vazifasida keladi: Bo'ston uning so'zlarini **zo'r ishtiyoq bilan** tingladi

(A.Q.). *Injener...qirg'oqlarga zo'r e'tibor bilan tikilardi* (Sh.R.). *Yo'lchi cheksiz sevinch bilan yurib ketdi* (O.).

Darajada, miqdorda, boricha, qolgunicha, kelgunicha, o'tkuncha, o'zida yo'q kabi vositalar bilan birikib kelgan boshqa so'zlar miqdor-daraja holi bo'lib keladi: *Ishonamanki, delegatsiya, sizning g'alabangiz, shuhratingizni ko'rib, nihoyat darajada xursand bo'ladi* (I.R.). *Xalqimizning ishonchini oqlashga jonim boricha harakat qilaman* (K.Y.). *Ular otryaddan aloqachi kutib o'tirmasdan...kuchlari yetguncha musta-qil ish ko'rdilar* (O.). *Oltinsoy yoshlari bu sevinchli xabarni eshitib, o'zlarida yo'q shod bo'ldilar* (Sh.R.).

Son va uzunlik o'lchovi nomidan iborat bo'lgan birikmalar miqdor-daraja holi vazifasida keladi: *Yana bir kilometrcha yurdim, lekin lager ko'rinmadi. O'n metrcha balandlikka ko'tarildim* (Asq.M.).

Son, chiqish kelishigidagi vaqt nomi va **ortiq, oshiq, kam, ko'p** kabi ravishlardan tarkib topgan birikmalar hol vazifasida kelib, harakatning bajarilishi uchun sarf qilingan vaqtni anglatadi: *Ziyodaxon bir yarim soatdan ortiqroq gapirdi* (A.Q.). *Ular bir oydan ko'proq izlashgan. Jazolovchilar o'rmonni ikki soatdan ortiq o'qqa tutdi* (O.). *Yarim soat chamasi shu holda qoldilar* (A.Q.).

Bo'yi, ichida davomida, mobaynida, orasida kabi ko'makchilar o'zi bog'langan ot bilan birga miqdor-daraja holi vazifasida keladi, harakat davom etib turgan davrni ko'rsatadi: *...asrlar bo'yi qaqrab yotgan yerlar bog'u bo'stonga aylanmoqda. Kolxoz choyxonasi kuni buyi barakali mehnat qilgan yoshu qarilar bilan to'ldi* (R.F.). *Mana shu oltin tuproqli yerlar uchun bizning ota-bobolarimiz asrlar davomida jon berib, jon olib kelganlar* (M.I.). *Respublikamizda yetti yil mobaynida yetti million bir yuz sakson ming kvadrat metr uy-joy qurildi* (O.). *Bir-ikki yil orasida ayyor qiz Nasimjonni xotinidan aynitib, o'zi tegib oldi* (O.).

Son va **kecha, kunduz, minut, soat, kun, hafta, oy, yil, asr** kabi vaqt ma'nosidagi so'zlardan iborat birikmalar ish-harakat, holat va belgining davom etish muddatini ko'rsatadi: *Poyezd uch kechayu-uch kunduz yo'l yurdi* (R.F.). *Yo'lchi ikki-uch minut hayrat va sarosimada qoldi* (O.). *Bir kun kutdik, ikki kun kutdik, o'n kun, hamon aloqa yo'q. Eshelon qo'zg'alguncha ikki soatgina gapirib oldik* (Asq.M.).

Keyingi bandlardan anglashiladiki, miqdor-daraja holi payt holiga ham o'xshaydi yoki unga yaqinlashadi. Biroq u harakat yoki belgining zamonga nisbatan yuz bergan, berayotgan, berajak paytni emas, harakatni miqdor jihatdan darajalab ko'rsatganligi, miqdor tushunchasini anglatganligi uchun ham miqdor-daraja holidir.

O'rin holi harakat yoki holatning bajarilish o'rnini yoki yuz berish o'rnini manzilu makonini anglatadi va **qayerda, qayerdan, qayerga, qayergacha** kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ma'nolariga ko'ra o'rin hollar uch asosiy guruhga ajraladi: 1) harakatning bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar; 2) harakatning boshlanish, chiqish nuqtasini anglatuvchi hollar; 3) harakat yo'nalishining oxirgi nuqtasini anglatuvchi hollar.

Ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar predmetning vertikal, ya'ni ma'lum bir nuqta yoki doirada yuz beradigan harakatini anglatadi va **qayerda** so'rog'iga javob beradi: *Maktab ko'm-ko'k vodiyni markazidan ancha uzoqda joylashgan* (Asq.M.). *Har yerda guruh-guruh odamlar, har yerda gulxanlar, har yerda dasta-dasta bayroqlar* (O.).

Bunda bulbul kitob o'qiydi,

Bunda qurtlar ipak to'qiydi... (H.O.)

O'rin-payt kelishigidagi joy, makon, bino nomlari va boshqa shu kabi konkret ma'noga ega bo'lgan otlar yoki shu ma'nolarda qo'llanilgan boshqa so'zlar o'rin holi bo'lib keladi: *Mirzacho'lda birinchi bahor boshlandi* (R.F.). *Respublikada* milliy ziyolilarning katta armiyasi o'sib yetishdi (O.). *Millionlarcha qo'llar cheksiz, qirg'oqsiz paxta chamanlarida* "oq oltin" teradilar (O.). *Qayerdadir* childirma gijbonlamoqda (A.Q.). *Maydonda* xalq tinchidi. *Sahnada* nog'ora o'yini, *Galyaning lapari* boshlandi (Asq.M.).

O'rin-payt kelishigidagi ot ko'makchilar bilan birikib kelgan qaratqichli birikmalar o'rin holi vazifasida keladi: *Rais klub qarshisida mehmonlarga to'qnash keldi* (R.F.). *Qo'rg'onning ichida* bir necha uy qator tikilgan (S.Ahm.). *Bolalar hovli sahnida* qishning toza oq momig'ida yumalashib o'ynashadi. *Ko'cha muyulishida* Yo'lchi to'xtadi. *Bog'ning har burchagida* o'zgacha bir latofat (O.). *Botqoq o'rtasida* bir tup kichkina terak kekkayib turibdi. *Gulxan atrofida* osoyishta suhbat va bosinqi kulgu eshitilardi. *Soy bo'yida* haqiqiy jang bo'ldi (O.).

Qaratqich kelishigidagi ot **o'ng, chap, old, orqa, quyi, yuqori, past** kabi ko'makchilar yoki **u, bu, shu, o'sha** singari ko'rsatish olmoshlari o'rin-payt kelishigida shakllangan **tomon** so'zi o'rin holi vazifasida keladi: *Katta ko'chaning o'ng tomonida* yigit va qizlar hovuz qazish-moqda (R.F.). *Bog'ning quyi tomonida* bir chiziqda saf tortgan baland, adl teraklar tebranadi (O.). *Qishloqning chap tomonida* kartada ko'rsa-tilgan soylik ham ko'rinib qoldi (R.F.).

Son, uzunlik o'lchovi nomi, **uzoqlikda, narida, berida** so'zlaridan iborat birikmalar o'rin holi vazifasida keladi: *Ha... uyi anavi yoqda. Mak-*

tabdan nari ... ha. Undan ham narida... (S.Ahm.). *Uch-to'rt kilometr narida* itlar hurmoqda edi. *Uch-besh kilometr*lar chamasi *narida ...yashirin poyloqchi ham qo'ydik. Biroz nariroqda* yana bir chol *ko'rinardi* (S.Ahm.).

O'rin holi chiqish kelishigida shakllanadi. Bunda chiqish kelishigidagi otda makon (o'rin, joy) tushunchasi mavjud bo'ladi. Bu hollar harakatning chiqish – boshlanish nuqtasini anglatadi, **qayerdan** so'rog'iga javob bo'ladi: *Poyezd vokzaldan uzoqlashdi* (Asq.M.).

Chiqish kelishigi bilan shakllangan **tomon** ko'makchisini olgan otlar o'rin holi bo'lib keladi: *O'rmon tomondan bir mashina kelayotgan edi* (O.). O'rin holi jo'nalish kelishigida shakllanadi. Harakatning yo'nalgan nuqtasini anglatadi, **qayerga** so'rog'iga javob bo'ladi: *Bu yil maktabga boraman.*

Jo'nalish kelishigidagi **tomon** ko'makchisi bilan birikib kelgan ot ham o'rin hol vazifasida keladi va harakat yo'nalgan tomonni ko'rsatadi: *Yo'l ikkiga bo'lingan joyda Muhiddin uy tomonga emas, idora tomonga burildi* (R.F.). *Mashina kichik ko'cha bilan adir tomonga jo'nadi* (I.R.).

Nari, beri, chap, o'ng, yuqori, past, oldi, orqa kabi so'zlar, ko'rsatish olmoshlari **tomonga** shaklidagi so'z bilan birlikda o'rin holi bo'lib keladi va harakatga aloqador tomonni ko'rsatadi: *Bu onda Tohir ... jadal bir harakat bilan o'ng tomonga qayrildi* (M.Safarov).

Tomon so'zi belgisiz ham qo'llaniladi: *Lekin qo'zqolonchi xalq politsiya mahkamasi tomon yuguraverdi* (O.). Ot belgisi jo'nalish qo'shimchasini oladi: *G'arbga tomon botib borayotgan quyosh jangchilarning yo'liga zarrin nurlarini sochmoqda* (R.F.).

Qarab ko'makchili jo'nalish kelishigidagi otlar hol vazifasida harakat yo'nalgan tomonni ko'rsatadi: *Biroq u tushgan poyezd qarbga emas, sharqqa qarab ketdi* (A.Q.).

Sari ko'makchili otlar hol vazifasida kelib, ish-harakat yo'nalgan tomonni ko'rsatadi: *Uzun va keng oq uydan besh-olti odam chiqishib, tez-tez maydon sari yurishdi* (M.Safarov).

Jo'nalish kelishigidagi ot ko'makchilar o'zi tobelangan ot bilan qaratqichli birikma shaklida o'rin holi vazifasida qo'llanib harakat yo'nalgan makonni ko'rsatadi: *Bahorning yashil etagi Mirzacho'l ustiga yoyildi* (R.F.). *Quyosh uzoqdan daraxtlar orqasiga tushdi* (O.). *Hammamiz gulxan atrofiga yig'ilishdik* (M.Safarov).

Jo'nalish kelishigidagi **bosh, etak, yoqa, bag'ir, tepa** kabi ko'makchilashgan so'zlar bilan birikib kelgan otlar o'rin holi vazifasida kelib, harakat yo'naltirilgan o'rnini ko'rsatadi: *Quyosh chiqmay, rais xirmon*

boshiga etib keldi (O.). Sulaymonov bilan birga kelgan fotograf dala yoqasiga kelib to'xtadi. Tepaning etaklariga yong'oq, o'rik o'tqazildi (O.).

Gacha qo'shimchali otlar hol vazifasida kelib, harakat yo'nalishidagi chegarani ko'rsatadi: *Ko'klam vaqtida qo'ylarni o'tlatib yurib, bu yerlar-gacha kelib goldim (Oydin). Bobotog' yaylovigacha bordi-da, mollarni ko'rib, cho'ponlar bilan xayrlashib ketdi (M.Safarov).*

Qadar ko'makchili jo'nalish kelishigidagi ot va ot o'rnida kelgan so'zlar o'rin holi vazifasida kelib, ish-harakatning taqalish nuqtasini – oxirgi chegarasini ko'rsatadi: *Ana shu nur... zavodlarga, fabrikalarga, qo'yingki, bizning qishloqqa qadar yoritib yuborarkan (Oydin).*

Bo'ylab, yoqalab, orqali ko'makchilari bilan birlikda ot va ot o'rnida kelgan so'zlar o'rin holi vazifasida kelib makon ob'yektini ham ko'rsatadi: *Ochiq deraza orqali bog'cha va gulzordan yengilgina shabboda esar edi (O.). Ular yo'l yoqalab ketishdi (R.F.). Ikkita avtobus asfalt yo'l bo'ylab tez bormoqda edi (R.F.). Men uyga dala bilan ketdim (P.T.). Yosh yigitlar daryo bo'ylab ketdilar (Mirmuhsin). Cho'pon ota har kuni trassadan qaytishda "Shirinsoy orqali" o'tar va yuz-qo'llarini yuvib, so'ng uyga kelar edi (Oydin).*

Payt holi

Harakatning bajarilish paytini, zamonini, vaqtini anglatadigan bo'lak **payt holidir**.

Payt holi vazifasida qo'llanadigan vositalar harakatning paytini bevosita, yoki bilvosita ko'rsatadi. Ish-harakat paytini bevosita ifodalash vaqt nomlari va payt ravishlariga xosdir (**soat ikkida, yozda, hozir, ertalab** kabilar). Payt ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar ish-harakatni biror paytda yuz bergan boshqa voqea-hodisaga nisbatan ko'rsatadi.

Payt hollari **qachon, qaysi vaqtda, qachondan beri, qachondan boshlab, qachongacha, qay vaqtgacha, qay vaqtga qadar** kabi so'roqlarga javob bo'lib keladi va ikki asosiy guruhga ajraladi: 1. Harakat, holat yoki belgining paytini chegaralamasdan ko'rsatuvchi hollar, 2. Harakat, holat yoki belgining paytini chegaralab ko'rsatuvchi hollar.

Harakat paytini chegaralab ko'rsatuvchi hollar o'z navbatida yana ikki turga bo'linadi: a) harakat yoki belgining boshlanish paytini ko'rsatuvchi hollar; b) harakat yoki belgining tugash paytini ko'rsatuvchi hollar.

Harakat yoki belgining paytini chegaralamasdan ko'rsatuvchi hollarining ifodalanishi, asosan, quyidagichadir:

1. Payt ravishlari hol vazifasida keladi: *Xolmurod ertalab bolalar bilan mashqul bo'lar... kechqurun kattalar bilan shuqullanar edi (P.T.).*

Ahyon-ahyonda otliq yo'lovchilar ham o'tib qolardi (P.T.). U ba'zan yolg'iz, ba'zan o'z yoniga bironi hamroh qilib, qancha jar, qancha to'g'on va quloqlarni ochib, suv keltirar edi (O.). Konsert juda kech tamom bo'ldi (A.Q.). Bahor quyoshi endigina yerdan uzilgan. Shu yil bahor erta keldi (A.Q.). Kechayu-kunduz qo'limdan kitob tushmas edi (Mirmuhsin).

-lar qo'shimchali payt ravishlari ish-harakat, holat yoki belgining ma'lum paytda muntazam ravishda takrorlanib turganini ko'rsatadi: *Kunduzlari yelimday loy, kechalari yarim tunga qadar iliq havo bo'ladi (Asq.M.). Kechalari yurib, kunduzlari to'g'ridan-to'g'ri yerga yotib dam olar edik (Asq.M.).*

Vaqtda, topda, paytda, choqda, onda, mahalda, asnoda fursatda, orada, kezlarda, singari so'zlar bilan birlikda kelgan ot, sifat va olmoshlar payt holi bo'ladi: *Shu choqda o'nlab samolyot motorlarining gurullashi eshitildi (K.Y.). Shu mahalda eshik ochilib, ichkaridan Komiljon chiqib keldi (U.). 1277 yilning kuz kezarida bo'lsa kerak, Yusufbek hoji o'z tanishidan xat oldi (A. Qod.). Shu topda nima qilishni o'zi ham bilmay qoldi (O.). Shu ondayoq aylandi boshim (H.O.).*

-lik qo'shimchali o'rin-payt kelishigidagi holat va belgi nomlari payt holi bo'lib keladi: *Kiyimni tozalikda obro'ni yoshlikda saqla (maqol). Men uni pishgangacha kutmay, g'o'raligida yeb tamomladim (Oydin). Bolaligimda qo'ziqorin, rezavor tergani o'rmonga ko'p borardim (M.Safarov).*

Bilan ko'makchili harakat nomi payt holi vazifasida kelib, harakatning tez yuz berishini anglatadi: *Qizning paranjisini ko'rish bilan yigitning yuragi qinidan chiqayozdi (O.). U uyqudan ko'zini ochishi bilan irg'ib o'rnidan turdi (P.T.). Bashorat xonaga kirishi bilanoq o'zini boshqacha his qila boshladi (O.).*

Aniqlanmishi fasl, oy, kun nomlari bilan shakllangan aniqlovchili birikmalar payt holi vazifasida keladi: *Anorxon bahor kunlari sochni yumshatadigan yomg'ir suvida bosh yuvishni yaxshi ko'rardi (O.). Tunov kuni sizdan xat-xabar bormikan, bir bilib chiqay deb, xolamlarning oldilariga kirgan edim (G'.G'). Yaxshi kunda do'st bo'lish g'animat emas, yomon kunda do'st bo'lib ko'r (H.O.).*

Avval, so'ng, ilgari, oldin, keyin, burun singari payt ko'makchilari chiqish kelishigidagi otdan keyin kelib hol vazifasini bajaradi va ish-harakatning bajarilish paytini ko'rsatadi: *Hosilga hosil qo'shish oyligi o'tkazish oldidan dala shiyponida yig'ilish bo'lib o'tdi. Shu vaqtdan*

keyin necha-necha kechalar o'tdi-yu, necha tonglar otdi (R.F.). Bir necha minutdan so'ng darvozaning tirqishlaridan shu'la siljidi (O.).

Deganda so'zi o'ziga qo'shilib kelgan son va sanalmishdan iborat birikma payt holi bo'lib keladi: *Ketdim. O'n kun deganda shaharga kirib bordik (A.Q.).*

Oldida, oldidan ko'makchili harakat nomi payt holi vazifasida keladi: *Singlim hali dalaga ketish oldida beqasam to'nga orden va medallarni tiqib qo'ygan ekan (O.). Bu yoqqa uchish oldidan dala pochta orqali xat yozib qoldirdim (Asq.M.).*

Davomida, arafasida, asnosida, jarayonida, orasida kabi ko'makchili otlar ham payt holi vazifasida qo'llaniladi, harakatning davomiyligini ko'rsatadi: *Ish jarayonida uning kimligi ma'lum bo'ldi. Gap orasida kimdir kulib yubordi. Jiddiy suhbat orasida ba'zan bir shingil askiya ham bular edi (O.).*

Sayin ko'makchisi bilan shakllangan payt holi harakatning ma'lum vaqt takrorlanib turganini ko'rsatadi: *Kechikib kelgan qish endi kun sayin sovuqni kuchaytira boshlagan edi. Ular arzir-arzimas narsalar ustida minut sayin talashar edilar (O.).*

Harakat yoki belgining boshlanish paytini qachondan beri mavjudligini ko'rsatuvchi hollar chiqish kelishigidagi vaqt nomlaridan **beri, buyon, tortib boshlab** ko'makchilari bilan quyidagicha ifodalanadi: *Ular kechadan buyon bu yigitlarning ashulasini, askiyalarini bir necha marta eshitdilar. Muhiddin uch kundan beri unga gapira berib charchadi. Bugundan boshlab sizning yordamchingiz mana shu bo'ladi (R.F.). Bu odamnikida to'rt yildan buyon ishlayman. Mirzakarimboyning oilasi bir yarim oydan beri shaharda (O.).*

Harakat yoki belgining tugash paytini ko'rsatuvchi payt hollari quyidagicha ifodalanadi:

Gacha qo'shimchali ravishlar yoki son, vaqt nomlaridan iborat birikmalar hol vazifasida kelib, harakatning davom etishida chegara bo'lgan paytni bildiradi: *O'yin-kulgi yarim kechagacha davom etdi (A.Q.). Gulnor shu yoshgacha hech vaqt onasini bu kayfiyatda ko'rmagan edi (O.). Suhbat allavaqtgacha davom etdi. Talay vaqtgacha butun sahro gurullab turdi (R.F.). Biroq bir o'zim ertalabgacha uxlay olmadim (Asq.M.).*

Qadar, dovur ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi ravishlar va vaqt nomlari payt holi bo'lib keladi, harakatning tugash paytini oxirgi chegarasini ko'rsatadi: *Men shu choqqa qadar, o'g'limni topaman, deb kelayotgan edim. Oqmachitning odamlari ham o'lgudek hafsalasiz ekan, haliga qadar ko'chalarda yo'lka qilmaganlar (Oydin). ...yarim kechga*

qadar cho'zilgan katta suronli majlisni tugatib... mudroq holda otga mindi (O.).

Payt holi ko'p vaqtda ajralmas, frazeologik birikmalar bilan ham ifodalanadi: *...shuncha odam ko'z ochib yumguncha zim qoyib bo'ldi-ketdi (A.Q.). –Ha, mayli, ertadan kechgacha bo'lsa ham, ishlayman (Oydin). ...o'rtoqlar bosh biriktirishlari bilanoq... o'zlari mustaqil ish ko'rdilar (A.Q.).*

Sabab holi

Ish-harakatning bajarilish yoki belgining yuzaga kelish sababini bildiruvchi hol **sabab holi** deyiladi.

Sabab ma'lum bir harakatni keltirib chiqaradi va **nima sababdan, nima sababli, nima uchun, nimaga ko'ra, nimaga, nimadan, nimaga binoan, qanday munosabat bilan, nima natijasida** kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

Ravishdosh va ravishdosh oborotlar sabab holi vazifasida kelib, harakat yoki holatning yuz berish sababini anglatadi: *...ko'zdan qolib uyga qamalgan bir ko'knori hamqishlog'idan ham bir oz ta'limot olgan edi (O.). ...machit tomining tarnovida kukulashib turgan ikki musicha cho'chib uchib ketdi (G'.G'). Tohir Samandarning mahoratiga hayron qolib, uni chin qalbdan sevib qoldi. Shu kungacha Latifa, gap-so'z bo'lishdan qo'rqib, hech bir yigit bilan teatrqa bormagan edi (M.I.). Qiz yetib keldi. Sevgilisining g'amgin-ligidan chiday olmay, maydonga otildi (S.Ahm.).*

Chiqish kelishigidagi ot, harakat, holat nomlari yoki sifatdoshlar va ravishdoshlar sabab holi vazifasida keladi, shaxsning ichki kechinmalari asosida yuz bergan sababni anglatadi: *Bektemirning ko'zlari nafrat va g'azabdan allanechuk pirillab ketdi (O.). Shodlikdan O'ktamning ko'zlari mastday yonib ketdi (O.). Quadrat o'rinsiz aytilgan gapning hijolatidan labini tishlagancha jim qoldi (R.F.). Nozikjamolning qo'llari alamdand, g'azabdan titraydi (O.). Bo'ston quvonganidan sakrab borib Qumrini quchoqladi va o'pib oldi (A.Q.). Oilalarda yoshlarning sho'x oyoq o'yinidan chang ko'tarildi (Asq.M.). Oila otaning kelishidan quvondi (P.T.). Portlash zarbidan Ahmadjon chuqurga ag'darilib tushdi (A.Q.). Portlashning aks-sadolaridan o'rmon yangradi (O.). Bunday xushxabarlardan Hasan ishga chiqishga daldalandi (S.Ahm.). Qo'llar chapakdan yondi (O.).*

-lik, -chilik qo'shimchali chiqish kelishigidagi holat va belgi nomlari sabab holi bo'lib keladi: *Bir-biriga chirmashib ketgan g'o'za shoxlari-ning qalinligidan hatto tangadek yer ham ko'rinmas edi (M.I.). Yigitlar bekorchilikdan zerika boshladi (O.).*

Jo'nalish kelishigidagi mavhum otlar, sifat va sifatdoshlar sabab holi bo'lib keladi va yuz bergan his-tuyg'u, ichki kechinmalarning sababini ko'rsatadi: *Gulnor hozir Nurining mehribonchiligiga sevindi. Yo'lchi o'z qishlog'idan kelgan odam bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rasha olmaganiga afsuslandi* (O.). *Ortiq Ashirning sog'ligiga, balodan eson-omon qutilganiga o'z uyiga qaytib kelganiga quvondi* (R.F.). *Bashorat oyisi tanimay qolganiga maza qilib kuldi* (Asq.M.).

Uchun, bilan, sababli, tufayli, vajdan, deb kabi ko'makchilari bilan shakllangan bosh kelishik formasidagi harakat nomi yoki olmoshlar va otlar hol vazifasida keladi, harakatning yuz berish sababini anglatadi: *Jo'raxonning taklifi bilan bu yer artel idorasi qilib tanlangan edi* (Asq.M.). *Yo'lchi quyosh va dala shamoli bilan bir oz qoraygan* (O.). *Xolmurod o'qituvchiga salom bergani uchun quvondi. Melipolvon mehmon kelib qolgani sababli dutorini yotqizib qo'ygan edi* (P.T.). *Qahramonona mehnatimiz tufayli biz bepoyon cho'llarni guliston qildik* (R.F.). *To'ram deb to'rvamdan, xo'jam deb xurjunimdan, eshonim deb eshagimdan ajraldim* (maqol).

Munosabat bilan, sababdan, orqasidan, natijasida ko'makchilari bilan bog'langan qaratqich klisheidagi ot, harakat nomi va olmoshlar sabab holi vazifasida qo'llaniladi: *Qorato'y og'ir mehnat orqasida chuqur cho'zilgan peshona chiziqlarini silab, maslahat berdi* (O.). *Ehtimol ...sog'inish hissi shunday kam uchrashuvlar natijasida yana ham quvvatlangandir* (O.). *Qayerda avariya bo'lsa, shularning beparvoligi natijasida bo'ladi* (M.Safarov).

Chiqish kelishigidagi sifatdosh sabab holi vazifasida keladi: *Darhaqiqat, sevmagandan keyin asalday shirin so'z ham zahardan achchiq sezilishi mumkin* (O.).–*Kechiring, o'rtoq komandir, axir kasal kishi kelgandan keyin nima ham deya olaman* (O.).

Sabab hollari ajralmas, frazeologik birikmalar bilan ham ifodalanadi: *Jamil do'stining astoydil ishlashga bel bog'laganidan xursand bo'ldi* (Asq.M.). *Akasining yuzidan o'ta olmay u bilan birga kunjut o'rishga chiqdi* (S.Ahm.).

Maqsad holi

Harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatadigan bo'lak **maqsad holi** deyiladi.

Maqsad hollari **nimaga, nima uchun, nima maqsadda, nima deb, qanday maqsad bilan, nima qilgani** kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

Maqsad ravishlari maqsad holi vazifasida keladi: ...*u atayin shoshilmasdan sekin yura boshlaydi. General harbiy asirlar bilan gaplashar ekan ...atayin vahimali gaplarni aytardi* (K.Y.).

-gani (-gali) affiksi bilan shakllangan kelasi zamon sifatdoshi maqsad holi vazifasida keladi: Qiz uni *ushlab olgani ko'p urindi*(A.Q.). *Nay eshitgani keldik* (I.R.). ...*chopiqchi qizlar hordiq chiqargani sakkizga kelishdi* (O.).

Jo'nalish kelishigidagi harakat nomi maqsad holi bo'lib keldi: *Xolmurod mollarni o'tlashga olib chiqa boshladi* (P.T.).

Uchun, maqsadida, maqsadi bilan, umidi bilan, tilagida, orzusida, niyatida, yo'lida so'zlari bilan birlikda kelgan ot, olmosh yoki harakat nomlari maqsad holi vazifasida keladi: *Yigitlar va qizlar... Vatanimizning kundan-kun go'zal va chiroyli bo'lishi uchun jon kuydirmoqdalar* ("Xalq so'zi"dan). *Yaylovlarda mol qishlovini yaxshi o'tkazish maqsadida xashak zahirasi g'amlab qo'yildi* ("Surxon tongi"dan). *So'ngra u ...suv keltirish niyatida soyga tushib ketdi* (Sh.R.). *Komila... suv uchun, yangi yerlarni egallash uchun, yangi qishloq va madaniy hayot uchun kurashdi* (O.). *Ovozingni eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim* (O.). *Ko'ngil ochish tilagida baxshining atrofiga to'planishdi* ("Alpomish" dan). *U o'z Vatanini ozod etish yo'lida jonini ham ayamaydigan vatanparvar ekanligini ko'rsatdi* (Asq.M.).

Kelasi zamon maqsad fe'li **bo'lmoq** yordamchisi ham maqsad holi vazifasida qo'llaniladi: *Usta ramazon, uni qiziqtirmoqchi bo'lib... yelkasi-ga qo'lini soldi* (I.R.). *Oqsoqol ketmonchi bo'lib o'rnidan turdi* (S.Ahm.).

Deb ko'makchisi bilan shakllangan ot, olmoshlar maqsad holi bo'lib kelishi mumkin: *Men bu yerga... faqat seni deb keldim* (R.F.). ...*kambag'al non deb bosh ko'tarsa, boy mushtumzor qon deb tosh ko'tarardi* (A.Q.). ...*sizdan xat-xabar bormikan, bir bilib chiqay deb xolamlarning oldilariga kirib edim* (G'.G'). *Otajon, Sizni deb hayotning har bir azob-uqubatlariga bardosh berdim. Siz rozi bo'ling deb, sababsiz og'ir qarzga ko'ndim, Sizni deb turmushning zaharini shakar, achchig'ini chuchuk o'rnida ko'rdim* (S.Ahm.). *Yorimni ko'rsam deb keldim, Bir dam o'tirsam deb keldim* (qo'shiq).

Maqsad hollari ajralmas, frazeologik birikmalar bilan ham ifodalana-nadi: *Yerini sovuq suvga solib qaynatgani ketdi* (I.R.).

To'siqsizlik holi

Harakatning bajarilishiga zid bo'lsa-da, uning yuzaga kelishiga monelik qilmaydigan hollar **to'siqsizlik holi** deyiladi.

To'siqsizlik hollari **nimaga qaramasdan, nimaga qaramay, nima demay, nima bo'lsa ham** singari so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

Turmoq ko'makchisi bilan shakllangan ravishdosh to'siqsiz holi vazifasida qo'llaniladi: ***Holdan toysam ham, manzilga yetib bordim*** (S.Zun). *Shu kunlarda... hammaning nima ekanligini **bila turib**, yana so'raysiz* (I.R.).

Jo'nalish kelishigi bilan shakllangan ot yoki ot formasidagi so'zlar **qaramay, qaramasdan** ko'makchilari bilan birikib to'siqsizlik holi vazifasida keladi: ***Kun choshgoh bo'lishiga qaramasdan, ko'cha va dala jimjit edi*** (A.Q.). *Oysulton... **charchaganiga qaramay**, yana shuncha yurgisi, ko'rgisi kelaverdi* (P.T.). *...Bahor faslining o'rtalari bo'lishiga **qaramay**, havo iyun oyidek qizg'in edi* (S.Ahm.).

demay ko'makchisi to'siqsizlik holi bo'lib keladi: *Kecha **demay**, kunduz **demay**, yarim to'q, yarim och holda qilgan qora va og'ir mehnatlari uni oltmish yasharligidan sakson yasharga aylantirgan edi* (S.Ahm.). *Qish **demay**, yoz **demay**, qor **demay**, bo'ron **demay** yil o'n ikki oy cho'lda qo'ying orqasidan yuramiz* (S.Ahm.).

Shart holi

Shart holi hollanmish orqali anglashilgan harakatning yuz berishidagi shartni anglatadi va fe'ning shart mayli formasi bilan ifodalanadi, hokim bo'lakka **-sa** affiksi yordamida bog'lanadi: ***O'qisang, dono bo'lasan, ishlasang** sog'lom bo'lasan, bo'tam* (M.Safarov). *Og'a, sog' **borsangiz**, avval, dadamlarga salom ayting...* (H.H.). ***Borsam, injenerni boshlab kelaman*** (O.).

Misollardan anglashiladiki, shart holida bajarilishi mo'ljallangan, biroq yuzaga kelmagan ikki xil harakat mavjud. Bulardan biri – hol, ya'ni yordamchi harakat, ikkinchisi hol bog'langan bo'lak (hollanmish) – asosiy harakat. Asosiy harakatning bajarilish yoki bajarilmasligi yordamchi harakatning yuzaga kelish-kelmasligiga bog'liq. "A" (yordamchi harakat) bo'lsa, "B" (asosiy harakat) bo'ladi va, aksincha, "A" bo'lmasa, "B" bo'lmaydi: ***O'qisang, bilasan. O'qimasang bilmaysan. Ko'rsam aytaman, ko'rmasam aytmayman*** kabi.

9- mavzu: **GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI**

reja:

1. Uyushiq bo'lakka ta'rif va tavsif.
2. Yiqiq va yoyiq uyushiq bo'laklar.
3. Ochiq va yopiq uyushiq bo'laklar.
4. Uyushgan egalar.
5. Uyushgan kesimlar.
6. Uyushgan aniqlovchilar.
7. Uyushgan to'ldiruvchilar.
8. Uyushgan hollar.
9. Umumlashtiruvchi bo'lak.
10. Xulosa.

Bir xil sintaktik ahamiyatga ega bo'lgan, hammasi birlikda bir xil so'roqqa javob bo'ladigan, sanash ohangi bilan aytiladigan va, asosan, bir xil so'z turkumi bilan ifodalangan so'zlar **gapning uyushiq bo'laklari** deyiladi. Bir hokim bo'lak tomonidan boshqarilgan bo'laklar uyushiq bo'lak deyiladi.

Ta'rifdan anglashiladiki, uyushiq bo'laklar: 1) birdan ortiq bo'ladi; 2) bir turdagi yoki bir jinsdagi tushuncha ifodalaydi; 3) bir turdagi so'z turkumi bilan ifodalanadi; 4) asosan, bir xil so'roqqa javob bo'ladi; 5) sanash ohangi bilan aytiladi; 6) gapda bitta bo'lak vazifasida keladi; 7) bir hokim yoki uyushtiruvchi bo'lak tomonidan boshqariladi; 8) uyushiq bo'laklar o'zaro teng aloqaga kirishadi: teng ohang yoki tenglashtiruvchi vositalar; teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasida keladigan yuklamalar orqali birikadilar.

Uyushiq bo'laklar ma'no va grammatik jihatdan gap tuzilishini kengaytiradi sodda gap bo'lsa, uni murakkablashtiradi. Uyushiq bo'laklarning o'zi ham gap tarkibida yig'iq va yoyiq shakllarga kiradi.

Yig'iq va yoyiq uyushiq bo'laklar

Uyushiq bo'laklar yig'iq va yoyiq bo'ladi. Aniqlovchilarsiz uyushib kelgan bo'laklar **yig'iq uyushiq bo'laklar** deyiladi: *YOshlikda odamga to'shak ham, uy ham, olam ham tor ko'rinar ekan* (Asq.M.). *Kaltake-saklar, kalamushlar, sichqonlar dumlarini likillatib yugurishib yurardilar. Tovushqonning, tulkinining qumloq yerlarda qoldirgan izlari ko'zga tashlanar edi* (M.Safarov).

Uyushiq bo'laklarining bittasi, bir nechasi yoki hammasi o'zlariga tobelangan aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol bilan shakllansa, **yoyiq uyushiq bo'lak-lar** hisoblanadi: *Umarali uning yuzidagi har bir chiziqni, har bir*

kichkina dog'ni, manglay tuzilishini, qayirilgan kipriklarini, ko'zidagi quvonch nurini, qush qanotiday qoshlarini, orqaga taralgan sochlarini, jur'atli va quvnoq yuzini – hammasini yoddan biladi (O.). Ot, eshak mingan dehqonlar, qo'ng'iroqlarini jaranglatib solmoqlagan qator tuyalar, kalava to'la savatlarini boshlariga qo'ygan kampirlar, matolarini qo'litiqlagan to'quvchilar va hokazo olomon bozor tomonga oqardi. Qiz silliq, tekis o'rilgan uzun, ko'rkam, ipakday mayin qo'sh kokilini bir qo'liga olib ko'rdi-da, o'rnidan turdi, uyga kelib echindi, nozik bo'ynini, dirkillagan ko'kragini sekin artdi va yupqa guldor batis ko'ylagini kiydi, ko'kragiga medalini qadadi, keyin chust do'ppini boshiga qo'ndirib, hovliga chiqdi va ukasining yangi velosipedini u yoq-bu yoqqa qildiratib ko'rdi, keyin sho'xligi tutib, birdan mindi va hovlining u burchidan bu burchiga qizillab qatnay boshladi (O.).

Yoyiq uyushiq bo'laklardan oldin **bu** olmoshi takrorlanib kelishi va nutqni ta'sirchan qilish mumkin: **Bu** shovqin-suronlar, **bu** gurullab yonayotgan gulxanlar, **bu** lavalalar shu'lasida g'ira-shira ko'rinayotgan qip-qizil yuzlar, **bu** ajoyib, xayoliy manzaralarning hammasi kishini hayajonga solardi (O.).

Bir sodda gapning o'zida yig'iq yoki yoyiq uyushiq bo'laklar guruhi birdan ortiq bo'lishi, ya'ni turli bo'laklar shakllanishi mumkin: 1. *Shiddatli yomg'ir, vahshiylashib esayotgan shamol va toshqin sel, bir-birlariga ko'maklashib daraxtlarni qo'porib otar, devorlarni buzar va tomlarni cho'ktirar edi* (S.Ahm.). 2. *Hamma ko'chalar, maydonlar, muhtasham binolar va daraxtlar rang-barang plakatlar, shiorlar bilan, rasmlar va yuksalish yo'lini yorqin ko'rsatuvchi diagrammalar bilan yasatilgan edi* (Sh.R.). 3. *Hozir ko'klam kunlari: qirlar, tog'lar, soylar, ko'k, qizil, qora-sariq, zangori, pushti gullar va tag'in allaqancha rangli chechaklar bilan ustlarini bezab, qishi bilan tungib arang yetishgan oshiqqlarga yangi hayot, yangi umid beradilar* (A.Q.).

4. *Go'zal yaylovlarda, ko'm-ko'k tog'larda,*

Gul bilan qoplangan keng o'tloqlarda,

O'tlashar yilqilar, sigirlar, qo'ylar,

Yayrashib, sakrashib, ma'rashib o'ynar (G'.G'. , "Xat").

Yuqorida misol qilib olingan birinchi gapda uyushiq bo'laklar tizmasi ikkita: egalar tizmasi (*yomg'ir, shamol, sel*) va kesimlar tizmasi (*irg'itar, qo'porib otar, buzar, cho'ktirar edi*); ikkinchi gapda ham ikki guruh bo'lib, egalar (*ko'chalar, maydonlar, binolar, daraxtlar*) va to'ldiruvchilar (*plakatlar, shiorlar, rasmlar, diagrammalar*) uyushib kelgan; uchinchi gapda uchta guruh mavjud: uyushiq egalar (*qirlar, tog'lar, soylar*),

uyushiq aniqlovchilar (*ko'k, qizil, qora-oq, sariq, zangori, pushti gullar va chechaklar bilan*), uyushiq kesimlar (*hayot, umid beradilar*), to'rtinchi gapda to'rtta tizma bo'lib, egalar (*yilqilar, sigirlar, qo'ylar*), kesimlar (*o'tlashar, o'ynar*), ravish hollari (*yayrashib, sakrashib, ma'rashib*), o'rin hollari (*yaylovlarda, tog'larda, o'tloqlarda*) uyushib kelgandir.

Uyushiq bo'laklar odatda birday grammatik shaklga ega bo'lgan bir xil so'z turkumlari bilan ifodalansa-da, ular ba'zan turli shakldagi so'zlar va har xil so'z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Biroq bunda ham bo'laklar bir xil turkum tasavvurida bo'ladi: *Qiz bo'lganda ham qanday qiz deng? Chumoli bel, chilvir soch, gulchehra, g'uncha lab, kipriklarning soyasiga chodir tikib yashasa bo'ladigan, ko'zlari xuddi pista ko'mirning cho'g'iday, suv yutsa tamog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinadigan qiz* (H.G.). *Minbarga uzun bo'yli ozg'in, soqollarini toza qilib qirgan, tepa sochlari tushib ketgan mo'ysafid chiqdi* (R.F.). *Qulog'i chinoq, yuzi yapasqi, ko'zlari qisq, sochi dikkaygan, siyrak-sariq mo'ylovli bir tilmoch ulug'larning stoliga yaqinroq o'tirdi* (O.).

Egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalari bilan turlanib kelgan yoki ko'makchilar bilan shakllangan uyushiq bo'laklarda shu qo'shimcha va ko'makchilar, har bir uyushiq bo'lakda takrorlanmasdan, faqat eng keyingi uyushiq bo'lakdagina saqlanishi mumkin. Shu saqlangan qo'shimcha yoki ko'makchi hamma uyushiq bo'lak uchun umumiy bo'ladi. Misollar: *Uni yelkasiga olgan, holdan toygan, darmoni qurigan va qora terga botgan holda Qudrat o'rmon ichidan zo'rg'a borar edi* (I.R.). *Gulnor birdan o'zini tog'lar, suvlar orasida sezdi* (O.). *Atrofdagi yam-yashil paxta dalalari, kolxoz bog'lari va ekinzorlarida tinchlik hukm suradi* (I.R.). *U o'zining bugungi qiyofasi, keng peshonasi, o'ychan katta ko'zlari silliq qilib taralgan uzun qo'ng'ir soqoli bilan ulug' olimlarga, donolarga o'xshardi* (Asq.M.). *Oyqiz erining yuragi, vijdoni, fazilatlarini – butun ichki dunyosini chuqur bilar...* edi (Sh.R.). *Bufet, gilamlar, portretlar bilan bezatilgan keng va yorug' uy saranjomligi va ozodaligi bilan kishining havasini keltirar edi* (Sh.). *Odamlar g'o'za chekankasi, qishloq xo'jalik mashinalari, kolxoz hammomi, kanopning yangi nav urug'i va hokazo to'g'risida so'zlashar edilar* (O.).

Shu kabi bog'lamalari yoki ko'makchi fe'llari bir xil bo'lgan kesimlar uyushib kelganida ham, bog'lama yoki ko'makchi fe'l faqat eng so'nggi kesimdagina saqlanadi, hamma kesimlar uchun umumiy "yalpi" bo'ladi: *Osmon o'zining barcha hashamati bilan hanuz ajoyib ravishda porlab, jilvalanib, jonlanib turadi* (O.). *Besh tup katta jiya daraxti bu yerga har vaqt qalin soya tashlar, ishdan horib-tolib kelganlarga o'z salqini,*

*shabadasi bilan bir pastgina orom bag'ishlar **edi** (O.). Sidiqjon o'zidan-o'zi iljayar, bosh chayqar, peshonasiga urib kular, o'ylanib qolar va yana iljayar **edi** (A.Q.).*

Biroq ayrim hollarda bir xil qo'shimcha yoki ko'makchilar har bir uyushiq bo'lakda takrorlanib keladi. Bu quyidagichadir:

1. Tinglovchining diqqati har bir uyushiq bo'lakka alohida jalb qilinganida, qo'shimcha va ko'makchilar har bir uyushiq bo'lakda takrorlanib keladi: *Shu vaqtda Yo'lchining ko'kragiga qattiq va salmoqli musht tushdi. Yo'lchi ham qora Ahmadning basharasiga, qorniga to'qmoqday mushtumi bilan to'xtovsiz tushira boshladi (O.). U O'tanni, Qamchinni, G'ani otani suhbatga olib qoldi (H.G').*

2. Qo'shimcha va ko'makchilar ko'pincha yoyiq uyushiq bo'laklarning har birida saqlanadi: *Vatanimizning shonli poytaxti Toshkentda, respublikamizning shahar va tumanlarida Navro'z bayrami xalqimizning tantanasiga aylandi (radiodan). Rahimov to'pning alangasidan, otilish tovushidan va portlashning kuchidan dushman artilleriyasining qayerdaligini, joyini darrov bilib olar edi (K.Y.). Xolnazar uning kiyim-boshiga qarab o'tirmadi. U faqat do'ng peshonasini, yalpoq yuzini, ikki tomondan mo'ychinak bilan terilgan qizqish soqolini, sarg'ish mo'ylovini, ko'kimtir ko'zlarini, kiprik va qovoqlarini va boyning oldida ikki bukilib, ta'zim qilib turgan gavdasini ko'zdan kechirdi (I.R.).*

3. Takrorlanib qo'llanuvchi yuklamalar bilan ketgan uyushiq bo'laklarda qo'shimchalarning qo'llanilishi farqsiz emas: *Endi u usti boshiga ham, minib yurgan otiga ham, ichadigan ovqatiga ham qaramas edi (M.I.). Yoki Bugun mashg'ulotga Asqar, Botir, Akram boradi gapidagi uyushiq bo'laklar oldidan yoki ketidan ham yuklamasi takrorlansa, konkretlik, ta'kid ifodalanadi.*

4. Fikr aniq anglashilmagan hollarda qo'shimcha va ko'makchilar har bir uyushiq bo'lakda saqlanadi. Masalan, *Til haqida va adabiyot haqida ma'ruzalar o'qiladi gapi Til va adabiyot haqida ma'ruzalar o'qiladi shaklida bo'lsa, nisbatan, mazmunda umumiylik yuzaga keladi. So'zlovchi uchun voqelik gumon qilinganda, har bir uyushiq bo'lakda -mi yuklamasi qo'llaniladi: Tojixon g'azabdanmi, qo'rquvdanmi turgan yerida titrab ketdi (U.). Boshiga yung ro'mol o'ragan yumaloq kampir sovuqdanmi yoki ko'krak xastaligidanmi harsillab qoldi. Yormat qizni surgapmi, qo'ltiqlabmi olib chiqdi (O.).*

Ochiq va yopiq uyushiq bo'laklar

Uyushiq bo'laklar tizmasi "ochiq" va "yopiq" bo'ladi. Ochiq tizmada uyushiq bo'laklarning soni nisbatan cheklanmagan bo'lib, shu tizmani yangi uyushiq bo'laklar hisobiga kengaytirish imkoniyati katta bo'ladi. Masalan, *Uyda stol, stul bor; uyda stol, stul, siyohdon, qalam bor; Uyda stol, stul, siyohdon, qalam, qoqoz, daftar... bor* kabi. Yopiq uyushiq bo'laklar tizmasida bo'laklarning soni cheklangan bo'lib, bunday tizmalarga ortiqcha uyushiq bo'laklar kiritib bo'lmaydi. Masalan, *Xalqimizning kuch-qudrati, iftixori va boyligi yetarli* (Sh.R.)gapida uyushiq egani davom ettirish chegaralangan. Bu haqda **uyushiq bo'lakli gaplarda bog'lovchilar** bahsida ham to'xtalamiz.

Uyushiq bo'laklarning ifoda materiali

Gapning hamma bo'lagi uyushib keladi. Egalar uyushadi va kesim bilan munosabatga kirishadi: *O'zbek xalqi orasidan atoqli olimlar, yozuvchilar, shifokorlar, o'qituvchilar, muhandislar, agronomlar va xalq xo'jaligining boshqa mutaxasislari yetishib chiqdi* (gazeta). *Yog'lik yaxna, barra bodring, endi pishgan pomidor, piyoz, tuz, qalampir, murch, shu bilan ardoqlab saqlangan nok va anor ham mo'l-ko'l dasturxonning ziynati edi* (Sh.R.).

Kesimlar uyushadi va bir egaga yoki uyushiq egalar bilan munosabatga kirishadi: *Mustaqillik mamlakatimizning ilgari ezilgan millatlarni uyg'otdi, ularning madaniyatini o'stirdi, mamlakatimiz xalqlari o'rtasidagi do'stona, baynalmilal aloqalarni mustahkamladi, va ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi* ("Xalq so'zi"). *O'rmondan ... to'satdan otilib chiqqan shturmchi samolyotlarimiz qop-qora bahaybat "yukchilar" ustiga yopirildilar, ularni ...o'qqa tutdilar, ularning ustiga... snaryadlar tashladilar* (I.R.).

Sifatlovchi uyushiq aniqlovchilar predmetning o'ziga xos bo'lgan turli belgilarini ko'rsatadi. Bu holda har bir aniqlovchida ifoda qilingan belgi aniqlanmishda mavjud bo'ladi: *Qora yupkali, ixcham qomatli Fotima quvnoq turar edi* (P.T.). *Bu sahrodagi qalin, ko'm-ko'k maysa cho'zilib borib, to'satdan o'sha xarsang toshlarga taqaladi* (Asq.M.). *Xullas, tabiat go'zal, yoqimli, issiq, kunlardan xabar berar edi* (Asq. M.). *Kichik va oriqli, epchil va g'ayratli bog'bon...* Murodali qazib qo'ygan chuqurlarga ko'chat o'tqazardi (Sh.R.). *Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko'k, qizil, oq pushti, sariq, qora gullari yulduzlardek yashnab uyga bir hayotiylik berar edi.*

Qaratuvchi uyushiq aniqlovchilar belgili va belgisiz holda uyushadi: *Dang'illama klub va choyxona binolari shu kunlarda alohida bezatilgan* (R.F.). *Kampirning noroziligi Tohirning ham, Jamilning ham nazarlaridan yashirinib qola olmadi* (M.I.). *Men nemis, ukrain, rus, polyak tillarini bilaman* (Asq.M.).

Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilarni ko'rib o'tdik. Biroq bir aniqlanmishga qarashli birdan ortiq aniqlovchilar hamma vaqt uyushiq bo'lak bo'lavermaydi. Agar predmet turli tomondan aniqlansa, uyushmagan aniqlovchi tug'iladi. Bunda ikki va undan ortiq aniqlovchi predmetni turli tomondan aniqlaydi, uning rang, hajm, material kabi xossalarini ko'rsatadi: *Ikkala ekipaj ham qizil tunuka tomli kul rang bo'yoq bilan bo'yalgan yangi yog'och uyning zinapoyasi oldida kelib to'xtadi* (O.).

Uyushmagan aniqlovchilarning faqat aniqlanmishga bog'lanib kelgani shu aniqlanmishga tegishli bo'ladi. Aniqlanmishdan ikkinchi o'rinda turgan aniqlovchi esa bir aniqlovchi va aniqlanmishdan iborat birikmani, uchinchi o'rinda turgan aniqlovchi ikki aniqlovchi hamda aniqlanmishdan iborat birikmani aniqlaydi. Masalan, *Bir-biriga qars-qurs urilayotgan uzun-uzun oq qandillarning tovushi eshitilardi* (O.) gapida *oq* aniqlovchi bo'lib, uning aniqlanmishi – *qandillarning*, *uzun-uzun* – aniqlovchi, *qars-qurs urilayotgan* – aniqlovchi, aniqlanmishi – *uzun-uzun qandillarningdir*.

Yoki *O't ustiga o'rnatilgan uch oyoqli baland temir o'choqqa kattakon qora choydosh osig'lik ekan* (O.) gapidagi uyushmagan aniqlovchilar bitta to'ldiruvchi va bitta egaga quyidagicha uyushmay bog'langan: 1) o't ustiga o'rnatilgan o'choq, 2) uch oyoqli o'choq, 3) baland o'choq, 4) temir o'choq, 5) kattakon choydosh, qora choydosh kabi. Bitta aniqlanmishga bog'lanadigan birdan ortiq bunday aniqlovchilarni uyushiq ohangda aytish imkoniyati ham mavjud emas.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bir gapning o'zida birdan ortiq bo'lgan aniqlovchilar uyushmagan aniqlovchilar deb ham, uyushiq aniqlovchilar deb ham qaralishi mumkin. Bu so'zlovchi yoki yozuvchining maqsadi matn va ohangning talabi, so'zlovchining sub'yektiv maqsadi, asosida yuz beradi. Chog'ishtiring: 1. *Yo'g'on timqora* ikki o'rim sochi uning egnidagi oppoq shohi ko'ylak ostidan balqib turgan ko'krak orqali pastga tushib turardi (O.). 2. *Yo'g'on, timqora* ikki o'rim sochi uning egnidagi oppoq, shohi kuylak ostidan balqib turgan ko'krak orqali pastga tushib turardi. Birinchi gapdagi *yo'g'on, timqora* so'zlari o'zaro teng qo'yilib, sanash intonatsiyasi bilan aytilmasa, sochga nisbatan uyushiq hisoblanmaydi. Ikkinchi gapda shuning aksini ham ko'rish

mumkin. Ikkinchi gapda aniqlov-chiga alohida e'tibor beriladi. Predmetda bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa belgilardan xuddi shu belgi (**timqora, shohi**) ajratilib ko'rsatiladi. Diqqat shu belgilarga alohida ohang orqali jalb qilinadi.

Uyushgan vositali va vositasiz to'ldiruvchilar

Uyushiq to'ldiruvchilar vosita kelishiklari va ko'makchilari bilan keladi. Biroq bu vositalar ko'pincha so'nggi uyushiq bo'lakdagina saqlanib, oldingilarida "yashirinib" ham qoladi, Misollar: *Saodat yoshligidan o'z qishlog'ini, o'z opasi, jonajon singlisini sevadi: mevazor bog'ni, uning har bir tup olmasi, gilosi, gulini, ko'chalarini, quyosh, oy, yulduz va oqim suvlarini jo'shqin yuragidan yaxshi ko'radi* (I.R.). *Ta'tilga ketuvchilar uchun maxsus chaqirilgan kechada o'rtoqlar bilan, muallimlar bilan bizni tarbiya qilgan komandirlar bilan issiq-issiq quchoqlashdik, o'pishdik, xayrlashdik* (G'.G'). *Ikki yoshning hayotini baxt bilan to'ldirgan chin sevgi ularga kuch, ishonch va jasorat bag'ishlardi. Oradan ikki kun o'tmay, qurilish maydonchasini yog'och, taxta, shifer, g'isht, tosh bilan to'lg'azib yubordilar* (Sh.R.).

Ravish, o'rin, payt, sabab va maqsad hollari uyushib keladi: *Hali katta qo'ylar qatoriga kirmagan qo'zichoqlar erkalanib, yayrab, o'yna-shib yurardilar* (P.T.). *Nayning mayin ohangi qir, jilg'a va tog'-toshlarda uzoq-uzoqlarga yangrab tarqalmoqda* (I.R.). *Ona bechora... hech bir shikoyat qilmay, kun sayin, soat sayin so'lib borardi* (M.I.). *Shodlikdan, baxtdan... ko'zlari nurga to'lgan Sorabibi askar o'g'li boshidan hovuch-hovuch meva ham tanga sochiq sochib yubordi* (O.). *Biz qishloqlarga borib ishlash uchun, xalqimizni og'irini yengillatish uchun... qo'limizga qurol olib, xalqimizning baxt-saodatini himoya qilish uchun o'qidik* (P.T.). *...xona to'yga kelgan ayollar bilan liq to'lgan: ular ... yuzma-yuz, orqama-orqa, yonma-yon, tizzama-tizza bo'lib o'tirmoqda...* (S.Ahm.). *Ikki kun to'xtovsiz davom etgan kuchli bo'ron cho'llar va qishloqlarda, yo'llar va ekinzorlarda ko'ngilsiz iz qoldirib ketdi* (Sh.R.).

Harakatning chiqish o'rnini va oxirgi chegarasini ko'rsatuvchi hollar yondoshib kelganda (-dan, -ga, -gacha shaklida), uyushiq bo'lak bo'lmaydi. Biroq bunday birikishlar birdan ortiq bo'lsa, o'zaro uyushiq bo'laklar guruhini tashkil qiladi: *Butun respublikada ufqdan-ufqqacha, vodiyyan-vodiylargacha... bu muazzam "oq oltin" simfoniya bilan to'la edi* (Sh.R.).

10- mavzu: UYUSHIQ BO'LAKLARNI BIRIKTIRUVCHI VOSITALAR

reja:

1. Bog'lovchilar (biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor).
2. Teng bog'lovchi vazifasida qo'llanadigan yuklamalar.
3. Teng uyushiqli ohang.
4. Uyushiq va umumlashtiruvchi bo'laklarda bog'lovchi va
tinish belgilarining o'рни.
5. Xulosa.

Uyushiq bo'laklarda bog'lovchilar

Gapning uyushiq bo'laklari o'zaro intonatsiya va to'xtam (pauza) yordami bilan bog'langanidek, teng bog'lovchilar bilan ham birikadi. Teng bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni bog'lash bilan birga shu bo'laklar o'rtasidagi turli-tuman munosabatlarni ham ko'rsatadi va shunga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

1. Biriktiruvchilar: **va, ham, hamda, bilan** kabilar.
2. Zidlovchilar: **lekin, ammo, biroq, holbuki, balki** kabilar.
3. Ayiruvchilar: **yo, yoxud, ba'zan, yoki, goh-goh, dam-dam, hali-hali, bir-bir** kabilar.
4. Inkor bog'lovchilar: **na-na** kabi.

Teng bog'lovchilar bilan bog'langan uyushiq bo'laklar guruhi ham ochiq, ham yopiq bo'lishi mumkin. Bu esa quyidagichadir:

Takrorlanmagan birgina biriktiruvchi yoki birgina ayiruvchi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar yopiq guruhni tashkil qiladi: *Lola oshxonaga o'tdi, yuz-qo'lini yuvib qaytdi va kiyimlarini almashtirdi* (M.I.). *Bu odam ko'pincha darvoza oldida yuk mashinalarini qarshi olib yoki kuzatib turar edi* (Asq.M.).

Takrorlangan biriktiruvchi yoki ayiruvchilar orqali bog'langan uyushiq bo'laklar ochiq guruhini tashkil qiladi: *Oyqiz ishda ham, turmushda ham tartib bo'lishini yaxshi ko'radi* (Sh.R.). *Ular o'z boshlaridan kechirganlari haqida goh jiddiy, goh hazil bilan, dam jarang tovush qo'yib, dam birdan shivirlab so'zlashdilar* (O.). *Gulnorning oxirgi o'ylab ko'rgan chorasi – yo o'lim, yoki Yodgor bilan qochib ketish edi* (S.Ahm.). *...dehqonlar Botiralini goh Maydontolda, goh O'rtasaroyda, goh Qibrayda, goh esa Chinoz tomonda ko'rganlarini... hikoya qildilar* (H.G').

Biriktiruvchi bog'lovchilar

Biriktiruvchi bog'lovchilar o'zaro zid ma'no ifodalamaydigan uyushiq bo'laklarni bog'laydi va ikki uyushiq bo'lak o'rtasida yoki ikkitadan

ortiq uyushiq bo'laklarning eng keyingisi oldida keladi. Sanaluvchilarning mantiqan tugallanganligini anglatadi: *Beshta ketmon, bolta, katta bir qozon va yana allanimalar darvoza yoniga chiqarib qo'yildi* (R.F.).

va bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni juftlab ham bog'laydi: *Erk va muhabbat, Vatan va xalq, do'stlik va sadoqat, jang va mehnat, shodlik va baxt, jasorat va g'alaba, o'tmish va kelajak, yoshlik va bahor, tabiat va hayot – hammasi ham uning ijodida o'zining ifodasini topdi* (U.). *Abay, murdadek oqarib, g'azab va ozordan, achinish va qayg'udan qaltirab ketdi* (Asq. M.).

bilan (va ma'nosida) bog'lovchisi hamma vaqt ikki uyushiq bo'lak o'rtasida keladi: *Ularning bu harakatlarida yoshlik bilan shodlik qo'shilgan edi. Abdurasul bilan Xolmurod biroz kitob varaqladilar* (P.T.). *Ortiq bilan Oyshani olib ketayotgan to'riq ot tongning sof havosida otilgan o'q kabi ko'zdan qoyib bo'ldi* (P.T.).

va, bilan bog'lovchilari ba'zan qarama-qarshi tushuncha anglatuvchi bo'laklarni ham bog'lash uchun xizmat qiladi. Biroq bu odatdagi zidlashdan farqli: *Navoiyning o'tkir fikri chigallarni oson hal qilar, chin da'vo bilan tuhmatni, haqiqat bilan yolg'onni tez ayirar edi* (O.). *Dunyo ikki lagerga – hayot lageri va o'lim lageriga, baxt lageri va qayg'u lageriga, haqqoniyat lageri va aldamchilik lageriga, tinchlik lageri va urush lageriga aylanib ketdi* (O.).

Zidlovchilar

Zidlovchilar ikkita zid ma'noli uyushiq bo'lakni bog'laydi: *Butun kuchimni ikki ko'zimga yig'dimda, uning bevafo, biroq g'amgin, sho'x lekin ma'yus ko'zlariga tikildim* (G'.G'). *Eshikdan hassa tayangan oppoq soqolli, ammo ko'rinishi juda tetik bir chol kirib keldi* (R.F.). *Uning kattalashgan qora ko'zlari chiroqda allaqanday umidsiz, lekin ma'nodor yonadi. Uy kichkina, lekin yorug' va toza edi* (O.).

Biriktiruvchi va zidlovchilar vazifasida **-u, -yu, -da** yuklamalari ham keladi: *Munisxon pastga tushdi-da, Anvar bilan birga vagondan sal nariga borib to'xtadi. Anvar qamashgan ko'zlarini sal ochdi-yu, devor tomoniga o'girilib oldi. Qudrat eshikdan kirib keldi-da, sekingina Munisxonning yoniga bordi* (Z.F.). *Anorxon yugurib uyga kirib keldi-yu, nari-beri kiyindi* (O.). *Oyqiz darhol eshikni yopti-yu, xatni ko'kragiga bo-sib, uyga yugurdi. Oltinsoylik qizlar Oyqizni o'rab oldilar-u, turli tuman savollarga ko'mib tashladilar* (Sh.R.). *O'qishga o'qiyman-u, tushunmayman* (S.Ahm.). *Kallasi kattalikka katta-yu, mag'zi yo'q* (S.Ahm.).

Zidlovchilar hamma vaqt yakka holda qo'llanadi.

Ayiruvchilar

yo, yoki, yoxud bog'lovchilari har bir uyushiq bo'lak oldida takrorlanib qo'llaniladi. Uyushiq bo'laklardan biri orqali anglashilgan voqelik yuz bermasligini ifodalaydi: *Men kitobni sizga o'zim olib boraman yoki o'g'limdan yuboraman* (demak, kitobni o'zim olib borsam, o'g'limdan yuborishga ehtiyoj qolmaydi yoki aksincha). Ana shuning uchun bunday gaplarda **yo, yoki** bog'lovchilarining **va, ham** bog'lovchilari bilan almashtirilishi mumkin bo'lmaydi. Qiyoslang: *Men Karimni yoki Tursunni chaqiraman* (bir kishi chaqiriladi). *Men Karimni va Tursunni chaqiraman* (ikki kishi chaqiriladi). *Xurjunda yo qatlama, yoki yong'oq bo'lishi kerak* (S.Ahm.) (xurjunida biri bor) va b.

dam, goh, goho, ba'zan, bir, hali ayiruvchilari ham hamma vaqt uyushiq bo'laklar oldida takrorlanib keladi va uyushiq bo'laklarda ifodalangan hodisalarning galma-gal almashinib yuz berishini bildiradi: *Yosh tomoshabinlar Munisxonni goh quvontirar, goh hayajonga solar edi* (R.F.). *Quyosh dam bulut orasiga kirar, dam sekin yarqirab chaqnardi* (O.). *Hali shaharning boshiga chiqib ketib, hali bozor oralab, hali tanishlar uylariga borib, kunni kech qilardi*. (M.I.).

goh, ba'zan, goh-goh, goh-gohida shaklida yakka holda qo'llanilgan so'zlar ayiruv bog'lovchi emas, balki **onda-sonda** ravishining sinonimi sifatida payt holi bo'ladi: *Ammo uning qalbi goh-goh boshqa bir qiz yodi bila to'lib-toshar edi. Nurining qaynonasi goh-goh kelib, Gulnorga boqishar, va uni maqtar edi...* (O.). *Goh-gohida keladigan o'rmonchi va ovchilardan bo'lak odam bolasining bu yerlarga oyog'i tekkan emas* (P.T.). *Gahi topdim zamondin notavonlik, gahi ko'rdim zamondin kamronlik* (Navoiy).

Inkor bog'lovchilar

-na-na inkori uyushiq bo'laklar boshida takrorlangan holda qo'llaniladi va bo'laklar orqali ifodalangan voqea-hodisalarni bo'lishsizlikka aylantirib, uni ta'kidlaydi: U bir pastdan so'ng qattiq uyquga ketdi. Bu uyqu mayin va yumshoq: *Unda endi na rang, na shu'la, na tovush, na so'z bor...* (R.F.).

Bu yerda na qurbat, na ofat, na g'am.

Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat (G'.G').

-na-na bog'lovchisi uyushiq bo'laklarni guruhlab ham bog'laydi va bo'lakning hammasiga tegishli bo'ladi:

Anglakim, na dumlar, shoxlar, tumorlar,

Na chirkin daraxtlar, zaharli morlar,

Na jodu, na sehr, na-da xurofot,

Umumlashtiruvchi bo'lak

Uyushiq bo'laklarni bir nom yoki bir jins tushunchaga birlashtiruvchi so'z bilan ifodalangan bo'lak **umumiylashtiruvchi bo'lak**dir. Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi bo'lak bilan grammatik jihatdan, masalan, kelishikda moslashadi: *Endi **odamlar**: otlik, piyoda, yosh, qari uchray boshladi* (O.). *Xolmurodning **do'stlari** – Ergash, Jo'ra va Omonboy ham birin-ketin ta'tildan qaytishdi* (R.F.). *Qo'shinlar saf tortdilar. Turli millat **jangchilari**: ruslar va o'zbeklar, ukrainlar va gruzinlar, latishlar va tojiklar yonma-yon turibdi* (O.).

Umumlashtiruvchi bo'laklar odatda teng bog'lovchilar bilan birikishi mumkin bo'lgan uyushiq bo'laklarni, ba'zan ayiruv bog'lovchilari yordami bilan bog'langan uyushiq bo'laklarni umumlashtirib kelishi mumkin. Biroq qarama-qarshi munosabatdagi uyushiq bo'laklarda umum-lashtiruvchi so'z qo'llanmaydi.

Demak, umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklar bilan ifodalangan predmet, belgi va boshqalarning umumiy nomi bo'lib, shu umumiy nom bo'laklarni o'zida birlashtiradi. Bunda uyushiq bo'laklar tur tushuncha, umumlashtiruvchi bo'lak jins tushuncha ifodalaydi. Tur va jins tushunchalari faqat predmetlarga nisbatangina emas, predmetlarning harakati va boshqa belgilariga nisbatan ham qo'llaniladi. Demak, gapda ega va to'ldiruvchilargina emas, balki gapning har qanday bo'lagi (qanday morfologik vositalar bilan ifoda qilinishidan qat'i nazar) kesim ham, aniqlovchi va hollar ham umulashtirilishi mumkin. Uyushiq bo'laklar gapning qaysi bo'lagi bo'lsa, umumlashtiruvchi bo'lak ham shu gap bo'lagi hisoblanadi. Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi bo'lakdan anglashilgan jingsning turini ajratib ko'rsatadi. Bu holda umumlashtiruvchi bo'lak ko'pincha uyushiq bo'laklardan oldin keladi. Misollar: **Millionlab kishilar** – fransuzlar, chexlar, yugoslavlar, ruslar, ukrainlar, beloruslar o'zbeklar, ozarbayjonlar – Yevropani boshdan oyoq kezib chiqib, fashizmning asl basharasini ko'rishdi (Asq.M.). Oysulton yolg'iz emas. U **o'z hamrohlari**: olimlar, yozuvchilar, o'qituvchilar, san'at xodimlari bilan suhbatlashdi... (P.T.). Tog'da ham, pastda ham, qishloqda ham, dalada ham – **hamma joyda** fidokorona mehnat tantana qiladi (Sh.R.).

Umumlashtiruvchi bo'lak ko'pincha **hamma, hamma narsa** kabi belgilash olmoshlari, **hech kim, hech nima** singari bo'lishsizlik olmoshlari, **ham-ma vaqt, hech qachon, hamma joyda, hech qayerda**

kabi ravishlar bilan ifoda qilinadi. Bu xil umumlashtiruvchi soʻzlar uyushiq boʻlaklardan oldin ham, uyushiq boʻlaklardan keyin ham keladi va har ikki holda uyushiq boʻlaklarda ifodalangan faktlarni taʼkidlaydi, izohlaydi, kuchaytirib koʻrsatadi: *Ariqlarda qiy-chuv bilan choʻmilib, qizqin tuproqqa agʻanagan qora-qurq bolalar: oʻrikzorda oʻrik qoqqan qizlar, havoda zargʻaldoqning biyo-biyoviga va traktorning guldiragan ovozi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi, olislarda chaylalaridan, dala shiyponlaridan koʻtarilayotgan tutun kamalagi, bogʻlarda mevalarni qushlardan qoʻriqlovchilarning shovqini – **hamma narsa** unga tinch hayotni va erkin mehnat nashʼasini gavdalantirar edi. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham kushklar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafaslardagi qushlar – **hech nima** uni qiziqtirmadi (O.). Chin sevgi, boʻladigan toʻy, sadoqatli doʻstlar, fidokorona ishlar – bularning **hammasi** direktorning kasaliga malham boʻldi-yu, tezroq tuzalishiga imkon berdi (A.Q.).*

Bu kabi olmoshlar bilan ifodalangan umumlashtiruvchi boʻlaklar takrorlanib ham keladi va ifodani kuchaytiradi: *Oʻsha vaqtlarda ham qaynab chiqqan suvning jildirab oqishi, yaproqlarning shivirlashi, buloq ostidagi toshlarning qimirlashi – **hammasi-hammasi** dilga orom bagʻishlardi. Umrzoq otaning uzundan-uzun va oppoq soqoli, yoqasi ochiq oppoq yaktagi, doʻppisining oppoq jiyaklari, oftobda qoraygan keng koʻkragi – **hammasi-hammasi** changga botgan edi (Sh.R.). Baʼzan takrorlangan umumlashtiruvchi boʻlak bogʻlovchi, chunonchi, yuklamalar vositalar, bilan ham birikkan boʻladi: *Ishchilar, dehqonlar, talabalar – **hamma-hammasi** dalaga otlandi (R.F.).**

Baʼzan bir gapda uyushiq boʻlaklarga tegishli ikkita umumlashtiruvchi boʻlak boʻlishi mumkin. Bu holda umumlashtiruvchi boʻlaklardan biri jins anglatuvchi soʻzlardan boʻlib, uyushiq boʻlaklardan oldin; ikkinchisi esa belgilash yoki boʻlishsizlik olmoshlaridan boʻlib, uyushiq boʻlaklardan keyin keladi va taʼkidlash, maʼno kuchaytirish ahamiyatiga ega boʻladi: *Oʻzbek tilida boshqa **hamma** tillarning eng yaxshi xislatlari: tillarning hashamatligi, jonligi, mahkamligi, muloyimligi, tasavvurlardagi boyligi, ixchamligi – **hammasi** tarkib topgandir. Xoʻjaligimizdagi bu yilgi ishlar – gʻoʻza parvarishi, yangi yerlarni oʻzlashtirib, paxta ekish; uy-joy binolari, gidrostansiya qurilishi – bularning **hammasi** oʻtgan yillardagi ishlarga qaraganda, qariyb uch hissa ortiq mehnat talab qiladi (R.F.).*

Umumlashtiruvchi boʻlakdan keyin uyushiq boʻlaklardan oldin **chunonchi, masalan, jumladan, yaʼni** singari kirish aniqllov vositalari

ham kelishi mumkin: *Shu soatdan boshlab hamma, **jumladan** (masalan, chunonchi), rahbarlar, harbiy prokurorlar himoyaga otlandilar* (“Surxon tongi”).

Ba’zan umumlashtiruvchi bo’lakdan oldin **xullas, umuman, qisqasi, deyarli, bir so’z bilan aytganda** kabi kirishlar ham qo’llaniladi: *U o’zi shunday bir do’stki, undan hech qanday yashirin sir yo’q. Boshqalarga aytish mumkin bo’lmagan shodligingni ham, qayg’uni ham sevinchingni ham, dardingni ham – **xullas**, ko’nglingning eng chuqur joyida xazina qilib saqlangan eng qimmatli va eng oliyjanob sirlaringni ham unga aytasan* (R.F.). *Qirg’izning ham, o’risning ham – **xullas**, har bir elning negizi bor. U o’sha qorovultepaga ham chiqdi... Ro’parasidagi baland Tiyonshonga, o’rtadagi zilol ko’lga, yam-yashil ko’katzorga, mashina o’tib turadigan bepoyon yo’lga – **xullas**, butun narsaga ko’z yugurtirdi* (Asq.M.). *Issiq va sovuqda ham, qurg’oqchilik va yog’ingarchilikda ham – **deyarli**, hamma vaqt ochiq havoda uxlardik* (Asq.M.).

Umumlashtiruvchi bo’lak aniqllovchi, hol yoki kesim vazifasida kelganda, uyushiq bo’laklar ularni ham konkretlashtirishi mumkin: *G’arbdan tarqala boshlagan bulutlar **rango-rang**: oq yashil, sarg’ich, qo’ngir, moviy, qora, qizil tusga kirib tovlanadi* (O.). *Tog’da ham pastda ham, qishloqda ham dalada ham – **hamma erda** fidokorona mehnat tantana qiladi* (Sh.R.). *Men **qarab turmadim**: poda boqdim, o’roqchilik qildim, otboqar bo’ldim* (O.).

Misollarning 1-chisida uyushiq bo’laklar kesim vazifasida kelgan umumlashtiruvchi bo’lak (**rango-rang**)ni, 2-sida uyushiq o’rin hollari – o’rin holi vazifasida kelgan umumlashtiruvchi bo’lak (**hamma yerda**)ni, 3-sida uyushiq kesimlar kesim vazifasida kelgan umumlashtiruvchi bo’lak (**qarab turmadim**)ni konkretlashtirgan.

Umumlashtiruvchi bo’lak birinchi o’rinda kelganda, undan keyin ikki nuqta (:) qo’yiladi: *Bog’imizda **hamma meva**: olma, anor, shaftoli pishib yetildi*. Umumlashuvchilar umumlashtiruvchidan oldin kelganda, undan keyin tire (–) qo’yiladi: *Bog’imizda olma, anor, shaftoli – **hammasi** pishib yetildi*.

Yana bir xulosa shuki, uyushiq bo’lakli gaplarda sanaluvchilarning o’z hokim bo’ladi. Bunda uyushiq bo’lakka nisbatan uyushuvchilar, hokim bo’lakka nisbatan uyushtiruvchi; umumlashtiruvchi bo’lakli gaplarda esa tur bo’laklarga nisbatan sanaluvchi, jins anglatuvchi bo’lakka nisbatan umumlashtiruvchi terminlarini zidlab qo’llash mumkin.

11- mavzu: AJRATILGAN BO'LAKLAR

reja:

1. Ajratilgan bo'lak ta'rifi va tavsifi.
2. Ajratilgan bosh bo'laklar: ega, kesim.
3. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.
4. Gap bo'laklarining tartibi.
5. Xulosa.

Ajratilgan bo'laklar: Odatda har xil maqsadlar bilan gapning biror bo'lagiga boshqalariga nisbatan alohida e'tibor beriladi. Bu bo'lak maxsus ohang bilan ta'kidlanib, mazmun va grammatik jihatdan nisbiy mustaqil holatga keltiriladi – ajratiladi. Masalan, *Qishlog'imga bir yigit bor, mardona* (qo'shiq). *Ular – vatan o'g'lonlari, mudofaaga hamisha tayyordir* ("Xalq so'zi"). Bu gaplardagi bo'laklarning ajratilishida ikki holat bor: 1- gapda ajratilgan aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keltirilgan; tartib o'zgarishi – inversiya yuz bergan. 2- gapdagi bo'lak (**vatan o'g'lonlari**) ohang bilan ajratilgan. Ajratilgan bo'laklarga so'zlovchining diqqati kuchaytirilgan, ta'kid, logik urg'u bilan aytilib, pauza (to'xtam) orasiga olingan. Natijada bu ajratilgan bo'laklar nisbiy hukm yoki predikativlikning ayrim belgilarini ifodalashga moyil bo'lgan.

Demak, gapda biror bo'lak ajratilar ekan, u gapning fikriy va grammatik tomoniga ham ta'sir qiladi. Masalan, *Sardor – ukam, injener bo'ldi* gapida **ukam** so'zining ajralishi natijasida aniqlovchi bo'lak, **Sardor** – ega vazifasini bajargan. Gap bo'laklarini ajratishning bu usuli (ohang orqali) **intonatsion**, tartib o'zgartirish orqali ajratish (*Qishlog'imga bir yigit bor, mardona* tarzida) **pozitsion usul** deb ataladi.

Gapda bosh bo'laklar: ega, kesim ajratiladi. Ajratilgan bosh bo'laklar quyidagi xususiyatlarga ega:

Ajratilgan bosh bo'laklar o'z aslidan – izohlanmishdan keyin kelib, uning ma'nosini konkretlashtiradi, izohlaydi, ta'kidlaydi, taraqqiy ettiradi.

Bosh bo'laklarning ajratilishi, xususan, bosh bo'laklar ma'nosi umumiy, mavhum so'zlar (masalan, olmosh kabi) bilan ifodalanganda, zarur bo'lib qoladi: *Ko'l bilan qishloq o'rtasida ko'zni qamashtiradigan bepoyon yashil maydon – bug'doy dalasi – cho'zilib ketgan* (O.). *Avval banoras paranji yopingan qaynona – Mirzakarimboyning xotini – harsillab aravaga chiqdi* (O.). *Tushgacha hech kim, hatto Ro'zimat ham bir og'iz gapirmadi* (O.) (egalar ajratilgan). *Men qishloqda bekor turmadim: mol boqdim, kanal qazdim, paxta sug'ordim* (O.). *Rayonim –*

Nurota – tog'lar orasi, Otim Ergash – Jumanbulbul bolasi (E.J.) (kesimlar ajratilgan).

Ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollar ajratiladi.

Ajratilgan aniqlovchilar. Ajratilgan aniqlovchilar ikki xil bo'ladi: a) ajratilgan sifatlovchi; b) ajratilgan qaratuvchi.

Ajratilgan sifatlovchilar sifatlanmishidan keyin keladi. Bunda ham tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Masalan, *Qurilishga kelgan odamlar: serzarda, dordan qochgan, tez orada kelgan tomonlariga qarab juftak rostladilar* (Asq.M.).

Ajratilgan qaratuvchilar ham o'zidan oldin qo'llanadigan aniqlovchi-ning ma'nosini konkretlashtirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: *Yo'lchida o'z kuchiga ishongan, qadr-qimmatini baland tutgan kamba-g'al yigitning – odamlarning g'ururi kuchli edi* (O.). *Avvalo, tarbiyada oila sardorining – otaning roli beqiyos* ("Saodat").

Ba'zan predmetni (ajralishini) turli tomondan xarakterlash uchun birdan ortiq ajratilgan aniqlovchilar qo'llaniladi: *Keyin u yagona o'g'li – ishongan bog'i, suyangan tog'i – Razzoqning ayriliq dardini tortdi* (H.G').

Ajratilgan to'ldiruvchilar. Ajratilgan to'ldiruvchilar o'zidan oldin kelgan olmosh, ot kabi so'z turkumlari bilan ifodalangan bo'laklarning ma'nosini konkretlashtirish uchun qo'llanadi: *Badiiy asarni yaxshi tushunish uchun uning qurilishini, ya'ni asarni tashkil qiluvchi asosiy elementlarni, yaxshi bilish talab etiladi* ("Guliston"). *Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, qumsayman birovni – allakimimni...* (G'.G'). *Kurash yo'lini qidirgan bu aqlli yigitni – Yo'lchini, xalq himoya qiladi* (O.).

Ajratilgan hollar. Ajratilgan hollar o'zidan oldin kelgan hollarning ma'nosini izohlaydi. Bu vazifada ko'proq o'rin holi, payt holi, ravish oboroti bilan ifodalangan ravish holi qo'llanadi va paytni, o'rinni, harakatning belgisini chegaralab ko'rsatadi: *Qo'rg'ondan, ichkari hovlidan, Mirzakarimboy chiqib keldi* (O.). *Ular Hisor tog'i dalalarida, Darai nihonda, uchrashgan* (S.Ahm.). *Ertaga, kech soat sakkizda, "Qizlar" davrasi bo'ladi* (e'lon). *Nigor oyim, xumor ko'zlarini yoshlab, Sunbul sochlarini orqasiga tashlab, qirq kanizini boshlab, bir so'z deb turibdi* ("Nigor va zamon"dan). *Akang ketgan deydi yanga. Bobo toqqa – qo'yiga* (Sh. Rahmatulla).

Gap bo'laklarining tartibi

O'zbek tilida so'z tartibi, asosan, erkin, ya'ni gap bo'laklarining tartibi o'zgarganda ham, ko'pincha mazmun va grammatik holat o'zgar-maydi. Biroq so'zlovchining maqsadi bilan bog'liq bo'lgan uslubiy farqlar sodir

bo'ladi. Masalan, *Asrorbekni men bilaman* gapida bo'laklarning odatdagi tartibi inversiyaga uchragan – egaga alohida e'tibor berilib kesimdan oldin keltirilgan. Yoki *Sidiqjon tongda Bahrabodga jo'nadi* (A.Q.) gapidagi bo'laklarning tartibini o'zgartirib ko'raylik: *Sidiqjon Bahrabodga tongda jo'nadi*. – *Tongda Bahrabodga Sidiqjon jo'nadi*. – *Jo'nadi Sidiqjon tongda Bahrabodga* kabi.

Anglashiladiki, gap bo'laklari maxsus grammatik vositalar – morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllanganda, ularning o'rnini almashtirilsa ham, gapda fikrni holat o'zgartirmaydi. Tartib faqat **uslubiy rol** o'ynaydi. Biroq bo'laklar morfologik ko'rsatkichlarsiz (egalik, kelishik, kesimlik, ko'makchi kabilarsiz) shakllanganda, tartib (ohang bilan birga), fikriy o'zgarishga, yangi sintaktik qurilmaning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Masalan, *Yigit izladi qiz* (misol A.G'.G'ulomovdan) gapini *Qiz izladi yigit* tartibida o'zgartirsak, yigit qizni emas, qiz yigitni izlaganligi anglashiladi. Yoki *Uzoqdan katta bino ko'rindi* (O.) gapini *Uzoqdan bino katta ko'rindi* tartibida o'zgartirilsa, binoning katta emasligi, uzoqdan shunday ko'ringanligi anglashiladi.

Qaratuvchili birikmalar (morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllanganligidan) o'rin almashganda, fikriy o'zgarish bo'lmaydi-yu (*mening dostonim* – *dostonim mening* kabi), biroq sifatlovchili birikmalar tartibi o'zgarisa, yangi sintaktik qurilma yuzaga keladi: *sho'x bola* – *bola sho'x*, *bepoyon dala* – *dala bepoyon* kabi.

Odatda bo'laklarning tartibi tinch ohang bilan aytiladigan darak gaplar qurilishiga tayanadi. Gap bo'laklarining umumiy tipik tartibi quyidagicha: payt holi+ega+to'ldiruvchi+hol+kesim: *Bu yil xalqimiz 2011 yilni baland ruh bilan qarshi oldilar*.

Yoki ega tarkibi (ko'pincha qaratuvchi aniqlovchi+sifatlovchi aniqlovchi) birinchi o'rinda, kesim tarkibi (to'ldiruvchi+hol+kesim) ikkinchi o'rinda keladi: *Bahorning ilk shabadasi tol navdalarini sekin qo'zg'atar edi* (O.).

12- mavzu: BIR TARKIBLI GAPLAR

reja:

1. Bir tarkibli gap ta'rifi va tavsifi.
2. Shaxsi ma'lum bir tarkibli gap.
3. Shaxsi noma'lum bir tarkibli gap.
4. Shaxsi umumlashgan bir tarkibli gap.
5. Atov (nominativ) gap.
6. Shaxssiz (shaxsi topilmas) bir tarkibli gap.
7. Infinitiv gap.

8. So'z-gap.

9. Vokativ gap.

10. Xulosa.

Ham ega, ham kesim tarkibining qo'shilishidan iborat bo'lgan gap **ikki tarkibli gap** deyiladi. Ikki tarkibli gap bosh bo'laklarning o'zidan, shuningdek, bularning ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayishidan tashkil topadi: *Havo ochildi. Qop-qora yugurdak bulutlar bilan qoplanib yotgan osmon bir pasda moviy tusga kirdi* (O.).

Demak, ikki tarkibli gap bosh bo'laklarga asoslanib o'rganiladi. Bunda gap, albatta ikkita logik elementga: ega yoki ega tarkibiga, kesim yoki kesim tarkibiga ajratiladi. Gapni tarkiblarga ajratish logik-psixologik tushuncha bo'lib, bu hukmni sub'yekt va predikatga ajratish kabidir. Chunki unda gapning ikkinchi darajali bo'lagi alohida yoki tarkib sifatida qaralmaydi, balki tarkib deganda, bir butun tasavvurning ikkita yaxlit qismi nazarda tutiladi va shu qismlarning hukmning yuzaga kelishidagi uyushtiruvchilik konstruktiv xususiyatlari ularning ma'no ifodalashdagi vazifalari o'rganiladi.

Anglashiladiki, ikki tarkibli gaplarda tarkiblar (ega tarkibi, kesim tarkibi) bir-biriga nisbat berilib o'rganiladi. Birgina tarkibning o'zi bilan ifodalangan gap **bir tarkibli gap** deyiladi. Bir tarkibli gap termini ostida yuzaki qaraganda, ega yoki kesim tarkibidan biri tushuniladi. Biroq bir tarkibli gap tushunchasi tarkiblardan biriga – ega yoki kesim tarkibiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham bir tarkibli gap tarkiblarga nisbat berilib o'rganilmaydi. Bir tarkibli gapning tabiati bunga yo'l qo'ymaydi. Masalan, shaxsi noma'lum, shaxsi ma'lum, shaxsi umumlashgan, shaxssiz gaplarning kesimlari shakl jihatdan kesim tarkibidan iborat. Bunday gaplarda haqiqatan ham ega mavjud (*Bugun kinoga borildi*: hol+hol+kesim). Biroq bu shu gaplarni gapning kesim tarkibi deyishga imkon bermaydi. Chunki kesim tarkibi deyilganda logik jihatdan ega tarkibining borligi tasdiqlangan bo'ladi – ega tarkibini ko'rsatish talab etiladi (ikki tarkibli gapda bu ko'rsatiladi). Holbuki, *Bugun sayohatga boriladi* tipidagi bir tarkibli gaplarda ega yoki ega tarkibini ajratib bo'lmaydi, bu talab ham qilinmaydi. Demak, bir tarkibli gaplar tarkibi tushib qolgan, ya'ni ikki tarkibli gapning ega yoki kesim tarkibidan iborat emas. Ular ikki tarkibli gapning bir qismi (tarkibi) tushirilgan, to'liqsiz holati ham emas. Bu holat bir tarkibli gap hisoblangan nominativ gaplarda yanada aniq seziladi. Nominativ gaplar hattoki shaklan ham na ega, na kesim tarkibini ko'rsatmasligi, uni ega yoki kesim tarkibi sifatida qarab bo'lmasligi kabilar bilan xarakterlanadi. Nominativ gaplarda bir yoki birdan ortiq so'z bilan

fikr ifodalangan bo'ladi. Biroq bu so'zni na ega, na kesim sifatida qarab bo'lmaydi. Masalan, *Shamol!* nominativ gapida shamolning mavjudligi tasdiqlanadi, xolos.

Nominativ, jumladan, *Shamol!* tipidagi gapni ega yoki kesim tarkibi tarzida tasavvur qilish, undan tarkib qidirish – uni bir tarkibli gap, masalan, so'z-gap yoki atov gap holatidan chiqarib yuborgan bo'ladi. Holbuki, bir tarkibli gaplar birgina tarkib bilan yetarli fikr ifodalashga moslangan bo'lib, ular odatdagi gaplar bir xil qimmatga egadir.

Shunday qilib, hozirgi zamon o'zbek tilida bir tarkibli gaplarning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin: 1. Shaxsi ma'lum gap. 2. Shaxsi noma'lum gap. 3. Shaxsi umumlashgan gap, 4. Shaxssiz gap. 5. Nominativ gap. 6. Infinitiv gap. 7. So'z-gap. 8. Vokativ gap va b.

Shaxsi ma'lum gaplar. Kesimi orqali egasi, uning shaxs-soni angla-shilib turadigan gaplar **shaxsi ma'lum** bir tarkibli gaplardir. Masalan,

–*Uylanganmisiz?*

–*Yo'q.*

–*Juda yaxshi, bo'lmasam, meni olmaysizmi?*

To'satdan bo'lgan bu nogohon taklifdan juda shoshib qoldim (G'.G'). Bu gaplarning egasi (siz, men) matn va kesim shakli orqali anglashilib turibdi.

Kesimi birinchi va ikkinchi shaxs buyruq fe'lining birlik yoki ko'plik shakli bilan ifodalangan bir tarkibli buyruq gaplar ham shaxsi ma'lum gap hisoblanadi: *(Po'lat) Opajon, mashinada olib borib qo'yaymi? – (Surmaxon) Kerak emas, mashinangni pishirib ye (Sh.R.).*

Kesimlari birinchi, ikkinchi shaxs buyruq fe'li bilan ifodalangan gaplar o'z ahamiyatlariga ko'ra egalari **men, sen, biz** olmoshlari bilan ifodalangan ikki tarkibli gaplarga tengdir. Bunday gaplarda eganing bo'lmasligi tabiiy holatdir. Ya'ni eganing ifodalanishi tabiiy holatdan chekinishdir. Bunda eganing ifodalanmasligi uslubiy qimmatga ega bo'lib, nutq sur'atini tezlashtiradi, ifodaning ta'sirini kuchaytiradi. Ixchamlilik uchun xizmat qiladi. Biroq urg'u berilib, alohida ta'kidlab ko'rsatilganda, ega qo'llaniladi. Chog'ishtiring: **Men** keldim (ya'ni boshqa kishi emas), **siz** keling (ya'ni boshqa kishi kelmasin). **Siz** oling (boshqa kishi olmasin) kabi.

Ega qo'llanganda, qurilma ikki tarkibli gap bo'lib keladi. Bunday gaplarda ko'p vaqt undalma ham bo'ladi: *Qizim, jonim qizim, – yig'i aralash gapirdi chol, – san ko'p o'rtanma. San so'zlaysan, san aqlli qizsan, hammasini tushunasan. –Yur, o'sha erga chiqamiz. Ular ayvonda bo'lsa, biz uy ichida o'tiramiz, –Menga qolsa, maslahat shu: mana yaqin o'rtada bahor, siz qirga chiqing ko'kragingizga toza shamol tegadi (O.).*

Shuni ham qayd qilish kerakki, shaxsi aniq bir sostavli gap termini bilan o'rganiladigan gapni bir tarkibli gap sirasiga kiritishimiz shartlidir.

Shaxsi noma'lum gaplar. Gapning bu turida ega bo'lmaydi, kesimning shaklidan uni tiklab bo'lmaydi. Bu turdagi gapning kesimi noaniq shaxs – kimlardir tomo-nidan bajarilgan harakatni ifodalaydi: *Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbulimdan ayirdilar* (H.H.). *To'rt yuz tuman pul, qirqta to'n, yigirmata qo'yga go'zal qiz – Oyinani sotadigan bo'ldilar* (Sh.R.).

Shaxsi noma'lum gaplarda egani ko'rsatishga ehtiyoj bo'lmaydi, chunki so'zlovchi tinglovchining diqqatini egaga emas, kim tomondan bajarilishidan qat'i nazar, harakatga jalb etadi.

Shaxsi noma'lum gaplarning kesimi odatda uchinchi shaxs aniqlik maylining ko'plik yoki birgalik shakli bilan ifodalanadi. Masalan, *Mana buni qahramonlik deydilar. Muhabbatda vafoli bo'l, bevafoni kechirmaslar* (qo'shiq). *Uni firibgar deyishadi* gaplarida ega uchala shaxsning birontasiga ham nisbat berilmaydi.

Shaxsi umumlashgan gap. Harakatning bajarilishi har uchala shaxsga taalluqli bo'lgan gap **shaxsi umumlashgan** gapdir.

Shaxsi umumlashgan gaplarning kesimi odatda ko'proq ikkinchi shaxs buyruq fe'li bilan ifodalanadi. Biroq, bu fe'l shakli bilan ifodalangan shaxslar aniq shaxslar bo'lmay, umum shaxslardir: *Non yemoqchi bo'lsang, o'tin tashishdan erinma* (maqol). *Kiyimni tozalikda, obro'ni yoshlikda saqla* (maqol). *Bugungi ishni ertaga qo'yma* (maqol).

Ba'zan shaxsi umumlashgan gapning kesimi ikkinchi shaxs hozirgi-kelasi zamon fe'lining birlik va ko'plik shaklida keladi: *Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan* (maqol). *Yig'lab-yig'lab marza ochsang, kulib-kulib sug'orasan* (maqol). *El-yurtni desangiz, el-yurtdan ko'rasiz* (maqol) kabi.

Shaxsi umumlashgan gaplarda ba'zan **sen, biz** olmoshlari bilan ifodalangan egalar ham bo'lishi mumkin. Biroq bu egalar ham mazmunan konkret shaxsni emas, balki umuman har qanday shaxsni anglatadi: *Seni ish yengmasin, sen ishni yeng* (maqol).

Shaxsi umumlashgan gaplar hikmatli so'zlar va xalq maqollaridan iborat bo'ladi yoki odat bo'lib qolgan va takrorlanib turadigan ish harakatni ifodalaydi. Shuning uchun bunday gaplarda konkret shaxs ko'zda tutilmaydi, balki ish-harakat hamma uchun qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi: *Yer haydasang, kuz hayda – kuz haydamasang yuz hayda* (maqol). *Uzun aytma, qisqa ayt, ko'p ma'no ber* (maqol).

Bu kabi shaxsi umumlashgan gaplar, agar shakli umumlashganlik ko'zda tutilmasa, shaxsi aniq gaplarga sinonim bo'lib qoladi.

Ayrim hollarda shaxsi umumlashgan gaplar kesimi hozirgi-kelasi zamon fe'lining ikkinchi, ba'zan uchinchi shaxs shakli bilan ifodalanib, undan keyin kishi, odam so'zlari bilan shakllanadi. Bu ko'proq so'zlashuv nutqiga xos: *Kundalik o'zgarishlarni kuzatib hayron qolasan, kishi. Qaytanga fidoyi shaxslarni ko'rib quvonasan, kishi. Mustaqillik bergan ne'matlardan quvonadi, odam.*

Kishi, odam so'zlari gap boshida qo'llanganda, shaklan ikki tarkibli gapga yaqinlashadi, biroq mantiqan shaxsi umumlashgan gapligini saqlab qolaveradi: **Odam** (*kishi, inson*) *mustaqillik bergan ne'matdan quvonadi* kabi.

Egasi **hamma, barcha, bari** olmoshlari bilan ifodalangan gaplar grammatik jihatdan ikki tarkibli, mantiqan shaxsi umumlashgan gaplardir. Masalan, **Hamma** *terimda qatnashdi* gapining mazmuni har uchala shaxsga aloqador.

Shaxssiz gap. Egasini topib bo'lmaydigan, kesimi shaxs ko'rsatmaydigan gap **shaxssiz gap** deyiladi.

Shaxssiz gapning kesimiga **kim? nima?** so'roqlarini berish mumkin bo'lmaydi. Chunki, bunday gaplar shaxsi ko'rsatilmagan ish jarayonlarini ifodalaydi: *Izvoshga eshak qo'shib bo'lmaydi* (A.Q.). *Xurlik uchun yig'lash emas, uning odamzod boshiga yana qaytmasligi uchun kurashish kerak* (P.T.).

Shaxssiz gaplarning kesimlari quyidagicha ifodalanadi:

1. **To'g'ri** so'zi **kel** fe'lining turli shakli bilan birikib, shaxssiz gapning kesimi vazifasida keladi: *Ko'p qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. Buning uchun Toshkentga o'z vakillarimizni yuborib, korxonaga zarur yordamni so'rashimizga to'g'ri keladi* (R.F.). *Qattiqroq yo'rtib kelgan otni sekinroq haydashga to'g'ri keladi* (S.Ahm.).

2. **Bo'ldi, to'ldi, o'tdi, oshdi** fe'llaridan bosh kelishikdagi **kun, oy, yil** singari vaqt nomlaridan, son yoki **ko'p, ancha** singari ravishlardan tarkib topgan birikmalar shaxsi topilmas gapning kesimi bo'ladi: *Bu beshala yigitning kelganiga bugun to'rt kun bo'ldi. – Obbo Alixon-ey,– ash-pash demay ko'rishmaganimizga sakkiz yil bo'libdi-ya. Chigit ekib tamomlaganiga besh kun bo'ldi* (R.F.). *Otasi o'lganiga o'n besh yil bo'lib qoldi...* (A.Q.).

3. Harakat nomi hamda **kerak, lozim, zarur, mumkin** kabi predikativ-modal so'zlardan iborat birimlar shaxsi topilmas gapning kesimi vazifasida kelib, harakatning bajarilishidagi zaruriylik, imkoniyat mumkinlik kabi modal ma'nolarni ifodalaydi: *Bu ishga ertaroq kirishish kerak,– dedi rais* (R.F.). *Shu yerda tufli tuzatish, soat tuzatish ham*

mumkin ekan. Uning yonidagi kioskadan shohi ro'mollar ham olish mumkin (Sh.R.). Biz yetolmagan umidlarga kelajak nasllarning yetmog'i **mumkin.** Qachonlardir adolat oftobi barq urib chiqmog'i **kerak.** Dunyoda baxt va haqqoniyat tantana qurmog'i **lozim.** Odamlar orasida nizo yo'qolmog'i **darkor** (Uyg'un, I. Sulton, «Navoiy», 170-bet).

4. **-b, -ib** qo'shimchali ravishdosh bilan **bo'l** fe'lining bo'lishli yoki bo'lishsiz shakli – ikkalasi birlikda shaxsi topilmas gapning kesimi bo'ladi: *Bu xatning mazmunini... birovga aytib bo'lmaydi* (A.Q.). *Bunaqangi qishloqni Farg'ona vodiysida ham topib bo'lmaydi* (R.F.). *Falakka qo'l uzatib, shamsu anvarni olib bo'lmas* (Mashrab).

5. **Desa bo'ladi, deyish mumkin** birikmalari o'zlaridan oldin kelgan ot bilan birlikda shaxsi topilmas gapning kesimi bo'ladi: *Mana bu yigitni teatrga olsa bo'ladi.*

6. Shaxssiz gapning kesimi ko'pincha o'timsiz fe'lining majhul darajasi bilan ifodalanadi: *Bugun to'g'on boshiga boriladi* (Sh.R.).

Atov (nominativ) gap. Narsa va predmetlarning hozirgi zamonda mavjudligini va shu mavjudlikni predikativ yo'l bilan – tasdiqlash yo'li bilan ifodalaydigan gap **atov gap** deyiladi. Atov gaplar narsa predmet yoki voqeani faqatgina atab qo'ymaydi. Shunday bo'lganda, odatdagi otlarning hammasi ham atov gap hisoblangan bo'lar edi. Atov gap predmetning mavjudligini maxsus ohang bilan tasdiqlaydi. Natijada bir so'z (birdan ortiq ham bo'ladi) vaziyatga qarab butun boshli bir gap hukmida bo'ladi. So'zlovchi yoki tinglovchi mustaqil bir fikr anglaydi: **Bahor.** *Dalalar qish libosini tashlab, ko'klam sarposini kiygan* (R.F.). **O'rmon. Qor. Uzoqda shovqin.** *O'q ovozlari eshitiladi* (U.). **Tun.** o'n uch yashar dastyor qiz bola yotgan beshikni tebratardi (I.R.).

Atov gaplar yig'iq, ya'ni birgina so'zdan iborat bo'lganidek, yoyiq bo'lishi, ya'ni birdan ortiq so'z bilan kengaygan holda kelishi ham mumkin: **Oysiz, yulduzsiz, bulutli qorong'i kecha.** *Ko'z-ko'zni ko'rmaydi* (S.Ahm.). **Havo to'la yulduz.** *Oy charaqlab turibdi* (R.F.). *Hamma narsa horg'in, mudrashga boshlangan kabi... Allaqanday poyonsiz g'arib oqshom* (O.). **Sukunatga ketgan cho'lning orombaxsh oqshomi...** *traktor va ekskavatorlarning ovozi ham oqshom paytida kuchliroq eshitiladi* (Sh.R.).

Atov gaplar narsa, predmet va hodisalarni atash bilan birga ularning hozirgi zamonda (nutq so'zlanayotgan paytda) yoki doimiy mavjud ekanligini, yuzada borligini tasdiqlaydi. Atov gaplar yakka holda kelganlari kabi, birin-ketin tizma holda ham kelishlari mumkin. Tizma atov

gaplar bir paytda mavjud bo'lgan yoki tez-tez almashinib turadigan voqealarni, hodisalarni ifodalaydi:

Bolalar ko'p, ko'kdan yog'ilgandek,

Shovqin, chapak, qiyqiriq, hushtak... (M.Yusuf.).

Kecha. Sahro. Uyqu va shovqin

Kecha cho'kkan uzoq ufqqa... (H.O.).

Yoyiq va yig'iq atov gaplar tizma holda ham, aralash holda kelishlari mumkin: *...eski shahar ko'chalarida bozor qaytgan payt – birov mol yetaklagan, birov yangi, serbezak beshik ko'targan, og'ir xurjunini oldiga tashlab eshak ustida munkayib ketayotgan chollar, qamish surnayini tinmay chalib oyoq ostida o'ralashgan bolalar, qalandarlar, sallaliklar, ayronchilar...* (Asq.M.).

Ifoda maqsadiga va emotsional qimmatiga ko'ra atov gaplar quyidagicha bo'ladi:

1. Tasviriy xarakterdagi, ya'ni tabiat manzaralarini aks ettiruvchi atov gaplar: ***Keng sahro. Quruq cho'l...*** *Suv manbalaridan darak yo'q* (S.Ahm.). *Yana ko'kish bo'lganda ham qanday deng! O'ti belga uradigan o'tloqlar, atrofi qulf urib, gullab turgan o'lanliq ko'llar, to'lib toshib oqadigan suvlar, suvi ko'm-ko'k buloqlar...* (Asq. M.).

2. Payt anglatuvchi atov gaplar: ***Shom payti. Qorong'i quyuqlashib bormoqda*** (Asq.M.). ***Tong chog'i, havo ochiq, oftob hali chiqmagan...*** ***Yoz kunlari, oftob bosh ustidan o'tadigan chog'lar...*** ***Tog' havosi. Bahor kunlaridagi kabi salqin va yoqimli*** (S.Ahm.). ***Sutdek oydin kecha. Hali tong otishidan darak yo'q*** (Asq. M.).

3. Atrofdagi imorat va asbob-anjomlarni gavdalantiruvchi atov gaplar. Bunday atov gaplar, ayniqsa, sahna asarlari (remarkalar)da ko'p uchraydi: ***Charog'on uy, gilam, krovat, radiopriyomnik, ammo hammasi tartibsiz...*** (S.Abd.). ***Komiljonning hovlisi. Eskiroy uy. Qiz bilan yigit yonma-yon kiradilar*** (U).

4. Hayotda yuz bergan voqea-hodisalarni bildiruvchi atov gaplar: ***Yoqimli ohang, zavqli qo'shiqlar. Anorxon yo'lidan to'xtalib tinglaydi*** (I.R.).

Qiy-chuv, qah-qahalar, ta'zim, salomlar,

Har xil raqslar – mazurka, vals, gir aylanuv.

Hech kimga sezdirmay Tatyana turar (Pushkin).

5. She'riyatda atov gaplar, odatda she'r boshida kelib, payt yoki o'rin-ni ko'rsatadi, shu bilan birga she'rning umumiy ohangini ham tayinlaydi:

Sahar chog'i... *Kumush kabi shudringdan,*

Sirg'a taqib, yaprog'iga bosh qo'yib,

Gullar tunning quchog'ida mudraydi...
Oydin kecha... daryo oqar yarqirab,
Xub to'lishgan yoz tunining jamoli... (U.).
Oqshom... Borliq – oq dengiz,
To'lqinsiz... Uxlar... (H.O.).

6. Predmet va hodisalarni ko'rsatuvchi atov gaplar. Bunday atov gaplarda bosh kelishikdagi ot bilan birlikda **ana**, **mana** kabi ko'rsatish olmoshlari ham keladi: **Ana**, qishin-yozin yam-yashil bo'lib turgan archalar bilan bezalgan tog'lar. **Ana**, ikki yoki ulkan qirra toshlar bilan osmonga bo'ynini cho'zib turgan tog' oralaridagi adirlar... (Sh.R.). **Mana**, guzar, mana, odamlar... **Odamlar** uni qurshab oldi (P.T.).

Atov gaplardan keyin ularga yondoshib kelgan gaplar atov gaplarda ifodalangan hodisalarni tasvirlaydi, biror jihatdan xarakterlaydi yoki atov gaplarda ifodalangan hodisalar bilan bog'liq bo'lgan boshqa voqea-hodisalarni aks ettiradi: **Qorong'i tun**. Parovoz zarur yuk ortilgan sostavni tezroq manzilga yetkazish uchun shoshilmoqda (O.). **Naqadar orombaxsh tong!** Ozodlik asrining tongi bir-biridan chiroyli, mazmundor (R.F.).

Atov gaplarda ifodalangan hodisalar ko'pincha ta'sirchan bo'ladi. Bu hodisalar so'zlovchida qandaydir bir ruhiy kechinma uyg'otadi va bunday hodisalarni ifodalovchi atov gaplar his-hayajon ohangi bilan aytiladi.

Atov gaplarning ohanglarini chog'ishtiring: **Bahor**. Dalalar qish libosini tashlab, ko'klam sarposini kiygan (R.F.). **Murda!** deb baqirib yubordi (H.G'). **Qon**. Pichoqlab ketishibdi (Asq.M.). **Mana dalalarning tungi manzarasi...** G'oyat go'zal va jozibador (H.G').

Ba'zan so'zlovchi oldin ko'rgan va eshitganlarini esga oladi va hayajonga kelib, g'ayri ixtiyoriy ravishda ularning nomini tilga oladi. Bunday vaqtda ham atov gap tug'iladi: **Inson!** Bu nom mag'rurona jaranglaydi (Asq.M.). **Ota!** Naqadar ko'ngilga yaqin so'z! (Asq.M.). **Bolalar...** Bolalar bizning kelajagimiz, faxrimiz (Oydin).

Infinitiv gap. Hokim komponenti – boshqaruvchi so'zi infinitiv bilan ifodalangan gaplar **infinitiv** gap deyiladi: **Ajab! O'z uyini tashlab ketish!** Bu qanday aqlsizlik! **Mardikor olish!** (O.).

Infinitiv gaplar hayratlanish, ajablanish, istak, orzu, kuchli xohish, g'azab, noxushlik, norozilik kabi ma'nolarni anglatadi: **Oyga uchish!** **Yulduzlarni ko'rish!** Bu chinakam zavqli bo'lsa kerak ("G'uncha"). **Sevgingdan ajratish!** Eh, biz sho'rliklar (H.H.). **Gul sayriga chiqmoq!** Buni kim sevmay-di yoki yoqtirmaydi (S.Ahm.). **Yoshlikda onadan ajralish!** **Etim qolish!** Eh, urushning nimasini aytasiz (Sh.). **Sevishish!** Bu insoniy fazilat-ku axir (Sh.).

Keltirilgan misollardan anglashiladiki, infinitiv gap ham tuzilishiga ko'ra yig'iq va yoyiq shaklda bo'ladi. Infinitiv gap faqat bir bosh so'zning – infinitivning o'zi bilan ifodalangan bo'lsa, yig'iq, birdan ortiq so'z bilan ifodalansa, yoyiq sanaladi. Keyingi boshqaruvchi bo'lak aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol bilan kengayadi va yoyiq tusga kiradi.

Infinitiv gapda predikativlik maxsus yo'l bilan ifodalanadi. Bunda intonatsiya muhim rol o'ynaydi, ya'ni infinitiv gap ko'tariluvchi intonatsiya bilan aytiladi: so'zlovchining xilma-xil qarashlari shu intonatsiya orqali ifodalanadi. Nominativ gap kabi infinitiv gapdan keyin ko'pincha boshqa gaplar ham keltiriladi. Bu gaplar infinitiv gapning mazmuni bilan bog'lanib, uni rivojlantiradi, konkretlashtiradi, ta'kidlaydi.

So'z-gap. So'z-gap o'zining qator xususiyatlari bilan gapning boshqa (bir tarkibli, ikki tarkibli) turlaridan farq qiladi. Bu farq, avvalo, gap tuzilishi bilan xarakterlanadi.

So'z-gapda fikr so'z – bo'linmas bir bo'lak bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham bunday gaplar **so'z-gap** deb ataladi: *Mang, olib borib sigirning tezagiga qo'shib qo'ying! Ichimda Obbo, tag'in kelinining ustidan shikoyat boshlasa kerak,—deb o'yladim. —Xo'sh, qanday sir ekan dedim. —Xo'p, bolam, aytaman, shoshma-shoshma hovliqma, —dedi kampir. Hu, ana! Ko'rdingmi? Bug' chiqib yotibdi. —Hoy, qanday bema'ni xotinsiz (G'.G'). Uf! Qush edim qanotimni qayirdilar... (H.H.). Sal kechikdim, uzr (H.H.).*

Keltirilgan misollarda so'z-gaplar boshqa gaplar bilan birga kelib, ularning mazmuni bilan bog'langan. So'z-gap ifodalagan emotsiyalar u bilan boshqa gaplar ifodalagan fikrga ham tegishli. Demak, so'z-gaplar ifodalaydigan fikr boshqa gaplarning mazmunidan ajratilgan bo'lmaydi. Ko'pincha so'z-gaplar ifodalaydigan mazmun umumiy xarakterga ega bo'lib, ulardan keyin keltiriladigan gaplar konkretlashtiruvchi, so'z-gapning mazmunini quvvatlovchi gaplardir. Masalan, **Uf!** so'z-gapining mazmuni umumiy xarakterga ega: u ba'zan fizik charchashmi, ma'naviy ruhiy ezilishmi – bu tinglovchiga noma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pincha bu tipdagi so'z-gaplardan keyin konkretlashtiruvchi gap keltiriladi: **Uf! Qush edim qanotimni qayirdilar...** (H.H.) (ma'naviy noxushlik, psixologik jarayon). **Uf! Endi uzoq yursam nafasim siqiladi** (jismoniy charchash). **Uf! havo isib ketdi** (holat, vaziyat) kabi. Bundan tashqari, so'z-gapning mazmuni so'zlovchining yoshi, mavqei, ish sharoiti, makon, vaziyat kabilar bilan ham xarakterlanadi.

So'z-gaplarni ko'pincha boshqa gaplar bilan birga keladi dedik. Biroq bu so'z-gaplar boshqa gaplarsiz yashay olmaydi, degan gap emas. So'z-

gaplar grammatik-semantik, ohang jihatdan gapning boshqa tiplaridan farqli bo'lib, o'zlari gapning maxsus turini hosil qiladi. Tilda ko'pgina so'zlar yolg'iz holda, boshqa so'zlarsiz gap bo'lishga moslangan. Butun boshli fikr ana shu bir so'z bilan ifodalangan bo'ladi.

Demak, bir so'z (so'z turi va so'z shakli) bilan ifodalangan, mustaqil bo'laklarga ajralmaydigan, o'ziga boshqa bo'laklar olib yoyilmaydigan, so'zlovchining turli xil hayajonini, fikrini ifodalaydigan gaplar **so'z-gap** deyiladi.

So'z-gap keng ma'noda undov so'zlarni (his-hayajon, haydash-chaqirish, buyruq-xitob, rasm-odat, tabrik-olqish kabi undovlarni, tasdiq va inkor ifodalovchi **ha** va **yo'q** so'zlarini, vokativ gaplarni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

a) undov so'z bilan ifodalangan so'z-gaplar. Undov so'z bilan ifodalangan so'z-gaplar voqelikni tasvirlash vositalaridir: *Attang, attang! Bu xabarni o'zim birinchi bo'lib yetkazmoqchi edim. Oho, Oysulton, birinchi uyni ko'zdan kechirib, tezdan ikkinchi uyga...* (Sh.R.). –*Voh, voh, voh. Tega ko'rmang, juda yomon og'riydi* (S.Ahm.). *Eh! Qani endi qishloqda maktab bo'lsa* (M.I.).

Ko'p vaqt so'z-gaplar **qo'y-e, tavba, barakalla, balli, shundaymi, ana xolos, yo'g'e, xo'sh, shukur** singari undov so'zlar bilan ifodalanadi: (*"Ma'rifa"*) *Ha, ha... xat yozib turibdi. O'zi ham shu erda. (Komil) (o'zgaradi) Shundaymi?* (U). *Tavba, shu ham gap bo'ldimi? –Barakalla, Chori! Bu fikring juda yaxshi* (Sh.R.). –*Balli-e, zap azamat yigit ekanmi, yuragiga qoyilman...* (R.F.). *Ana xolos! Bola jo'nab qolibdi. Shukur, ota. Xo'sh, shunday qilib, opaga qanday yuz bilan qaradingiz... Voy, opangni bilmaysanmi? Qo'y-e* (M.I.).

Yaxshimisiz, salom, rahmat, xayrli kech, xush kelibsiz, oq yo'l, tashakkur, kechirasiz, xayr, qulluq, uzr, marhamat singari rasm-odat undovlari ham so'z-gap vazifasida qo'llaniladi. Bunday so'z-gaplardan keyin yoki oldin undalma ham keladi. Bu kabi so'z-gaplar tabrik, qutlash, tashakkur, tilak, iltimos va boshqa shu kabilarni ifodalaydi va shaxsga bo'lgan har xil rasmiy munosabatlarni ko'rsatadi: (*Komila*) *Bu yoqqa bering. (Bo'rivoy) Uzr. Egasi bor. (Bo'rivoy) Komiljon... o'ldi. (Toshxon) Yolg'on! (Olga) Kechirasiz, men sizga tasalli bermoqchi edim. (Misha) Zararsiz, gap oyoqda emas, boshda. Komil (qo'l berib) Xayr. Mariya Ivanovna (Olgaga) xayr, yaxshi-yomon gapirgan bo'lsam, uzr. (Komil) (hayajonda). Rahmat, ota... Rahmat* (U.). (*Dehqonboy*) *Mumkinmi... (Odilov) tabriklayman, Mavlon aka. (Mavlon aka) Qulluq...* (A.Q.).

b) tasdiq va inkor bildiruvchi soʻz-gaplar. **Ha, yoʻq** soʻzlari boshqa soʻz turkumlari singari atash vazifasiga ega emaslar. Bu soʻzlar gap yoki soʻz birikmasi tarkibida emas, balki oʻzlari gap oʻrnida qoʻllanadi: **Ha, yoʻq** soʻzlari ham ohang va tinish belgilari yordami bilan yondosh gapdan ajratiladi.

Bu soʻz-gaplar koʻpincha dialoglarda qoʻllanadi:

–*Kecha keldilarmi?*

–*Yoʻq, avvalgi kun.*

–*Meni chaqirdingizmi?...*

–*Ha, sizni. Bugun tunda siz navbatchilik qildingizmi?*

–*Ha, men... (R.F.).*

–*Bu ana u chakalakzor emasmi?*

–*Yoʻq, u chakalakzor sal chap tomonimizda (R.F.).*

Dialogik nutqda **ha, yoʻq** soʻz-gaplari soʻroq gaplarga javob boʻlib, tasdiq yoki inkor anglatishlari, ulardan keyin kelgan yondosh gaplar boʻlmasligi ham mumkin:

–*Onang bormi?*

–*Onam meni noiloj tashlab ketgan.*

–*Otang-chi?*

–*Yoʻq.*

–*Togʻang-chi?*

–*Yoʻq.*

–*Xolang-chi?*

–*Yoʻq (P.T.).*

Yoʻq soʻzi gapda kesim yoki kesim tarkibida yordamchi vosita boʻlib ham keladi. Bunday **yoʻq** soʻzi soʻz-gap, yaʼni inkor gap emas, inkorni kesim yoki kesim tarkibida kelib ifodalaydi:

–*Karim shu yerdami?*

–*Yoʻq, biznikiga kirgani yoʻq (I.R.).*

Ha soʻzi tasdiq maʼnosida emas, undov sifatida soʻroq gaplardan oldin kelib soʻroq maʼnosida ham keladi: **Ha, gapim toʻgʻrimi, chirogʻim?** (R.F.). (*Hamza*) **Ha, polvon, qayoqqa?** (K.Y.).

Ha, yoʻq soʻzlari maʼno kuchaytirish uchun takrorlanib ham kelishi mumkin: **Ha, ha... Zarari yoʻq, tajriba qilib koʻrish yomon ish emas. – Yoʻq, yoʻq. Men u bilan hazillashdim... (P.T.). Shodmon: Yoʻq, yoʻq, yoʻq. Hamzaning tegmang joniga! (K.Y.).**

Tasdiqlovchi **ha**, inkor bildiruvchi **yoʻq** soʻzlari vazifasida **shundoq, albatta, yaxshi, aniq, tuzuk, durust, turgan gap, boʻlmasachi, toʻgʻri, zararsiz, hech, aslo, yolgʻon, ehtimol** kabi soʻzlar ham qoʻllanadi va

inkor yoki tasdiq anglatish bilan birga suhbatdoshning fikrini quvvatlash, qarshilik ko'rsatish, shubha bilan qarash kabi sub'yektiv munosabat ifodalaydi: (Komila) **Obbo**, siz-e. *Buyog'ini ham to'g'rilab yuribman deng?* (Bo'rivoy) **Bo'lmasa-chi?** (U.). (Saltanat) *Hafizaxon kelsa kerak-a?* (Dehqonboy) **Albatta** (A.Q.). *Dushman bizni ancha ovora qildi. Hatto, chegaraga o'tishi ham mumkin. Ha, ha... To'g'ri... To'g'ri...* (K.Y.).

–Yo'ling tushganda, yana kirmay o'tma.

–**Albatta.**

–*Xotirjamroq paytingda uy xususida yana bir o'ylab ko'r!*

–**Tuzuk!**

–*Qo'ldan chiqarmay turarman, eshitdingmi?*

–**Durust** (P.T.).

s) **vokativ kategoriya bilan ifodalangan so'z-gaplar.** Vokativ gap ayrim intonatsion xususiyatga ega bo'lib, ohang yordami bilan mazmuni murakkablashgan, **g'azab, ajablanish, shodlik, yalinish, taqiqlash, ehtiyotlikka chaqirish, o'pka-gina, ta'na, afsus** kabi modal ma'nolar ifodalaydigan, predikativlikka, intonatsion tugallikka ega bo'lgan ayrim gap tusidagi undalmalardir. Misollar: (Omon) **Hafizaxon opa! Ho, Hafizaxon opa!** Omon: **Aya! Xola!** (A.Q.). *Maysara ovozinig boricha onasini chaqirdi: Oyi-hu! oyi!* (Sh.R.). *Ahmadqul chorpoqa ustida o'ylanib o'tirar ekan, yaqin o'rtadan birov qichqirib chaqira boshladi: – Ahmadqul, hoy Ahmadqul! Noshukurchilik qilma, Ablah! –dedi Mulla Dilkash* (G'.G'). –**Doxunda! Oy, Doxunda! Doxunda, deyman! Tirikmisan, o'lik?!** (S.Ayn.).

Keltirilgan gaplardagi **Hafizaxon opa, Aya, xola, oyi, Ahmadqul, hoy Ahmadqul, ablah, Doxunda** so'zlari odatdagi undalma emas, ular matnda so'zlovchining xilma-xil hayajonini, fikrini ifodalash uchun xizmat qilgan. O'ziga xos ohang bilan aytilgan, predikativlik ifodalangan. Shunga ko'ra ular so'z-gapdir. Grammatik-semantik jihatdan mustaqillik olgan bunday undalma xarakteridagi so'zlar **vokativ gaplardir.**

Vokativ gaplar undalmadan farqli o'laroq so'zlovchi e'tiborini tortish uchun emas, balki mustaqil fikr ifodalash uchun qo'llaniladi. Bunda so'zlovchining kuchli emotsiyasi maxsus ohang, vaziyat, matn orqali aks ettiriladi. Gapning bu turida so'zlovchi xulosaga keladi: *Darmoni qurigan jangchi butalar panasidagi yigitchalarni chaqira boshladi: –Bolalar! Bolalar!* (I.R.). *Militsiya ko'cha o'rtasida turib qolgan kishiga xitob qildi: –Janob!*

Vokativ gaplarda kuchli iltijo, murojaat, chaqiriq kabi emotsiyalar ifodalanadi: *G'azablangan podshoh xitob qildi: Jallod!!* ("Ming bir

kecha”). *Suv qa’riga ketayotgan tog’ posboni bir so’z aytishga ulgurdi: Yordam!!* (M.Safarov).

Vokativ gaplar og’zaki nutqda vaziyat, yozma nutqda matn (kontekst) vositasida shakllanadi, yondosh gaplar bilan mazmun jihatdan aloqador bo’lsa-da, grammatik va fonetik (intonatsion) tomondan mustaqildir.

Umuman aytganda, sodda gaplarning atov, infinitiv, so’z-gap kabi turlari ko’proq sintaktik fonetikaning o’rganish ob’yektidir. Masalan, quyidagi misolda **Anor** so’zi uch o’rinda kelib, uch xil vazifada qo’llanilgan: 1- o’rinda **ega**, 2- o’rinda **vokativ gap**, 3- o’rinda **undalma**: *Qo’shni bolalar Qarshiboy akam urushdan keldilar, Qarshiboy akam keldilar deb chopib kirib kelishdi. Anor (xotini) bir oz hushi og’ib qoldi. Anor!! Hovliga bir ko’zi bog’langan Qarshiboy kirib keldi. –Anor, men keldim* (“Saodat”).

Anglashiladiki, so’z-gap vazifasidagi **Anor** so’zi kuchli emotsiya bilan aytilishdan tashqari, undan keyingi gap aytilguncha mustaqil pauza hosil qilinadi, to’xtab nafas olinadi. Undalma vazifasidagi **Anor** so’zidan keyin esa bunday pauza bo’lmaydi. Yoki ega vazifasidagi **Anor** so’zidan keyin umuman to’xtam (pauza) bo’lmaydi.

13- mavzu: TO’LIQSIZ GAP

reja:

1. To’liqsiz gapga ta’rif tavsif.
2. Matnli (kontekstual) to’liqsiz gap.
3. Vaziyatli (situativ) to’liqsiz gap
4. Elliptik gap.
5. Xulosa.

Biror bo’lagi aytilmagan – “tushirilgan”, biroq shu tushirilgan bo’lak kontekst yoki vaziyat orqali anglashilib turadigan gap **to’liqsiz gap**dir.

To’liqsiz gaplar asosan dialogik nutqqa xosdir: *(Rahimov) Vazifa ravshanmi? (Ofitser) –Ravshan. (Rahimov) –Savollar bormi? (Ofitserlar) –Yo’q* (U.).

Monologik gaplarda ham oldingi gaplarda aytilgan so’zlar keyingi gaplarda takrorlanmasligi mumkin: *Qarabsizki, hamma narsa o’ngdan keldi qo’ydi: Zamon ham bizga boqadi, **kun ham, toleimiz ham*** (Asq.M.).

To’liqsiz gaplarda qo’llanilmagan, tushirilgan bo’laklar tagmatn yoki vaziyat orqali anglashiladi. Bu to’liqsiz gaplar vositalarsiz o’z ahamiyatlarini yo’qotadi:

–*Oting nima?*

–*Yodgor.*

–*Otangni oti-chi?*

–**Bozor.**

–*Qayerdan kelayapsan?*

–**Darainihondan** dialogidagi **Yodgor, Bozor, Darainihondan** soʻzlari matnsiz odatdagi soʻzlardir, fikr ifodalamaydi. Matn ichida esa mazmunan *Mening otim – Yodgor, Otamning oti – Bozor, Men Darainihondan kelayapman* gaplariga teng, toʻlaqonli gaplardir.

Demak, toʻliqsiz gaplar toʻliq gapga, oʻzi qatnashayotgan matnga asosan shakllanadi. Toʻliqsiz gapning shakllanishidagi asosiy vositalar: 1) matn (kontekst), shu bilan bogʻliq ohang (intonatsiya); 2) vaziyat, sharoit (situatsiya) va imoishoralar. Birinchi holat **matnli** (kontekstual), ikkinchi holat **vaziyatli** (situativ) toʻliqsiz gaplarni yuzaga keltiradi. Demak, toʻliqsiz gap hosil qilinish asosiga koʻra ikki turga ajraladi: **matnli toʻliqsiz gap** va **vaziyatli toʻliqsiz gap**.

Matn (kontekst) asosida shakllangan toʻliqsiz gap **matnli** (kontekstual) **toʻliqsiz gap** deyiladi (misol yuqorida berildi).

Maʼlum vaziyat, sharoit tufayli shakllangan toʻliqsiz gap **vaziyatli (situativ) toʻliqsiz gap** deyiladi. Matnli toʻliqsizlik yozma, vaziyatli toʻliqsizlik ogʻzaki nutqqa xoslangan. Masalan, **uchdi** deyilganda aeroportda **samolyot**, togʻda yo bogʻda **qush** anglashilishi; **chalindi** deyilganda maktabda **qoʻngʻiroq**, zavodda **gudok**, konservatoriyada **muzika** tushunilishi mumkin. *Akam armiyadan keldi* – odatdagi xabar. Biroq shu gapning mazmunini maʼlum vaziyatda **akam** soʻzining oʻzi ifodalaydi: *Yugurib uyga kirgan bola oʻtirganlarga: Akam! dedi* (akaning armiyadan kelishi kutilayotgan edi).

Demak, maʼlum vaziyatda tinglovchi uchun tushunarli boʻlgan fikrlar toʻliq gap bilan emas, uning bir yoki bir necha boʻlagi orqali (toʻliqsiz shaklda) ham ifodalanaveradi.

Toʻliqsiz gaplarda biror boʻlak tushadi:

–*Otingiz nima?* (toʻliq gap)

–*Bobomurod.* (kesimi tushirilgan)

–*Kasbingiz?* (kesimi tushirilgan)

–*Dehqonchilik.* (egasi tushirilgan)

–*Boshqa kasbingiz bormi?* (toʻliq gap)

–*Yoʻq* (aniqlovchi va ega tushirilgan). Toʻliqsiz gaplarda birdan ortiq boʻlak tushirilishi ham mumkin.

–*Bu goʻzal diyorning yaratuvchisi kim?* (toʻliq gap)

–*Xalq.* (aniqlovchi+aniqlovchi+aniqlovchi+ega tushirilgan)

–*Salim kitobni kutubxonaga topshirdimi?* (toʻliq gap)

–*Ha*. (ega, to'ldiruvchi, hol, kesim tushirilgan)

Anglashiladiki, to'liq gapga **ha** va **yo'q** so'z-gap-lari bilan javob berilsa, butun gap qo'llanmagan bo'ladi.

Agar to'liqsiz gap birgina bo'lak bilan ifodalansa, to'liq gapda login urg'u shu bo'lakka (so'roq olmoshi bilan ifodalangan bo'lakka) tushgan va to'liqsiz gap urg'u tushgan bo'lakning talabi bilan shakllangan bo'ladi: *Sizning ismingiz nima?* –**Tohir**. –*Xo'p, hozir qayerga bormoqchisiz?* –**Kinoga** (Asq.M.). *Bir chekkada qisilib o'tirgan Bektemir yonidagi soldatdan so'radi:* –*Hozir kelgan kim u?* **General** –javob berdi soldat (O.).

Elliptik gap

Elliptik gaplarda biror bo'lakning tushib qolganligi shaklan anglashilib tursa-da, ularni tiklash zaruriyati bo'lmaydi. U davrlar o'tishi bilan gap qurilishidan siljib chiqib ketgan. Tiklanmoqchi bo'lgan “bo'lak” gap qurilishining uzviy – grammatik-semantik qismi bo'lolmaydi. Masalan, *Batalyon! Birinchi rota – o'ngdan, o'ninchi rota – chapdan, ikkinchi rota – mening orqamdan, to'rtinchi rota – olg'a!* (O.). *So'z bilan u yoqqa-bu yoqqa, ish bilan hech qayoqqa* (maqol) gaplarining kesimi aslida **yurmoq, bormoq, bosmoq** bo'lib, bugungi tilda qisqargan – elliptiklashgan.

Elliptik gaplarda biror bo'lakni tiklash normal holatning o'zgarishiga, hatto buzilishiga sabab bo'ladi. Qiyoslang: *Baliqning tirikchiligi suv bilan* (maqol) – *Baliqning tirikchiligi suv bilan bo'ladi*. *Aql yoshda emas, boshda* (maqol) – *Aql yoshda emas, boshda bo'ladi*. *Har kim eliga, o'rdak ko'liga* (maqol) – *Har kim eliga yaxshi (yarashadi), o'rdak ko'liga yaxshi (yarashadi)* kabi.

Anglashiladiki, ayrim elliptik gaplarni to'ldirib bo'lmas ekan.

Demak, elliptik gaplar shu tomonlari bilan to'liqsizlikdan farqlanadigan, biror bo'lagi tushib qolmagan odatdagi normal gaplardir. To'liqsiz gaplar to'liq gaplarsiz shakllanmaydigan sof nutqiy hodisa, elliptik gaplar boshqa gaplarsiz, hatto bir qismi til faktiga aylangan (maqol, matal, aforistik iboralar) sintaktik birliklardir.

Elliptik gaplarda, asosan, kesim qisqaradi. Natijada sobiq ikkinchi darajali bo'laklar (hol, to'ldiruvchi) kelishik, ko'makchili formalarda kesim vazifasida qo'llaniladigan va, hatto, kesimlik affikslari bilan ham shakllanadigan bo'lib qoladi: *Men Farg'onadan. Opam – Toshkentda* (so'zlashuvdan). *O'zim har joydaman, ko'nglim sendadur* (Muqimiy). *Nargizning badani ham, sirg'alari ham, ko'ylaklari ham guldun* (Sh.R.).

14- mavzu: GAP BILAN GRAMMATIK JIHATDAN BOG'LANMAGAN BIRLIKLAR

reja:

1. Gap bilan grammatik bog'lanmagan birliklarga ta'rif va tavsif.
2. Gap bilan grammatik bog'lanmagan kirishlar (kirish so'z, kirish birikma, kirish gap).
3. Gap bilan grammatik bog'lanmagan kiritmalar (kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gap).
4. Kirishlar bilan kiritmalarning yaqinligi va farqlari.
5. Kirish va kiritma unsurli gaplarda tinish belgilarining o'rni.
6. Xulosa.

Gap bilan grammatik bog'lanmagan, so'zlovchining o'z fikriga yoki borliqqa bo'lgan sub'yektiv munosabatini ifodalaydigan birliklar (kirish so'z, kirish birikma, kirish gaplar) **kirishlar** deyiladi. Kirishlar og'zaki nutqda o'ziga xos to'xtam (pauza), yozma nutqda tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi: *To'g'ri, endi har qanday bo'lganda ham sabr, qanoat, jiddiyat, sabot kerak* (G'.G'). *Hujjatlarda ko'rsatilishicha, yuqori hosil olish uchun barcha imkoniyatlar bor* (Sh.R.). *Ularning baxtiga, tong otar paytda tuman tarqaldi* (A.Q.). *Men sizga aytsam, aravani quruq olib qochish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi* (Sh.R.).

Kirishlarning gap tarkibidan chiqarilishi uning sintaktik qurilishini o'zgartirib yubormasa-da, mazmuniga – logik tomoniga ta'sir qiladi. Qiyoslang: *u kasal – u kasal, shekilli*. Demak, kirishlarning gap bilan mazmuniy – ichki aloqasi bor.

Kirishlar quyidagi grammatik-modal ma'nolarni ifodalaydi:

1. So'zlovchining qat'iy ishonchini bildiradigan kirishlar. Bu vazifada **shubhasiz, to'g'ri, so'zsiz, tabiiy, albatta haqiqatan, darhaqiqat, chindan, chindan ham, turgan gap** kabi kirishlar qo'llaniladi: *Shu kulgi, albat, toleingga muhr bo'ladi* (G'.G'). *Vatan oldidagi burchimni, so'zsiz bajaraman* ("Xalq so'zi").

2. So'zlovchining gumon, taxmin, shubha, ikkilanish kabi munosabatini bildiradigan kirishlar. Bu vazifada **aftidan, shekilli, chamasi, taxminan, ajab emas** kabi kirishlar qo'llaniladi: *Aftidan, qish izg'irini erta turadigan ko'rinadi* (N.A.). *Uning ovga juda ishqivoz ekanini aytgan edim, shekilli* (N.A.). *Zamona bir inqilob o'lsa, ajab ermas* (Zavqiy).

3. So'zlovchining emotsional bahosini bildiradigan kirishlar. Bu vazifada **ajabo, afsus, essizgina, mening baxtinga, hayronman,**

xayriyat, koshki, ana xolos, nima balo kabi kirishlar qo'llaniladi: *Ajabo, chindan ham Saodat meni sevadimi? Men-chi?* (G'.G'). *Afsus, ming afsuski, dunyoga juda erta kelganman. –Xayriyat, haligi qiz bor ekan, gapga kavshar bo'ldi* (A.Q.). *Essizgina, shu serhosil yerlarda suv mo'lroq bo'lsa edi, bu yerlarda nimalar undirardik* (Sh.R.).

4. So'zlovchi tomonidan bayon qilinayotgan fikr kimga qarashli ekanligini, fikrning manbaini ko'rsatadigan kirishlar. Bu vazifada **mo'ljalimcha, fikrimcha, chamamda, bizningcha, uning aytishicha, aytishlariga qaraganda, rivoyatlarga ko'ra, xabar berishicha, bilishimcha, eshitishimcha, menga qolsa, ularcha, aytishlaricha** kabi kirishlar qo'llaniladi: *Aytishlaricha, biroz yo'l puli berilsa, yo'lboshchilari kuzatib ham qo'yarmish* (N.A.). *Lekin, uningcha, bu shaharda juda mohir tabiblar bor emish* (ertakdan).

5. So'zlovchining fikr ifodalanish usuliga bo'lgan munosabatini ko'rsatadigan kirishlar. Bu vazifada **bir so'z bilan aytganda, qisqasi, qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiqini aytganda, qo'pol qilib aytgan-da, qanday desam ekan, ochiq gap, gapning po'stkallasi** kabi kirishlar qo'llaniladi: *Ha, ochig'ini aytsam, umrimda biror ayol meni sevmagani alam qiladi, Siz-ku xursand bo'lasiz-a, lekin men, ochiq gap, eslasam hamon xafa bo'laman* (A.Q.).

6. Fikrning tartibini, xulosasini, oldingi fikr bilan keyingi fikrning munosabatini ko'rsatadigan kirishlar. Bu vazifada **aytganday, masalan, misol uchun, piravardida, xususan, umuman, demak, avvalo, so'ngra, ayniqsa, birinchidan, ikkinchidan, ishqilib, aytilgandek, xullas, xullasi kalom, nihoyat, shunday qilib, binobarin, ko'rinadiki, anglashiladiki** kabi kirishlar qo'llaniladi. Bu kabi vositalar nutqning ma'lum bo'laklarini ta'kidlash, cheklash, konkretlashtirish, izohlash, bir-biriga bog'lash, aytib o'tilganlarni eslatish, xulosalash, umumlashtirish, fikr tartibini ko'rsatish kabilar uchun qo'llaniladi: *Xullas, o'zimizning g'ijjakka o'xshash asbobning'illatib chaladi... Men, masalan, shunaqasini ham ko'rganman* (Asq.M.). *Sidiqjon bir tomondan, uni xush qabul qilish umidi bilan entikib kutar edi* (A.Q.). *Kun sayin aqlim kirib ko'zim ochilmoqda, qisqasi, chin odam bo'lmoqdaman* (P.T.). *Tantiboyvachcha jahildan qaltiradi. Birinchidan, ishning tubi ochilishidan vahimaga tushdi, ikkinchidan, va'dasining bunday puch, bunday ishkal chiqqanligidan uyaldi* (O.). *Nihoyat, Sidiqjon hozir emas, bir ikki kun o'tgandan keyin borishga va'da berdi* (A.Q.).

7. Aytilayotgan fikrga suhbatdoshning diqqatini jalb qilishga, fikrni suhbatdosh tomonidan ma'qullatishga qaratish uchun qo'llaniladigan

kirishlar. Bu vazifada **ko'rdingizmi, shunday emasmi, o'zingizga ma'lum, esingizda bo'lsa kerak, o'zingiz o'ylasangiz, to'g'ri emasmi, nimaga desangiz, shu desangiz, shuni aytaysizmi, shuni ayting, desangiz, menga qarang, nimasini aytasiz, quloq sol, ishonsangiz, o'zingizdan qolar gap yo'q** kabi vositalar qo'llaniladi: *Axir o'rtoqlar, o'zingiz o'ylang, bundan ikki yarim yilgina hamma narsadan bexabar. Yigit bugun professordan ma'ruza tinglaydi* (G'.G'). *Siz bilan bizning ishimiz buyruqni kutish, to'g'ri emasmi* (R.F.).

Kiritmalar (kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma gap) asosiy gap mazmuniga qo'shimcha – yangi ma'lumot kiritadi, o'zi qo'shilgan gapni yo'l-yo'lakay izohlaydi – material ma'no qo'shadi. Asosiy gap mazmunini murakkablashtiradi, qo'shimcha voqeliklar bilan to'ldiradi. Shu tomoni bilan kirishlardan farqlanadi. Kiritmalar asosiy fikrga qo'shimcha fikr qo'shish, voqelikning sababini aniqlash ehtiyoji orqasida kutilmaganda, to'satdan kiritiladi. Bayon etilayotgan fikrni to'laroq tushunishga yordam beradi. Masalan, *Qizlar (ularning hammasi kechki maktabda o'qishadi) imtihonlarga tayyorgarlik to'g'risida qizg'in suhbat qila boshladilar* (R.F.). *Otasini bir kecha qonga belangan holda zindon yoqasidan topganlarida (uni zindondan qochganlar o'ldirib ketishgan edi) Abdusamad o'n yashar, qo'rqqoq, lekin pismiq, quv bola edi* (O.). *Sobirning boshida qunduzli telpak, egnida yangi qaytarma yoqali qora palto, belida ko'k shoyi qiyiqcha (kuyov sarposini qiyiqchasiz tasavvur eta olmagan ona qiyiqni zo'rlab bog'latgan edi o'qliga) oyoqlarida yangi mayin xirom etik...* (O.). *Samandarov uyga qaytgach, hech tinchiy olmadi. Burunlari u eng avval otxonaga kirib otining yem-xashagidan xabar olardi (Samandarov bunga odatlanib qolgan edi)* (A.Q.).

Kiritmalar so'z va so'z birikmasi shaklida ham bo'ladi: *Onam (o'gay) meni qarqagani-qarqagan edi* (misol A.G'ulomovdan). *Anorxol (ammamning qizi) meni doim himoya qilardi* (I.R.).

Kiritmalar og'zaki nutqda asosiy gapga nisbatan tez va pastroq ovoz bilan talaffuz qilinib, to'xtam (pauza) bilan ajratiladi.

Ular qancha yoyiq bo'lsa, pauza ham shuncha davomli bo'ladi. Asosiy gap esa odatdagidek (kiritma yoki kiritmalar bo'lmagandek) talaffuz qilina beradi. Kiritmalar, asosan, qavsda beriladi, juda yoyiq bo'lsa, tire bilan ham ajratiladi: *Oltinchi brigadaning g'o'zasi – mana men hozirgina aylanib keldim – sira avj olmayapti* (O.).

Kiritmalar gapdagi o'rniga ko'ra ham kirishlardan farqlanadi: kirishlar gapning boshida, o'rtasida, oxirida keladi. Kiritmalarning tipik o'rni gapning o'rtasida bo'lib, gap boshida qo'llanmaydi. Chunki qo'shimcha

ma'lumot, biror aniqlik kiritish, voqelikning sababini izohlash zaruriyati asosiy fikr bayonidan keyin boshlanadi.

Kiritmalar voqelik hajmi axborot bir gap qurilishiga sig'magan hollarda yuz beradi. Bu bir voqelik uchun bir necha gap tuzishdan saqlaydi, yozma nutqni ixchamlashga ham imkon beradi.

15- mavzu: UNDALMA

reja:

1. Undalmaning ta'rif va tavsifi.
2. Undalmaning tuzilishi (yig'iq va yoyiq).
3. Undalmaning gapga nisbatan aytilish ohangi, qo'llanish o'rni, unda qo'llanadigan tinish belgilar.
4. Xulosa.

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildirgan so'z yoki so'z birikmalari **undalma** deyiladi.

Undalma ko'pincha shaxsning ismi, familiyasi, unvoni, lavozimi, taxallusi, laqabi, kasbi yoki qarindoshlik munosabatini bildiruvchi bosh kelishik shaklidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Undalma so'zlovchi o'z fikrini jamlab kerakli nuqtaga – ob'yektga, aniqrog'i, ikkinchi shaxsga yo'naltirishda, II-shaxs e'tiborini tortishda xizmat qiladi. Demak, undalma qo'llash nutqning zaruriy talabidir. Misollar: ***Qizginam**, dunyoda muhabbat – sevish va sevilishdan ham ortiq baxt bormi?* (O.). ***Birodarlar!** Hayot biz bilan! Kelajak biz uchun, tarix biz tarafda!* (Sh.R.). ***Azizam**, men seni sahnada ko'rgim keladi* (S.Abd.). ***Og'a**, ayamga xat yozmabsiz-ku* (A.Q.).

Undalmalar ekspressiv qimmatga ega bo'lgan so'zlar bilan ifodalganda, sub'yektiv baholash ma'nosini anglatadi: ***Oyijon**, meni yosh bola deb o'ylaysizmi? –Ha, gapim shu, to'g'rimi, chiroqim* (P.T.). *Yo'qol! **Nomus**, yurak o'g'rilar, ko'zimdan yo'qol!* (H.H.). ***Azizim**, o'limdan qo'rqadigan muhabbat ham muhabbat bo'ladimi? Bunday muhabbat yo'q, jonginam...* (P.T.). *Ha, **erkam**, otlarni ko'rgani ketyapsanmi?* (R.F.). ***Ey iflos, makkor**, chekin sharmanda! Shuni bil: nomus bor, hayo bor menda* (K.Y.).

Emotsional nutqda undalmalardan oldin **ey, o, e, hoy, o'** singari kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi yuklamalar, undov so'zlar qo'llaniladi: ***Hoy qizim**, qayoqda qolding? Samovar qo'y... o' bola* (A.Q.) *Chiqdi bahor quyoshi, **ey paxtakor**, bo'l bardam* (P.M.). ***Ey birodar**, juda ham soddasiz-da* (U.).

Emotsional nutqda undalmalar jonsiz predmetlarga, jonivorlarga, mavhum tushunchalarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday undalma

ritorik undalma bo'lib, nutqqa dabdabali tus beradi: **Mustaqillik**, *sen tutgan mash'al nuridan dilimiz munavvar bo'ldi, irodamiz mustahkamlandi* ("Xalqso'zi"). *Iltijo qilarman senga, **tabiat**, meni pok niyatdan ayirma aslo!* (U.). **Ey quyosh**, *ko'rsat yuzing* (qo'shiq). **Amudaryo**, *sendan g'arib o'tdimi?* (qo'shiq).

Undalma so'zlovchining o'z nomi, taxallusi bilan ham ifodalanadi. Bunda so'zlovchi o'zini ikkinchi shaxs o'rniga qo'yadi. Bu ko'proq monologik va she'riy nutqda uchraydi: **Ey Navoiy**, *umr o'tar yeldek, o'zingni shod tut* (Navoiy). *Xanda ur, jo'sh ur, **yurak**, ozod zamindir bu zamin. Nazm tuz, **Erkin**, axir erkin zamondir bu zamon* (E.V.). **Yurak**, *sensan mening sozim* (U.Nosir).

Ba'zan (nutqiy vaziyatga ko'ra) undalma tushib qolib, undov so'zning o'zi undalma vazifasida keladi: **Hoy**, *bittang menga isiriq solib yubor, ko'zikkanga o'xshayman* (H.H.). **Ey**, *otingni birpasga berib turmay-sanmi?* (Sh.Xolmirzayev).

So'zlovchi bir vaqtning o'zida birdan ortiq shaxsga murojaat qilganda, undalmalar uyushib keladi: **Sohib, Akram**, *shoshilmang, tanklarni yondiring, **Asqar, Kozim, Sobir**, granatalarni olib chap biqinga o'tinglar, tankni yaqinlashtirmay turinglar* (K.Y.). **Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas**, *ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas* (qo'shiq).

Undalmalar yig'iq va yoyiq bo'ladi. Bir so'z yoki so'z shakli bilan ifodalangan undalma **yig'iq**dir (bunga doir misollar berildi). O'z aniqlovchisi yoki izohlovchilari bilan kengayib yoki uyushib kelgan undalmalar **yoyiq undalma** deyiladi: **Ey, o'n sakkiz ming olamni yaratgan parvardigor**, *Vatanimga tinchlik, xalqimga omonlik, farovonlik ato et* (duodan). *Siz bilan obod uyimiz, **kamtarin piri badavlat jonga darmonim otam*** (P.M.) **Baxtimiz chirog'i qizlar**, *o'xshashsiz chamanga, ko'rgazing jamol* (G'.G').

Undalmalar gapning boshida, o'rtasida, oxirida keladi, gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. His-hayajon bildiruvchi undalmalardan keyin undov belgisi qo'yiladi.

O'rniga ko'ra undalmalar har xil talaffuz qilinadi: gap boshida kelsa, murojaat, chaqirish ohangi bilan aytiladi. Gap o'rtasida kelgan undalmalarning ohangi kirish so'z intonatsiyasiga yaqin turadi – undalma ancha past ovozda, birmuncha tez sur'at bilan talaffuz qilinadi. Gap oxirida kelgan undalmalardan oldin pauza bo'ladi, undalma xabar, ogohlantirish ohangi bilan talaffuz qilinadi. Qiyoslang: **Aziz birodarlar**, *Vatan yagona, Vatan bittadir* (I.Karimov). *Siz, **o'rtoq serjant**, miltig'ingizga devona*

to'rtasiga yopishganday yopishib olibsiz (K.Y.). Usta parashyutchi, mohir uchuvchi bo'lasiz, **Bashoratxon** (R.F.).

So'roq gap oxirida keluvchi undalma birmuncha yuqori ovoz bilan talaffuz qilinadi va undalmadan oldin qisqa pauza bo'ladi: *Qayoqqa shoshilayapsiz, mayor? Sizlar kim bo'lasiz, yigitlar?* (K.Y.).

16- mavzu: MURAKKABLAHGAN SODDA GAP

reja:

1. Murakkablashgan sodda gapning ta'rif va tavsifi.
2. Sodda gapning ajratilgan bo'laklar bilan murakkablashishi.
3. Kirishlar bilan murakkablashishi.
4. Kiritmalar bilan murakkablashishi.
5. Undov so'zlar bilan murakkablashishi.
6. Undalmalar bilan murakkablashishi va b.
7. Xulosa.

Sodda gaplar hamisha odatdagi bo'laklar (ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol) yoki bularning ba'zilar asosidagina shakllanavermay, ko'p hollarda mavjud bo'laklarning kengayishi, yoyiq tusga kirish yoki gap bilan grammatik bog'lanmagan, biroq har xil gap bilan mazmunan aloqador bo'lgan grammatik-semantik birliklar bilan kelib murakkablashishi mumkin.

Sodda gapning murakkablashishi quyidagi holatlarda yuz beradi:

1. Ajratilgan bo'laklar vositasida: *Ana, gullar, sahna bog'ining to'rtida, undan qo'shiq yangrar, dilkash va quvnoq* (K.Y.).

2. Ravishdosh oborotlari vositasida. Ular quyidagi vazifalarda keladi:
a) ravish holi vazifasida: *Xotin-qizlar, yonma-yon tizilishib, g'ozalar orasiga kirib ketishdi* (R.F.). Ravishdosh oborotlari uyushib gap mazmunini yanada murakkablashtiradi: *Nigor oyim, xumor ko'zlarini yoshlab, sunbul sochlarini orqasiga tashlab, qirq kanizini boshlab, uzoqlarga qarab, bir so'z dedi* ("Nigor va zamon"dan); b) sabab holi vazifasida: *Gapga qiziqib, choyni ham esdan chiqazibman* (S.Ahm.); c) payt holi vazifasida: *Bemor, eshikka bora turib, oynadan komissiya a'zolarining nima to'g'risidadir gaplashayotganliklarini ko'rib qoldi* (I.R.); d) ajratilgan maqsad holi vazifasida: *Barcha mamlakatlarning xotin-qizlari, bolalarining hayotini ko'zlab, insoniyatning kelajagini ko'zlab, birlashmoqdalar, yangi urushga qarshi chiqmoqdalar* ("Xalq so'zi"dan); e) to'siqsizlik holi vazifasida: *Shu kunlarda bir mening emas, balki hammaning nima ekanligini bila turib, yana so'raysiz* (I.R.).

3. Ajratilgan izohlovchilar vositasida: *Maktab davri bu ikki ayol o'rtasida, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida, qandaydir bir mehr uyg'otgan edi* (P.T.). *Ko'ksida oltin medal, ozodlik medali, mustaqillik medali, yuzida yurt g'ururi, porlaydi* ("Xalq so'zi"). *Bir to'da qizlar, g'am bilmagan ko'zlar, yulduzlar, ovoz qo'yib qo'shiq aytadi* (H.O.).

4. Kirishlar vositasida: a) kirish so'z bilan: *Yaxshisi, bunday xayollarni unutish kerak* (G'.G'.). *Meningcha, siz ulug'vor manzaralarga ko'nikib qolgandirsiz* (G'.G'.); b) kirish so'z birikmasi bilan: *Olimlarning fikricha, Termiz shahrining yoshi uch ming yilga borib taqaladi*; c) kirish gap bilan: *Men sizga aytсам, endi yer shudgorlashni tezlik bilan boshlash kerak* (O.).

5. Kiritmalar vositasida: a) kiritma so'z bilan: *Qurbonpo'lat (ukam) birdan ayiqqa tashlandi*; b) kiritma so'z birikmasi bilan: *Anorxon (ammamning qizi) universitetga kirdi* (P.T.); c) kiritma gap bilan: *U raqqosani (siz aytgan qiz emas) teatrga olishdi* (S. Zun.).

6. Undalmalar vositasida: *Padari buzrukvorim – otajon, munis va mehribon onajon, hademay Vatan oldidagi xizmatimni ado etib, yonlaringizga boraman* ("Askar xati"dan). *O'zbekning faxrisan, go'zal Toshkentim* (qo'shiq).

7. Undov so'zlar vositasida. Bunda undovlar gapning odatdagi mazmunini so'zlovchining har xil ruhiy kechinmalari bilan boyitadi: *Eh-he, bu chinorning tarixi turli afsonalarning yaratilishiga asos bo'lgan-mish* (Asq.M.). *Uf, qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim bulbulim-dan ayirdilar* (H.H.). *Ure, samolyot keldi, ha, ha, samolyot keldi* (S.Zun.).

Demak, yuqoridagi vositalar bilan shakllangan sodda gaplar faqat mazmunangina emas, shaklan ham murakkablashgan bo'ladi.

SHARTLI QISQARTMALAR:

A. O.	– Abdulla Oripov	R. F.	– Rahmat Fayziy
Asq.M.	– Asqad Muxtor	S. Ahm.	– Said Ahmad
A. Q.	– Abdulla Qahhor	S. Ayn.	– Sadriddin Ayniy
A. Qod.	– Abdulla Qodiriy	S. Abd.	– Sobir Abdulla
Z. D.	– Zafar Diyor	S. Zun.	– Saida Zunnunova
I. R.	– Ibrohim Rahim	T.T.	– Turob To'la
K. Y.	– Komil Yashin	U.	– Uyg'un
M.	– Muqimiy	“F. T.”	– “Fan va turmush”
M. I.	– Mirzakalon Ismoiliy	Sh. R.	– Sharof Rashidov
N.	– Navoiy	E. V.	– Erkin Vohidov
O.	– Oybek	G'.G'.	– G'ofur G'ulom
O. Y.	– Odil Yoqubov	H. O.	– Hamid Olimjon
P. T.	– Parda Tursun	H.H.	– Hamza Hakimzoda
P. M.	– Po'lat Mo'min	H. G'.	– Hamid G'ulom.

ADABIYOTLAR

1. **Абдурахмонов Ғ.А.** Қўшма гаплар билан содда гапларнинг ўзаро фарқланишига доир баъзи бир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1958, № 3.
2. **Абдурахмонов Ғ.А.** Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
3. **Абдурахмонов Ғ.А. ва б.** Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1979.
4. **Абдурахмонов Х.** Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1972.
5. **Абдурахмонов Х., Шодмонов Э.** Ҳукм ва сўз-гап проблемаси, – Тошкент ДПИнинг “Илмий асарлар”и, 87- том, 1972.
6. **Ашурова Д.** ва бошқ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари, –Т.: Фан, 1962.
7. **Асқарова М., Жамолхонов Х., Қосимова К.** Ўзбек тили, Т.: 1976.
8. **Гаджиева Н.** Синтаксический строй татарского языка. –Казань: 1963.
9. **Икромов Р., Азизова А., Мухамедова Д.** Ўзбек тили. –Т.: 1983.

10. **Исматуллаев Х.** Сўроқ гаплар классификацияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964.
11. **Исматуллаев Х.** Риторик сўроқ гаплар // Тошкент университетининг Илмий асарлари, 268- китоб, Т.: 1965.
12. **Маҳмудов Н., Нурмонов А.** Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
13. **Маҳмудов Н.** ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т.: Фан, 1992.
14. **Мирзаев М., Эшонқулов Ю.** Ҳозирги замон ўзбек тилидан машқлар тўплами. –Т.: Ўқитувчи, 1985.
15. **Миртожиев М.** Ҳозирги ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1992.
16. **Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И.** Ўзбек тили, –Т.: 1970.
17. **Расулов И.** Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар. –Т.: Фан, 1974.
18. **Турсунов У., Мухтаров Ж., Раҳматуллаев Ш.** Ҳозирги ўзбек адабий тили, –Т.: 1975, 1992.
19. **Назаров К., Сайфуллаева Р., Убайдуллаева М.** Ўзбек тили. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
20. **Маматов А.** Ҳозирги ўзбек адабий тилидан мустақил ишлар вариантлари, –Т.: Фан, 1997.
21. **Сайфуллаев А.Р.** Кириш бўлақлар ва кириш гапларнинг структураси ҳақида. –Т.: Фан, 1966.
22. **Шодмонов Э.** Сўз-гапларнинг баъзи хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, № 2, 1969.
23. **Шербак А.М.** Грамматика староузбекского языка, –М.-Л.: 1962. Ўзбек тили грамматикаси, 2-қисм. –Т.: Фан, 1976.
24. **Қудратов Т., Нафасов Т.** Лингвистик таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1981.
25. **Ғуломов А.Ғ.** Ўзбек тилида аниқловчилар. –Т.: Ўздавнашр, 1940.
26. **Ғуломов А.Ғ.** Ҳозирги замон ўзбек тилидан конспектив курс. Содда гап. –Т.: 1984.
27. **Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А.** Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1965, 1987.
28. **Ҳожиёв А.П.** Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: МЭ, 2002.
29. **Ҳозирги ўзбек адабий тили, 2-китоб, Синтаксис.** –Т.: Фан, 1966.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
Sintaksisga kirish	7
So'z birikmasi va uning tasnifi	11
Gap va hukm	29
Gap tasnifi. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari	38
Gapning mazmuniga ko'ra turlari	41
Gap bo'laklari, ularning tasnifi va ajratish asoslari	54
Hol va uning vazifaviy turlari	89
Gapning uyushiq bo'laklari	103
Uyushiq bo'laklarni biriktiruvchi vositalar	110
Ajratilgan bo'laklar	116
Bir tarkibli gaplar	118
To'liqsiz gap	130
Gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan birliklar	133
Undalma	136
Murakkablashgan sodda gap	138
Shartli qisqartmalar	140
Adabiyotlar	140
Mundarija	142

Omonturdiyev J., Omonturdiyev A.

Hozirgi o'zbek adabiy tili

(to'ldirilgan uchinchi nashri)

O'quv qo'llanma Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasiva universitet o'quv, ilmiy-metodik kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: M.Asqarova

Texnik muharrir: R.Bozorova

Musahhih: N.Murodov

Terishga berildi: 11.11.2011. Bosishga ruxsat etildi: 11.01.2012.

Bichimi 60x42. 10,0 bosma toboq. Adadi 500 dona.

Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida kompyuterida
terildi va chop etildi. F.Xo'jayev ko'chasi, 43.

qaydlar uchun

144,1,142,3,140,5,138,7,136,9,134,11,132,13,130,15,128,17,126,19,124,21,122,23,120,25,118,27,116,29,114,31,112,33,
110,35,108,37,106,39,104,41,102,43,100,45,98,47,96,49,94,51,92,53,90,55,88,57,86,59,84,61,82,63,80,65,78,67,76,69,
74,71

2,143,4,141,6,139,8,137,10,135,12,133,14,131,16,129,18,127,20,125,22,123,24,121,26,119,28, 117,30,115,32,113,34,111,
36,109,38,107,40,105,42,103,44,101,46,99,48,97,50,95,52,93,54,91,56,89,58,87,60,85,62,83,64,81,66,79,68,77,70,75,72,73